

BOLALAR PSIXOLOGIIYASI




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

1-TOSHKENT PEDAGOGIKA KOLLEJI



BOLALAR PSIXOLOGIIYASI

**fanidan
o'quv qo'llanma**



**«NOSHIR»
Toshkent-2013**

UO‘K: 159.922.7(075)

KBK 88.8

*1-Toshkent Pedagogika kolleji ilmiy pedagogik Kengash yig‘ilishining
2013-yil 28-fevral, 8-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Tuzuvchilar:

O. Sodiqova, D.Toshboyeva –“Pedagogika-psixologiya
va BTM” kafedrası o‘qituvchilari.

Taqrizchilar:

Y. Rasulova, S.Madaliyeva – 1-Toshkent pedagogika
kolleji o‘qituvchilari.

**B 79 Bolalar psixologiyasi: fanidan o‘quv qo‘llanma / tuzuvchi-
lar: O. Sodiqova, D. Toshboyeva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy
va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi 1-Toshkent pedagogika kolleji.
Toshkent: Noshir, 2013. – 348 b.
ISBN 978-9943-4112-2-7**

Ushbu o‘quv qo‘llanma kasb-hunar kollejlarida pedagogika yo‘nalishidagi mutaxassislar tayyorlash uchun 2012-yildagi dastur asosida tuzildi. Qo‘llanma umumiy psixologiya va yosh davrlari psixologiyasi bo‘limlaridan iborat bo‘lib, har bir bo‘lim bo‘yicha ma‘ruzalar jadvallar asosida to‘liq ochib berilgan. Bundan tashqari o‘quvchilar bilimini tekshirish uchun test variantlari, o‘quvchilarga mustaqil ishlar va bolaning psixik xususiyatlarini aniqlovchi psixologik testlar ham berilgan.

UO‘K: 159.922.7(075)

KBK 88.8

ISBN 978-9943-4112-2-7

© «NOSHIR» nashriyoti, 2013.

*Biz farzandlarimizning – ruhiy dunyosi uchun, ularning
ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom
bo'lishi uchun doim qayg'urishimiz lozim.*

I.Karimov

O'zbekistonni butun jahon tan olayotgan bir paytda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash muhim omillardan biri hisoblanadi.

“Kelajakda qanday yoshlar kerak?”, “Ularni qanday tarbiyalash lozim?” degan savollar hozirgi kunda har bir jonkuyar pedagogni tashvishga solib kelmoqda. Demak, ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati eng avvalo pedagog shaxsi va uning mahoratiga bog'liq. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifani jamiyatda o'qituvchi shaxsi va tarbiyachilik kasbining ijtimoiy mohiyatini keskin oshirib, pedagogika oldiga kasbiy pedagogik ishlab chiqarishni dolzarb muammo qilib qo'ydi.

Hayotning hamma sohalari juda tez yuksalayotgan, fan va texnika misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etayotgan hozirgi zamonda psixologiya fanining taraqqiyot yo'llari ila kelgusidagi rejalari haqidagi masalalar kelib chiqishi tabiiy. Psixologiya o'quv fan sifatida o'qitish shakli va usullarining o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Psixologiya fanining oldida turgan asosiy maqsad o'quvchilarni o'rta maxsus ta'limda hozirgi zamon psixologlarining ilmiy yondashishlari bilan, shuningdek turli yoshdagi insonlarda o'qish jarayonida shaxs fazilatlarini shakllantirish qonuniyatlari bilan, kasbiy malakalarni egallash xususiyatlari bilan tanishtirishdir. O'quv fanini olib borishda vaqt cheklangan bo'lib, bunda o'quvchilar ortiqcha ma'lumotlar bilan band etilmay, mustahkam ilmiy asosdagi bilimlar va muammolar bilan tanishtiriladi. O'quv fanida bilimlar tuzilishi va ularni bayon etish shakllari boshqacha bo'lib, bu haqda Ushunskiy quyidagi fikrni ilgari suradi: “Fanni ilmiy va pedagogik bayon etish – bu ikkita turli masalalar. Butun dunyoda pedagoglar ilmiy tizimlarni, pedagogika faniga qayta ishlash ustida faoliyat olib bormoqdalar”. O'qish faoliyati bu – o'quvchining nazariy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan va fikrlashning o'sishini ta'minlaydigan faoliyatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi.

Shunday ekan ushbu o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlarda pedagogika yo'nalishidagi mutaxassislar tayyorlash uchun tavsiya etildi. O'quv qo'llanma umumiy psixologiya va yosh davrlari psixologiyasi bo'limlaridan iborat bo'lib, har bir bo'lim bo'yicha ma'ruzalar, pedagogik texnologiyalar jadvallar asosida, amaliy va mustaqil topshiriqlar to'liq ochib berilgan. Bundan tashqari o'quvchilar bilimini tekshirish uchun testlar variantlari ham berilgan.

I bob. PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH

PSIXOLOGIYA FANI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1. Har bir odam tevarak-atrofdagi narsalarni *sezish* va *idrok* qilish qobiliyatiga ega. Odam osmonning moviyiligini, daraxt barglarini yashilligini ko'radi, ko'cha tomondan quloqqa chalinuvchi har xil tovushlarni eshitadi, ba'zi narsalarning sovuqligini, ba'zilarini issiqligini *sezadi*. Odam o'ylaydi va gapiradi, ya'ni *tafakkur* va *nutqqa* egadir. Biz ilgari bo'lib o'tgan narsa va hodisalarni xotira va xayol tufayli esda saqlaymiz va kelajak haqida orzu qilamiz. *Bizning sezgilarimiz, idrokimiz, xotiramiz, tafakkurimiz, nutqimiz, xayolimiz psixik jarayonlar deb ataladi.*

Ko'pgina voqealar odamni to'liqlantiradi, quvontiradi yoki uning g'azabini qo'zg'atadi, ya'ni odamda ma'lum his-tuyg'ular uyg'otadi. Odam nimagadir intiladi, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida sabot-matonat ko'rsatadi, irodasini ishga soladi. *Psixik holat deb, psixik jarayonlar murakkab va barqaror ko'rinishga ega bo'lishi, ularning aktivligi kuchaygan yoki susygan ko'rinishga ega bo'lishiga aytiladi.* Har bir odam boshqalardan o'zining ayrim shaxsiy, barqaror xususiyatlari, ma'lum darajada psixik sifatleri bilan ajralib turadi. Ba'zi odamlarda qiziqishlar kuchli bo'lsa, boshqa odam ulkan qobiliyatlari bilan undan farq qiladi. Ba'zi odam qiziqqonroq bo'ladi, bunday odam jo'shqin temperamentli odam deyiladi, boshqa odam haqida og'ir, vazmin, yaxshi xarakterli odam deb o'ylaymiz. *Demak, bir insondan ikkinchi bir insonni ajratib turuvchi, qaytarilmas fazilatlar birikmasi psixik xususiyatlar deb ataladi. Psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ularning barchasi psixika deb hisoblanadi. Odamning psixikasini, odam psixik faoliyatining qonuniyatlarini, uning kelib chiqish mexanizmlarini o'rganuvchi fan psixologiya deb ataladi.*

Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo'ladi. Psixik hayot hodisalariga psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlar kiradi.

Sezgi – muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko'rish, eshitish, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta'sir etib turgan narsalardagi ayrim xossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, shirin, achchiq, og'ir, yengilni sezamiz.

Idrok – narsa yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etish jarayonida kishi ongida yaxlit aks ettirilishi. Idrok etilayotgan obyektни tekshirish va uning o'ziga aynan o'xshaydigan nusxasini ongimizda yaratishga yo'naltirilgan o'ziga xos harakatdir.

Xotira - individning o'z turmush tajribasini esda olib qolish, esda saqlash va keyinchalik uni esga tushirishga aytiladi. Narsa va hodisalar hamda ulardagi xossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo'lgan obrazlari izsiz yo'qolib ketmaydi ular miyamizda saqlanib va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. **Xotira uchta asosiy mezonga muvofiq tarzda bo'linadi:**

1) faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab **xotira** – *harakat, emotsional, obrazli va so'z mantiqli turlarga bo'linadi;*

2) faoliyatning maqsadlari xususiyatiga ko'ra *ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ixtiyoriydan so'nggi xotira turlarga bo'linadi.*

Tafakkur – *jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga yo'naltirilgan, aloqador psixik jarayonlar, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir.* Tafakkur jarayonlarida fikrlar-muhokama va tushunchalar vujudga keladi. Odam fikrlash faoliyati tufayli voqelikni idrok va tasavvurlariga qaraganda aniqroq, to'liqroq va chuqurroq bilib oladi.

Xayol – *narsa va hodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo'ladigan obrazlardan tashqari, o'zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar ham miyamizda hosil bo'ladi.* Masalan, *ibtidoiy odam yoki marsdagi hayot haqidagi tasavvurlarimiz.*

Nutq – *tafakkur va nutq chambarchas bog'liq. Fikrlarimiz til-nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Insonlar nutq vositasida aloqa qilar ekanlar, fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar, hissiyotlari va intilishlari ham nutqda ifodalandi.*

Diqqat – yuqorida ko'rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqadi. **Diqqat** – *ongimizni o'zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish va to'plash xususiyatiga aytiladi.*

PSIXIKANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI VA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI		
PSIXIK JARAYONLAR	PSIXOLOGIK HOLATLAR	SHAXSNING XUSUSIYATLARI
BILISH JARAYONI	HISSIY-IRODAVIY	INDIVIDUALLIK
SEZGI IDROK XOTIRA TAFAKKUR XAYOL NUTQ	EMOTSIONAL E'TIQODLILIK BARDAMLIK QAT'IYLIK DADILLIK AFFEKT STRESS EHTIROS	QIZIQISH EHTIYOJ YO'NALISH XARAKTER QOBILIYAT TEMPERAMENT DIQQAT

2. Psixologiya fani juda qadimiy fan bo'lib bundan 2–2,5 ming yillar avval vujudga kelgan. Psixologiya tarixini o'rganish III davrga ajratiladi.

I davr. Ibtidoiy davrdan to XVIII asrgacha bo'lgan davr. Bunda odamlar olamni har xil tushunganlar. Ko'pgina hodisalarni hali tushuntirishga ojiz bo'lganlar, ular hodisalar olamga ko'p tarqalgan g'ayri tabiiy, moddiy bo'lmagan, ko'zga ko'rinmas kuchlar tufayli yuz beradi, deb hisoblaydilar. Inson sezgilari, his-tuyg'ulari, fikrlari ko'zga ko'rinmas mavjudot-jonning ishi deb hisoblaydilar. O'sha davrdagi mutafakkirlar jon bilan tana ajraladi deb, ularni alohida o'rganishga harakat qilganlar. Keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari jonning moddiylikdan xoli tabiati haqida g'oyalar paydo bo'la borgan.

II davr. XVIII asr davri psixologiyasi bo'lib, bu davrda ruh bilan tana ajralmas bir butun degan qarashlar paydo bo'lgan. Yunon olimi Aristotel (384–322) o'zining “Jon haqida” degan traktatida ilk marotaba jon bilan tana bir butun degan ta'limotga asos soladi.

Markaziy Osiyoda psixologik ta'limotlarning rivojlanishi VII–IX asrlarga to'g'ri keldi. Abu Nasr Farobiy yaqin va o'rta sharqda ilg'or ijtimoiy-falsafiy oqim asoschilaridan biri bo'lib, “Sharq Aristoteli” degan unvonga sazovor bo'ldi. Uning inson tafakkuri, bilish bosqichlari (hissiy-xayoliy), sezgi turlari, inson (ruh) jonining bir tandan, boshqasiga o'tib, ko'chib yurishi mumkinligini rad etishi

(izchil emasligi), mantiq tizimi haqidagi ta'limoti, o'rta asrlar falsafasining katta yutug'i edi. Al Xorazmiy (997-yil vafot etgan) ning tub, odam anatomiyasi va fiziologiyasi sohasidagi bilimi hissiy sezgining moddiy asoslarini qidirishga yordam beradi. "Shaxsiy ruh – u miyada bo'lib, undan badan a'zolariga asab orqali tarqaladi" deydi, aqlni odam nafslarining kuchlaridan biri deb hisoblaydi. Abu Ali ibn Sinoning (980–1037) psixologik falsafiy qarashlari "Tib qonunlari" asarida inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki turlarini, miyaning nerv sistemasining markazi ekanligini, inson tana va jondan tashkil topishini, miya insonni boshqarib turuvchi markaz ekanligi kabi fikrlar noyob oltin xazina hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy(973–1043) fikricha inson hayvondan aql bilan farq qiladi, deydi va bu tushunchani xudoga murojat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan deydi. U jamiyat yuzaga kelishida kishilarning moddiy ehtiyojlari rolini ko'ra oladi, aql, mehnat, erkin tanlash inson hayoti va ijtimoiy holatini belgilaydi, inson o'z ehtiyojlarini mehnat tufayli qondiradi, degan. Bu davr uchun eng ilg'or fikrlarni aytadi. Eramizdan avvalgi VII-I asrlar oralig'ida yashab o'tgan mutafakkirlar Fales, Anaksimenes, Demokrit, Epikur, Plotin, Lukretsiylar ta'limotidan keyin ruh tanaga jon bag'ishlovchi moddiy asos, hayotiy jarayonni boshqaruvchi, idora etuvchi a'zo sifatida qaralgan.

III davr. XVIII asrdan to hozirgi zamon ilmiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ingliz olimi Jon Lokk ong nazariyasiga asos soladi. U hissiy tajriba asosida ongni rivojlanish ta'limotini yaratadi.

3.M. Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi g'oyasini ilgari surdi. Bu muhim nazariy qoidalar I. P. Pavlov (1849–1936) tomonidan tajriba yo'li bilan tasdiqlandi va aniqlashtirildi. U hayvonlarning, shuningdek, odamning tashqi muhit bilan xarakati miya tamonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etgan edi. I. P. Pavlov ushbu qonuniyatlarga nisbatan jami qarashlari odatda ikki xil signal sistemasi haqidagi ta'limot deb ataladi. Narsaning timsoli (ko'rinishi, eshitilishi, hid tarqalishi va shu kabilar) hayvonlar uchun biror-bir shartsiz qo'zg'atuvchi signali bo'lib xizmat qiladiki, bu ular xatti-harakati shartli refleks tarzida o'zgarishiga olib keladi. Hayvonlar o'z xatti-harakatlarida I. P. Pavlov birinchi signal sistemasining signallari ("birinchi signallar") deb atagan signallarga

amal qiladi. Hayvonlardan farqli o'laroq, odamda birinchi signallar sistemasi bilan bir qatorda uning alohida boyligi va afzalligi bo'lgan ikkinchi signallar sistemasi ham mavjuddir. Ikkinchi signallar sistemasining signallari talaffuz etilgan, eshitilgan, o'qilgan so'zlar ("ikkinchi signallar") dan iboratdir. Birinchi signallar sistemasining signallari, timsoliy signallar, so'z bilan xabar qilinishi va almashtirilishi mumkin. So'z ularning o'rnini bosadi, umumlashtiradi va birinchi signallar hosil qiladigan barcha harakatlarni hosil qilishi mumkin. Shunday qilib, so'z "so'z signali"dir.

XX asr oxiriga kelib rus olimlaridan Gamezo "*Umumiy psixologiya asoslari*", V. A. Krutetskiy "*O'qituvchi psixologiyasi*", A. V. Petrovskiy "*Umumiy psixologiya*", A. S. Vigotskiy "*Tafakkur va nutq*", F. Gonobolin "*Psixologiya*" va boshqalar psixologiya faniga o'z rivojini qo'shdilar.

O'zbek psixolog olimlaridan E. G'oziyev "*Yosh davrlar psixologiyasi*", V. E. Karimova. "*Shaxs ijtimoiy psixologiyasi*", Davletshin "*Umumiy psixologiya*" va boshqalar. Bundan tashqari oila psixologiyasi va uning muammolarini bartaraf qilish maqsadida bir guruh olimlar qator ilmiy tekshirishlar olib bordilar, bulardan ba'zilarni keltirib o'taman: D. U. Abdullayeva, N. Z. Ismoilova, K. Yo'ldoshev, N. A. Soginov, G'. Shoumarov va boshqalar.

Aytilganlarning hammasi psixikani *obyektiv olamning subyektiv tarzi, voqelikning miyadagi aksi* deb hisoblash imkonini beradi.

Demak, psixologiya fani insoniyat tomonidan kashf qilingan fanlarning ichida eng murakkab, eng ahamiyatli sohalardan biridir. Psixologiya fanining boshqa fan sohalari bilan farqli tomoni shundan iboratki, uning amaliy, tatbiqiy jihatlari mavjud bo'lib, ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida bevosita qatnashadi, muayyan darajada ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, bu borada o'zini-o'zi boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi, shuning uchun u tabiatni o'rganish ilmidan tafovutlanib, o'zining psixik jarayonlari, funksiyalari, holatlari, hissiyotlari, irodasi, xarakteri, temperamenti kabilarni boshqarishda o'z aksini topadi. Inson o'zini anglay borib, o'z insoniy xislati, xususiyati, sifati, xulqini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar: psixika, jarayon, holat, xususiyat, aks ettirish, voqelik, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat, obyekt, subyekt, idealizm, materializm, ta'limotchilar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Psixologiya fani nimani o'rgatadi?
2. Psixologik bilimlarning inson hayotidagi ahamiyati qanday?
3. Qadimgi davrda psixologiya va uni rivojlanishi haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
4. Hozirgi zamon psixologiyasi va uning taraqqiyoti qanday, turli kashfiyotlarni amalga oshirayotgan olimlar haqidagi tasavvuringiz.

Mavzu yuzasidan mustaqil topshiriqlar:

Faylasuflarning psixika haqidagi ta'limotlarini o'rganib kelish.

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANINING VAZIFALARI, TARMOQLARI VA BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limning uzluksizligi, uning mutlaqo yangi mazmuni kasb-hunar kollej nufuzini oshirishga, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rniga yuksak baho berilgan. Turli o'zgarishlarga psixik jihatdan tayyorgarlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va ro'y berayotgan jarayonni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muommosi inson psixikasini bilishni ilgari surdi. *Psixik hodisalar bilan har bir inson tanish bo'lishi, yangi davr o'zgarishlariga oqilona javob bera olishini talab qiladi. Psixologiyaning fan sifatidagi vazifasi psixik hayotning asosiy qonunlarini o'rganishdan iboratdir.*

Psixologiyani o'rganish odamning o'zini va boshqalarni yaxshiroq tushunishga, ularni psixik holatini hisobga olgan holda yondashishga yordam beradi. Kishi o'zining kuchli va zaif tomonlarini ko'ra oladi, o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi, nuqsonlarni yo'qotib borishga o'rganadi.

Psixologiya fani jamiyatdagi barcha sohaga kirib borgan bo'lib, hozirgi kunda 300 dan ortiq tarmog'i mavjud.

Umumiy psixologiya – bu umumiy psixologik qonuniyatlarni mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik prinsiplar, ilmiy tadqiqot metodlari, psixikaning filo va ontogenetik o'zgarishlari, ilmiy tushuncha va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiq qiladigan soha.

Eksperimental psixologiya – eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasini o‘tkazish asosiy rol o‘ynagan.

Mehnat psixologiyasi – insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladi. Mehnat psixologiyasining obykti ishlab chiqarish va mehnatda shaxsning faoliyati, uni ishdan bo‘sh vaqti, dam olishining ishlab chiqarishga ta‘siri va boshqalardir.

Aviatsiya psixologiyasi – aviasanoat va aviaxizmatchilarning mehnat faoliyatida kechuvchi psixologik jarayonlarni o‘rganadi. Aviatsiya psixologiyasining predmeti murakkab aviatsiya tizimini boshqarishdagi inson psixikasining rolini tekshirishdir. Aviatsiya psixologiyasi soha sifatida uchuvchi qurilmalar yaratilishi vaqtidan, ya‘ni XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridan vujudga kelgan.

Muhandislik psixologiyasi – inson va mashina o‘rtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta‘sirini va insonning mashina bilan munosabati jarayonining psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasidir.

Kosmik psixologiya – vaznsizlik va bo‘shliqda aniq mo‘ljal ololmaslik sharoitida, organizmga juda ko‘p ortiqcha taassurotlar ta‘sir o‘tkazgan paytda ro‘y beradigan nerv-psixologik zo‘riqish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida holatlar tug‘ilganda, kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasidir.

Ekstremal psixologiya – bu insonning muhit o‘zgargan shart-sharoitlarda psixik faoliyatining kechishi qonuniyatlarini o‘rganadi. Ekstremal sharoitda insonga bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, monotoniya, makon o‘zgarishi, xavf omili, vaqt, shaxsiy ahamiyatga molik axborotning o‘zgarishi, yolg‘izlik, guruhiiy izolatsiya va hayotiy xavf.

Pedagogik psixologiya – ta‘lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasidir. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy, ijobiy sifatarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi– o‘qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta‘sirini, shart-sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda kuchaytirishdir.

a) ta‘lim psixologiyasi;

b) tarbiya psixologiyasi;

v) o'qituvchi psixologiyasi;

g) oliy ta'lim va maktab ta'limi psixologiyasi kabilar.

Tibbiyot psixologiyasi – kasallarning davolanishi, gigiyena, profilaktika, diagnostika jabhalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohaslaridan iborat. Tibbiyot psixologiyasi o'z ichiga klinik psixologiya, patopsixologiya, neyropsixologiya, somato-psixologiya kabi bo'limlarni qamrab oladi. Tibbiyot psixologiyasi tarkibiga psixoterapiya sohasini ham kiritadilar.

Yuridik psixologiya – huquq doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi sohadir. Chunonchi, kriminal psixologiya, sud psixologiyasi, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash psixologiyasi, ya'ni penitensiar psixologiya yoki axloq tuzatish mehnat psixologiyasi va boshqalar.

Harbiy psixologiya – harbiy faoliyatning inson psixikasiga ta'siri, harbiy faoliyatning xususiyatlarini, psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi psixologiya sohasidir.

Sport psixologiyasi – sport musobaqalari va mashq qilish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhviy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Savdo psixologiyasi – savdo-tijorat reklamalari, modalar psixologiyasi, sotuvchi-xaridor munosabati, kishilarga ta'sir ko'rsatish, ularda iliq his-tuyg'u, ishonch uyg'onish mexanizmlari, muomala jarayonida ularni mantiqan ishontirish, qiziqtirish, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini tushuntira bilish, nizoli holatlarning oldini olish, xizmatda muloqot madaniyati va uning treninglaridan unumli foydalanish, xaridorlarning psixologik xususiyatlarini anglagan holda munosabatda bo'lish qonuniyatlarini tadqiq etish mazkur soha tekshiruv predmetiga kiradi.


Ijod psixologiyasi – badiiy qadriyatlarni o'zlashtirishda, ularning yangi ko'rinishlarini ijod qilishda va shu qadriyatlarni inson tomonidan idrok qilishda kechadigan psixologik holatlar hamda bu holatlarning shaxs hayoti, faoliyatiga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasidir.

Yosh psixologiyasi – shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha bo'lgan davri, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasidir.

Maxsus psixologiya – psixik normal rivojlanmagan, tug‘ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar va yetishmovchiliklar ta‘sirida bo‘lgan insonlarning psixologiyasini tadqiq qiladi. Uning bir necha bo‘limlari mavjud: *patopsixologiya* – kishi rivojlanishi jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turlicha kechishi, psixikaning tamoman izdan chiqishi hollarini o‘rganadi; *oligofreno-psixologiya* – psixik rivojlanishning miyadagi tug‘ma asoratlari bilan bog‘liq patologiyasi to‘g‘risida tadqiqot ishlarini olib boradi; *surdopsixologiya* – quloq eshitishning butunlay kar bo‘lib qolgunga qadar jiddiy kamchiliklari, nuqsonlari bilan shug‘ullanuvchi, bolani voyaga yetkazishning omilkor yo‘l-yo‘riqlarini topuvchi, korreksion – tuzatish ishlarini olib boruvchi sohadir; *tiflopsixologiya* – xira ko‘ruvchi va mutlaqo ko‘zi ojiz odamlarning psixologik rivojlanishini tadqiq qiluvchi sohadir.

Qiyosiy psixologiya – hayvonlar psixikasi odamlarniki bilan qiyoslanadi, ular xulq-atvoridagi o‘xshashlik va tafovutlarning sabablari tekshiriladi, harakatlantiruvchi kuchlar, ta‘sir o‘tkazuvchi vositalar, omillar aniqlanadi.

Differensial psixologiya – shaxslar o‘rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a‘zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasidir.



Ijtimoiy (sotsial) psixologiya – odamlarning ijtimoiy guruhlariga birlashishini, bu guruhni tavsifni, shaxsning guruhni faoliyati va

xulq-atvorini, ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustanovka kabilarni tadqiq qiladi.

Din psixologiyasi – psixologik va ijtimoiy psixologik omillar-ning diniy ong bilan shartlanganligini, dinning insonga ta'sirini o'rganuvchi sohadir.

Siyosiy psixologiya – bu jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta'sirchanlik va ta'sir o'tkazish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya sohasi hisoblanadi.

Oila psixologiyasi – oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oila har bir a'zosining o'rnini belgilashni, er-xotin munosabatini, shaxslararo munosabatni, yosh xususiyatlarini, jinsiy tafovutlarga muvofiq muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi.

Boshqaruv psixologiyasi – jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakterini, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Fan psixologiyasi – fanga oid boshqa sohalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ishlab chiqarishda, ilmiy markazlarda ijtimoiy va individual xususiyatlarga ega bo'lgan psixologik qonuniyatlarni tadqiq qiladi, insonning ijtimoiy qobiliyatlari, aqliy imkoniyatlari hamda ulardan unumli foydalanish omillarini kuzatib, tekshirib boradi.

Kompyuterlashtirish psixologiyasi – kompyuterning ishlab chiqarishdagi o'rni, psixik aks ettirishga ta'siri, shaxs tuzilishining o'zgarishini o'rganuvchi sohadir.

Parapsixologiya – hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqari-dagi, tushuntirish qiyin bo'lgan psixik hodisalarni o'rganadi.

Ekstrosensorka – o'ta sezuvchanlik, telepatiya – fikrni masofaga uzatish, kelajak haqida bashorat qilish va hokazo. Xirromantiya – inson kelajagi va uning taqdiri haqida oldindan bashorat qilishdan iborat noilmiy soha. Spiritizm – o'lgan odamlar arvohlari, ruhlari bilan aloqa o'rnatish mumkin.

Psixologiya fani falsafa, pedagogika, anatomiya-fiziologiya, tarix, ijtimoiy, texnikaviy fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Tayanch so'zlar:

shaxs, tarmoqlar, fani sohasi, amaliyotchi psixolog, pedagogik psixologiya, ekstremal, ijtimoiy, muhandislik, qiyosiy, parapsixologiya, ilmiy ijod, harbiy.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Psixologiyani qanday tarmoqlarini bilasiz?
2. Psixologiyaning rivojlanayotgan fanlar tizimidagi o'rni qanday?

PSIXOLOGIYA FANINING METODLARI

Psixologiya tekshiradigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalardir. Bu hodisalar qanday metodlar bilan, ya'ni qaysi yo'llar bilan, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug'iladi. Ularni shunchaki, yuzaki kuzatib yoki oddiy mulohaza qilish bilan o'rganib bo'lmaydi.

Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni bilishni kuzatishdan, tajribadan boshlanadi. Shu sababli psixik hayot voqealarini aniqlash, tahlil etish va tasvir etishdan boshlanadi. So'ngra, aniqlangan va tahlil qilingan hodisalar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarilishi lozim.

Shuning uchun murakkab psixik jarayonlar va shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularning yuzaga kelishi, namoyon bo'lishi asosida yotgan qonuniyatlarni ochish uchun maxsus psixologik metodlardan foydalanish talab qilinadi.

Bu yerda shunday savol tug'iladi. Metodning o'zi nima? Metod lotincha *methodas* so'zidan olingan bo'lib, *masalalarni hal qilishga qaratilgan voqelikni amaliy yoki nazariy bilish usullari hamda amallarning majmuyidir.*

Shuningdek metodlar quyidagi prinsiplardan iborat:

a) tabiat va jamiyatdagi barcha mavjud narsa va hodisalar o'zaro bog'liqlikda hamda o'zaro munosabatda yashaydi;

b) tabiat va jamiyatda barcha mavjud narsa va hodisalar har doim harakatda, harakatdan to'xtab, qotib qolgan hech narsa va hech bir hodisa bo'lmaydi hamda bo'lishi mumkin emas;

c) tabiat va jamiyatdagi barcha mavjud narsa va hodisalar o'zgarib, kamayib yoki ko'payib boradi;

d) tabiat va jamiyatdagi mavjud narsa va hodisalarning taraqqiyoti asosida ichki qarama-qarshiliklar kurashi yotadi, ya'ni har qanday taraqqiyot ichki ziddiyatlarining hal qilishi jarayonida yuzaga keladi.

Umumiy psixologiya o'z predmeti bo'lmish – psixik jarayonlar va shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganishda asosan quyidagi ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanadi: *kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat metodi, faoliyat mahsulotlarini o'rganish metodi, biografiya metodi, anketa metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, modellashtirish metodi.*

Kuzatish metodi – psixik hodisalar hayotda, ya'ni tabiiy sharoitda, odamning turli-tuman faoliyatida qanday ko'rinishda bo'lsa, shu ko'rinishda kuzatish metodi yordami bilan o'rganiladi.

Tashqi kuzatish. Psixik hayot hodisalarini o'rganishda avvalo tashqi kuzatish metodi tatbiq etiladi. Kuzatishning asosiy xususiyati shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayotning sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o'zimiz bevosita idrok eta oladigan hodisalari aniqlanadi va tasvirlanadi. Shaxsning psixik hayotida: mumika, imoishora, nutq, turli harakatlari va umuman kishining butun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish bimalol mumkin.

Psixik jarayonlar bilan bevosita bog'langan ba'zi bir fiziologik hodisalar yuzning o'zgarishi, nafas olish, qon aylanishi va shu kabilarning o'zgarishi ham tashqaridan kuzatilsa bo'ladi. Kuzatish ma'lumotlarini so'zlar bilan tasvir etish mumkin, ya'na ko'rsatma vositalari, suratga olish, kinoga olish, tovushni yozib olish va shu kabi yo'llar ham qayd etiladi. Bu metodning afzalliklari sinaluvchi o'zini kuzatilayotganini bilmaydi va o'zini yashirmaydi. Kamchiliklari esa kerakli bo'lgan xususiyat qachon yuzaga kelishini biz kutib yurishimiz kerak.

O'z-o'zini kuzatish. Tadqiqotchi o'z-o'zini kuzatish bilan o'zidagi psixik hodisalarni tekshiradi. Bu holda tadqiqotchi psixik jarayonlar va holatlarning ichki tomoni odamning subyektiv kechinmalari qanday ro'y bersa, ularni shu holda tasvir etish va aniqlab olishga intiladi. Bu metod madaniy taraqqiyot jihatidan yuksak darajada turgan, o'z ixtisosiga ko'ra o'zini-o'zi kuzatadigan va o'zini-o'zi muhokama qila oladigan kishilar psixikasi haqida bilimlar beradi. Ammo madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar va bolalar esa fan nuqtayi nazaridan o'z-o'zini kuzata olmasligi tabiiy. Nihoyat, o'z-o'zini kuzatish metodining yana bir katta kamchiligi shuki, bu yo'l

bilan olingan ma'lumotlar psixik hayot hodisalarini turli yo'sinda bir tomonlama, subyektiv talqin qilishga olib kelishi mumkin.

Eksperiment metodi:

a) laboratoriya eksperimenti;

b) tabiiy eksperiment.


Laboratoya eksperimenti – tekshiruvchi tekshiradigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa o'sha vaqtda avaylab vujudga keltiradi. Laboratoriya eksperimentining qulaylik tomoni shundaki, o'rganilishi lozim bo'lgan biron psixik jarayonni (masalan, sezgi, idrok, diqqat, xotira, nutq kabi) qanday sharoitda va qachon yuz berishini kutib o'tirmay, tekshiruvchi kishi sinalayotgan odamda shu psixik jarayonlarni maxsus tarzda yuzaga keltiradi. Masalan, diqqatning ko'lamini o'lchash uchun taxitaskopdan foydalaniladi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalardan ajratib olinishi mumkin. (Tekshiriladigan psixik hodisalar eksperiment davomida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir sur'atga bog'lanishi, kuch, tezlik, hajm va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'rilishi mumkin. Tekshiriladigan hodisalar laboratoriya asboblari bilan amalga oshadi. Bularga xronoskop, mnemometrlar, elektroenselograflar, taxitaskop, yolg'on dedektor, mayatnik va boshqalar kiradi).

Tabiiy eksperiment metodi odamlarning odatdagi ish joylarida va turli yoshdagi bolalarning o'qish joylarida ularning psixik jarayonlari hamda shaxsiy psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lishini o'rganish imkonini beradi. Tabiiy eksperiment metodi sirtidan kuzatish metodidan farq qiladi. Sirtidan kuzatish metodida biror-bir psixik jarayonni kuzatayotgan kishi o'sha jarayon qanday yuz bersa, shu holicha o'rganaveradi, lekin bu jarayonni namoyon bo'lishiga aralashmaydi. Tabiiy eksperiment metodidan foydalanilganda esa tekshiriluvchi odam o'rganilayotga biror-bir psixik jarayonni o'zi vujudga keltiradi, lekin buni tekshirilayotgan odam mutlaqo sezmaydi.

Suhbat metodi – har doim ma'lum maqsad va reja asosida amalga oshiriladi.

Buning uchun puxta tayyorgarlik ko'rish kerak, chunki suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi:

1) o'tkazilayotgan suhbatning mavzusi va mazmuni suhbatda qatnashuvchi odamning taraqqiyot darajasiga hamda yosh xususiyatiga mos bo'lishi;



2) suhbat paytida berilayotgan savollar suhbatdan oldin yaxshilab o'ylab olingan bo'lishi kerak;

3) suhbat paytida beriladigan savollarga "Ha", "Yo'q" kabi juda qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish;

4) suhbat paytida suhbatdosh zerikib yoki toliqib qolmasligi uchun suhbat haddan tashqari cho'zilib ketmasligini nazarda tutmoq lozim.

Faoliyat mahsulotlarini o'rganish metodi. Odam har doim ma'lum bir faoliyat natijasida bo'lib turadi. Odam o'z faoliyatlari natijasida turli narsalarni, mahsulotlarni yuzaga keltiradi. Ana shu narsalarda, mahsulotlarda odamlarning ayrim psixik jarayonlari va psixologik sifatlari o'z aksini topadi. Shuning uchun har bir odamning faoliyat mahsuloti shu odamning ayrim psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini ko'rsatib beradi. Har bir shaxs faoliyatining samaralarini tekshirganimizda biz, shu samaralarni barpo etgan kishilar qanday qilib fikr qilganliklarini, his qilganliklarini, nimaga intilganliklarini, ularning irodasi naqadar kuchli bo'lganliklarini, ularda qanday mahorat va malakalar bo'lganligini bilib olamiz. Masalan, biror uy-joyga diqqat bilan qarar ekanmiz, shu uyni qurgan kishilarning konstruksiya-texnika qobiliyatlari qanday bo'lgani, ularning estetik didi, ma'naviy sifatlari, halolligi, mas'uliyat sezishi va shunga o'xshashlar haqida fikr yurita olamiz. Ayrim kishilarning, ma'lum bir davr kishilarining, muayyan yoshdagi kishilarning psixikasini ularning faoliyat samaralariga qarab bilsa bo'ladi.

Bu metod turli yoshdagi bolalar psixikasining xususiyatlarini tekshirishda muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Masalan, bolalarning o'zi chizgan rasmlaridan, yasagan qo'g'irchoqlaridan ularning tafakkur doirasi naqadar kengligini, tasavvurlarining xarakterini va hajmini, tafakkur xususiyatlarini, qiziqish-havaslarini va shunga o'xshashlarini bilish mumkin.

O'quvchilarning bajargan ishlarini tahlil qilish pedagogning darsdagi materialni o'quvchilarning o'zlashtirish va zarur malaka hosil qilish xususiyatlarini, shuningdek bolalarning qobiliyat va havaslarini tekshirib bilib olishiga yordam beradi.

Biografiya metodi. Shaxs psixikasini tekshirish uchun ayrim kishilarning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ularning o'zlari bergan ma'lumotlar (avtobiografiya, kundalik daftarlar, memuarlar, xatlar), shuningdek, boshqa kishilar yozib olgan biografiya

ma'lumotlari (biografiya, esdaliklar, xatlar, tavsifnomalar va shunga o'xshashlar) katta ahamiyatga egadir.

Bu ma'lumotlar psixik faoliyat namoyon bo'lishning kuzatish va eksperiment yo'li bilan tekshirib bo'lmaydigan turlarini, masalan, ijodiy xayol-poeziya, musiqa, texnika va boshqa shu kabi sohalardagi ijodiyot yuksak jarayonlarini, ilmiy kashfiyotlarda namoyon bo'ladigan tafakkur faoliyati yuksak jarayonlarini, kuchli iroda va ma'naviy yuksak sifatlarning alohida ifodasi bo'lgan qahramonlikni, shuningdek, geniallik, talantlilik va zo'r qobiliyat kabi xislatlarni ochishga yordam beradi. Bundan tashqari, biografiyaga doir ma'lumotlar odamning individual kamolotida tarbiya, shuningdek, kishining faoliyati va o'zi ustida ishlashi qanday o'rin tutgani va qanday ahamiyat kasb etganini ham bilishga yordam beradi.

Test metodi. Test so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "sinash", "o'lchash" degan ma'noni bildiradi. Oxirgi paytlarda dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korreksion analiz orqali ishonchlilikni tekshirish mumkin. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, hattoki shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektual o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir.

Test-so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya-ekstraversiyani o'lchaydi, savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi.

Test-topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirish ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatkich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv

o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, dalillarni klassifikatsiya qilishi mumkinligidir. *Testlar ichida proyektiv testlar deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi.* Ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi toshiriqni bajarayotib, nimanani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning "siyoh dog'lari" testi, yoki TAT (tematik appersionsion test), tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda bir narsaning proyeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. (O'sha 1921-yilda kashf etilgan "siyoh dog'lari" va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotsional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat mutaxassis psixologgina qo'llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi).

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitda qo'llaniladi.

Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellar texnik, mantiqiy yoki kibernetik bo'lishi mumkin. Matematik model asosida o'rganilayotgan hodisaga mashhur tadqiqotchi Veber-Fexnerning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi va shu asosda to'plangan ma'lumotlar tahlilini misol qilish mumkin. Mantiqiy modellar yordamida ko'pincha inson aqli va tafakkurining jarayonlari va qonunlarini hisoblash ish mashinalari, ish prinsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi. (Hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham dasturlashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosida qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtayi nazari-dan hisoblab, natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda).

Anketa metodi. Bu metod orqali odamlarning turlicha shaxsiy psixologik xususiyatlari ommaviy so'rash orqali o'rganiladi. Bunda yozma ravishda berilgan qisqa savollarga qisqa javoblar orqali shaxs o'rganiladi.

PSIXOLOGIYA FANINING METODLARI

ASOSIY METODLAR	ASOSIY METODLARNING VARIANTLARI
KUZATISH METODI	TASHQI (obyektiv kuzatish) ICHKI (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish) ERKIN KUZATUV STANDARTLASHTIRILGAN GURUH ICHIDA KUZATISH GURUH TASHQARISIDA KUZATISH
SO'ROQ METODLARI	OG'ZAKI SO'ROQ YOZMA SO'ROQ ERKIN SO'ROQ (suhbat)
TESTLAR METODI	TEST – SO'ROV TEST – TOPSHIRIQ SOTSIAMETRIK TEST
EKSPERIMENT METODI	TABIIY EKSPERIMENT LABORATORIYA EKSPERIMENTI
MODELLASHTIRISH METODI	MANTIQIY MODELLASHTIRISH TEXNIK MODELLASHTIRISH

Tayyor berilgan javoblarning tagiga chizish, belgilash, “ha”, “yo‘q” degan javoblar asosida ham tashkil etiladi. Albatta anketa metodida shaxs o‘zining kim ekanligini bildirmasligi, fikrini oshkora bayon etishini ta‘minlaydi. O‘zgalarni o‘rganishda ham bu metoddan foydalanilishi mumkin.

Umuman psixologiyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o‘ziga xos metodlari bor. Ular ijtimoiy xulq va alohida individ ichki dunyosini kompleks tarzida qo‘l bilan bilish va olingan natijalardan to‘g‘ri xulosalar chiqara olishdir.

Tayanch so‘zlar:

metod, kuzatish, test, eksperiment, laboratoriya, proyektiv, biografiya, anketa, sotsiametriya.

Mustahkamlovchi savollar:

1. Metod nima va ularning prinsiplari.

2. Kuzatish metodining tuzilishi va qo'llanilishi.
3. Eksperiment metodi haqida tushuncha.
4. Test va ularning tuzilishi.
5. Biografiya va anketa metodlarining imkoniyatlari.

MIYA VA PSIXIKA

Insonning hodisalar, holatlar, vazifalar va shart-sharoitlarga munosabati o'zini-o'zi anglashda, o'zini-o'zi nazorat qilishda, o'ziga-o'zi taskin hamda buyruq berishda, o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda mujassamlashadi. Bu vazifalarni barchasini oliy nerv faoliyati boshqaradi. Hatto o'z-o'zimizni anglashimiz ham, boshqarishimiz ham bosh miya funksiyasi asosida amalga oshadi. "Psixika – bu miyaning funksiyasi"-deb, aytgan edi rus fiziologi I.M.Sechenov. E.G'oziyev "Psixikaning moddiy asoslari to'g'risida fikr yuritganda, avvalo, u miyaning xususiyati ekanligini ta'kidlash joiz"-degan edi.

Har qanday tirik organizm uni qurshab turgan muhit bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Hayvonlarda va insonlarda bunday o'zaro munosabat nerv sistemasi yordamida amalga oshiriladi.

Inson nerv sistemasi uch bo'limdan: markaziy, periferik va vegetativ nerv sistemalaridan iborat bo'ladi.

Bosh miya va orqa miyani o'z ichiga olgan markaziy nerv sistemasi *tashkilotchilik va boshqaruvchilik* vazifasini o'taydi.

Periferik nerv sistemasi markaziy nerv sistema bilan organizmning turli qismlarini bog'laydi.

Periferik nerv sistemasi tolalari bo'ylab markaziy nerv sistemasidan turli organlarga (to'g'ri aloqa), shuningdek, organlardan markaziy nerv sistemasiga (qayta aloqa) nerv signallari beriladi.

Vegetativ nerv sistemasi orqa miya bo'ylab va turli ichki organlarda, uning markazlari esa markaziy nerv sistemasining turli bo'limlarida – orqa, uzunchoq, o'rta va oraliq miyada joylashgan nerv tugunchalaridan iboratdir. (Nerv sistemasining bo'limini, qon aylanish, ovqat hazm qilish, ichki sekreksiya bezlari organlarining faoliyati tartibga solib turadi.

Inson nerv sistemasi organizmni o'rab turgan muhit bilan bog'laydi, ichki organlar o'zaro munosabatni boshqaradi va nerv sistemasining turli bo'limlariaro aloqani amalga oshiradi).

Nerv sistema neyron deb ataluvchi hujayralardan iborat. Neyron - 0,005 - 0,05 mm diametrli protoplazmatik yadroli tanadan iborat bo'lib, dentritlar deb ataluvchi ko'plab qisqa o'simtalardan, neyritlar yoki aksonlar deb ataluvchi bir-ikkita uzun o'simtalarga ega. Neyritlar nerv sistemasining rivojiga muvofiq, bir-biridan ajratuvchi (izolatsiya qiluvchi) qobiqlar bilan qoplanadi, boshqacha qilib aytganda, miyelinizatsiya hosil qilinadi. Bu qobiqlar nerv signallarining faqat bitta nerv tolasi orqali erkin o'tish shartini yaratadi. Birlashtiruvchi qobiq bilan yig'ilgan bir to'da nerv tolalari nervlar deb ataladi.

Miyelin qobiqlaridan xolis nerv tolalarining to'plami miya kul rang moddasini, miyelinlashgan nerv tolalari esa miya oqish moddasini tashkil qiladi. Bosh miyaning kul rang moddasi asosan katta yarim shar yuzasi bo'ylab, bosh miya qobig'i (po'sti) deb nomlanadi. Inson bosh miya qobig'ining qalinligi 3-4 mm gacha bo'lib, bir necha qatlamlardan tashkil topgan behisob (12-15 milliard) hujayralardan iborat.

(Nerv hujayralarining to'planish hollari bosh miyaning quyi qismlarida (kelib chiqish jihatidan nisbatan eskilarida), ya'ni bosh miyaning stvol qismi (uzunchoq va o'rta miya), miyacha va po'stloq osti qismida (po'stloq osti qismi tugunchalari va oraliq miya) ham yuz beradi.

Orqa miyaning kul rang moddasi bosh miyadan farq qilib, uning butun uzunligi bo'ylab oqsil moddaning ichki qismiga joylashgan).

Miyaning sezish markazlari

Ayrim neyronlar o'rtasida aloqa sinapslar, ya'ni ular o'simtalarning ulashadigan joylari orqali amalga oshiriladi. Sinaps o'simtalarining ulashadigan joylari nerv impulslarini to'xtatib qolish qobiliyatiga egadir.

Ayrim, nisbatan sodda funksiyalar orqa miya yoki bosh miya asosidagi uzunchoq miya tomonidan boshqariladi der ekanmiz, bundan sodda funksiyalarni boshqarish miya qobig'ining ishi bilan hech bir jihatdan bog'liq emas degan ma'no kelib chiqmaydi. Nerv sistemasining pastki bo'limlarida borayotgan ish haqidagi axborot muttasil yuqoridagi bo'limlarga kelib turadi. Yuqoridagi bo'limlar har bir daqiqada ishga qo'shilib, jarayonlarni o'zgartirib



yuborishi mumkin. Masalan, orqa miya bilan boshqariladigan tabiiy reaksiya - qo'l yoki oyoqqa igna sanchilganda, bexosdan tortib olishdir. Lekin bu igna sanchish (ukol) davolash maqsadida qilinsa (va buni biz yaxshi bilsak), reaksiyaga yo'l qo'ymay qo'l yoki oyoqni tortib olmasligimiz ham mumkin. Ana shunday paytda bosh miya qobig'ining bog'lovchilik roli emas, balki ma'lum darajada muhofazakorlik roli ham seziladi. Bunday holda inson nerv sistemasi hamma bo'limlarining funksiyasi birlashadi. Nerv sistemasi turlicha bo'limlarining xuddi mana shunday o'zaro aloqasi va uzviy harakatlari tufayli ongning boshqaruvchilik va yo'lovchilik roli amalga oshiriladi.

Lekin bu mexanizm haddan tashqari murakkab va uni g'oyatda sinchiklab, e'tibor bilan o'rganish lozim.

XVII asrda mashhur fransuz olimi Rene Dekart (1596-1650) psixikaning nerv-fiziologik tabiatini ifodalash uchun birinchi marta umumiy prinsiplarni topishga urinib ko'rdi. Dekart bu prinsipni refleks (*"refleks"* iborasi lotinchadan tarjima qilinganda *"aks ettirish"* ma'nosini anglatadi) mexanizmida ko'radi. Bunda refleks mexanizmi organizmga ta'sir qiluvchi tashqi qo'zg'atuvchi bilan organizmning javob reaksiyasi o'rtasidagi aloqa tarzida tushuniladi. Dekart o'z ta'limotiga ko'ra reflektor prinsipni barcha psixik faoliyatlarga emas, balki faqat hayvonlar reaksiyasiga va odamning anglab yetmagan reaksiyalarigagina tatbiq etgan.

Reflektor faoliyatini hamma psixik jarayonlarga, ya'ni ongli va ongsiz jarayonlarga qo'llashda rus fiziologlaridan I. M. Sechenov va I. P. Pavlovlarning xizmati kattadir.

I. M. Sechenov **"Bosh miya reflekslari"** (1863) asarida psixik faoliyatning barcha xildagi ko'rinishlari asosida bosh miyaning reflektor faoliyati yotadi degan g'oyani ilgari surdi; "psixik hayotimizning barcha ongli va ongsiz harakatlari o'zining yuzaga kelish usuli jihatidan reflekslardan iboratdir".

I.P. Pavlov Sechenov g'oyalarini davom ettirib, bosh miya ishining reflektor faoliyatini tajribalarda asoslab berdi. U psixik faoliyatning negizini tashkil etuvchi asosiy fiziologik qonunlarni ochdi, fanning yangi tarmog'ini – oliy nerv faoliyatining fiziologiyasini yaratdi.

I. P. Pavlov refleks tushunchasiga differensial munosabatda bo'lib, shartli va shartsiz reflekslarni chegaralaydi.

Shartsiz reflekslar tashqi muhit ta'siriga organizmning tug'ma ravishda, nasliy yo'l bilan beradigan javob reaksiyasidir. Ular nisbatan barqarorlik jihatdan farq qilib o'rgatishni yoki hosil qilishda maxsus shart-sharoitni talab qilmaydilar. Jumladan, birinchi og'izga solingan ovqat so'lak ajralishiga sabab bo'ladi, og'riq qo'zg'atish esa himoya reaksiyasini uyg'otadi. Juda ko'p xil shartsiz reflekslar mavjud: vaziyatga tushunish, ovqatlanish, himoya, jinsiy va hokazo.

Individual hayot davomida yuqori darajada rivojlangan hayvonlar ma'lum sharoitda reflekslarning maxsus turini hosil qiladilar. I.P.Pavlov shunday reflekslarni shartli deb atagan. Ana shunday individual hayot davomida orttirilgan reflekslar organizmning tashqi muhitga juda nozik darajada muvofiqlashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Agar shartsiz reflekslar, odatga ko'ra, markaziy nerv sistemasining quyi bo'limlari (orqa va uzunchoq miya, qobiq osti tarmoqlari) orqali amalga oshirilsa, shartli reflekslar eng yuksak darajada rivojlangan hayvonlar va insonlarda markaziy nerv sistemasining asosan yuqori bo'limi: bosh miya katta yarim sharlarining qobig'i, oliy nerv faoliyatining organi vositasida hosil qilinadi.

I.P.Pavlov ko'pgina olimlarga ma'lum bo'lgan itlardagi "psixik sekretsia" deb ataluvchi holatini kuzatib, shartli refleks haqidagi ta'limotini yaratdi. Hayvonlar uzoqdan ovqatni ko'rib, yoniga keltirib qo'ygunga qadar juda ko'p so'lak ajrata boshlaydilar. I.P.Pavlov "psixik sekretsia" hodisasini asosli isbotlab berdi. Birinchidan, I.P.Pavlov go'shtni ko'rganda itlarda so'lakning hosil bo'lishi uchun ular go'shtni bundan avval hech bo'lmasa bir marta ko'rgan va yegan bo'lishlari shartligini aniqladi. Ikkinchidan, har qanday qo'zg'atuvchi (faqat ovqat bo'lishi shart emas) ovqatlanish vaqtiga to'g'ri kelgandagina so'lak ajratadi. Agar ovqatlanish oldidan ovqat beradigan idishning jaranglashi hamisha eshitilgan bo'lsa, u holda hayvonlarda ovqatlanadigan idish jaranglashi bilan so'lak ajralish odat tusiga kiradi. Ilgari befarq bo'lgan qo'zg'atuvchilar orqali keltirib chiqariladigan ana shu turdagi reaksiyalarni I.P.Pavlov shartli reflektor reaksiyalari deb atagan. I.P.Pavlov shartli refleks fiziologik hodisa, chunki markaziy nerv sistemasi faoliyati bilan bog'liq, shuningdek, psixologik hodisa hamdir, chunki miyada tashqi qo'zg'atuvchining ma'lum xususiyatlarini aks ettiradi, deb ta'kidlagan edi. Pavlov tajribalariga ko'ra, hayvonlarda

shartli refleks ko'pincha ovqatlanish shartsiz refleksi asosida vujudga keladi, ya'ni shartsiz refleks vazifasini ovqatga nisbatan befarq, indifferent qo'zg'atuvchi (ovoz, rang va hokazo) lardan biri bajaradi. Pavlov ta'limotiga ko'ra i'nikos, shartli reflektor faoliyat davomida bosh miya po'stlog'ining asosiy funksiyalaridan biri ma'lum murakkab olamni ayrim elementlarga taqsimlashdan iborat. Bu ishni shartli refleks kabi oliy nerv faoliyatining muhim mexanizmi hisoblangan analizator mexanizmi bajaradi.

Analizator nerv asbobi bo'lib, borliqdagi murakkab hodisalar-ni tarkibiy qismlarga ajratish, bevosita bizning sezgi organlarimizga ta'sir qilib, moddiy dunyodagi narsalar va hodisalarning ayrim xususiyatlari hamda sifatlarini aks ettirishdan iborat bo'lgan psixik jarayonni, ya'ni sezish jarayonini keltirib chiqaradi.

Sezish xilma-xilligi analizatorlar xilma-xilligiga muvofiq bo'lib, ularning kelib chiqishiga sabab bo'ladi; ko'rish, eshitish, muskul-harakat, mazani aniqlash va hokazo.

Har qanday analizator uch qismdan iborat:

1. Retseptor – analizatorning tashqi ta'sirotni qabul qilib oluvchi qismi. Buni sezgi a'zosi deb yuritiladi. Bunda qo'zg'alish hosil bo'lgan paytda sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan qo'zg'atuvchi juda sodda analiz qilinadi (masalan, ko'rish analizatorining retseptori, ko'zning to'r pardasidagi nerv to'plamlari).

2. Nerv qo'zg'alishiga bosh miya po'stlog'iga - markaziy nerv sistemasining oliy bo'limiga yo'naladigan o'tkazuvchi nerv yo'li (ko'rish analizatoriga shu yo'ldan ko'rish nervlari orqali o'tkaziladi).

3. Bosh miya po'stlog'ining tegishli zonasiga joylashgan markaziy zveno – analizator o'zagi (ko'rishning po'stloqdagi zonasi - miyaning orqa qismida joylashgan). Bunda sezgini keltirib chiqaradigan qo'zg'atuvchi nozik va oliy psixik jihatdan analiz qilinadi.

Analizatorlarning o'zaro bog'liq harakati faqat analiznigina emas, balki po'stloqqa kelayotgan qo'zg'alishni sintez qilish, ayrim qo'zg'alishlarni murakkab sistemalarga birlashtirishni ta'minlaydi. Har qanday refleks sintezning elementar ko'rinishi hisoblanadi.

Analizatorlarning funksional o'zaro harakati kishining individual hayoti va uni o'rab turgan muhit bilan o'zaro munosabati jarayonida shakllanadi. Masalan, bola bir yoshga to'lgunga qadar ayrim so'zlarnigina tushunish qobiliyatiga ega, lekin aktiv nutqi bo'lmaydi.

Bola tomonidan uning atrofidagi kishilar nutqidagi ayrim soʻzlarni tushunish asosan eshitish analizatorining ishi bilan taʼminlanadi. Ikki yoshga qadam qoʻyishi bilan bola ilk soʻzlarni talaffuz qilishga kirishadi. Shu vaqtdan boshlab nutq aktivligi jarayonini taʼminlaydigan nutqni harakatlantiruvchi analizator ishga tushadi, eshitilgan va aytilgan nutq analizi hamda sintezini amalga oshirish uchun eshitish analizatori bilan aloqa bogʻlanadi.

Bosh miya poʻstining analitik-sintetik faoliyati faqat sezish bilan bogʻliq boʻlgan psixik jarayonlarnigina taʼminlab qolmay, balki analizatorlarning oʻzaro bogʻliq faoliyatlari orqali boshqa murakkabroq psixik funksiyalarning, yaʼni idrok, xotira, xayol, tafakkur kabi psixik jarayonlarning chiqib kelishini ham taʼminlaydi.

Qoʻzgʻalish va tormozlanish oliy nerv faoliyatining asosiy jarayonlari hisoblanadi.

Qoʻzgʻalish – har qanday aktivlikning, shu jumladan, shartli reflektor aloqaning ham asosida yotuvchi nerv jarayonidir. Qoʻzgʻalish nerv hujayralari faol holatini xarakterlab beradi.

Tormozlanish – qoʻzgʻalishga nisbatan qarama-qarshi ahamiyatga ega boʻlib, reflektor aloqa oʻrnatish funksiyasini sekinlashtiruvchi, toʻxtatib qoʻyuvchi yoki tormozlantirib qoʻyuvchi nerv jarayonidir.

Qoʻzgʻalish va tormozlanish organizm va uni oʻrab turgan muhit oʻrtasidagi yagona muvozanat jarayonining ikki tomonidir.

I.P.Pavlov shartli reflekslar metodidan foydalangan holda qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining namoyon boʻlishi asosiy qonunlarini aniqladi. Bular irradatsiya, konsentratsiya va oʻzaro induksiya qonunlaridir.

Irradatsiya va konsentratsiya qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining sodir boʻlgan manbadan bosh miya poʻstlogʻining boshqa joylariga tarqalishi va yana paydo boʻlgan manbaga qayta toʻplanish jarayonlarining dinamik holati bilan xarakterlanadi.

Tormozlanishning oʻziga xos turlaridan biri uyqudir. Uning oʻziga xosligi shundan iboratki, uyqu holatida tormozlanish bosh miya qobigʻining hamma tomoniga, shuningdek yaqin qobiq osti sohalariga yoyiladi. Bunda tormozlanish bir qancha sabablarga koʻra miya qobigʻining baʼzi uchastkalarida hatto qoʻzgʻalish paydo boʻlish darajasigacha susayib qolishi mumkin. Bunday hollarda uyquda tush koʻrish sodir boʻladi.

Nerv sistemasining dam olishi uchun zarur bo'lgan odatdagi "normal" uyqudan tashqari turli sharoitlar va sabablar tufayli ro'y beradigan boshqa uyqu turlari bo'lishi ham mumkin: *gipnoz, lunatizm, letargik uyqu*.

Uyquning boshlanish sabablaridan biri kuchsiz qo'zg'atuvchning uzoq vaqt ta'sir etishi, masalan, metronom zarbalari, yomg'irning shovqini, monoton nutq kabilar natijasida bosh miya qobig'ida yuzaga kelgan qisman tormozlanish bo'lishi mumkin.

Gipnoz sharoitida butun miya qobig'i tormozlangan holatda bo'ladi, faqat ayrim uchastkalaridagina qo'zg'alish "o'choqlari" saqlanib qoladi. (I.P.Pavlov bularni "soqchi punktlar" deb atagan), mana shular gipnozchiga gipnoz qilinuvchi bilan aloqada bo'lib turishga ("raport") imkon beradi.

Bosh miya qobig'i ishidagi sistemalilik nerv jarayonlarining dinamik stereotiplarida namoyon bo'ladi va psixik faoliyatning fiziologik mexanizmlarini tushunishda juda katta ahamiyatga egadir. Dinamik stereotip, masalan, *malaka va odatlarning* asosida yotadi. Jimladan, o'qish malakalarini shakllantirish stereotip hosil qilish asosiga quriladi, O'qish malakasini egallashning hamma bosqichlarida o'quvchi bosh miya qobig'ida tegishli nerv bog'lanishlari sistemasining shakllanish jarayoni ro'y beradi.

Voqelikdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanishlarini, shuningdek organizmning o'zini ham qo'shib, aks ettirish qobiliyatidan iborat bo'lgan bosh miya qobig'i faoliyatini I.P.Pavlov signal faoliyati deb atagan. "Katta yarim sharlarning asosiy va eng umumiy faoliyati son-sanoqsiz signallardan hamda o'zgaruvchan signalizatsiyadan iborat bo'lgan signal faoliyatidir" - deb yozgan edi.

Atrofdagi muhitga nisbatan faqat sezgi organlari yordamida munosabatda bo'lish sistemasini I.P.Pavlov birinchi signal sistemasi deb atagan. Biroq, agar hayvonlarda birinchi signal sistemasi shartli reflektor faoliyatining asosini tashkil qiluvchi birdan-bir sistema bo'lsa, insonda esa bu sistemaga esa yana ikkinchi signal sistemasi qo'shiladi. Insonda atrofidagi muhit hodisalarini (birinchi signallarni) bilvosita aks ettirish protsessi ro'y beradi. *Bilvosita aks ettirish so'z, nutq (ikkinchi signallar) orqali sodir bo'ladi. So'z, degan edi I.P.Pavlov, ikkinchi signaldir, yoki "signallar signalidir".* Insonning ijtimoiy jihatdan belgilangan maxsus nerv fiziologik mexanizmlariga ega bo'lgan nutq faoliyati inson miyasi ishining eng muhim, sifat farqlaridan biridir.

Tayanch iboralar:

nerv sistemasi, neyron, bosh miya, orqa miya, refleks, qo'zg'alish, tormozlanish, shartli, shartsiz reflekslar, signal sistemasi, irrodatsiya, konsentratsiya, dinamik stereotip.

O'quvchilar bilimini mustahkamlovchi savollar:

1. Oliy nerv faoliyati necha qismdan iborat.
2. Neyronning tuzilishi va vazifalari.
3. Bosh miyaning tuzilishi va vazifalari.
4. Bosh miya katta yarim sharlardagi nerv jarayonlari.
5. Refleks tushunchasi va uning turlari.
6. I. P. Pavlov tajribasi.
7. I – II signallar sistemasi haqida ma'lumot.

O'quvchilar uchun mustaqil topshiriqlar:

1. Inson nerv sistemasi tuzilishi va vazifalarini o'rganish.
2. Oliy nerv faoliyatining tuzilishini rasmda aks ettirish.

PSIXIKANING PAYDO BO'LISI VA RIVOJLANISHI

Psixikaning paydo bo'lishi va taraqqiyoti juda uzoq tarixga egadir. Tabiatda va jamiyatda hamma narsa har doim o'zgarib turadi. Lekin har qanday o'zgarishni ham biz taraqqiyot deb ayta olmaymiz. Taraqqiyot chirish va yemirilishning teskarisi bo'lib, oldinga tomon rivojlanishdan iboratdir.

Bundan mlrd. yillar muqaddam yerda hayot paydo bo'lib, materiya yuzaga kelgan. Organik, yani tirik materiya dastavval juda sodda bir hujayrali organizm tariqasida yuzaga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Tirik organizmning dastlab paydo bo'lgan davridan boshlab hozirgi eng yuksak organizm, ya'ni odamgacha rivojlanish yo'li evolutsion taraqqiyot deb yuritiladi.

Psixika ya'ni aks ettirish eng avval vujudga kelgan juda sodda organizmlarda bo'lmagan, ularda oddiy ta'sirlanuvchanlik xususiyati bo'lgan xolos. Ta'sirlanuvchanlik bir hujayrali organizmlarga (amyoba, tufelka) xos xususiyat bo'lgan.

Evolutsion taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib organizmlarda juda sodda tuzilishga ega bo'lgan asab tizimi paydo bo'la boshlagan.

Bu asab tizimi markazlashmagan bo'lib, organizmning hamma tomoniga to'rsimon holda tarqalib ketgan ko'rinishga ega bo'lgan.

Keyinchalik evolutsion taraqqiyot davomida ko'p markazli asab tizimiga ega bo'lgan organizmlar paydo bo'la boshladi. Masalan: tunchasimon markazga ega asab tizimi asalarilarda, yomg'ir chuvalchangida ko'rishimiz mumkin.

Evolutsion taraqqiyot davomida psixikaning eng sodda ko'rinishidan tortib, inson ongiga qadar bir qancha bosqichlardan iborat. *Ana shu bosqichlardan so'ng psixik taraqqiyotning eng yuksak shakli bo'lgan inson ongi maydonga keldi.*

Evolutsion taraqqiyot bosqichlari		
Harakatning instinktiv shakli	Harakatning individual shakli	Harakatning intellektual shakli

Psixikaning taraqqiy etish jarayoni

Aks ettirish shakllari	Psixik	Insonlar	Irodaviy xotira
			Iroda
			Ijodiy talablar
			Estetik talablar
			Hislar
			Idrok
			Mantiqiy xotira
			Bilishga oid ehtiyojlar
			Tafakkur
			Tushunchalar
	Hayvonlar	Mexanik xotira	
		Sezgilar	
		Biologik ehtiyojlar	
		Emotsional xotira	
		His-tuyg'ular	
	Fiziologik	Ilgarilovchi aks ettirish	
Xotira			
Ehtiyoj			
Qo'zg'atuvchi			

2. Inson ongi insonning o'zi bilan birga, deyarli bir vaqtda maydonga kelgan. *Ong – faqat insongagina xos bo'lgan oliy darajadagi aks et-*

tirish, olamni bilish mexanizmidir. Odam psixikasi hayvon psixikasidan farq qiladi.

Odam o'z hayotidagi ko'p narsalarni so'z orqali aks ettiradi, hayvonning esa butun psixik faoliyati birinchi signallar sistemasi asosida vujudga keladi. Ikkinchi signallar sistemasining signallari talaffuz etilgan, eshitilgan so'zlardan iborat. Agar so'z ma'nosi tushunarli bo'lsa, odamning xatti-harakatlarini boshqaradi, tevarak-atrofdagi muhitga muvofiqlashuviga yordam beradi. Agar so'z ma'nosi tushunarsiz bo'lsa, odamga u faqat birinchi signallar tarzida ta'sir qiladi yoki odam uchun ahamiyatsiz narsa bo'lib qolaveradi. Inson ongi o'z mohiyatiga ko'ra hayvonlarning individual va intellektual formulalaridan batamom boshqa hodisadir. Inson ongi evolutsion harakatning eng so'nggi bosqichi bo'lib, inson taraqqiyoti bosqichida ijtimoiy rivojlanish tufayli tarkib topgan. Inson ongi yer yuzidagi barcha mavjudotlarning eng oliysi va gultojidir. Har bir ijtimoiy davrning o'ziga hos kuchlari va ijtimoiy munosabatlariga mos keladigan ongi bo'lgan. Masalan, quldorlik davrida xususiy mulkchilik munosabatlari kelib chiqib, sinflar paydo bo'lgach, odam ongi ham sinfiy xarakterga ega bo'la borgan. Har bir tarixiy davrda yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar natijasida odamning ongi ham o'zgarib borgan. Tarixiy tafakkurning ma'lum bosqichida ilmiy tafakkur, ilmiy ong tarkib topgan. Tevarak atrofdagi voqeylik ana shu ilmiy tafakkur yordamida to'laroq va chuqurroq aks ettirilgan. Natijada odam hodisalar o'rtasidagi muhim aloqa va munosabatlarni, qonunlarni ong va tafakkur yordamida bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Endilikda odamning ongi bilan idora qilinadigan faoliyati faqat oddiy ish qurollari, kiyim-kechak, turar joyning yaratib qolmay, balki fan-texnikani ham yaratadi, yuqori darajada rivojlantiradi. Ming yillar davomida to'xtovsiz davom etgan amaliy mehnat odamning qo'llarini rivojlantirib bordi. Mehnat inson qo'lini kamolotning shunday yuksak bosqichiga aylantiradiki, bu bosqichda qo'l sehr kuchi bilan Leonardo da Vinchi, Rafael, Repin, Rembrandt, Surikov va boshqa rassomlarning asarlarini yaratadi. Ong kisining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanadi. Ong ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlar natijasi hisoblanadi.

3. Ongsizlik odam ongiga borib yetmaydigan psixik jarayonlar, xususiyatlar va holatlardir. Bunday hodisalarga ong osti holatlari deyiladi. Odam shaxsidagi ongsizlik holatlari kishining o'zi anglamagan

holda qiziqishi va ehtiyojlarini bajarishga intilishdir. Jumladan, tush ko'rish, shirin xayol, orzu kabilar kishining ixtiyorsiz xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Ongsizlik holatlarini atroflicha tushuntirib berishda psixoanalizdan foydalaniladi. Ongsizlik holatida voqelikning fakt va o'rmini mo'ljallash yaxlitligi yo'qoladi. Xatti-harakatni nutq yordamida boshqarishi buziladi, kishi o'z harakatlarini nazorat qila olmaydi, natijasini ham baholay olmaydi.

Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin:


- uyqu holatidagi psixik hodisalar (tush ko'rish);
- sezilmaydigan, ilgari ongli bo'lib, keyin takrorlanaverishi natijasida avtomatlashib ketgan, anglanilmaydigan harakatlar;
- faoliyatga undovchi, ammo maqsad anglanmaydigan mayllar;
- kasal odam psixikasida yuzaga keladigan ayrim patologik holatlar (shaytonlash, alahsirash, galutsinatsiyalar).

Ongsizlikni onga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ridir. Ongsizlik kishi hayotining shart-sharoitlari bilan bog'liqdir.

ONGNING TUZILISHI		
SEZGI	XOTIRA	TAFAKKUR
IDROK		XAYOL

Harakatning instinktiv shakli muhitga moslashuvning alohida shaklidir. Biz ayrim organizmlarning xatti-harakatlarini, qiliqlarini kuzatadigan bo'lsak, ularning harakatlari go'yoki ongli harakatdek bo'lib ko'rinadi. Masalan: Fransuz olimi Jyul Faber Sfeks deb nomlanuvchi arilarda g'alati tajriba o'tkazgan. Sfeks inini yer tagiga qazib quradi. U o'z o'ljasini ini tomon sudrab kelib, avval uya havfsizligini tekshirib so'ng olib kirgan. Faber ari iniga kirib ketgan paytda o'ljani inidan 20 sm.ga surib qo'yadi. Ari inidan chiqib o'ljani uzoqdaligini ko'rib ini oldiga sudrab keladi va yana havfsizligini tekshirish uchun iniga kirib ketadi. Shu tariqa bu holat bir necha bor takrorlanadi. Bu instinktning oddiy shakli bo'lib *ko'r instinkt* deb nomlanadi. Bundan tashqari instinktning tug'ma va nasldan-naslga o'tishini isbotlovchi bir qancha dalillar mavjud. Jumladan, chumolilarning "jamo" bo'lib yashashlari, qishga ovqat g'amlashlari, arilarning oltiburchakli uya qurishlari, asal

arilarning asal yig'ishlari, qushlarning tuxum bosib, polaponlarni parvarishlashlari kabilar bunga yorqin misol bo'la oladi.



Eshityapti-yu ammo ko'rmayapti

Instinkt tushunchasi psixologiyaga birinchi marta Charliz Darvin tomonidan kiritilgan bo'lib, bizga hayvonlarning juda ko'p murakkab harakatlari va qiliqlarining ilmiy tarzda tushunish imkonini beradi. *Instinktiv harakat* deganda hayvonlarda tug'ma yo'l bilan (shartsiz reflekslar) va ularning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan harakatlar shakli tushuniladi. Instinkt tushunchasining psixologik va fiziologik mexanizmlarini mashhur rus fiziologi akademik I.P.Pavlov fanga tatbiq etgan.



Ko'ryapti-yu ammo eshitmayapti

Evolutsion taraqqiyot davomida murakkab rivojlangan hayvonlarda (umurtqali va sut emizuvchi) harakatning individual shakllari yuzaga keldi. Har bir organizm o'zicha individual va tashqi olamda ma'lum muddat yashaydi. Vaholanki, hayvonlar olamda bir hilda umr ko'rmas ekanlar, ularning necha yoshga kirishlariga qarab individual hayotlarida

harakatning turli hil individual shakllari yuzaga keladi. Demak, *hayvonlar harakatining individual shakllarini o'zlarining individual hayotlari mobaynida egallab boradilar*. Harakatning individual shakllari asosida hayvonlarda turli tuman *ko'nikmalar* yuzaga keladi. Laboratoriya jarayonida bunday ko'nikmalar *dressirovka* orqali hosil qilinadi.



a)



b)



c)



d)


Maymunda ham ong bormi?

Evolutsion taraqqiyotning yuksak bosqichlaridagi ayrim hayvonlarda harakatning intellektual shakli paydo bo'ldi. Bu yuksak taraqqiyotga erishgan maymunlar, itlar va delfinlardagi odam ongiga o'xshash farosat bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakat shaklidir. Harakatning intellektual shakli hayvonlarning tashqi olamga moslashuvidan iboratdir.

Bunday hayvonlar ma'lum vaziyatda bir qadar farosat bilan bog'liq muammolarni hal qila oladilar. Lekin yuksak taraqqiy etgan hayvonlarning intellektual harakatlari odamning ongli harakatlaridan keskin farq qiladi. Odamsimon (primat) maymunlarda o'tkazilgan tajribalardan E. G. Vatsuroning "Rafael" ismli shimpanzesi bilan o'tkazilgan kuzatuvlar juda ibratlidir. Tajriba orqali maymunlarda ong, tafakkur yo'qligini, ular o'rtasidagi munosabatlarni anglay olmasligi isbotlandi. Ularda farosat uchqunlari bor xolos.

Pavlovning fikricha: "...maymunning goh uni, goh buni qo'liga olib qilyotgan barcha harakatlari, ish-harakatda namoyon bo'lgan tafakkuridir. Bu qisman avval hosil qilingan, hozir ko'z o'ngingizda sodir bo'layotgan, bir-biriga qo'shilayotgan assotsatsiyalardir. Albatta, bu fahm eng elementar fahmdir...."

Inson ongi evolutsion taraqqiyotning eng so'nggi bosqichi hisoblanadi.



Fahm bilan bog'liq bo'lgan aql kurtaklari

Tayanch so'zlar:

psixika, taraqqiyot, evolyutsiya, instinkt, ko'nikma, intellektual xatti-harakat, ong, ongsizlik.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Psixika haqida tushguncha bering?
2. "Rivojlanish"ga ta'rif bering.
3. Instinktiv, intellektual, ko'nikma kabi xatti-harakatlar orasidagi tafovutni ajratib bering.
4. Ongning tuzilishi.
5. Ongsizlik va ongning quyi darajasi haqida ma'lumot bering.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar:

Hayvonlarning instinktiv va intellektual xatti-harakatlari, ko'nikmalarni hayotda qanday orttirishlari jarayonini kuzatib kelish.

SHAXS

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik, ya'ni individ masalasi (lotincha *individ* – *ajralmas, alohida zot* degan ma'noni anglatadi) shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (es-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individ hisoblanadi. Biroq bulardan birinchisiningina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasida bo'ladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish ja-moasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilar og'ushida, ularning qalb to'rida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllanishiga, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi. Shaxsning faolligi o'z istiqboli uchun yo'l-yo'riq tanlashda, uni o'zlashtirishda, hayotda o'z mavqeyi va o'rmini topishda gavdalanadi.




Maymunlar bilan birga o'sgan bola Ayiq bilan o'sgan bola (5 hodisa)

Bir xil turmush sharoitlari shaxs faolligining turli shakllarini yaratish hamda har xil hayotiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. Hayotda biron-bir tanbeh berishning o'zi kimdadir ruhiy hisni uyg'otsa, boshqa birovning sirtiga ham yuqmaydi. Shunday qilib „shaxs“ degan tushuncha, odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zg'atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlari, jabhalari, tarkiblari), tuzilishi, yig'indisi bilan boyitilishi evaziga hosil bo'ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlardan biri – bu uning individualligi, ya'ni yakkaholligidir. *Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi.* Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlar birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas.

Bizningcha, *muayyan jamoa a'zosi, jismoniy, jinsiy, ijtimoiy kamolotga erishgan, biologik va sotsiologik shartlangan xislatlar egasi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi, bilimga intiluvchi, faoliyat, xulq, muomala subyekt shaxs deyiladi.*



Bo'rini emib o'sgan bola

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo'lmagan tushunchalar qo'llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individ. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Odam. *Sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzot ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, uning o'ziga xos tomonlaridir. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqish va ehtiyojlariga mutanosib uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.*

Shaxs. *Mehnat tufayli hayvonot olamidanda ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqotga kirishuvchi odam shaxsga aylandi. Shaxsning asosiy tavsifi ijtimoiy mohiyati hisoblanadi.*

Individ. *Har bir inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individuallik shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.*

Sobiq Ittifoq psixologiyasida shaxsning tuzilishiga oid eng ko'p tarqalgan materiallar bilan qisqacha tanishamiz.

S.L.Rubinshteyn ta'limotiga ko'ra, shaxs quyidagi tuzilishga ega:

Yo'nalganlik – bu ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar – bu hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

Individual-tipologik xususiyatlar – bu temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

Hozirgi kunda va kelajakda shaxsga subyektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun:

odam (individ) – inson – shaxs – individuallik – subyekt – komillik (barkamollik) iyerarxiyasiga rioya qilinadi.

Shaxsga nisbatan subyektiv munosabat, ya'ni unda robot sifatida majburiylik tamoyiliga asoslanib (barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish) inson qarshilik ko'rsatishini hisobga oluvchi yondashuvni yo'lga qo'yish, subyekt – subyekt aloqasini vujudga keltirish.

Har qanday subyekt – shaxs, lekin har qaysi shaxs subyekt emasligi muammosini yechish lozim. Buning uchun *mustaqil fikrlashga ega bo'lish, shaxsiy pozitsiyani himoya qila olish, g'oyani amalga oshirish yo'lida to'siqlarni pisand qilmaslik, mustahkam ishonch, qat'iy maslak,*

iymon negiziga asoslanish, intilishda irodaviy barqarorlik ustuvorligiga erishish. Dunyoqarash va uni hayotga tatbiq qilishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari mavjudligiga iqror bo'lish hamda uni tan olish va hokazo.

Bizningcha, individ, shaxs, subyekt va komil inson to'g'risida mu-lohazalar yuritilganda ularning ongsizlik, ongostlilik (muvofiqlashuv), onglilik va o'ta onglilik holatlari bilan uzviy aloqadorligini unutmazlik lozim. Yuqorida keltirilgan atamalar ongli mavjudotga taalluqli ekanligi jahon psixologiyasi fanining ilmiy manbalarida atroflicha talqin qilingan, lekin ularning iyerarxiyasi, mohiyati bayonida turlicha yondashuvlar mavjud. Mazkur maqsadni chuqurroq ochishga yo'naltirilgan nazariyalar o'ta bahsli bo'lib, uning zaminida faqat ong yotishi tasdiqlangan. Aslida esa inson ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy xotira va muayyan maqsadga asoslanadi. Biron-bir faoliyat inson tomonidan tashkil qilingandagina ong shaxsning ushbu faoliyatini regulatori (boshqaruvchisi) vazifasini o'taydi. Biroq odam funksional holatining o'zgarishi bilan onglilikdan ongsizlik (ixtiyorsizlik)ka o'tib, ijod, tashabbus uning uchun muomala, faoliyat negiziga aylanishi o'laroq shaxs asta muvofiqlashuv holatiga kirib borishi mumkin. Shu bois shaxs bir davrning o'zida har uchala holat (onglilik, ongsizlik, ongostlilik) hukmi ostida yashashi, faoliyat ko'rsatishi, ijod qilishi, muomalaga kirishishi mumkin. Har uchala holat omili negizida shaxsning kamoloti vujudga keladi, ularning har qaysisi bu jarayonga o'ziga xos ulush qo'shadi. Ong holatlari tabiiy ravishda bir-biri bilan uzluksiz tarzda o'rin almashib turadi, chunki inson ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi bosqichlar hukmi ostida yashashi va faoliyat ko'rsatishi mumkin.

XXI asrda yashovchi inson ongli, ongosti va ongsizlik holatlaridan tashqari o'z-o'zini anglash imkoniyatiga ham ega. Shu bois o'z-o'zini anglashni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish maqsadga muvofiq:

- 1) o'tmishdagi „men” („o'zlik”);
- 2) hozirgi „men” („o'zlik”);
- 3) bo'lg'usi „men” (o'zlik”);
- 4) ideal „men” („o'zlik”);
- 5) dinamik „men” („o'zlik”).

O'z-o'zini anglash besh tarkibdan iborat bo'lib, u o'ta murakkab jarayon hisoblanib, uning tarkiblari birin-ketin anglashilish imkoniyatiga ega emas. Chunki, insonda o'zining hayoti va faoliyati yutuqlarini,

nuqsonlarini, xulq-atvor ko'nikmalarini, aql-idrok darajalarini, ichki imkoniyat zaxiralarini, qadriyat hamda ma'naviyat ko'rsatkichlarini oqilona baholash yetishmaydi. *Shaxsda tanqid va o'z-o'zini tanqid, baholash va o'z -o'zini baholash, tekshirish va o'z-o'zini tekshirish, nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini boshqarish, takomillashtirish va o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish mutanosibligi maqsadga javob bera olmaydi.* Individual va ijtimoiy ongning tobora rivojlanib borishi mazkur mutanosiblikni amalga oshirishni ta'minlaydi, bu esa muayyan muddatni talab qiladi.

O'z-o'zini anglashning navbatdagi bosqichida shaxs o'tmishini tahlil qiladi, undagi qusurli va ibratli jihatlarni o'zaro qiyoslab ustuvorlikni aniqlashga intiladi, bu borada ayrim siljishlarga erishadi. Ijtimoiy hayotdan u o'ziga ideal bo'luvchi shaxsni tanlaydi va undagi ijobiy xislatlar, xususiyat va ko'rinishlarni, ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtira boradi. Shaxs o'z-o'zini anglash davomida dinamik harakatsiz hech bir narsani ro'yobga chiqara olmasligiga iqror bo'ladi, natijada uzluksiz harakatlarni asta-sekin, birdaniga, tavakkaliga amalga oshirish lozimligini tushunib yetadi. Dinamik holatni baholash, tekshirish, nazorat qilish, boshqarish natijasida dinamik „men“ shakllana boshlaydi. O'z-o'zini anglashning besh tarkibiy qismi bir xilda insonning ma'naviy dunyosiga aylansa, bu unda mukammallik, barkamollik darajasi vujudga kelganligidan dalolatdir.

O'z -o'zini anglash shaxsning fazilatiga aylanishi uchun muayyan davr, vaqt, muddat talab qilinadi, shuning uchun o'quvchilar va respublikamizning boshqa fuqarolari bilan dasturiy tadbir-choralar o'tkazish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

XXI asr odamlari komillikni egallovchi, ya'ni komil insonlikka intiluvchi shaxslardan tarkib topishi lozim. *Komillikning bir nechta mezonlari mavjud bo'lib, unda jismoniy barkamollik, axloqiy barkamollik, betakrorlik, aql-zakovatlilik singari shaxsning ijtimoiy-tarbiyaviy tarkiblari o'z ifodasini topadi.* Komillikning o'ziga xos bosqichlari, obyektiv va subyektiv xususiyatli shart-sharoitlari, omillari mavjuddir. Komil inson imkoniyati cheksiz, o'z iqtidori, iste'dodi, salohiyati, qobiliyati, donishmandligi, qomusiyligi bilan o'z zamondoshlaridan sezilarli darajada ilgarilab ketgan, betakror, o'ta ongli, biosfera va neosfera munosabatlarini anglovchi *ongli zotdir.* Bizningcha, bu darajaga

barcha fuqarolar erishish imkoniyatiga ega emas, chunki buning o'ziga xos ham obyektiv, ham subyektiv omillari, shart-sharoitlari mavjud. Shu sababdan shunchaki intilish, mayl, layoqat bilan yuksak kamolot cho'qqisiga erishib bo'lmaydi, mazkur ijtimoiy holatni chuqurroq tadqiq qilish farazlarimizni yo tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi.

XXI asrda shaxsni shakllantirishda, axloq-odob qoidalarini ijtimoiy turmushda qaror toptirishda din, shu jumladan islom dini ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishda davom etadi. Diniy bilimlarning mohiyatiga tushunuvchilar safi kengayadi, ularga rioya qiluvchilar, itoatgo'ylar ko'lami ortadi, uning atributlari (harakatlari)ni qabul qiluvchilar miqdori ko'payadi. Qur'oni Karim, Hadislar ta'siri shaxsni shakllantirishda muhim vositaga va harakatlantiruvchi kuchga aylanadi, iymon faollik tushunchasidan harakat, xulq regulatori vazifasini bajarishga o'sib o'tadi, insonlar o'rtasida poklik, rostgo'ylik, samimiylik, hamdardlik, o'zaro yordam tuyg'ulari hamda nisbiy tenglikni keltirib chiqarishga xizmat qiladi.

Shaxslararo munosabatda tenglik, jinsiy tafovutni odil baholash, haqchillik kabi umuminsoniy xususiyatlarni tarkib toptirishda diniy adabiyotlarning roli yanada ortadi, tobora ommaviylashaveradi. Lekin din bilan fanni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish vaziyatiga barham berish ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning kafolati hisoblanadi, bunga ajdodlarimiz (Ibn Sino, Al-Farobiy, Beruniy, Ulug'bek va boshqalar)ning tajribasi yorqin misoldir.

Milliylikning kuchayishi yetuklik davriga to'g'ri keladi, lekin shu vaqt oralig'ida ko'p narsalar boy berilgan bo'ladiki, shunda mazkur uzilishni tiklash uchun avlodlar o'rtasida umumiy birlik, milliy stereotip yaratilishi zarur bo'ladi.

XXI asr boshida ham respublikamiz fuqarolarining ongidagi, fikrlash vositasidagi, turmush tarzidagi tafovutlar mavjudligi o'laroq, ular o'rtasida tabaqalanish saqlanib qoladi. Ekologik madaniyat, biosfera va neosferaga xavf keltiruvchi ilmiy-tadqiqotlar inson aql-zakovati bilan boshqariladi, ajal qurollari o'rnini xayrixohlik, o'zaro yordam, umum-bashariy xususiyatlar egallaydi, jamiyat va tabiatni asrash odamlarning e'tiqodiga aylana boradi. Mamlakatlararo fazoviy aloqalar kengayishi natijasida fan va texnika mahsullariga muayyan aniqliklar kiritiladi, ularning rivojlanishida integratsiya jarayoni yuzaga keladi, tadqiqotlar guruhiy va jamoaviy faoliyat negizida amalga oshiriladi, bu esa mil-

latlarning o‘zaro yaqinlashishiga muhim imkon yaratadi, millatlararo munosabat tenglik asosiga qurilsa, bir millat salohiyati ikkinchisiga ta’sir o‘tkazadi, ma’naviyat namunalari bilan xalqlarning boyishi shaxs kamoloti uchun muhim negiz hozirlaydi.

XXI asrda ham odamlarning kamoloti negizi sifatida oila, maktab, ijtimoiy muhit, ishlab chiqarish o‘z mavqeyini saqlab qolaveradi.

Shaxsni tarbiyalanishi quyidagi manbalar asosida:

1) *muayyan tizimli, uzluksiz tarbiyaviy, dasturiy ta’sir;*

2) *ideal namuna timsolida o‘z-o‘zini tarbiyalash, takomillashtirish;*

3) *ijtimoiy muhitdagi shaxslararo munosabatda tahlil qilish, ibrat olish vositalari yordami bilan xulq-odob, fikrlash malakalarini egallash.*

Ta’lim-tarbiya jarayonida respublikaning tarixi, madaniyati, uzoq ajdodlarimizdan yetishib chiqqan jahongashta kishilar, ilm-fan arboblari, mutafakkir, ma’rifatparvarlar to‘g‘risida bilimlarni yoyish yoshlarda g‘urur va iftixor tuyg‘ularini vujudga keltiradi. O‘zbekistonning fan va texnikasi, unumdor tuprog‘i, saxiy, zahmatkash xalqi, foydali qazilmalari, jahon bozoridagi paxtasi, ipagi, qorako‘li salmog‘i haqida ma’lumotning berilishi – ularda milliy ongini o‘stiradi, milliy o‘z-o‘zini anglashni takomillashtiradi, ijtimoiy faollikni jadallashtiradi, ularni ijodiy izlanishlar sari yetaklaydi.

Ota-bobolarimizdan xalqimizga meros qolgan saxiylik, mehmondo‘stlik, rostgo‘ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy xarakterning eng muhim jihati hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlod ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq ma’naviy durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlardan oqilona foydalanishga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Axloq-odobli bo‘lish, ota-onalar va kattalarga *hurmat, samimiylik, inoqlik, vijdonlilik, iffatlilik*, o‘zaro yordam kabi insoniy xislatlar o‘zbek xalqi ma’naviyatining ramzi sanaladi. Milliy ma’naviy boyligimizni o‘quvchilar chuqur egallashlari uchun uning bebaho durdonalarini keng ko‘lamda namoyish qilishimiz, bular to‘g‘risida yoshlar ongiga muayyan bilimlarni yetkazishimiz zarur.

Tayanch iboralar:

individ, shaxs, individuallik, shaxs yonalganligi, aktivligi, dunyoqarashi, qiziqishi va e’tiqodlari, shaxsning o‘z-o‘zini anglashi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. O'z-o'zini kuzatish va ijobiy hamda salbiy xislatlarini aniqlash.
2. Guruh o'quvchilarini kuzatish va o'zbek xalqiga xos bo'lgan xislatlarni aniqlash.

Mavzu asosida savollar:

1. Shaxs deganda siz nimani tushunasiz?
2. Shaxs qanday tuzilishga ega?
3. Individ bilan shaxsning o'xshashligi va farqi nimada?
4. Shaxsning faolligi nimalarda o'z aksini topadi?
5. Shaxsning shakllanish omillari haqida so'zlang.
6. O'zini o'zi anglash nima?

GURUH VA JAMOALAR

Shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida, shaxs ma'lum insonlar davrasida, guruhida, jamoada bo'lgan taqdirda ro'y beradi. Shuning uchun ham mutaxassislar jamoalarda ro'y beradigan shaxslararo ta'siming qonuniyatlari va mexanizmlarini bilishlari va ularni guruhda odamlar mehnatini tashkil etishda albatta inobatga olishlari kerak.

Har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatida u mansub bo'lgan millat, xalq, hudud, kasbiy toifa, mehnat qiladigan jamoasi, yaqin atrofdagi muqim guruh, oilasining ta'siridan paydo bo'lgan sifatlari va xususiyatlari bo'ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tizimi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar haqida yuqorida gapirgan edik. Bu ta'sir *makro* bosqichdagi ta'sirlar deb atalib, yaqin muhitning tas'iri *mikro* bosqichdagi ta'sirlar deb yuritiladi. Ikkala bosqichdagi ta'sirlar ham ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan ahamiyatli va tarbiyaviy mohiyatga egadir. Chunki har bir sharoitda shaxs o'ziga xos ijtimoiy rollarni bajaradi va o'zining "qiyofasini" namoyon etadi.

Shunday qilib, shaxsga bir vaqtning o'zida turli ijtimoiy guruhlarining ta'siri bo'lib turadi. To'g'ri, ma'lum davrda bir ijtimoiy guruhning shaxsga ta'siri sezilarliroq va ahamiyatliroq, ikkinchisniki esa sal kamroq bo'ladi. Masalan, o'quvchilik yillarida maktabdagi o'quvchilar guruhining ta'siri mahalladagi o'rtoqlar davrasinikidan kuchliroq bo'lishi, yangi xonadonda kelin bo'lib tushgan qiz uchun yangi oila muhitining ta'siri talabalik guruhinikidan kuchliroq bo'lishi tabiiy. Lekin har bir alohida

daqiqada biz doimo ma'lum guruhlar ta'sirida bo'lamiz. Xo'sh, guruhning o'zi nima? **Guruh** – *ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasidir.* Demak, guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: biror faoliyatning bo'lishligi (mehnat, o'qish, o'yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda u yerda odamlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi.

Har bir shaxs uchun taraqqiyotning har bir alohida bosqichida shunday odamlar guruhi bo'ladiki, u ularning *niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga tahlid qiladi.* Bunday guruhlar psixologiada **referent guruh** deb ataladi. Amerikalik sotsiologlar referent guruhlarining bir necha turlarini farqlaydilar.

Normativ guruhlar – *bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning normalarini u ma'qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo'ladi.* Bunday guruhlariga birinchi navbata oilani, dini yoki milliy uyushmalarini, professional guruhlarini kiritish mumkin. Masalan, o'zbek xalqi uchun dasturxon atrofida o'tirgan zahoti yuzga fotiha tortish, mezbonlarning mehmonlarga "Xush kelibsizlar" deyishlari norma hisoblanadi va har bir oilada shunday harakatlarga nisbatan ijobiy ustanovka shakllanadi. Bunda bola uchun referent rolini ota-onasi, kattalar mahallasidagi hurmatli insonlar ro'l o'ynaydi.

Qiyoslash guruhlar – *bu shunday guruhki, shaxs o'sha guruhga kirishni uni ma'qullashga muhtoj bo'lmaydi, lekin o'z harakatlarini yo'lga solishda unga asoslanadi va korreksiya qiladi.* Masalan, talabalar guruhida shunday yoshlar bo'lishi mumkinki, shaxs ular bilan umuman muloqatda bo'lmaydi, ularning fikrlari yoki qarashlarini yoqlamaydi, lekin bu guruh aynan o'shalarga o'xshamaslik va o'z ustida ko'proq ishlashga o'zini safarbar qilish uchun kerak yoki talaba yoshlar sessiya yakunlariga ko'ra differensial stipendiya oladilar. O'rtacha o'zlashtiruvchi talaba uchun "Hamma talabalar" oladigan stipendiya miqdorini nazoratda tutib, o'zini tinchlantiradi, alochi esa, o'zini nafaqat oldin balki o'rtachalar bilan balki, davlat stipendiyalarini oladiganlar ham solishtiradilar. Ko'rsatgichlar qancha yuqori bo'lsa, shunga mos da'vogarlik darajasi ham yuqori bo'ladi, shaxsning qiyoslash guruhlar ham ortiqroq bo'ladi.

Negativ guruh – *shundayki, shaxs ularning xatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutlaqo farg*

qiladi. Masalan, ikki qo'shni bir-birlari bilan murosalar kelishmasa, hattoki, devorlarini oqlashda ham biri tanlagan rangni ikkinchisi tanlamaydi. Biri "oq" desa, ikkinchisi, "qora" deb turaveradi.

Kundalik hayotda shaxs muloqatda bo'ladigan, vaqtini birgalikda o'tkazadigan kishilar guruhi ham turli xil bo'ladi. Masalan, *odamlar ko'chada tasodifiy hodisani tomoshabini bo'lsa, ularni psixologiya tilida guruh emas, agregatsiya (olomon) deb atashadi.*

Haqiqiy guruh uchun o'sha odamlarning barchasiga aloqador umumiy faoliyat va hamkorlik qilish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bo'lishi karak. Amerikalik psixolog Ch. Kuli hamkorlikning darajasi mezoniga ko'ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'lib o'rganishni taklif etgan edi. *Birlamchi guruhlar* shaxslararo o'zaro ta'sir "yuzma-yuz, bevosita" ro'y beradi. Masalan, oila davrasidagi, sinfdagi, hisobchilar xonasida o'tirganlar guruhga misoldir.

Ikkilamchi guruhlar – har doim ham odamlarning bevosita muloqatda bo'lish imkoniyatlari bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi munosabat va o'zaro ta'sir bilvosita bo'ladi. Masalan, yirik bir tashkilotdagi tizimlar orqali muloqat, kasaba uyushmasidagi birlashgan odamlar, "Vatan" taraqqiyoti partiyasi a'zolarining bog'liqligi ikkilamchi guruhga misol. Ularda ham umumiylik bo'ladi, masalan, o'sha partiyani oladigan bo'lsak, ular Qashqadaryoda bo'ladimi, Farg'onadami, bari-bir umumiy g'oya atrofida birlashadilar, a'zolik badallarini vaqtida to'lab turishadi, saylov oldi kompaniyalarida bir-birini qo'llab-quvvatlab turadi.

KICHIK GURUHLARNING TURLARI	
SHARTLI (NOMINAL)	REAL (HAQIQIY)
TABIY	LABORATORIYA TIPLI
FORMAL (RASMIY) KUCHSIZ PIVOJLANGAN KORPORATSIYA REFERENT	NOFORMAL (NORASMIY) KUCHLI RIVOJLANGAN JAMOALAR NOREFERENT

Ko'pincha guruhlarni rasmiy va norasmiy turlarga ham bo'lib o'rganiladi. *Rasmiy guruhdagi munosabatlar rasmiy normalar va huquq burchlari tizimi bilan belgilangan bo'ladi.* Masalan, guruhda boshliq bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlovchi guruh rasmiy bo'lsa, *norasmiy – ichki bevosita psixologik munosabatlarni*

ta'minlovchi guruh hisoblanadi. Masalan, do'stlar guruhi, yoki talabalar guruhidagi barcha qizlarning tanaffus paytidagi muloqoti guruhi.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funksiyalarni bajaradilar:

a) ijtimoiylashtiruvchi funksiya;

b) instrumental, ya'ni, aniq mehnat vazifalarini amalga oshirishga imkon beruvchi muhit;

c) ekspressiv – odamlarning o'zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovar bo'lish, ishonch qozonishni ta'minlash;

d) qo'llab-quvvatlash, ya'ni, qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funksiyasi.

R.S.Nemov kichik ijtimoiy guruhlarning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etgan(9-jadval).

Guruhlar ulardagi odamlar *soniga ko'ra katta va kichik guruhlarga* bo'linadi. Psixologiyada ko'proq kichik guruhlar o'rganiladi. Uni necha kishi tashkil etilishi, necha kishi hamkorlikdagi faoliyati ko'proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko'pchilik olimlar guruhning boshlang'ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishi- *diadani* tan olishadi. Polyak olimi Yan Spenanskiy bunga qo'shilmasada (uning fikricha kamida uch kishi-triadada boshlanadi), har qanday diada o'ziga xos uyushma sifatida tan olingan. Masalan, yangi oila qurib, birga yashayotga kishilar, sevishganlar, ikki do'st o'ziga xos kichik guruhdir. Har qanday kichik guruhga xos sifat shuki, uning a'zolari bir-birlari bilan bevosita muloqatga kirishish, "yuzma-yuz" bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir kishi uchun guruh juda ahamiyatli bo'lib, uning normalariga o'zi xohlab-xohlamay bo'ysuna boshlaydi.

Kichik guruhning chegarasi masalasi ham ko'p muhokama qilinadi.

G.M.Andrev bu chegarani 12-15 kishi deb hisoblasa, amerikalik Moreno o'z vaqtida bu chegarani 30-40 gacha surgan edi. Lekin bizningcha, uning yuqori chegarasi necha kishi bo'lishidan qat'iy nazar, o'zaro bevosita muloqat imkoniyatini berishi va har bir a'zo bir-biriga ta'sir ko'rsata olishi kerak.

Har bir guruh o'ziga xos psixologik tizimga ham ega. Uni tashkil etuvchi elementlar nisbatan barqaror bo'lib, ular guruh a'zolari xulq-atvorini muvofiqlashtirib turadi. Avvalo guruhning maqsadini ajratish kerak. Maqsad – odamlarni jamoa mehnati atrofida uyushtirib, birlashtiruvchi psixologik elementdir. Masalan, talabalarning maqsadi – o'qish, mutaxassis bo'lib yetishish.

Guruh hayoti va undagi a'zolarining o'zlari yaxshi his qilishlari ko'p jihatdan ularning hamkorlikda ishlay olishlari va bir-birlariga ijobiy munosabatda bo'la olishlariga bog'liq bo'ladi. Bu hodisani tushuntirish uchun psixologiyada psixologik moslik tushunchasi mavjud. Psixologik moslik deganda, guruh a'zolari va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarning mos kelishi, qolganlarini kerak bo'lsa, tafovut qilishi nazarada tutiladi. Moslikning mezonlari sifatida:

N.Obozov quyidagilarni ajratadi:

- a) faoliyat natijalari;
- b) a'zolarning sarflagan kuch-energiyalari;
- v) faoliyatdan qoniqish.

Guruhda odamlarning bir-birini yoqtirishi yoki aksincha, inkor qilishlari ko'pincha turli xil qarorlar qabul qilish jarayonida ro'y beradi. Guruhiy qarorlar qabul qilish individual qarorlar qabul qilish jarayonidan tubdan farq qilmaydi. Ikkisida ham avval muammo aniqlanadi, ma'lumotlar to'planadi, bir necha takliflar ilgari suriladi.

Tayanch iboralar:

guruh, referent guruh, agregatsiya, rasmiy, norasmiy, psixologik moslik, diada, triada, sotsiometriya.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Guruh deb nimaga aytiladi?
2. Guruhlar klassifikatsiyasi .
3. Referent guruh normalari.
4. Normativ va qiyoslash guruhi.
5. Negativ guruhi.
6. Ijtimoiy psixologik o'zaro moslik va uning mezonlari.

FAOLIYATNING PSIXIK TAHLILI

Voqelikka nisbatan munosabatning muhim shakli sifatidagi faoliyat inson bilan uni qurshab turgan olam orasida bevosita aloqa o'rnatadi. Tabiatga, narsalarga o'zga odamlar ta'sir ko'rsatish ham faoliyatning qudrati bilan ro'yobga chiqadi. Inson faoliyatda narsalarga nisbatan subyekt sifatida, shaxslararo munosabatda esa shaxs tariqasida gavdalanadi hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga musharraf

bo'ladi. Buning natijasida ikki yoqlama bog'lanish uzluksiz harakatga kirishishi, to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishi tufayli inson narsalarning, odamlarning, tabiat va jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'playdi. Har xil xususiyatli o'zaro munosabatlar negizida faoliyat subyektini uchun narsalar subyektlar sifatida, odamlar esa shaxs timsolida aks eta boshlaydi.

Inson faoliyatga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilishi tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterga tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglatuvchi matn paydo bo'ladi. *Psixologiyada faoliyatning alohida bir xususiy vazifasini bajarishga mo'ljallangan, nisbatan tugallangan qismi (unsuri), tarkibi harakat deb nomlanadi.* Duradgor eshik yasamoqchi bo'lsa, avval munosib material tanlaydi, ularni o'lchaydi, unsurlarini sanaydi, randalaydi, qismlarni bir-biriga joylashtiradi, yopishtiradi, unga pardoz beradi, oshiq-moshiq qoqadi, kesaki o'rnatadi, ochib yopilishini tekshiradi va hokazo. Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, duradgorning gavdasi, oyoq-qo'llari, boshining tutishi sa'i harakatlari bilan birga "tanlash", "ishlov berish", "o'rnatish" amal qismlari majmuasi faoliyatni tarkib toptiradi. *Sa'y-harakatning harakatdan farqli tomonlari uning aniqligi, maqsadga yo'nalganligi, epchilligi, uyg'unligi singari belgilarida o'z ifodasini topadi.*

Inson faoliyatida narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlardan tashqari:

- a) tananing fazoviy holati;
- b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish);
- v) joy almashish (yurish, yugirish);
- g) aloqa vositalari sa'y-harakatlari qatnashadi.

Odatda aloqa vositalari tarkibiga:

- a) ifodali sa'y-harakatlar (imo-ishora, pantomimika);
- b) ma'noli ishoralar ;
- v) nutqiy sa'y-harakatlar kiritadi.

Sa'y-harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilgan harakatning

ishga tushishi muayyan sa'y-harakatlar tiziminining amalga oshirishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning maqsadiga, ta'sir o'tkaziladigan narsalarning xususiyatlariga va harakatning amalga oshishi shart sharoitlariga bog'liq. Jumladan,

a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzdagi sa'yi-harakatni taqozo etadi;

b) avtomobilni haydash velosipedda uchishga qaraganda ayricha sa'y-harakat talab qiladi;

v) ellik kg shtangani ko'tarishga bir pudlik toshga qaraganda kichik shaklni joylashtirish, qiyin kechadi.

Yuqorida keltirilgan misollar turlicha obyektlarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularga harakatning maqsadi yagonadir.

Sa'y-harakatning amalga oshirilishi beto'xtov ravishda nazorat qilinadi, uning mahsuloti harakatning pirovard maqsadi bilan qiyoslanadi va unga ayrim tuzatishlar kiritiladi, xuddi shu tarzda boshqaruv betinim takrorlanaveradi, harakatni nazorat qilish jarayoni esa sezgi a'zolari yordami bilan vujudga keladi. Sa'y-harakatning sensor (sezgi a'zolari yordamida) nazorat qilishning isboti uning oynadagi o'z aksiga qarab chiqishda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, oynada qalamning odam qo'li harakat yo'nalishi bo'yicha emas, balki qarama-qarshi tomonga harakatlanayotganday tuyuladi. Inson ko'rish orqali mashqlanishi tufayli malumotlardan foydalanish bilan harakatni muvofiqlashtirishni uddalaydi.

Sa'yi-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa prinsipiga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbayi sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'yi-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, miyani ilgarilab aks ettirish imkoniyati va hali amalga oshirilmagan harakatning natijasi inson psixikasida qay tarzda in'ikosi etilishi kuchli qiziqish uyg'otadi. Bu hodisaning izohlashning yagona yo'li u ham bo'lsa borliqning muhim xususiyati hisoblanmish qonuniyatning mavjudligidir. *Borliqdagi qariyb (neosfera hisobga olinmaganda) barcha narsalar, munosabatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar, tuzilmalar bir-biri bilan doimiy bog'liqlikka ega bo'lib, muayyan qonuniyat asosida harakatlanadi, bu*

holatdan ikkinchisiga o'tadi. Shuning uchun idishdagi suv qaynatilsa bug'ga aylanadi, harorat pasaysa, u muzlaydi, havo isiganida esa muz eriy boshlaydi, bahor ketidan yoz keladi, narsalar ishqalansa qiziydi va hokazo. Xuddi shu bois obyekt bilan hodisa o'rtasidagi o'zgarish, barqaror munosabatlar, obyektning muhim xususiyatlari hodisaning qonuniyati deyiladi. Ularda o'zgarish xususiyatlar va qonuniyatlarining mavjudligi o'zgarishlarning oldindan payqash, harakatlarni muvofiq yo'naltirish imkonini vujudga keltiradi. Tashqi, yaqqol faoliyat favquloddagi davrda ichki timsoliy (psixik) faoliyat tarzida his etiladi.

· Inson faoliyati murakkab va o'ziga xos jarayon bo'lib, shunchaki ehtiyojlarni qondirishdan iborat emas, balki ko'pincha jamiyatning maqsadi va talablari bilan belgilanadi. Xuddi shu boisdan qo'yilgan maqsadning anglanilganligi va unga erishish bo'yicha ish harakatlari tajribasi bilan bog'liq ekanligi inson faoliyatining o'ziga xos belgisi bo'lishini tasdiqlaydi.

Psixiologiya fanida harakat tushunchasi tahlil qilinganida u motor (jismoniy) harakat, sensor (hissiy) harakat va markaziy qismga ajratiladi. Shunga muvofiq ravishda ajratilgan tarkiblar harakatni amalga oshirish jarayonida bajaradigan ishlarni ijro etish, nazorat qilish va boshqarish bilan shug'ullanadi. Faoliyat harakatlarining ijro etish, nazorat qilish va boshqarishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlar uning usullari deyiladi.

Odatda harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshirilishi kuzatiladi. Harakatni bajarishda ong borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ishni amalga oshirish avtomatlasha boshlaydi, ayrim mayda-chuyda qismlarga nisbatan e'tibor (nazorat) kamayadi. Shuning uchun inson faoliyatida maqsadga yo'naltirilgan sa'yi-harakatni ijro etish va boshqarishning muayyan darajada avtomatlashuvi malaka deyiladi. Xuddi shu boisdan harakatni boshqarish bilan sa'yi-harakatni boshqarish ayni bir narsa emas, albatta. Chunki sa'yi-harakatning yuksak darajada avtomatlashuvi uning o'z tarkibidagi harakatni ongli ravishda idora qilish bilan uyg'unlashib ketadi. Patologik holatlardan tashqari, barcha faoliyat turlari ong bilan boshqarilib turadi. Harakat tarkiblarining avtomatlashuvi: birinchidan, ongli ravishda yo'naltirilgan obyektini almashtiradi. Ikkinchidan, harakatning umumiy maqsadlarini, uning ijro etilishi shart-sharoitlarini, natijalarini nazorat qilishni, uchinchidan, ularni baholashni ong uning tasarrufi doirasiga kiritadi.

Tayanch iboralar:

faollik, faoliyat, teskari aloqa, sensor nazorat, sa'y-harakatlar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Faollik deganda nimani tushunasiz?
2. Faoliyatning tuzilishi nimadan iborat?
3. Sa'y-harakatlar tizimi nimalardan iborat?
4. Faoliyatning tarkibiy qismi nimalar asosda vujudga keladi.
5. Faoliyat turlari qanday?

FAOLIYAT TURLARI VA ULARNI BOLALARDA RIVOJLANISHI

Inson shaxsining shakllanishi o'yin, ta'lim, mehnat, sport va boshqa faoliyatning turlarida amalga oshadi. Faollik tufayli faoliyatni amalga oshirish jarayoni yuzaga keladi, xulq-atvor, muomala (kommunikatsiya) vositasida ehtiyoj, istak, ijtimoiy talablar qondiriladi, turli xususiyatli axborotlar o'zlashtirilishi natijasida shaxs tarkib topa boshlaydi.

O'yin faoliyatida bola shaxsida xulq va odob malakalari asta-sekin shakllantiriladi. Bolaning shaxsi tarkib topishida kattalarning axloqiy ibrati alohida

FAOLIYAT TURLARI		
O'YIN	TA'LIM	MEHNAT

ahamiyatga molikdir. Lekin yuksak fazilatlarni, insoniy xislatlarni shakllantirishda shuning o'ziga yetarli emas, chunki bola o'zicha faol harakat qilmasa, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etmasa, unda hech mahal xulq-atvor ko'nikmalari hosil bo'lmaydi. Ma'lumki, o'yin faoliyatida va muloqatlarda bolaning shaxsiy fazilatlari hamda xarakter xislatlari uning nutqiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bolaning nutq faoliyati qanchalik ravon va boy bo'lsa, u ona tilining durdonalaridan unumli foydalana olsa, uning o'zaro fikr almashishi ham shunchalik qulay va oson amalga oshadi. Kamolotning mazkur pallasida egosentrik nuqt muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli va rolli (sujetli va mazmunli) o'yinlar (chunonchi, "Militsioner", "Sotuvchi", "Shifokor", "Qorbobo" va boshqalar) jarayonida amaliy xatti-harakat bilan uzviy

bog'liq holda bola shaxsida insoniy xislatlar tarkib topa boradi. O'yin faoliyati va turli o'yinlar bolada irodaviy sifatlarni takomillashtirishda, his-tuyg'uni boshqarishda yetakchi faoliyat vazifasini o'taydi.

Rolli o'yin – bolalarning yetakchi faoliyati. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita "bajaradilar". Shu boisdan o'yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarsi, his-tuyg'usi, o'zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muhitga munosabatini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi va mohiyati va mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Rolli o'yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri – bolada o'z xatti-harakatini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish aynan unga o'xshatish tuyg'usining mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki ibrat namunasi bo'ladi va kattalar uning xulq-atvori yurish-turishining ham obyekt, ham subyekt hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilingan shart-sharoitlarning o'zi rolli o'yinlarni yaratish uchun hali yetarli emas, buning uchun bola bilan kattalar o'rtasidagi munosabatni tubdan o'zgartirish lozim, aks holda, mustaqillik vujudga kelmaydi. Bunda kattalar bolaga nisbatan talabchanlikni oshirishlari, bolani mustaqil ravishda xatti-harakat qilishga majbur etishlari ma'qul. Shunga o'xshash tadbirlar bolada mustaqillik va mustaqil faoliyatni tashkil qilish uquvini shakllantiradi. Bola asta-sekin kattalarning hayoti va faoliyati dunyosiga kirib boradi, oldin hamkorlikdagi faoliyatda namoyon bo'lgan ijobiy his-tuyg'ular, shijoat va dadillik sari yetaklovchi ruhiy kechinmalar ibrat-namuna darajasiga ko'tarilgan kattalarning ruhiy olamiga ko'chiriladi. Endi bolaning o'zi mustaqil ravishda kattalarning hayot va faoliyatiga kirishish yo'llarini

topa boshlaydi. U keyinchalik katta kishilarning hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida va shaxslararo munosabatlarida qatnashish istagini ko'rsatadigan bo'ladi. Shuning uchun rolli o'yin u kattalar bilan bola o'rtasidagi yangicha munosabatlar asosida vujudga keladi, deb xulosa chiqarish mumkin. Rolli o'yin vujudga kelishi jihatidan ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kattalarning hayoti va faoliyatini qayta tiklash va takrorlashdan boshqa narsa emas, shuningdek, bu o'yin faoliyati o'zining mazmuni va mohiyati bilan ham ijtimoiydir. Rolli o'yin bola mustaqil faoliyatning yorqin namunasi hisoblanib, u o'yinning mazmuni orqali kattalarning hayoti bilan yaqindan tanishadi.

Bolalarning rolli o'yinlarda faoliyatini, ana shu o'yin sharoiti va predmetli harakatning o'zaro munosabatini tekshirgan L.S.Slavina rolli o'yinlarda ko'pincha asosiy e'tibor o'yinchoqlar bilan harakat qilishga qaratilishini bunda o'yinchoq harakatining xususiyati subyekt uchun yetakchi faoliyat vazifasini o'tashini, bu jarayonda rol ikkinchi darajali alomatga aylanib qolishini, ammo bola o'yinlarda qandaydir vazifani bajarishini qayd qiladi. Olimaning yozishicha, rol va o'yinning shart-sharoitlari bolaning harakati uchun farqi yo'q narsalar emas, bola jismlarga ijtimoiy mazmunni aks ettiruvchi voqelik sifatida yondashadi.

Psixologiyada qabul qilinganidek, rolli faoliyati sujet va mazmundan tashkil topadi. Odatda sujet deganda, o'yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqelikning doirasi tushuniladi. O'yin sujeti turli davrga, sinfiy xususiyatiga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda yaratiladi. Bola munosabatga kirishadigan voqelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo'lsa, o'yinning sujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

O'yinlarning sujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlariga birlashtirish imkoniyati mavjuddir.

Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonini to'g'ri tashkil qilish orqali o'yin sujetlarining ko'lamini rejali kengaytirish mumkin. Bolalar psixologiyasi fanida qat'iy ifodalanganidek, bola bog'chaga kelganda uning o'yin sujeti faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, sayrlarga olib borish, tabiatni kuzatish natijasida o'yinning turlari ko'payib boradi: bog'cha, hayvonot bog'i, oshxona, poyezd, paroxod, sartarosh, sotuvchi kabi o'yinlar qo'shiladi. Bolaning yoshi ulg'aya borishi bilan o'yinning muddati ham uzayib boradi. Mazkur jarayonni tadqiq qilgan A. P. Usovaning ma'lumotiga ko'ra, 3-4 yoshli bolalarning o'yin

faoliyati 10-15 daqiqa, 4-5 yoshli bolalarning o'yin faoliyati 40-50 daqiqa, katta maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati bir necha soatgacha cho'zilishi mumkin. Hatto, bir turdagi o'yinlarning sujetlari butun kun bo'yi, qolaversa, undan ham ortiq vaqt davom etadi. Bu hol bola o'yin faoliyati jaroyinida hayot-faoliyatining u yoki bu qirrasini, muhim jihatini alohida ifodalab ijro etadi, deyishga hech qanday asos bo'la olmaydi. Chunki psixologiya fanida hozirgacha to'plangan ma'lumotlar bunday muammolarga javob bera olmaydi.

Rolli o'yin bolalarning hamkorlikdagi mahsuloti tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtirokchilar o'rtasidagi nizolar, tortishuvlar kamayadi, rolga o'zini loyiq deb bilish o'zidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam-o'qituvchi, qaychi – tikuvchi rolini olish uchun asos bo'la olmaydi), balki o'yinning mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. Natijada ular rolni almashtirish, bir buyumdan boshqasiga bir obrazdan ikkinchisiga o'tishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

Bolalarning o'yin faoliyati negizida va mazmunini ular o'z zimmasiga olgan rolning mohiyatidan kelib chiqib o'yinning barcha qoidalariga rioya qilish tashkil etadi. Tengqurlar orasidagi baxs va tortishuvlar o'yin qoidalari va talablari qanchalik to'g'ri bajarilayotgani haqida bo'ladi.

O'yin mazmunining rivojlanishi bolaning hayoti va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishida, atrofdagi voqealarga munosabati o'zgarishida, shuningdek, o'yin mazmuni hamda sujeti ijtimoiy shartsharoit va jamiyat a'zolari turmushning tobora to'g'ri aks ettirishida ko'rinadi. Shuning uchun bolalarda o'yin qobilyatining o'sishi o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi, balki kattalarning, tarbiyachilarning ta'siri natijasi; atrof-muhit bilan tanishish, sayrlar uyushtirish, shaxslararo munosabatlarning mohiyatini tushunish va hokazolar natijasida amalga oshadi.

Qator ilmiy tadqiqotlarda isbotlanishicha, o'yinda tarbiyaviy ta'sir jamoasi to'g'ri uyushtirilsa, bolalar hayotida juda murakkab, nozik psixologik mexanizm paydo bo'ladi va shaxslararo munosabat boshqacharoq tus oladi. Bolalar jamoasidagi o'zaro munosabatlar, muloqotlar o'yinning mazmunini boyitadi, sujetning ko'lamini kengaytiradi, rollardagi g'oyalar barqarorlashib boradi. Guruh va jamoa bo'lib o'ynash orqali bolalarda jamoa harakati qoidalari, axloq normalari, o'zaro yordam ko'nikmalari va boshqa umuminsoniy qadriyat, ma'naviyat va ruhiyatning tarkibiy qismlari shakllanadi.

O'qitishning psixologik asoslari haqida umuman gapirishdan oldin, o'qitishga bog'liq bo'lgan tushunchalar bilan tanishib chiqish zarur, albatta. Avvalo, o'qitish tushunchasining o'zi qanday mazmunga ega? Pedagogikada ham, psixologiyada ham bu tushunchaning mazmuni turlicha ta'riflanadi. Har bir ta'rifga batafsil to'xtab o'tirmasdan, uning psixologik mazmunini aks ettiradigan ta'rifini keltiramiz.

O'qitish o'quvchiga ma'lum bilim, iqtidor, malakalar, berish va bu bilan odamning bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ko'rinib turibdiki, o'qitish ikki tomonlama jarayon bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi tomonidan amalga oshirilgan ekan yoki o'qitish pedagogik jarayon bo'lib, bu jarayon davomida maxsus tayyorlangan kishi rahbarligida bilim, iqtidor, malaka egallanadi.

Bu ta'rifda o'qitish jarayonining ikki tomoni: kimning o'qitilayotgani, kimning o'qiyotgani aniq aks ettirilgan. O'qitish ikki tomonlama jarayon bo'lib, bu jarayon *o'qituvchi va o'quvchining faol faoliyati* asosidagina normal o'tishi mumkin. Bulardan birining passivligi bilim, iqtidor va malakalarni muvaffaqiyatli egallashni ta'minlaydi. Shuning uchun didaktika bilim, iqtidor va malakalarni egallash jarayonida o'qituvchi va o'quvchining faol faoliyatda bo'lishlariga asos bo'ladigan qonuniyatlarni ishlab chiqqan. Hozirgi vaqtda fanlar jadal sur'at bilan rivojlanayotgan bir sharoitda bilim, iqtidor, malakalarni "didaktik prinsiplar" yordami bilangina berib bo'lmaydi. Hozirgi o'qitish va o'qish juda murakkab jarayonni tashkil qiladi, bu jarayonda o'qitayotgan shaxs o'quvchilarga faqat bilim, iqtidor, malakalargina berib qolmay, balki o'quvchilarning, bu bilim, iqtidor va malakalarni mustaqil o'rganishga erishishga harakat qiladi. Umuman hozirgi zamon maktabi o'quvchilarni mustaqil ravishda bilim olishga o'rgatmoqda.

O'qish yoki o'rganishning o'zi nima? Uning mazmuni nimadan iborat? O'qish odam faoliyati bo'lib, bilim, iqtidor, malakalar formasi-da ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish bilan xarakterlanadigan va hosil qilingan bilimlarni amaliy vazifalarni hal qilish uchun qo'llanish tushuniladi.

Maktab sharoitida o'qish o'qituvchi rahbarligidagi o'qitish jarayonining bir tomonidir. O'qishning muvaffaqiyatli bo'lishining muhim sharti o'quvchining o'qish vazifasini mustaqil bajarishidir. Bu jarayon kerak bo'lgan vaqtda o'qituvchi yordamini taqozo qiladi, o'qituvchi o'quvchining mustaqil bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi kerak.

Bilimlarni o'zlashtirishning o'zi nima?

Bilimlarni o'zlashtirish bilish faoliyatidir, bu faoliyat bilimlarni, iqtidorni va malakalarni egallashga qaratilgan muhim faoliyatdir. O'zlashtirish jarayon o'qishni psixologik tomoni bo'lib pedagogik ta'sir o'quvchilar ongida qanday fikr va tasavvurlar vujudga keltirayotganligini, o'quvchilarning o'qish va amaliy faoliyatida qanday aks etayotganligini va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hamda ularda ilimiy dunyoqarashni vujudga keltirishga qay darajada yordam berayotganligini ko'rsatadigan jarayondir.

Bilim odamlar tomonidan borliqdagi predmet va hodisalarni, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini bilish mahsulidir. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilar bilimi tabiat va jamiyat qonunlarini aks ettiradigan dalillar, tushunchalar va fan qonuniyatlarini o'zlashtirishga pedagog tomondan yo'naltirilgan faoliyatdir. Buning ma'nosi shuki, o'qitish jarayonida ham, mustaqil o'qish jarayonida ham o'quvchilarning tevarak-atrofdagi dunyoni, tabiat va jamiyat hodisalarini anglashga, tushunishga harakat qilishlaridir.

Ma'lumki, o'qitish jarayonida, bilimlardan tashqari, *iqtidor ham shakllanadi. Iqtidor bu maqsad va shartlarni amalga oshirishni hisobga olgan qandaydir harakat va faoliyatni muvoffaqiyatli bajarish imkoniyatidir.*

O'qitishning tarkibiy qismlaridan biri malaka hosil qilishdir. Malaka murakkab faoliyatni bajarish sharoitida, mashq yordamida mustahkamlangan, avtomatlashgan harakatlardir. Odamning har qanday faoliyati ma'lum miqdorda malakaning bo'lishini taqozo qiladi. O'ziga xos komponentlarni avtomatlashmagan faoliyat muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Masalan, yozish, o'qish, masala yechish va hokazo. Malakalarsiz o'quv faoliyati muvaffaqiyatli bo'lmaydi.

Shunday qilib, o'qitish murakkab jarayondir, bu jarayonda bilim, iqtidor va malakalar o'zaro bir-biriga dialektik aloqadordir. Bularni o'zlashtirish kattalar va o'quvchilarning murakkab o'quv va amaliy faoliyati asosida amalga oshiriladi. O'qitish birinchi navbatda bolalarning yosh xususiyatlariga asoslanishi zarur. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmay turib, o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Uch yoshli bolani, masalan, oliy algebra elementlarini o'rgatib bo'lmaydi. Boshqa tomondan olganda, o'qitish ishini shunday tashkil qilish kerakki, bunda o'qitish jarayoni bolaning har tomonlama o'sishiga imkon bersin.

Hozirgi zamon psixologiyasi va pedagogika fanlari ratsional tashkil qilingan o'qitishning o'quvchilarda idrok, kuzatuvchanlik, xotira, xayol, his-tuyg'u, tafakkur, iroda, qiziqish qobiliyatlarining va boshqa sifatlarning tarkib topishi va rivojlanishiga ta'sir haqida qator ma'lumotga ega. Psixologik zarur bo'lgan psixik xususiyatlargina vujudga kelib qolmay, bu xususiyatlarning o'qitish jarayonida rivojlanishini ham e'tirof etmoqda. Bunday holat ayniqsa o'qish motivlariga talluqlidir. Ko'pincha o'qish motivlari o'qitish jarayonida vujudga kelib, o'qishning muvaffaqiyatli bo'lishi natijasi va sharti hamdir.

Insoniyat o'zining mehnati tufayli ongli mavjudodga aylangan, jamiyatda mo'l-ko'lchilikni yaratgan, tabiatda esa ayrim o'zgartirishlarni amalga oshirgan, borliq to'g'risidagi ma'lumotlarni egallashga erishgan. Mehnat faoliyatining tarkibida mehnat va ish-harakat yotadi. Ularning har qaysisining muayyan ulishi natijasi o'laroq faoliyat mahsuli vujudga keladi, u moddiy yoki ma'naviy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Ajdodlarimiz yaratgan kasb-kor ko'nikmalarini avlodlarga o'rgatish mehnat faoliyati yordamida amalga oshiriladi. Kasbiy malakalarni rivojlantirish, takomillashtirish, mahsulot yaratish va undan maqsadga muvofiq foydalanish mehnat faoliyati orqali ro'yobga chiqadi. Mehnat faoliyatida ko'nikmalar barqarorlashadi, nazariy fikr, g'oya, mulohaza vujudga keladi. Faoliyat bilan ong birligi yagonaligi sababli shaxs tarkib topadi, ham axloqan, ham aqlan rivojlanadi. Mehnat faoliyati individual xususiyat kasb etsa-da, lekin uning mohiyati ijtimoiydir. Inson shaxsiy ehtiyojini qondirish uchun mehnat qiladi, u yoki bu mahsulot ishlab chiqaradi, oqibatda odam jamiyatning ijtimoiy farovonligi uchun o'z shaxsiy ulushini qo'shadi.

Mehnat faoliyati yashash, ehtiyojni qondirish, kelajak uchun mo'l-ko'lchilik vujudga keltirish, yaratilgan (me'morchilik, san'at, madaniyat asar)larini saqlash, asrash, meros qilib qoldirish funksiyalarini bajaradi. Shuning uchun mehnat faoliyati o'n minglab kasb-kor professiogrammasiga asoslangan holda turli shaklda tashkil qilinadi va muayyan reja, maqsadni ro'yobga chiqarish uchun har xil vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Mehnat maishiy va ishlab chiqarish turlariga ajratilgan holda imkoniyatga, layoqatga, qobilyatga, salohiyatga qarab taqsimlanadi. Shuning uchun mehnat faoliyatining sodda ko'rinishlari ilk bolalikdan amal-

ga oshiriladi. Masalan, dastyorlik, ko'maklashish holatlari shular jumlasidandir. Keyinchalik mehnat faoliyati yaxlit tashkil qilinadi va muayyan maqsad amalga oshiriladi, uining natijasi moddiy ko'rinishga ega bo'ladi.

Mehnat turlari maishiy, ishlab chiqarish sohalari mohiyatidan kelib chiqqan holda paydo bo'ladi va ijtimoiy talab, ehtiyojni qondirish uchun xizmat qiladi. Mehnat faoliyati shaxsni (maosh, maqto'v bilan) rag'batlantiradi va kasbiy shakllanishining yangi qirralarini ro'yobga chiqarishga zamin hozirlaydi. Natijada qobiliyatli, salohiyatli mutaxassis, mahoratli novator kasb egasi bosqichlariga erishishga shaxsni safarbar etadi. Mehnat faoliyati kishida huzurlanish hissini shakllantiradi, butun imkoniyatini ishga tushirishga moddiy, ma'naviy negiz yaratadi.

Bunday ijtimoiy foydali va ta'lim-tarbiya jihatidan qimmatli bo'lgan ishlar ko'pgina o'quvchilarni o'ziga jalb etadi, qobiliyatlarni paydo bo'lishi va o'sishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi, o'quvchilarda mehnatsevarlik hislarini mustahkamlaydi, bolalarga Vatanimizning gulab-yashnashida o'z mehnatlarining ahamiyati borligini chuqur anglab yetishlari uchun imkon beradi. Mehnatsevarlik va qobiliyatlarni hosil qilish hamda ularni mustahkamlashda boshlang'ich sinflarda yo'lga qo'yilgan to'g'ri ta'lim-tarbiyaviy ishlar katta manba hisoblanadi.

Tayanch iboralar:

o'yin, rolli-sujetli o'yin, o'yin mazmuni, o'yin turlari, ahamiyati, o'yinga rahbarlik qilish, ta'lim, o'qitish, bilim, iqtidor, mehnat, ehtiyoj.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Faoliyatning asosiy turlari.
2. O'yin faoliyatining mazmuni.
3. Rolli-sujetli o'yin faoliyati.
4. O'yinning ahamiyati.
5. Ta'lim faoliyatining mazmuni va vazifalari.
6. Bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini tarkib toptirish.

Mavzu yuzasidan mustaqil ishlar:

1. O'yin turlariga oid rasmlar, maqol, xikmatli so'zlar topib kelish.
2. Krossvord, boshqotirmalar va turli o'yinlar tuzish.
3. Faoliyat turlari asosida albom tayyorlash.

SEZGI

Sezgi organlari. Analizatorlar Axborotni qabul qilish va qayta ishlash analizatorlar ya'ni sezgi organlari orqali amalga oshiradi. Tashqi olamdagi ta'sir nerv signallari xolida bosh miyadagi nerv markazlariga yetkaziladi. Bu signallar bosh miyaning turli bo'limlarida qayta ishlanib, uning oily bo'limida sezish, tasavvur qilish anglash bilan yakunlanadi.

I.P.Pavlov har bir analizator bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta periferik, o'tkazuvchi va markaziy qismdan iborat ekanini birinchi bo'lib isbotlagan. Reseptorlar analizatorning periferik qismi hisoblanadi, bular ma'lum ta'sirga javob beruvchi nerv uchlari bilan tugaydi. Retseptorlar tuzilishi, joylashishi, funksiyasiga ko'ra turli xil bo'ladi. Qo'zg'alishni retseptordan bosh miya katta yarimsharlariga o'tkazuvchi markazga intiluvchi neyronlar analizatorning o'tkazuvchi qismini tashkil etadi. Bosh miya katta yarim sharlarning ma'lum retseptorlardan ta'sirini qabul qiluvchi qismlari analizatorning markaziy qismini tashkil etadi. Analizatorning barcha qismlari bir butun holda ishlaydi. Qandaydir analizatorning bir qismi shikaslansa, uning funksiyasi buziladi.

Odamning mehnat faoliyatida analizatorlarning roli juda muhim. Agar bolaning turli organlaridan, turli sezgi organlaridan ta'sir kam bo'lsa, bosh miya rivojlanishdan orqada qoladi. Tashqi olamdagi turli xil ta'sir retseptorlarda, so'ngra bosh miya bo'limlarida analiz qilinadi. Ta'sirining har tomonlama nozik analizi bosh miya katta yarim sharlarida amalga oshadi.

Sezgi organlariga tananing barcha sohasida joylashgan retseptorlar va muskullar, qon tomirlar devoridagi retseptorlar va boshqalar kiradi. Analizatorlarning miya po'stlog'idagi qismi shikastlansa yoki olib tashlansa, ta'sir murakkab analiz va sintez qilinmaydi. Masalan, miya po'stlog'idagi eshitish ana-



lizatorlari joylashgan chekka qismi olib tashlansa, ta'sirning nozik ta-baqalanishi yo'qoladi.

Sezish zonasi. Nerv sistemasining faoliyati uchun ta'sir doimo butun organizmga ta'sir qilib turishi kerak. Ko'pgina sezgi organlari-ning shikastlanishi natijasida ta'sirning ular orqali bosh miyaga yetarli kelmasligi tufayli odam aktiv faoliyatini yo'qotadi, doimo uxlaydi, bunday odamni saqlanib qolgan sezgi organlariga ta'sir etish bilan-gina uyg'otish mumkin. Tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, sensor ta'sirotning yo'qolishi diqqatni to'plash, mantiqiy fikrlash, aqliy mehnat qilish xususiyatlariga salbiy ta'sir etadi. Sezgi organlari orqali ta'sirni tashqi muhitdan, ichki organlardan retseptorlar bo'ylab qabul qilinishi tufayli organizmning tashqi va ichki muhiti haqidagi ma'lumotlar bosh miyaga yetib boradi.

Axborotning retseptorlardan bosh miyaga borishi natijasida orga-nizm o'z-o'zini boshqaradi. Masalan, qonning tarkibi o'zgarsa, shun-ga yarasha qon tomirlar devorida qo'zg'alish, tormozlanish vujudga keladi.

Organizmning sensor sistemalari yoki analizatorlariga ko'rish, eshitish, vestibular, ta'm bilish, hidlash, teri va ichki organlarda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni qabul qiladigan interoretseptorlar yoki vist-seral sensor sistemalar kiradi.

Ta'm bilish analizatori. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining epiteli-yasida yumaloq yoki oval shakldagi ta'm bilish piyozchalari joylash-gan. Har bir piyozchada 2-6 ta ta'm bilish hujayralari bo'ladi. Katta odamda piyozchlarning umumiy soni 9 mingtagacha yetadi. Ular til-ning shilliq qavatidagi so'rg'ichlarda joylashgan. Tilning uchida 150-200 ta zamburug'simon ta'm bilish piyozchalar, asosida esa bargsimon piyozchalar bor. Bundan tashqari, ta'm bilish piyozchalari yumshoq tanglay yuzasida, yutqining orqa devorida va hiqildoq ustida juda siy-rak joylashgan. Har bir ta'm bilish piyozchalaridagi 2-3 ta nerv tomir-laridan markazga intiluvchi impulslar o'tadi.

Tilda shirin, achchiq, nordon va sho'rni sezuvchi ta'm bilish re-tseptorlari joylashgan. Shiringa tilning uchi, achiqqa asosi, nordonga ikki yon qismi, sho'rga esa tilning uchi va asosi sezgir bo'ladi. Mod-dalarning ta'mi ular suvda yoki so'lakda erigan holda qabul qilinganda yaxshi seziladi. Nordon reflektor ravishda yurak qisqarishini tezlatadi, qon tomirlar devorini toraytiradi, teri haroratini pasaytiradi. Shirinlik


tomirlarni reflektor ravishda kengaytiradi, oyoq qon tomirlarining qonga to'lishini yaxshilaydi, miyaning ichki bosimini kamaytiradi va tana haroratini oshiradi. Yangi tug'ilgan bola hayotining birinchi soati va birinchi kunidagi nordon, achchiq, sho'r va shirin ta'sirga javob reaksiyasi ta'sirlovchining tabiatiga mos kelmaydi. 8-10 kundan boshlab shirinlikka adekvat reaksiya paydo bo'la boshlaydi.

Bir yoshdan to 6 yoshgacha ta'm bilish retseptorlarining sezuvchanligi ortib boradi. Maktab yoshidagi bolalarning ta'm bilishi katta odamlarning ta'm bilishidan uncha farq qilmaydi. Keksalarda ta'm bilish sezgisi kamayadi.

Hid bilish analizatori. Odam turli moddalarning hidini burni yuqori chig'anoqlarining o'rta qismi va burun to'sig'ining shilliq pardasidagi maxsus retseptorlar orqali sezadi. Hid bilish xujayralari joylashgan shilliq pardaning yuzasi 5 sm² keladi. Hid bilish hujayralarining o'siqlari hidlash nervini hosil qiladi. Moddaning zarrachalari hidlash sohasining shilliq pardasiga tushib, hid bilish xujayralariga ta'sir etishi natijasida hid sezgisi vujudga keladi.

Hid bilish tufayli odam va xayvonlar turli gazlarni va ovqatning hidini sezadi. Hid sezgisi nihoyatda o'ykir va nozik. Modda havoda juda oz tarqalgan bo'lsa ham odam uning hidini sezadi. 1 litr havoda 1:1000000 nisbatan efir bo'lganda ham odam uning hidini biladi. Hidlash organi ayniqsa vodorod sulfid gazi hidiga nihoyatda sezgir bo'ladi. Ba'zi bir hayvonlarda hid bilish sezgisi juda ham nozik bo'ladi. Ba'zi iskovich itlar nihoyatda kuchsiz hidni ham sezadi. Yangi tug'ulgan bola binafsha, valeriyana, lion, anis va boshqa noxush hidlarga nisbatan yuz mimikasini o'zgartirish, nafas olish va puls o'zgarishi bilan javob beradi. Kuchli hid ta'sir ettirilganda u chuqur va tez-tez nafas oladi hamda tomir urishi o'zgaradi. Bola 4 oylik bo'lganidan boshlab turli hidlarni to'liqroq ajratadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda hidlash retseptori rivojlanishda davom etadi.

Ko'rish analizatori. Ko'rish analizatori tashqi dunyodagi narsalarning hajmi, rangi, shakli, masofasi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Mehnat faoliyatida ko'rish analizatori juda muhim ro'l o'ynaydi.



Ko'zning bevosita ta'sirlovchisi yorug'lik, binobarin, yorug'lik ko'z retseptorlariga ta'sir etib, ko'rish sezgisini hosil etadi. Ko'rish organi 10-12 yoshgacha morfologik va funksional jihatdan rivojlana boradi.

SEZGI TURLARI		
EKSTEROTSEPTIV	INTEROTSEPTIV	PROPRIOTSEPTIV
KONTAKT: TUYUSH TA'M BILISH DISTANT: KO'RISH ESHITISH HID BILISH TERI	OG'RIQ CHANQASH OCHLIK TO'QLIK TOLIQISH UYQU AYIRISH	HARAKAT MUVOZANAT TEBRANISH

Bog'cha bolalari avval narsaning shakliga, o'lchamiga, so'gra rangiga ahamiyat beradi. Ular ranglarni asta-sekin ajratib boradi. Qiz bolalarning rang ajratish qobiliyati o'g'il bolalarnikiga qaraganda yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Odam ko'zining o'tkirligi yoshi kattalashgan sari o'zgara boradi. Bolalar va o'smirlar ko'zining o'tkirligi kattalarnikiga nisbatan yuqori bo'ladi. Gigiyena talablariga ko'ra o'qiyotgan yoki yozayotgan vaqtda xonaga yorug'lik chap tomondan tushishi, kitob bilan ko'zning orasi 30-35-40 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Ana shunda ko'z charchamaydi va o'tkirligi normal saqlanadi.

Eshitish analizatori. Eshitish organi turli tovushlarni eshitish va muvozanat vazifasini bajaradi. Eshitish organi uch qismga: tashqi, o'rta, ichki quloqqa bo'linadi. Tashqi quloq suprasi tashqi eshitish yo'lidan iborat. Quloq suprasi tog'aydan iborat bo'lib, muskullari kam. U tovushni tutishga va uning yo'nalishini bilishga xizmat qiladi. Quloq suprasi va muskullari hayvonlarda yaxshi rivojlangan. Tashqi eshitish yo'lining uzunligi 2,5 sm eshitish yo'li devorchalarini yuzasi tuklar bilan qoplangan, maxsus bezlar quloq kiri (sarig'i) deb ataladigan yopishqoq modda ishlab chiqaradi. Tashqi quloq bilan o'rta quloq o'rtasida nog'ora pardalar u oval shaklda bo'lib, qalinligi 0.1 mm ni tashkil etadi. Nog'ora parda fibros to'qimadan tuzilgan, elastik. U havo to'lqinlari ta'sirida tebranib, bu tebranishni o'rta quloqqa o'tkazadi.

Odam qulog'ining tovush sezadigan muayyan chegarasi bo'lib, sekundiga 14 martadan to 20000 martagacha tebranishdagi tovushlarni sezadi. Yosh ulg'ayishi bilan quloqning tovush sezish chegarasi kamayib boradi. Odam qulog'i 1000 dan 4000 gacha gersdagi tovush to'lqinlarini sezadi.

Bola tug'ilishi bilan eshitish analizatori ishlay boshlaydi. Eshitish analizatorining funksional rivojlanishi 6-7 yoshgacha davom etadi. 14 – 15 yoshda eshitish sezgirligi juda susayadi, so'ngra orta boradi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Sezgi, analizatorlar, ekstereoseptorlar, intereoseptorlar, proproseptorlar, adaptatsiya, sensibilizatsiya, senesteziya, daltonik, binokular, absalut.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sezgi deb nimaga aytiladi?
2. Sezgi turlari nechta, ularni sanab bering?
3. Analizatorlarning tuzilishini, hayotimizdagi ahamiyatini aytib bering.
4. Sezgirlik deb nimaga aytiladi.
5. Adaptatsiya xossasini tushuntirib bering?

IDROK

Voqelikni bilish sezgi, idrok jarayonlari asosida amalga oshadi. Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi va aks ettirishda ishtirok qiladi.

Idrok qo'zg'atuvchilarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsani butunligicha, uning hamma xususiyatlari bilan yaxlitligicha aks ettiradi. Shuning uchun idrok ayrim sezgilarning oddiy yig'indisidan iborat, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Idrok o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan hissiy bilishning sifat jihatdan yangi, yuksak bosqichidir.

Idrok tushunchasi lotin tilida “**perception**” qabul qilish, idrok deb nomlanadi, uning yuqori bosqichi esa “**appersepsiya**” de-

yiladi. *Appersepsiya*—idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar o'z idroklarining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada farqlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'z bilim saviyasi, maslagi, pozitsiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, "ildiz" tushunchasini biologlar o'simliklarning moddiy asosi sifatida, matematiklar sonlarning ildiz ostidagi ko'rinishida, ijtimoiy nuqtayi nazardan qarindosh-urug'chilik shaklini ko'z o'nglariga keltiradi. Mazkur tushuncha ba'zi hollarda idrokning aniqlik, to'liqlik, ravshanlik, predmetlik, tanlovchanlik kabi sifati ma'nosida qo'llanadi. Psixologiya nazariyalariga ko'ra appersepsiya hodisasi barqaror va vaqtincha deb yurituvchi ikki ko'rinishga ajratiladi. *Barqaror appersepsiya hodisasi shaxsning dunyoqarashi, qat'iy maslagi, ideali, pozitsiya motivatsiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, ma'naviyati va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, u o'ta murakkab tuzilishga egadir. Muvaqqat appersepsiya turi esa shaxsning faqat idrok qilish jarayonidagi emotsional holatiga, ya'ni uning kayfiyati, ruhlaniishi, stres, affektiv ko'rinishdagi his-tuyg'ularida, ularning sur'ati, davomiyligi, tezligida o'z ifodasini topadi.*

Idrok turlari:

1. Vaqtni idrok etish.
2. Harakat va fazoni idrok etish.

Vaqtning idrok qilinishi. Vaqt ham makon singari materiyaning asosiy hayot kechirish shakllaridan biridir. *Vaqtning idrok qilinishi voqelik hodisalarining obyektiv ravishda davomiyligini, tezligini va izchilligini aks ettirish demakdir.* Obyektiv reallikni aks ettirarkan, vaqtning idrok etilishi kishiga o'zini qurshab turgan muhitdan mo'ljal olish imkonini beradi. Vaqt sarhisobi faqat inson uchun emas, balki hayvonlar uchun ham moslashuvchanlik faoliyatining favqulodda muhim qismi hisoblanadi.

Odanda vaqt chamalash miya qobig'i bo'lmalari yordamida ro'y beradi. Klinik kuzatuvlarda olingan ko'plab ma'lumotlar vaqtni idrok etish qobiqning ma'lum bir joyida ro'y beradi, vaqtni sarhisob qilishning maxsus markazi mavjud, deb taxmin qilishga asos yo'qligini ishonarli

ravishda tasdiqlanadi. Vaqtni idrok etishning buzulishlari qobiqning turli bo'lmalari lat yeganda kuzatiladi. Vaqt yaxlit birlik sifatida amal qiladigan sistemaga birlashgan bir qator analizatorlar yordamida idrok qilinadi. *Vaqtning idrok etishi negizini qo'zg'alish va tormozlanishning ritmik tarzda almashinuvi, markaziy nerv sistemasida, bosh miyaning katta yarim sharlarida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining susayishi tashkil etadi.*

IDROK TURLARI	
SHAKLIGA KO'RA	FAOLLIGIGA KO'RA
VAQTNI IDROK ETISH HARAKATNI IDROK ETISH FAZONI IDROK ETISH	KO'RISH ESHITISH HID BILISH TA'M BILISH TERI VA TUYUSH

Vaqtni idrok qilishda turli xil analizatorlar ishtirok etadi, lekin vaqtning oraliqlarini kinestezik va eshitish sezgilari juda ham aniq hisob-kitob qila oladi. I.M.Sechenov kinestezik analizatorlarni makon va vaqtda oid munosabatlarni idrok etish organi deb atagan edi. Harakat sezgilari faoliyatning hodisalar tezligi va izchilligining yetarli darajada aniq aks ettirilishini ta'minlaydi. Eshitish sezgilari ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining vaqtga oid xususiyatlarini: uning davomiyligini, ritmik xususiyatini va shu kabilarni aks ettiradi. I.M.Sechenov eshitishni vaqt o'lchovi, eshitish xotirasini esa vaqt xotirasi deb atagan edi.

Sensor axborotni cheklash ziyod sekin o'tadi. Jumladan, doimiy ravishda bir xildagi tovush eshitiladigan, sust sun'iy nur tushib turgan, taktil va harakat sezgilar hosil bo'ladigan sharoitlarda maxsus to'shak ustidagi baksimon respiratorga joylashgan sinaluvchi minutlarning soat kabi cho'zilib ketgandek tuyulganligini aytgan. Lekin keyinchalik berilgan hisobotga nisbatan buning teskarisi bo'lishi ham mumkin; ish-sizlikdan va zerikarli o'tgan vaqt bir qancha vaqtdan keyin eslaganda qisqaroq bo'lib tuyulishi mumkin.

Vaqtning idrok etilishi hissiy holat bilan bog'liq ravishda ham o'zgaradi. Ma'qul keladigan his-hayajonlar xayolda vaqtni tez o'tayoganday qilib ko'rsatadi, salbiy hissiyotlar esa subyektiv tarzda vaqtni biroz cho'zib yuboradi.

Bolalarning vaqtni idrok etishi rivojlanishda kattagina yo'l bosib o'tgan holda ancha kech tarkib topadi. Psixik rivojlanishning umumiy borishi, ta'lim jarayonini bilimlarni egallash vaqt bo'laklarining taqsimlanish borasidagi aniqlikning oshirilishi bilan ham bog'liqdir. O'quvchilar o'zlarining kundalik faoliyati bilan bog'liq vaqt oraliqlarida yaxshiroq mo'ljal oladilar.

Fazoni chamalashda harakat analizatori alohida rol o'ynaydi. Turli xildagi analizatorlar ana shu analizator vositasida o'zaro birgalikda harakat qila boshlaydi. Fazoni chamalashning maxsus qurollari qatoriga analizatorlar faoliyatida har ikkala yarim sharlar o'rtasidagi nerv bog'lanishlarini: binokulyar ko'rishni, binoura eshitishni, terining bimanual tuyushini, dirinik hid bilishni va shu kabilarni kiritish lozim. Fazoning idrok qilinishi kishining o'zini qurshab turgan muhitini chamalashining muqarrar shartlaridan bo'lib, uning ushbu muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatida kattarol o'ynaydi.

Idrok jarayonida uning fenomenlari (yunoncha "phai-nomenon" – noyob, g'ayriodatiy holat degan ma'noni anglatadi) muayyan hodisalarni aks ettirishda ishtirok etadi, in'ikosning turlicha aniqlikda namoyon bo'lishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beradi. Ular jahon psixologiyasi fanida *gallutsinatsiya* (lotincha "Gallucinatio" – alahlash, bosinqirash, valdirlashi, ya'ni yo'q narsalarning ko'rinishi, eshutilishi, sezilishi degan ma'nolarni anglatadi), *illuziya* (lotincha "Illusio" – xato, adashish, yanglishish degan ma'noni bildiradi), *attraksiya* (fransuzcha "attraction" – o'ziga tortish, mahliyo etish, jalb qilish ma'nosini beradi), ruschada "*yasnovideniye*" – yaqqol oldindan ko'rish, yaqqol g'oyibdan xabar olish demakdir tushunchalari orqali ifodalanadi.

Yaqqol, voqelikdagi narsa va hodisalarning tana a'zolarining qabul qilish analizatorlariga bevosita ta'siri bo'lmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshutilishi, paydo bo'lishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo'lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasiga gallutsinatsiya deyiladi.

Gallutsinatsiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati bo'lib, ba'zan qo'rqinch hissi mahsuli hisoblanadi. Ba'zida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'idagi qo'zg'alish jarayonlarining nuqsonli, sust harakati natijasida, goho asab tizimining zaharlani-

shi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelish mumkin. Bizningcha, gallutsinatsiya hodisasi bir necha ko'rinishga ega.

Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) yo'q narsalarning ko'zga ko'rinishi;
- b) u yoki bu ovozlari, tovushlar, kuylar eshinishi;
- d) yo'q sharpalar, hidlar sezilishi kabilar.

Illuziya hissiy a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning noto'g'ri (noadekvat), yanglish idrok qilishdan iborat jarayonining noyob hodisasidir.

Illuziyalarning bir turkumi optik geometrik illuziyalar deb nomlanib, ular asosiy tasvir va uni qurshab turgan fazoviy joylashuv bilan farq qiluvchi boshqa shakllar o'rtasida o'lchov munosabatining buzilishida namoyon bo'ladi. Tasvirlar yorug' fonda qora fonga nisbatan qoraroq tuyuladi, ya'ni holat mahsuli deyiladi. Kontrast (fransuzcha „Contraste“ – keskin qarama-qarshilik) demakdir yorug'lik bilan fon o'rtasidagi munosabat ifodasidir. „Fon“ fransuzcha so'z bo'lib, u „Jond“ – asos, negiz, tag ma'nosini bildiradi.

Aksariyat illuziyalar ko'rinadigan harakatlar bilan bog'liq bo'ladi, chunonchi:

a) qorong'ilikda harakatsiz yorug'lik manbayidan nurlarning tartibsiz tarqalishi (avtokinetik harakat); b) fazoviy jihatdan yaqin joylashgan ikki harakatsiz stimulning tez sur'atlar bilan namoyon etib turishi harakat taassurotini vujudga keltiradi (stro-boskopik harakat); d) harakatsiz obyektini uni qurshab turgan fonga qarama-qarshi yo'nalishga qo'yish harakat tuyg'usini paydo qiladi (induktion harakat) kabilar.

Idrok hamisha ham obyektiv olamdagi narsalarning aynan o'zini aks ettiradimi? Idrok etishdagi ko'plab xatolarga va ularga yo'l qo'yilgan shart-sharoitlar asosan ko'rish illuziyalariga izohlar berilgan.

1. Kamon o'qining illuziyasi. Bu bir-biriga to'g'ri keladigan va bir-biridan farqlanuvchi chiziqlar prinsipiga asoslangandir: garchi ikkala o'q amalda baravar uzunlikda bo'lsa ham bir-biridan farqlanuvchi uchlar uzunroq bo'lib tuyuladi.

2. Temir yo'l izlarining xayoliy ko'rinishi. Garchi har ikkala iz to'g'ri iz oralig'idagi bo'shliqning ancha tor qismidagi chiziqlar uzunroq bo'lib tuyuladi.

Ikki xil tasvirni toping




Ayol ishda va ...uyda

Attraksiya insonning o'zi bilan o'zga o'rtasidagi munosabatida namoyon bo'lib, o'ziga mahliyo qilish, qalbni „jiz“ ettirishdan iborat, ongsizlikka taalluqli insonning inson tomonidan idrok qilish hodisasi.



Bu yerda nima yashiringan?

Yo'lbars o'rgatuvchi qayerga yashiringan?



Bu rasmdagi ayol yoshmi yoki qarimi?

Bu hodisa bir qancha manbalar, qo'zg'atuvchilar, motivlar ta'sirida vujudga keladi, jumladan:

- 1) dastlabki tashqi ko'rinish, istarasining issiqligi;
- 2) subyektga nisbatan rishtasiz bog'lanib qolishlik, ongsizlik darajasidagi anglashilmagan ichki noaniq moyillik;
- 3) shaxslarning xarakteridagi o'xshashlikning mavjudligi;
- 4) sheriklarning muomala maromidagi yaqinlik va boshqalar.

Psixologiya fanida kam tadqiq qilingan idrok fenomenlaridan bittasi – *bu yaqqol ko'rinish (yasnovideniye)* deb atalib, voqelik, holat, hodisa va tasodifni yaqqol oldindan ko'rish, g'oyibdan yaqqol xabar kelish singari *parapsixologik muammodir*. Aksariyat vaziyatlarda yaqqol ko'rishlik bilan subyektning shaxsiy xayoloti, o'zgalarning diqqatini tortishga, jalb qilishga aloqador hissiy kechinmalardan boshqa narsa bo'lmasdan, uning yaqqollilik ehtimoli darajasi juda pastdir. Biroq shu narsani rad etmaslik kerakki, ayrim allomalarning bashoratlari, yaqqol oldindan ko'rish imkonining yuksakligi, aniqligi kishini hanuzgacha hayajonga soladi.

Idrokning yana bir muhim xususiyati – bu umumlashgan holda narsa va hodisalarni aks ettirishidir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko'pqirrali alomatlar idrok qilish bilan cheklanib qolmay, balki o'sha majmua aniq jism yoki hodisa sifatida baholanadi. Jismlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash bilan qanoat hosil qilmay, balki mazkur narsalarni ma'lum ma'noviy qismlarga ajratadi. Jumladan, „soat“, „bino“, „hayvonot“ va hokazo.

IDROK XUSUSIYATLARI
IDROKNING ANGLANGANLIGI
IDROKNING PREDMETLILIGI
IDROKNING STRUKTURASI
IDROKNING YAXLITLIGI
IDROKNING KONSTANTLIGI
IDROKNING APPERSEPSIYASI

Idrokning yana bir xususiyati – bu uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. Masalan, toshko'mir yorug'likda yog'du sochadi, oq qog'ozdan ko'proq nur balqiydi. Lekin inson bu narsalarni „qora“ va „oq“ deb idrok qiladi, vujudga kelgan bevosita subyektiv taassurotlarga o'zgartishlar, tuzatishlar kiritadi. Chunki

idrok jarayoni inson oldida turgan maqsadga va maqsad qo'ya olishga, unga berilgan ustanovkaga (ongli, ixtiyoriy ko'rsatmaga) uzviy bog'liq holda irodaviy boshqarilish xususiyatiga egadir. Shuning uchun insonni idrok qilish faoliyatida ongli boshqariluv imkoniyati mavjud bo'lib, analitik-sintetik harakatlar negizida verbal orqali amalga oshiriladi.

Idrokning boshqa bilish jarayonlaridan, jumladan, sezgidan farqli tomoni shuki, u narsa va hodisalarni yaxlit holda aks ettiradi. Shu yaxlitlik belgisi alohida namoyon bo'luvchi ayrim alomatlarda ifodalanuvchi narsalarni buyum yoki jism sifatida in'ikos qilish qobiliyatiga ega. Chunki jismlarning aniqligi, ravonligi buyum yoki jism sifatida ko'zga tashlanishida o'z ifodasini topib, muayyan tuzilishni vujudga keltiradi. Idrok mazmuniga, tarkibiga kiruvchi har qanday hodisa, xoh verbal, xoh noverbal tarzda ifodalanishidan qat'iy nazar u buyum yoki jism sifatida gavdalanadi va unga nisbatan berilgan yaxlitligini namoyish etadi.

Psixologiya fanida idrok etilayotgan narsalarning fizik holati o'zgarsa ham, lekin uning ko'z to'r pardasidagi obrazining o'zgarmasligi, nisbiy turg'unlik ko'rsatuvchi qonun, ya'ni eng muhim xususiyati konstantlik deyiladi. Doimiylik, o'zgarmaslik uning asosiy belgilari hisoblanadi. Narsa va hodisalar idrok obyektiga tushishi bilan ular ketma-ket aks ettiriladi, degan xulosa g'ayritabiiy holatdir. Chunki idrok maydoniga kirib kelayotgan va idrok qilinadigan narsalar qo'zg'atuvchisining ildamligi, kuchli ehtiyojlarga mos tushadigani qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, qo'zg'atuvchining kuchi, yangiligi, qandaydir ahamiyat kasb etishi, yo'nalishi harakatchanligi analitik-sintetik harakatlar majmuasida saralanadi. Shu bois har qanday narsa va hodisalar inson tomonidan idrok qilinmaydi. Chunki u tabiiy va sun'iy shart-sharoitlar, obyektiv va subyektiv omillar tekshiriluvdian o'tkaziladi, ya'ni saralov jarayoni amalga oshiriladi, natijada nomutanosibi yoki me'yoridan ortig'i aks ettirish doirasidan chetda qolaveradi. Yuqoridagi xususiyatlarning barchasi insonning yosh xususiyatlariga, aqliy kamolotiga, tajribasiga, bilim saviyasiga bog'liq.

Muayyan sharoitda shaxs idrok qiladigan narsa yoki jism idrokning obyekt deb ataladi. Idrok qilinadigan narsa uni o'rab turgan boshqa narsa, jism yoki hodisalarga nisbatan obyekt hisoblanib,

obyektning atrofida gilar esa fon deyiladi. Idrokning sifati obyektни fondan tez, to'liq va aniq ajratib olish bilan belgilanadi.

O'qish va o'qitishda idrokning sifatiga oid xususiyatlarni e'tiborga olish, o'quv materialini eng yaxshi usulda idrok qilishni ta'min e'tish lozim. Ta'lim jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar mavzuni tez, to'la, ravshan va aniq idrok qila oladigan bo'lsin. Buning uchun o'quvchilar idrokining sifati qanday sabablarga bog'liq ekanligini bilishi kerak. Idrokning sifati – uning tezligi, to'laligi, ravshan va aniqligi-tashqi shartlar, organik va psixik shartlar bilan belgilanadi.

Biz idrok qilayotgan narsa va hodisalarning xossalari idrokning sifatini belgilovchi tashqi yoki obyektiv shartlardir. Aniq va chiroyli qilib ishlangan rasm, kitob harflarining aniqligi, ravshan va to'g'ri talaffuz qilingan nutq tez, oson va aniq idrok qilinadi. Idrok qilinayotgan paytdagi sharoit ham idrok sifatini ta'minlovchi shartlar jumlasidandir. Masalan, ko'rish idroki uchun joyning yaxshi yoritilgan bo'lishi, eshitish idroki uchun – jimjitlik alohida ahamiyatga ega. Ko'rish yoki eshitish lozim bo'lgan narsalarga nisbatan masofa ham shunday shartlardandir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgandek, idrokning sifati uchun tuyg'u-hislar, diqqat va tafakkurning ahamiyati katta. Idrokning aniqligi, ravonligi, fahmlanganligi diqqat va tafakkurning taraqqiyot darajasiga bog'liq. O'quvchilar idrokining to'la, ravshan va aniq bo'lishi uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning diqqatini to'la jalb qilish va tarbiyalashga, shuningdek, ularda o'qishga nisbatan ijobiy hissiyot va qiziqishlar yaratish uchun harakat qilmog'i lozim.

Tayanch iboralar:

idrok, appersepsiya, vazoni, vaqtni, harakatni idrok etish, fenomen, illuziya, atraksiya, galljyusinatsiya, yasnovedeniye, konstantlik, anglanganlik, harakatchanlik, yaxlitligi.

O'quvchilar bilimini mustahkamlovchi savollar:

1. Idrok tushunchasining ta'rifi.
2. Idrok turlari: vaqtni, fazo va harakatni idrok etish;
3. Idrok fenomenlari: illuziya, gallutsinatsiya, atraksiya, yasnovedeniya haqida ma'lumot bering.
4. Idrok xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Ta'lim jarayonida idrokning ahamiyati.

O'quvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar:

1. Idrok xususiyatlariga oid qiziqarli mavzular topish (masalan, ikkilamchi tasvirlar).
2. Kuzatuvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish.

SIZ KUZATUVCHANMISIZ?

Kuzatuvchan odam boshqalarning tashqi ko'rinishidagi birgina belgini ko'riboq, ular haqida ko'p narsa ayta oladi. Albatta, bunday qobiliyat ish joyida juda qo'l kelishi mumkin. Chunki kuzatuvchanlik tufayli biz hamkasblarimizni yaxshiroq tushuna olamiz.

Quyidagi test sizga qanchalik kuzatuvchan ekanligingizni aniqlashda yordam beradi.

1. Notanish tashkilotga kirib qolsangiz, birinchi navbatda e'tibor qaratasiz:

- a) stol-stullarning joylashuviga (5ball)
- b) Buyumlarning aniq joylashuviga(10ball)
- v) Devorda nimalar osig'liq turganiga (3 ball)

2.Begona odam bilan ilk bor tanishib, uchrashgach:

- a) faqat yuziga razm solasiz(5 ball)
- b) zimdan unga boshdan-oyoq nazar tashlaysiz(10ball)
- v) faqat tashqi ko'rinishidagi ba'zi jihatlargagina e'tibor qaratasiz (3ball)

3.Ozingizga yoqadigan suratni ko'rsangiz eslab yurasiz:

- a)ranglarni (10ball)
- b)Ajoyib tasvirlangan moviy osmonni (5 ball)
- v) o'shanda qamrab olgan yoqimli hislarni (3 ball)

4. Ertalab uyqudan uyg'ongach:

- a) darhol nimalar qilishingiz lozimligini esingizga tushadi (10ball)
- b) tushungizni eslashga harakat qilasiz (3 ball)
- v) kecha nimalar bo'lganini o'zingizcha tahlil qilib ko'rasiz (5 ball)

5. Jamoat transportiga chiqqaningizda:

- a) hech kimga e'tibor qilmay, oldinga o'tasiz (3 ball)
- b) yoningizda o'tirgan odamga nazar tashlaysiz (5ball)
- v) o'zingizga ko'ngli yaqin deb hisoblagan odam bilan muloqatga kirishasiz (10 ball)

6.Ko'chada ketayotganingizda odatda:

a) taransportlarni kuzatasiz(5ball)

b) uylarga qaraysiz (3 ball)

v) o'tkinchilarga tikilasiz (10ball)

7. Do'konga kirib peshtaxtaga ko'zingiz tushganda:

a) o'zingizga zarur buyum bilan qiziqasiz (3 ball)

b) hozirgi paytda keraksiz buyumga tikilib qolasiz (5 ball)

v) har bir buyumga katta qiziqish bilan boqasiz (10 ball)

8. Uyingizda nimadir yo'qolib qolsa:

a) qayerda qoldirishingiz mumkinligi haqida mulohaza qilib ko'rasiz (3 ball)

b) hammayoqni titkilab tashlaysiz (5 ball)

v) uydigilardan o'sha narsani topishda yordam berishlarini so'raysiz (10 ball)

9. Qachonlardir eski qadrdonlar bilan suratni ko'rgach, siz:

a) hayajonga tushasiz (5 ball)

b) quvonib ketasiz (3 ball)

v) suratlardagilarning barchasini eslashga urinasiz (10 ball)

10. Sizga juda qiziqarli o'yin o'ynashni taklif etishsa:

a) yo'l-yo'lakay shu o'yinni o'rganib olishga urinasiz (10 ball)

b) oradan biroz vaqt o'tib o'ynashdan bosh tortasiz (5 ball)

v) umuman o'ynamaysiz (3 ball)

11. Agar istirohat bog'ida kimnidir kutayotgan bo'lsangiz, odatda:

a) yoningizda turganlarni diqqat bilan kuzatasiz (10 ball)

b) gazeta o'qiysiz (5 ball)

v) nima halqdadir o'ylay boshlaysiz (3 ball)

12. Agar yulduzli kechada sayr qilayotgan bo'lsangiz:

a) yulduzlarni bir-biridan farqlashga harakat qilasiz (10 ball)

b) shunchaki osmonga tikilib qaraysiz (5 ball)

v)umuman osmonga qaramaysiz (3 ball)

13. Kitob o'qib charchagach:

a) qolgan yerini qalam bilan belgilab qo'yasiz (10 ball)

b) o'sha sahifani qog'ozga qistirib qo'yasiz(5 ball)

v) o'z xotirangizga suyanasiz (3 ball)

14.Sobiq qo'shnilaringiz haqida nimalarni eslaysiz?

a) ularning ismi-shariflarini (10 ball)

b) tashqi ko'rinishlarini (3 ball)

v) hech narsa eslay olmaysiz (5 ball)

15. Tuzalgan stol qarshisiga kelib:

a) go'zallikdan hayratga tushasiz (3 ball)

b) hamma narsa joyidami- yo'qmi, tekshirib ko'rasiz (10 ball)

v) stullar risoladagidek turli-tumanligini tekshirasiz (5 ball)

NATIJALAR:

150 dan 100 ballgacha. Shubha yo'q, siz o'ta kuzatuvchan odamsiz. Siz nafaqat boshqalarni kuzatib, tahlil qilasiz, balki o'zingizni ham qatordan qo'ymaysiz.

99 dan 75 ballgacha. Sizda kuzatuvchanlik qobiliyati rivojlangan. Ammo ba'zida qalbingizga quloq tutasiz-u, xato qilib qo'yasiz. Siz ko'proq o'z tajribangizga suyansangiz, to'g'riroq bo'lardi.

74 dan 45 ballgacha. Boshqalarning ichki, tashqi ko'rinishlari sizni unchalik ham qiziqitmaydi. Doimo o'z xayollaringiz bilan band bo'lasiz. Shunda ham negadir boshqalar bilan munosabatlarda sizda ruhiyatga oid muammolar yuzaga kelmaydi.

45 dan past. Yoningizdagi odam kim, qandayligining sizga umuman ahamiyati yo'q. Shu qadar bandsizki, hatto o'zingizning yurish-turishingizga baho berishganda vaqt topa olmaysiz. Bu noto'g'ri! Chunki, hayot murakkab. Har bir bosayotgan qadamingizni o'lchab bormasangiz, bir kun kelib, boshingiz devorga urilishi va afsuslar chekishga majbur bo'lishingiz tayin.

XOTIRA

Biz sezgan, idrok qilgan narsalar iz qoldirmasdan yo'qolib ketmaydi, balki ma'lum darajada esda olib qolinadi, ya'ni esimizda saqlanib qolinadi va qulay sharoitda yoki kerak bo'lganda esimizga tushadi. Agarda biz hech qachon, hech narsani esda olib qolmaganimizda, voqelikdagi barcha narsalar notanish bo'lur edi, natijada biz biror faoliya bilan shug'ullana olmas edik.

Esda qoladigan narsa xotira materialini, esda saqlab turadigan va esga tushuriladigan narsa esa xotiraning mazmunini tashkil qiladi.

Ilgari idrok qilingan obrazlarni ongimizda qayta gavdalanish tasavvur deb ataladi. Bu xotiramizda saqlanib qolgan idrok obrazlar bo'lib, mazmunan obrazli xotiraga taalluqlidir. Odam xotirasining asosiy mazmunini nutq so'z materialini tashkil etadi. Idrok qilingan narsa va hodisalarning nomlari, o'qilgan matnlari, so'zlar, gaplar boshqalarni

ing nutqi esda saqlab qolinadi va esga tushiriladi. Lekin nutq esda olib qolinganda u yoki bu tovushlar birilish sistemalari emas, balki nutqda ifodalangan ma'no, o'z va boshqalarning fikrlari esda qoladi. So'zlarning ma'no jihatdan mantiqiy suratda bir-biriga bog'lanib esda qolishi va esga tushishi mazmunan so'zlagan xotirasi bo'lib, obrazli xotiraga nisbatan ancha murakkab aqliy faoliyatdir. Bu ko'ngildan chiqarilgan tuyg'ular, har xil muskul va ish xarakatlari ham xotira mazmunini tashkil qiladilar. Xotiraning nerv fiziologik asosi muvaqqat nerv bog'lanishlaridir, bu muvaqqat nerv bog'lanishlarning hosil bo'lish, mustahkamlanish va keyin jonlanish jarayonlaridir.

Xotira – atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish; unutish hamda eslashdan iborat psixik jarayon; alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (yunoncha mnema –xotira degan ma'noni bildiradi) faoliyatdir. Shuni qat'iy aytish mumkinki, berilgan ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

Esda olib qolish jarayoni eng avval miya po'stida idrok qilinayotgan narsalarning buyum, surat, so'z va hokazolarning « izlari » hosil bo'lishidan va ayni vaqtda esda olib qolinadigan material bilan kishida mavjud bilim va tajriba o'rtasida, esda qoladigan materialning ayrim qismlari yoki elementlari o'rtasida bog'lanish vujudga kelishidan iboratdir.

Esda olib qolishning quyidagi xillari mavjud :

Esda qoldirish jarayonining asosida yotgan bog'lanishlarning ikki xili ajratiladi. Bu bog'lanishlarning qaysi biri asosiy o'rin olganligiga qarab, assotsiativ va logik esda qoldirish xillari farq qilinadi.

XOTIRA JARAYONLARI			
ESDA OLIB QOLISH	ESDA SAQLASH	UNUTISH	ESGA TUSHIRISH
IXTIYORSIZ	IXTIYORSIZ	QISMAN	BEVOSITA
IXTIYORIY	IXTIYORIY	BATAMOM	BAVOSITA
MANTIQIY			TANISH
MEXANIK			XOTIRLASH

Assotsiativ esda qoldirish. Bir vaqtda va bir yerda birin-ketin idrok qilingan ikki yoki bir qancha narsa va hodisalarning obrazlari o'rtasida miyada hosil bo'ladigan bog'lanish assositiv bog'lanish yoki assotsiatsiya deyiladi. Ana shu yo'sinda hosil bo'lgan assotsiatsiya – yondoshlik assotsiatsiyadir.

Masalan, bironta ashulani eshita turib, ayni zamonda shu ashulani aytayotgan odamni o'zini ham ko'rsak, shu ashulani idrok qilish bilan birga, ashula aytib turgan kishining o'zini ham idrok qilish o'rtasida yondoshlik assotsiatsiya hosil bo'ladi. Bunday assotsiatsiyaning bizda hosil bo'lgani shunda bilinadiki, bu ashulani takror eshitganimizda yoki uni esga tushurganimizda, ashulani aytgan odamning obrazi ham darrov esimizga keladi; ashulani aytgan odamni tasavvur qilganimizda yoki uni ko'rganimizda, ashulaning kuyi ham esga tushadi. Bunda musiqa kuyi bilan ashulani aytgan kishining qiyofasi o'rtasida shartli bir vaqtli bog'lanish hosil bo'ladi. Shuningdek kishining qiyofasi, uning ismi, familiyasi, turadigan joyi, ishlayotgan joyi o'rtasida shu xil assotsiatsiya hosil bo'ladi.

Esda olib qolishda qancha ko'p va xilma-xil assotsiatsiyalar voqe bo'lsa, esda qoldirish ham shunchalik bo'ladi. Ammo faqat assotsiativ bog'lanishlar asosida esda qoldirish, xususan bir tekstni shu asosda yod olish kam natija beradi. Yolg'iz assotsiativ bog'lanishlarga suyanib esda qoldirish mexanik esda qoldirish deyiladi.

Mexanik esda olib qolishning uchiga chiqqan usulini quruq yodlash deyiladi. Bu usul bilan yod olish matnni, so'z va gaplarning ma'nosini tushunmasdan faqat ko'p marta takrorlab borishdan iboratdir.

Ma'nosiga tushunib yoki mantiqan esda qoldirish.

Ma'nosiga tushunib yoki mantiqan esda olib qolish jarayonida asosiy o'rinda fikrlash jarayoni turadi. Esda qoldirilayotgan materialning ayrim qismlari va elementlari o'rtasida ma'no va logik bog'lanishlarni fikr yuritish bilan ochiladi. Ma'no bog'lanishlarni ochish bironta narsaning obrazini oddiy esda qoldirish emas, balki narsa va hodisalarga xos bo'lgan eng muhim va zaruriy bog'lanishlarni ochish demakdir, bir guruh doirasiga kirgan narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini, ular o'rtasidagi sababiyat va natija bog'lanishlarni aniqlash demakdir. Ma'nosini tushunib esda olib qoldirishda ayniqsa katta rol o'ynaydi. Bunda ma'no, fikr idrok qilinadi, tushunib olinadi va mu-

lohasalar yuritiladi. Buning samarasi yaxshi, chunki u xotirada puxta saqlanadi. *Takrorlash orqali esda olib qolish mexanik esda olib qolish deyiladi.* Bunday esda olib qolishning samarasi sust, chunki takrorlab turmas ekanmiz u tezda unitiladi. Lekin shunday narsalar borki, biz uni faqat mexanik esda olib qolishimiz mumkin. Bularga she'rlar, formula, raqam, telefon, mashinalarning nomerlari va h...

Xotirani o'stirish va takomillashtirish tayyor bilimlarni faqat puxta o'zlashtirishdangina iborat bo'lmay, balki bilimlarni ongli ravishda mulohaza qilib chiqish qobiliyatiga ham ega bo'lishdan iboratdir. Bilimlarni ongli ravishda mulohaza qilish esa fikrlash demakdir.

Esda olib qolish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lmog'i mumkin. Ixtiyorsiz esda qoldirish oldimizga hech bir qanday maqsad qo'ymasdan, esga olinadigan materialni oldin belgilamasdan va maxsus usullar qo'llanmasdan, beixtiyor esda qoldirishdir.

Masalan, biz, odatda, ko'chada tasodifiy ko'rgan kishilarning aft-basharasini, tasodifiy eshitib qolgan ba'zi gap va kuylarni beixtiyor esimizda saqlab qolamiz. Hayotimizda bo'lib o'tgan ko'p hodisa voqealarni ham biz ana shunday beixtiyor esimizda saqlab qolamiz. Ko'pincha beixtiyor idrok qilingan narsa yoki hodisalar beixtiyor esda qoladi. O'zining rang-barangligi, ovozi, harakati bilan ko'zga juda yaqqol ko'rinib turadigan, bizda kuchli xissiyot uyg'otadigan, o'tmishdagi tajribamizga, mavjud bilimlarimizga, bizning kasbga, faoliyatimizga, biz uchun alohida ahamiyati bo'lgan va bizda qiziqish-havas tug'diradigan shunday narsa va hodisalar xotiramizda beixtiyor saqlanib qoladi. Ko'p hollarda biz bironta suratni ko'rishni, bironta kitobni o'qib chiqishni, bironta leksiyaning eshitishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz, ammo ko'rilgan, o'qilgan, eshitilgan narsalarning mazmunini esda olib qolish niyatni qo'ymaymiz, lekin, shunga qaramay, beixtiyor idrok qilingan kitob, surat, nutqning mazmunini beixtiyor eslab qolamiz.

Ixtiyorsiz esda saqlab qolish biz keng hayotimiz va faoliyatimizda juda katta o'rin tutadi. Ayrim hollarda bironta yorqin obrazlar, so'zlar, ayrim kishilarning aft-basharasi, o'qilgan yoki eshitilgan jummlar ixtiyorsiz esda olib qolinadi va xotirada uzoq saqlanib turadi. Bizning ehtiyoj va manfaatimizga muvofiq bo'lsa, bu material alohida ahamiyatga ega bo'lsa, esimizda uzoq saqlanib turadi. Ixtiyorsiz esda olib qolishda hissiyot ayniqsa katta rol o'ynaydi. Shuning uchun inson o'zining o'tmishidagi yaxshi va yomon kunlarni esdan chiqarmaydi.

Bizda bironta hissiyot tug‘diradigan material hissiyotimizga hech qanday ta’sir qilmaydigan materialga qaraganda esimizda ham tezroq, ham mustahkamroq o‘rnatilib qoladi. Ba’zan esa ixtiyorsiz esda qoldirish ixtiyoriy esda qoldirishdan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni ongli ravishda kuch berib maxsus esda qoldirishdir. Ixtiyoriy esda qoldirishda materialni puxta esda qoldirish maqsadida biz maxsus usullardan foydalanamiz : diqqatimizni to‘playmiz, idrok qilingan materialni to‘playmiz, idrok qilingan materialni takrorlaymiz, uning mazmunini o‘qib olish uchun harakat qilamiz, ilgari tajriba va bilimlarimiz bilan bog‘laymiz va h...Sistematik ravishda esda qoldirish, o‘rganib olish deyiladi. Bizning o‘quv ishlarimiz- bilimlarni o‘zlashtirish, tegishli ko‘nikma va malakalar asosan ixtiyoriy esda qoldirish yo‘li bilan bo‘ladi. Yodlab, o‘rganib olish tartib bilan esda qoldirish demakdir.

Ixtiyoriy, ya’ni irodaviy esda olib qolish eng samarali va puxta esda qoldirishdir.

Esda olib qolishga jazm qilish, maqsadni ko‘zlash, kerak materialni tanlash, motivatsiya, ya’ni nima maqsad bilan esda qoldirish kerkliligini bilish- bularning hammasi tafakkur faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi vaqtlarda esda olib qolishda kattagina qiyinchiliklarni yengishga to‘g‘ri keladi, bu qiyinchiliklar iroda va g‘ayrat bilan yengiladi.

Esga tushirish va uning turlari. *O‘tmishda idrok qilingan narsalarning tuyg‘u-his, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qaytadan tiklanishini esga tushurish deyiladi.* Esga tushirishning, tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma’lum bir vaqt o‘tkazib eslash, ixtiyorsi va ixtiyoriy eslash kabi turlari bo‘ladi.

Tanish va eslash. *Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilganda, u narsa yoki hodisa esga tushadi, ana shuni tanish deyimiz.*

Tanish aniq va noaniq bo‘lmog‘i lozim. Noaniq, ya’ni yarim-yorti taniganimizda shu narsani idrok qilishimiz bilan bo‘g‘liq bo‘lgan ba’zi bir tasavvur, his va fikrlar g‘ira-shira esimizga tushadi, biz bu narsa bizga notanish ekanini his qilamiz, xolos. Lekin bu tasavvur va fikrlar huddi shu narsani ilgari ko‘rganimizda tug‘ilgan tasavvur va fikrlarga bog‘lanmagan holda esimizga tushadi: masalan, bir odam ko‘zimizga issiq ko‘rinadi-yu, amma uni qachon, qayerda ko‘rganimizni eslay ol-

maymiz. Yarim-yorti tanishda shu narsa, umuman nima uchundir tanish ekani his qilinadi, lekin to'liq esga tushmaydi.

To'liq, aniq tanishda esa shu payta idrok qilinayotgan bir narsaga doir ilgari hosil bo'lgan tasavvur va fikrlar ongimizda tiklanadi. Ana shu tasavvur va fikrlar bir talay boshqa tasavvur va fikrlar bilan bog'lanib esga tushaveradi. Bunday hollarda biz shu narsani qachon, qayerda ko'rganimizni ham bemalol eslay olamiz. Eslash narsani, uning o'zini shu paytda idrok qilmay turib, esga tushirishdir. Eslaganda xotirada qolgan obraz, His va fikrlar shu paytda sezgi organlarining ishtirokidan tashqari esga tushadi. Masalan, biz bo'lib o'tgan voqealarni, o'rganib olgan she'rni ana shunday esimizga tushuramiz. Tanish, eslash ham, to'lalilik va aniqlik jihatidan Har-xil bo'lmog'i mumkin. Esda qolgan narsa qisman esga tushsa, buni yarim-yorti eslash deymiz. Esda qoldirilgan materialning muayyan mazmuni, bu materialning qachon va qanday esga olib qolingani aniq esga tushirish bilan birga, bu material esga olib qolingandan oldin va keyin nimalar bo'lganligi va hokazolar ham esga tushurilsa, xotirlash to'la-to'kis va mukammal bo'ladi. Bevosita esga tushirish deb materialni idrok qilish ketidanoq, ya'ni esga olib qolish bilan esga tushirish o'rtasidagi paytda ongimizga esga olinadigan materialdan boshqa hech qanday jarayon yuz bermaganda bo'ladigan esga tushurishga aytiladi.

Vaqt o'tkazib esga tushirish esda olib qolingan narsani oradan bir qancha, ba'za ancha ko'p vaqt o'tkazib esga tushurishdirki, shu orada ongimizda boshqa jarayonlar ham o'tgan bo'ladi.

Ixtiyorsiz esga tushurish o'z oldiga ma'lum bir maqsad qo'ymasdan, esga tushurish uchun ma'lum material tanlamasdan va zo'r bermasdan esga tushurishdir. Biron narsani beixtiyor esga tushurganda o'z-o'zidan esga tushib qoladi. Biron narsaning idrok qilinishi, biron tasavvur yoki fikrning tug'ulishi beixtiyor eslashga sabab bo'lishi mumkin. *Ixtiyoriy esga tushurish – biron maqsad bilan esga olinishi kerak bo'lgan materialni tanlab, harakat qilib, maxsus esga tushurish demakdir.*

Bunda, asosan, assotsiatsiya yo'li bilan esga tushirilgan materialdan faqat maqsad uchun kerak bo'lgani maxsus tanlanadi. Masalan, tarixiy voqealarni, tarix sahifalarini, tarixiy shaxslarning ismlarini, ma'lum joylarning nomlarini, har xil ta'riflarni, qoidalarni va shu kabilarni ixtiyoriy esga tushiriladi. O'quvchi darslarni ana shu tariqa esga tushuradi. Ixtiyoriy esga tushurishda ham, materialni esda olib qolish ja-

rayonida hosil bo'lgan assotsatsiyalar katta rol o'ynaydi. Ixtiyoriy esga tushirish, odatda, assotsiatsiya jarayonlarida va aktiv fikrlashga bog'liq ravishda yuz beradi. Esga tushirishda ko'pincha qiynalib qolish hollari bo'ladi va esga tushurish to'xtalib qolgandek bo'ladi. Biz ba'zan kerak bo'lib qolgan bir narsani, masalan, bir kishining ism-familiyasini, biror joyning nomini, grammatika yoki matematika ta'riflarini esga tushurish uchun bir muncha tirishamiz. Bir kishining esimizdan chiqazib qo'ygan familiyasini eslamoqchi bo'lib bir qancha familiyalarni atayin aytib chiqamiz, har-xil buyumlar nomini tilga olib chiqamiz, alfavitning ayrim harflarini aytib qaraymiz, shu kishi bilan qachon, qayerda ko'rishganimizni xotirlashga harakat qilamiz. Eslab topish uchun maxsus usullardan foydalanishning yaqqol misolini ko'proq badiiy adabiyotda ko'rinadi.

Esda saqlash va unutish. Idrok qilingan narsalar miyamizda o'rtnashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin. *Esda saqlash deyilganda, ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, tuyg'u-his va ish-harakatlarning jonlanib, takrorlanib turishiga moyillik paydo qilinishi va mustahkamlanishini tushunamiz.* Ana shunday moyillikning paydo bo'lishi va mustahkamlanib qolishiga sabab nerv sistemasining plastiklik deb ataluvchi alohida xususiyatga ega bo'lishdir. Shuning uchun ham nerv sistemasi ilgari o'tgan taassurotlarni takrorlashga tayyor turadi.

I.P.Pavlov, mustahkam qaror topgan yangi nerv bog'lanishlari uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi, deb takror-takror uqtirib o'tgan edi. Esda tutish haqida gapirar ekanmiz, xotirada qolgan material qanday darajada va qachongacha unutilmasdan esda saqlab tura oladi, degan savol tug'iladi. Materialning qanday va qancha vaqt saqlanib turishini biz materialni qay darajada eslay olishimizga qarab bila olamiz, xolos. Esga tushish haqida gapirilganda, ko'pincha, esga tushirishning faqat bir xilini, ya'ni ixtiyoriy esga tushurishni ko'zda tutiladi. Ammo ixtiyoriy esga tushirish eng ko'p kuch sarf qilishni talab etadigan jarajon bo'lganidan va bizga xuddi shu vaqt kerak bo'lib qolgan material, odatda, darrov esga tushavermaganidan, shunday bir fikr: esga olib qolingan materialning bir qismi go'yo tamomila unutiladi, degan fikr tug'ilgan.

Shu sababli, unutish hodisasini ilgarilari esga olib qolingan narsalarning ongimizdan tamomila yo'qolishi, ya'ni uni esda tutishga batamom qarama-qarshi jarayon deb tushuniladi. Shuni esda tutish kerakki,

esga tushirish faqat xotira keltirish bilangina emas, balki tanish vositasi bilan ham voqe bo'ladigan jarayondir. Biz ilgari esda qoldirgan har bir narsani keyinchalik qanday bo'lmasin tanib olamiz.

Ammo esda qolgan hamma materialni to'la-to'kis aynan esga tushirish mumkin emasligidan, shu material esimizda saqlanib qolmaydi, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Esda qoldirilayotgan material, uni yodga olib qolish, va esda saqlanib turish jarayonida qaytadan tuzaladi. Xotirada qolgan material kishining ongida mustaqil "ishlab chiqilgandan" keyin shaxsning o'z xazinasini bo'lib qolgandagina xotira qimmatli sifatga ega bo'ladi.

Xotira faoliyatini keng ma'noda tushunish lozim, chunki xotira materialni mexanik ravishda esda qoldirish va uni aynan esga tushirish qobiliyati bilan cheklanib qolmaydi. Kishi idrok qilgan va esga olib qolgan hamma narsa xotirada saqlanib qoladi-yu, ammo kerak bo'lib qolgan bir paytda hamma narsa esga tushavermaydi: faqat esga tushishi uchun qulay sharoit mavjud bo'lgan narsagina esga tushadi. Esga tushurish zarurati tug'ilsa, nerv sistemasi sog'lom va tetik holda bo'ladi, esga tushiriladigan materialning ayrim qismlari o'rtasida mazmunan mahkam bog'lanish, shuningdek, esga tushiriladigan material bilan shu paytda kishi ongining mazmuni o'rtasida bog'lanishlar mavjud bo'ladi. Bunday sharoit bo'lmagan taqdirda, zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi. Ko'p hollarda biz hatto maxsus yordamchi usullardan foydalansak ham zarur bo'lib qolgan materialni esga tushirishga ojizlik qilib qolamiz.

Unitish deb, esga tushirishda ana shu tariqa qiynalib qolishni, shuningdek, zarur bo'lgan narsani shu onda esga tushura olmaslikni tushunamiz. Unutilgan deb, esda saqlanib qolmagan narsani emas, balki shu paytda esga tushira olmagan, esga tushish uchun qulay sharoit bo'lmagan aksi bo'lgan jarayon bo'lmay, balki esga tushirishning aksi bo'lgan jarayondir. Unitishning nerv-fiziologik asosi muvaqqat bog'lanishlarning tormozlanishlaridir.

Unitish darajasi har xil bo'ladi. Materialni tamom yoki qisman unutilish mumkin, ya'ni material butunlay esdan chiqib ketadi yoki uning faqat bir qismi unitiladi.

Material tez orada yoki bir muncha vaqtdan keyin unutilishi mumkin. Ancha vaqtgacha unutilib turishi mumkin, ya'ni bir narsani ancha xotiraga keltira olmay turishimiz mumkin. Odatda, unutilish vaqtincha

bo'ladi, biz shu paytda zarur bo'lgan bir narsani eslay olmaymiz, ammo bir necha vaqtdan keyin u esimizga tushadi. Unutish asta-sekin va bir tekisda voqe bo'ladigan jarayon emas. Maxsus qilingan tajribalar ham buni isbot qiladi. Psixolog Ebbingauz ma'nosiz bo'g'inlarni yod olish va esga tushirish yo'li bilan maxsus tajriba qilib, unutish jarayonini tekshirgan. Tekshirish jarayonlarini tekshirganda tekshirish natijalari bunday bo'lgan:

Keyin	1/2 soat	1 soat	9 soat	24 soat	48 soat	144 soat	744 soat
Esga tushirish % hisobi bilan	59	44	36	34	28	25	21

P.Pavlov shuni aniqlaganki, shartli refleks keltirishda erishilgan differensirovka tajriba ketidanoq, bevosita bilinmay, balki keyinroq bilinarkan ekan. Vazifa hal qilinganda miya po'stining tegishli markazlaridagi nerv hujayralarida charchash yuz beradi va bu charchash erishilgan differensirovkani qoplaydi. Bir necha vaqt o'tgandan so'ng charchash tugaydi va nerv sistemasi endi qo'zg'ovchilarni yaxshiroq differensirovka qila boshlaydi.

Biror materialning unutilishiga uning ketidan esga olib qolgan material ta'sir etadi. Hozirgina yod olingan materialni esga tushirishga, uning ketidan esga olingan materialni esga tushurishga, uning ketidan esga tushurilgan biror material to'sqinlik qiladi. Ba'zan keyingi material oldingi material o'rtasida chuqur bog'lanish hosil bo'lsa, ilgari esga olib qolingan material osonroq esga tushadi va tez orada esdan chiqib ketmaydi, sekinroq unutiladi.

Xotira turlari va tiplari. Xotira ta'riflarining esda olib qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir bo'ladigan faoliyatning xususiyatlariga bog'liqligi xotiraning har xil turlarini ajratish uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira: harakat, emotsional obrazli va so'z-mantiq turlarga bo'linadi.

Faoliyatning maqsadlariga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga bo'linadi. Matnni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra qisqa muddatli. Boshqa odamlar esa, aksincha, o'zlarida harakat xotirasi borligini umuman payqamaydilar. Xotiraning bu turi benihoya katta ahamiyatga ega ekanligining boisi shundaki, u huddi yurish, yozish va shu kabi malakalar bilan bab-baravar tarzda

turli xil amaliy va mehnat malakalari shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XOTIRA TURLARI		
AKTIVLIGIGA KO'RA	MAQSADIGA KO'RA	DAVOMIYLIGIGA KO'RA
HARAKAT OBRAZLI HIS – TUYG'U SO'Z MANTIQ	IXTIYORSIZ IXTIYORIY	QISQA MUDDATLI UZOQ MUDDATLI OPERATIV

Kishining jismoniy jihatdan abjirligi mehnatdagi mahorati, “oltin qo'lligi” odatda uning yaxshi harakat xotirasiga ega ekanligini alomati hisoblanadi. *Emotsional xotira – his-tuyg'uga xos xotiradir. His-tuyg'ular hamisha bizga ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotgani, bizning tevarak-atrofdagi olamga munosabatimiz qanday yo'lga qo'yilganligi haqida habar berib turadi.* Shuning uchun ham hissiy xotira har bir kishining hayoti va faoliyatida juda muhim ahamiyatga egadir. His etilgan va xotirada saqlab qolingan tuyg'ular yohud harakatga chorlovchi yoki o'tmishda salbiy kechinmalarga sabab bo'lgan harakatlardan tiyilishga undovchi signallar tarzida amal qiladi. Boshqa bir kishiga hamdard bo'lish, kitob qahramonlari kechinmalari bilan yashay bilish qobiliyati hissiy xotiraga asoslanadi.

Agar siz boshingizdan kechirganlaringiz bir lahza esga kelganda rangingiz oqarib yo qizarib ketish qobiliyatiga ega bo'lsangiz, agar siz bir vaqtlar boshingizga tushgan musibat haqida o'ylashdan qo'rqsangiz, u holda sizda his-tuyg'uni xotirlash yoxud hissiy xotira mavjuddir.

Obraz xotirasi – tasavvurlarni tabiat va hayot manzaralarini, shuningdek, tovushlarni, hidlarni, ta'mlarni esda olib qolishdan iborat xotira hisoblanadi. U ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilishga oid xotiradir. Agar sog'lom rivojlangan barcha odamlarning hayotda mo'ljal olishida ko'rish va eshitish xotirasi odatda yaxshiroq rivojlangan va yetakchi rol o'ynaydigan bo'lsa, u holda turli tuyish, hid bilish va ta'm bilishga oid xotiralarni ma'lum ma'noda professional xotira turlari deb atash mumkin: xotiraning bu turlari xuddi tegishli, sezgilar kabi faoliyatning o'ziga xos shart-sharoitlari bilan bog'liq holda alohida tarzda rivojlanadi. Ular xotiraning etishmaydigan turlari o'mini bosishi yoki uning vazifasini bajarish to'g'ri kelgan sharoitlarda, masalan, ko'zi ojizlar, karlar va shu kabi nogiron odamlarda hayron qolarli darajada

rivojlangan bo'lishi mumkin. "Badiiy" kasb bilan shug'ullanadigan odamlarda obraz xotirasi ayniqsa rivojlangan bo'ladi.

Eydedik xotira deb atalmish xotiraga uchraydigan odamlar ham uchraydi. Xotiraning eydetik, ya'ni ko'rgazmali obrazlari – tashqi qo'zg'atuvchi bilan his-tuyg'u a'zolarining qo'zg'atilishi natijasidir. Eydetik obrazlar shu jihatdan ham tasavvurlarga o'xshaydiki, ular biron ta'sir o'tkazadigan narsalar yo'qligida ham hosil bo'lib, oddiy tasavvurga mutlaqo sig'maydigan darajadagi moslashtirilgan ko'rgazmaliligi bilan ajralib turadi. Shaxs, masalan ko'z o'ngida yo'q bo'lgan narsani odatda idrok etish chog'ida amalga oshirish mumkin bo'lgani kabi u nigohini u qismdan bu qismga "ko'chirgan" holda barcha ikir-chikirlarga qadar "ko'radi".

So'z-mantiq xotira turini bizning o'y-fikrlarimiz tashkil etadi. O'y-fikrlar nutqsiz mavjud bo'la olmaydi. So'z-mantiq xotirada ikkinchi signallar sistemasi asosiy rol o'ynaydi. So'z-mantiq xotira boshqa turdagi xotiralarning rivojiga tayangan holda ularga nisbatan yetakchi bo'lib yuzaga chiqadi va xotiraning boshqa turlari rivoji uning rivojiga bog'liq bo'lib qoladi. Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirib olishda so'z-mantiq xotira yetakchi rol o'ynaydi.

Xotirani faollik bilan olib borilayotgan faoliyatning o'z xususiyatlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq turlariga bo'linishi ham mavjuddir. Jumladan, faoliyat maqsadlariga qarab xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy faoliyat turlariga ajratiladi. Biron narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'lmagan holda esda olib qolish va yana qayta esga tushirish ixtiyorsiz xotira deb ataladi. Oldimizga bironta maqsad qo'yib esda olib qolganimizda ixtiyoriy xotira vujudga keladi. So'nggi holatda esda olib qolish va yana qayta esga tushirish jarayonlari o'ziga xos tarzdagi mnemik harakatlar sifatida yuzaga keladi.

Ixtiyorsiz xotira asosida tajribamizning hajmi jihatidan ham, hayotiy ahamiyati jihatidan ham asosiy qismi maxsus mnemik niyat-maqsadlar qo'yilmasdan va kuch-g'ayratlar sarflanmasdanoq tartib topadi. Ammo kishi faoliyatida ko'pincha o'z xotirasini boshqarish zarurati tug'ilib qoladi. Ana shunday sharoitlarda zarur narsalarni ataylab yod olish yoki eslab qolish imkonini beradigan ixtiyoriy xotira muhim rol o'ynaydi.

Qisqa muddatli xotira esda olib qolishning eng dastlabki, ham tashqi ta'sirlarning izlari mustahkamlanguniga qadar va shuningdek

ular ayni hosil bo'layotgan paytida yuz berayotgan jarayon. U yoki bu material xotirada saqlanib qolishi uchun u subyekt tomonidan tegishli ravishda mushohada qilingan bo'lishi kerak. Bunday mushohada uchun muayyan vaqt talab qilinadi, unga izlarni konsolizatsiyalash, ya'ni birlashtirish vaqti deb ataladi. Subyekt tomonidan bu jarayon go'yo hozirgina bo'lib o'tgan voqea-hodisaning aks-sadosi tarzida gapiriladi: bevosita idrok etmayotganlar sari biz biron daqiqa go'yo hali ham ko'rayotganday, eshitayotganday bo'lamiz.

Uzoq muddatli xotira materialning ko'p martalab takrorlash va qayta esga tushirishlar orqali uzoq vaqt esda olib qolishi.

Operativ xotira kishi tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan dolzarb harakatlar, ishlarga xizmat qiladigan mnemik jarayonlarni anglatadi. Qachonki, biz biron-bir murakkab harakatni, misol uchun arifmetik amalni bajaramiz.

Xotira turlaridagi individual farqlar. Odamlar xotirasidagi individual farqlar xotira jarayonlarining xususiyatlarida, ya'ni boshqacha qilib aytganda, har turli odamlarda esda olib qolish va qayta esga tushirish qanday qilib amalga oshirishadi va xotira mazmunining xususiyatlarida, ya'ni nima esda olib qolishida namoyon bo'ladi. Bu ikki yoqlama o'zgarishlar bir odam xotirasining samaradorligini turli tomondan belgilaydi.

Xotira jarayonlari individual farqlar esda olib qolishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorlashda ifoda etiladi. Esda olib qolish tezligi u yoki bu kishi uchun ma'lum hajmdagi materialni esda olib qolishga talab qilinadigan takrorlash miqdori bilan belgilanadi. Esda olib qolishning mustahkamligi yod olingan materialning qancha vaqt saqlanishi va unitish tezligi darajasi bilan ifodalanadi. Nihoyat, xotiraning tayyorligi odam o'ziga zarur bo'lgan narsalarni kerak bo'lgan paytda qanchalik oson va tezlik bilan eslay olishida ifodalanadi. Bu farqlar ma'lum darajada yuksak nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchli hamda harakatchanligi bilan bog'liqdir. Ular ishda aniqlik va batartiblik bo'lish bilan, o'z vazifalariga javobgarlik sezish bilan, ularni bajarishda jonbozlik ko'rsatish va boshqa shu kabilarga odatlanishi bilan bog'liqdir. Xotiraning tayyorligi, bundan tashqari, bilim olish va ularni mustahkamlashning muntazamligi bilan bog'liqdir.

Xotiradagi individual farqlar ana shunday hollarda namoyon bo'ladiki, bir xil odamlar obrazli materiallarni bir munchaga samarali esda olib qoladilar, masalan, tasvirlarni, tovushlarni, ranglarni va shu kabilarni, boshqa birovlari esa so'z materiallarni, ya'ni tushunchalar, fikrlar, sonlar, va hokazolarni yaxshi esda saqlab qoladilar, uchinchi bir toifa odamlarda esa muvaffaqiyatli esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. Shunga muvofiq ravishda, psixologiyada xotiraning ko'rgazmali-obrazli, so'z-abstrakt va oraliq turlari farqlanadi. Xotiraning bu turlari ma'lum darajada odamlarning oliy nerv faoliyatlaridagi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatiga bog'liqdir. Xayot faktlarining tasdiqlashicha, esda olib qolishda obrazlar yoki fikrlarning ustunlik qilishi, birinchi navbatda odamlarning hayot sharoyitlari va faoliyatlari bilan belgilanadi. Hayot, kasbiy faoliyat talablari u yoki bu turdagi xotiraning ozmi-ko'pmi darajada yorqinroq namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi: jumladan, xotiraning ko'rgazmali-obrazli turi ko'proq rassomlarda so'z abstrakt turi ko'proq nazariyachi olimlarda uchraydi. Lekin odatda xotiraning u yoki bu turining ustunligi kuzatilmaydi.

Puxta esda olib qolish shartlari. *Qiziqish muvaffaqiyatli esda qoldirishning eng birinchi shartlaridir. Bizda qiziqish tug'ilgan narsa tezroq va mustahkamroq esda qoladi. Biz, odatda, bizni qiziqitmaydigan narsalarga e'tibor bermaymiz va ularni hatto payqamaymiz. O'quvchilar qiziqqan, o'zlari "sevgan" fanlarning mazmunini puxta o'qib olishlarini har bir fan o'quvchilarda qiziqish-havas tug'dirgan bo'lsin. Esda qoldiradigan materialga qiziqish, diqqatimizni shu materialga qaratadi, his-tuyg'umizga ta'sir etadi, zavqlantiradi va beixtiyor esda qoldirish jarayonlarini kuchaytiradi.*

Diqqat esda mustahkam saqlab qolishning zaruriy shartlari. *Diqqat esga olish lozim bo'lgan materialga nechog'li kuchli sur'atda qaratilgan bo'lsa, u shunchalik tez esda qoladi, chunki diqqatning nerv fiziologik asosi miya po'stining bir qismida kuchli qo'zg'alish o'choq'ini paydo bo'lishidir. Ko'pincha ayrim kishilarning o'z xotirasining zaifligi, tez va puxta esda saqlab qololmasligi to'g'risidagi shikoyatlar analiz qilib ko'rilganda, esda yaxshi saqlab qololmasliklarining sababi ular diqqatining bo'shligida, tarqoqligida, miya po'stidagi tegishli qo'zg'alish o'choqlarining zaifligida ekanligi ma'lum bo'ladi. Bunday kishilar diqqatlarini bir nuqtaga jamlab qunt bilan ishlashga harakat qilishlari bilan ulardagi xotira ham kuchaya boradi.*

Esda qoldirish usuli. Esda qoldirish usuliga yoki maqsadiga ko'ra xotira qisqa muddatli va uzoq muddatliga bo'linadi.

Muayyan vaqtdan keyin takror tiklash maqsadida kerakli materialning esda saqlab qolingan vaqtlarda xotira, qisqa muddatli xotira deb ataladi. Xotiraning bu turini boshqacha qilib aytganda operativ xotira deyiladi. Xotira faoliyatining shunday turlarida, ya'ni kerakli materialni va ayniqsa o'quv materialini uzoq muddatgacha va butunlay esda saqlab qolishda uzoq muddatli xotira deyiladi.

Esda qoldirish usuli qandaydir biror muddat va sifatga ham ta'sir etib, esda qoldirishni mustahkamlaydi. Maxsus eksperimentlar isbot qilishganki, kishining "esimda uzoq saqlayman" yoki "esimdan also chiqarmayman" deb jazm qilgan narsasi xotirada mahkam o'rnatilgan qolar ekan. Aksincha qisqa bir muddat uchun esda qoldirishga jazm qilingan material tez unutiladi.

Shuning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida darsni tushuntirganda, uyga vazifa topshirishganida, o'quvchi bilimni tekshirganida hamisha ma'lum qoida, parcha tarix sanalari va shu kabilarni puxta va doimo esda saqlab qolishining zarurligini uqtirib borishi lozim. Darsni so'raganda savolni faqat o'tgan safargi topshiriq yuzasidagina berib qolmay, balki bundan oldin o'tilgan materialdan ham savol berishi kerak, bunday qilish o'quvchilarni har bir yangi darsni doimo puxta esda saqlab qoldirishlariga yordam beradi.

Esga olib qolishda qo'llaniladigan maxsus metodik usullar. *Esga olib qolinayotgan materialni idrok qilish usullari: takrorlash, mehnat qilish, maqsad qo'yish, amaliyot bilan bog'liq kabi usullardir.*

Tez va puxta esda qoldirish eng avvalo esga olinadigan materialning qanday idrok qilinishiga bog'liq. Tez, ravshan va raso, aniq idrok qilingan narsa, odatda, esda tez va mahkam saqlanib qoladi. Shuning uchun ham idrokning sifatini belgilovchi shart ayni vaqtda xotiraning sifatini ham, ya'ni uning tezligini va puxta bo'lishini ham belgilaydi.

Yana, materialni idrok qilishda qancha ko'p sezgi organlari ishtirok qilsa, material ham shuncha tez va puxta esda olib qoladi. Masalan, o'quvchilar rang-barang rasmlarni ko'rish, darslikni o'qish, undagi rasmlarni ko'rish, turli ko'rsatma qurollardan foydalanish, shuningdek yozib olish, so'zlarni *baland ovoz bilan aytish*, o'z ichida *shivirlab aytish* kabilarni puxta esda olib qolish shartlaridir.

Materialni yaxshiroq esda olib qolish uchun har xil idrok usullaridan foydalanish kerak. Masalan, chet tildagi so'z va gaplarni yodlab

olmoq uchun ularni faqat o'qish va og'zaki qaytarish kifoya qilmaydi, balki bu so'z va gaplarni bir karra ko'chirib yozishi va yozilganni ovoz bilan o'qish kerak, ana shunda material tez va puxta esda qoladi. K.D.Ushinskiyning bir fikrlari pedagogik jarayon ustidan olib borilgan qator kuzatishlarda tasdiqlandi. Masalan, mana shunday bir tajriba ko'rilgan. Sinalayotgan o'quvchilarga bir-biri bilan bog'lanmagan 12 so'z berib quyidagicha 3 xil usul bilan yodlab olish talab qilingan:

1) materialni bir karra, ya'ni o'z ichida o'qib, faqat ko'z bilan idrok qilish;

2) materialni ham o'qish, ham eshitish yo'li bilan idrok qilish;

3) materialni o'z ichida o'qish, uni eshitish va yozib olish yo'li bilan idrok qilish;

Bu tajriba quyidagicha natija beradi:

Idrok qilish usullari	Esda qolganining foiz hisobi	
	5 minutdan keyin	7 minutdan keyin
1	58%	26.6%
2	65%	33.3%
3	69%	40.0%

Bu jadvaldan ma'lum bo'lganidek, uchunchi usul bilan idrok qilingan material xotirada mustahkam saqlanib qolar va unchalik unitilmas ekan.

Boshqa qilingan bir tajribada o'quvchilardan ayrim materialni faqat ko'rish bilan esda qoldirish talab qilingan. Bunda esga tushirishda o'quvchilar o'n ta xato qilganlar. Boshqa o'quvchilardan shu materialni faqat eshitib yod olish talab etilgan. Bular esga tushurishda o'n to'rtta xato qilganlar. Yana bir guruh o'quvchilarga ayni materialni ham ko'rib, ham eshitib esda olib qolish tavsiya qilingan. Bular esda tushirishda faqat 4 ta xato qilganliklari aniqlangan.

XOTIRA SIFATLARI	
ESDA OLIB QOLISH	UNUTISH
TEZ	TEZ
SEKIN	SEKIN
TEZ	SEKIN

Idrok qilishda imkoni boricha ko'proq sezgi organlarining ishtiroq etish o'quvchilar faoliyatining ongliligi va aktivligini oshiradi.

Qilib ko'rilgan tajriba va kuzatishlar materialni puxta esga olib qolish uchun idrok qilishda nutq-harakat organlarining ishtirok etishi

alohida ahamiyatga ega ekanligini isbot qildi. O'quvchilar yozib olayotgan, og'zaki takrorlayotgan material tez va mahkam esda saqlanib qoladi.

Takrorlash. Bosh miya po'stida yangi puxta bog'lanishlar hosil bo'lmog'i uchun ta'sirotlarining bir necha marta takrorlanishi shart. Bironta material qancha ko'p takrorlansa, shuncha mahkam esda qolishini hamma biladi. Takrorlash esda qoldirishning puxtaligiga ta'sir qiladigan eng muhim shartlaridandir. Takrorlashning passiv va aktiv usullari mavjud.

Passiv takrorlash ayni bir materialni idrok qilishning o'zini takrorlayverishdir. Passiv takrorlash ayni bir narsani bir necha karra ko'zidan kechirish, o'qib chiqish yoki eshitish demakdir.

Aktiv takrorlash materialni ishga tushirish asosida takrorlashdir. Aktiv takrorlash idrok qilingan materialni, masalan, o'qilgan, eshitilgan materialni esga tushurib takrorlashdir. Kitobdan ko'zni uzmasdan takror-takror o'qib yod olishdan ko'ra, akitiv qaytarish eng yaxshi natija beradigan usuldir. Shu sababli, o'quvchi bir-ikki marta o'qib chiqilgan materialni kitobga nazar solmasdan og'zaki takrorlasa, material tezroq va puxtaroq esda qoladi. V. P. Ivanov tekstni to'rt marta o'qib, so'ngra tekstni ikki marta o'qib, ikki marta esga tushirish navbatmanavbat almashtirilib turish qanday natija berilganligini maxsus tajriba qilib ko'rgan.

Sidirg'asiga takrorlash bilan taqsimlab takrorlash. Materialni aktiv usuldami, passiv usuldami, bari-bir, yo sidirg'asiga, ya'ni orada ma'lum vaqt o'tkazib takrorlash, yoki taqsimlab, ya'ni orada ma'lum vaqt o'tkazib takrorlash, sidirg'asiga, to'xtovsiz takrorlayverishga qaraganda hiyla natija berar ekan.

Tajriba foiz hisobida quyidagi rejalarni bergan:

Esda qoldirish	1 soatdan keyin	1 kundan keyin	5 kundan keyin	10 kundan keyin
To'rt marta o'qish yo'li bilan...	52,0	27,5	17,5	15
Navbatmanavbat almashtirib ikki marta o'qish va ikki marta takrorlash yo'li bilan	75	72,5	65,5	57,5

O'quv materialini esga olib qolishda har-xil yordamchi usullar ham katta ahamiyatga ega: o'qituvchining so'zini yozib borish, kitoblardan ko'chirmalar olish, konspekt va jadvallar tuzish, shuningdek turli rasmlar chizish, sxemalar, chizmalar qilish, tarix va geografiyadan xaritalar yasash kabi ishlar shu jumladandir. Esga olib qolish jarayonida o'quvchilar shu jadval, chizma va suratlarni o'zlari qilsalar, materialni o'rganib-bilib olish ayniqsa osonlashadi.

Demak, birinchi usul bilan esga olib qolishga nisbatan, ikkinchi usul ko'proq samarali bo'lgan va materialni unutish kamroq bo'lgan. Aktiv takrorlashning samarali bo'lishiga sabab shuki, ixtiyoriy esga tushurish jarayoni, yani kitobning matnini hadeb o'qib berishga qaraganda, aktivroq jarayondir.

Demak, esda qoldirish mehnatdir, ba'zi hollarda esa u ancha qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan mehnatdir, binobarin ishni qunt bilan bajarish, sabr-matонатlik, ishni yarmida chala qoldirmasdan, balki to'liq va puxta esda qoldirishga erishish o'quv materialini o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Bular – irodaviy sifatlardir.

Tayanch iboralar : xotira, yeda olib qolish, esda saqlash, esga tushurish, unutish, assotsiatsiya, tasavvur, obrazli xotira, mexanik, mantiqiy, eydetik, harakat, emotsional, so'z-mantiq, xotira, aktiv takrorlash, passiv takrorlash, sidirg'asiga takrorlash, sifatlari.

Mavzu yuzasidan savollar :

1. Xotira qanday jarayon?
2. Xotira jarayonlari nimalardan iborat?
3. Obrazli va harakat xotirasi tushunchasi.
4. So'z-mantiq va emotsional xotira.
5. Eydetik, operativ, qisqa muddatli xotiralar.
6. Xotira sifatlari nimalardan iborat ?
7. Puxta esda olib qolish shartlari.

TAFAKKUR

Tashqarida ob-havo qanday ekanligini bilish uchun men uydan hovliga chiqishim va sovuq yoki issiqlikni bevosita yuzim, qo'llarim terisi, butun tanam bilan sezishim mumkin. Bu tevarak-atrof olamni sezgilar hamda idrok orqali to'g'ridan to'g'ri, bevosita bilish yo'lidir.

Ammo biz ob-havo masalasini uydan tashqariga chiqmay turib ham yecha olamiz. Chunonchi, derazadagi osig'lik turgan termometr orqali, derazadan qarash orqali biz tashqari ancha sovuq ekanligini, daraxt shoxlarining tebranayotganligini ko'rib, shamol esayotganligini bilamiz. Bu hildagi bilish bevosita bilish yo'li deb ataladi, chunki bu yerda bilim to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) yo'l bilan emas, balki vositali ravishda (bavosita), ayrim hodisalarni (termometr nayidagi simobning balandligini, daraxt shoxlarining shamoldan tebranishini) kuzatish hamda bu hodisalar bilan ob-havo o'rtasidagi aloqani tushunish orqali hosil bo'ladi.

Astronom-olim planetaning o'zini hali ko'rmasdan turib, uning qayerda bo'lish lozimligini matematik hisoblar orqali aniqlab bergan. Yoki bo'lmasa yorug'lik tezligi kilometr ga 300000 sekundni tashkil etadi. Biz uni ko'rish sezgisi bilan aniqlay olmaymiz, bu fizik asboblarda asosida aniqlangan. Demak, tafakkur hissiy bilish chegarasidan ham chiqa oladi.

Tafakkur bu – atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon hamda ijtimoiy sababiy bog'lanishlarni anglangan, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyat.

Katta yarim sharlar po'stlog'idagi hosil bo'luvchi muvaqqat nerv bog'lanishlari (shartli reflekslar) tafakkurning fiziologik asosi hisoblanadi. Bu shartli reflekslar real voqelikni aks ettiruvchi ikkinchi signallar (so'zlar, fikrlar) ta'sirida maydonga keladi. I.P.Pavlov yozishicha: *“Nutq organlaridan bosh miya po'stiga o'tuvchi maxsus kinestetik qo'zg'inishlar, ikkinchi signallardir, signallarning signalidir. Ular voqelikdan, mavhumlashishdan iborat bo'lib, umumlashtirishni taqozo qiladi, binobarin ular bizning ortiqcha maxsus insoniy, yuksak tafakkurimizdir...”* Ikkinchi signal bog'lanishlari narsa va hodisalar o'rtasidagi turlicha munosabatlarni aks ettiruvchi ancha murakkab sistema bo'lib, ular shunisi bilan sezgilardan, idrok va xotiradan farq qiladi.

Tafakkur jarayonida har ikkala signal sistemasi bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Ikkinchi signal sistemasi tevarak-atrofdagi olamni yaxshiroq bilib olish imkonini beradi. Ammo ikkinchi signal sistemasi birinchisiga tayanadi. Tafakkur har ikkala signal sistemasi ishtirok etgan, lekin ikkinchi signal sistemasi yetarli o'rin egallagan

taqdirdagina me'yorda ishlaydi, chunki so'z o'z mazmuniga ko'ra juda boy signal bo'lib, mavhumlik va umumlashtirish jarayonlari bilan bog'lanib ketgan.

Tafakkur nutq bilan ham bog'liqdir. Tafakkur tufayli biz dalil va hodisalarni faqat bilibgina qolmay, balki ular mavjudligining sabablarini ham tushuna olamiz. Tafakkur bizga bo'lg'usi voqealarni oldindan ko'ra olish imkonini beradi: bulutni ko'rib biz yomg'ir yog'adi deb xulosa chiqaramiz. Inson tafakkurini qanday shaklda amalga oshirilmasin tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Tafakkur faoliyati quyidagi fikr yuritish jarayonlari (operatsiyalari) yordamida amalga oshadi.

Analiz – narsa va hodisalarni fikran qismlarga bo'lishdir. Masalan, biror masalani yechishga kirishishda avvalo uning shartlarini analiz qilib olamiz; avtomobilni o'rganishimizda, biz uning qismlarini bilishga harakat qilamiz.

TAFAKKUR OPERATSIYALARI	TAFAKKUR SIFATLARI
ANALIZ SINTEZ TAQQOSLASH UMUMLASHTIRISH MAVHUMLASHTIRISH SISTEMALASHTIRISH ANIQLASHTIRISH	AQLNING KENGLIGI AQLNING IJODIYLIGI AQLNING MUSTAQILLIGI AQLNING TANQIDIYLIGI AQLNING CHUQURLIGI

Bolalarni savodga o'rgatishda analiz ko'p qo'llaniladi: gap-so'zlarga, so'zlar esa bo'g'in va tovushlarga bo'linadi. Ona tili va chet tilidagi nutqni idrok qilish hamda tushunishda analizning roli juda kattadir: bunda biz butun nutq oqimini jumla, gaplarga bo'lamiz, so'zlarni ajratib ko'rsatamiz, ayrim grammatik qurilmalarni topamiz va hokazo.

Analiz faoliyati narsa va hodisalarning xususiyatlarini fikran ajratishda ham o'z ifodasini topadi. Masalan, siyosiy arbob yoki adabiy qahramonga tavsifnoma berishda biz ular xarakterining sifatlarini, qarashlari, qobiliyatlari va boshqa fazilatlarini ajratib korsatamiz.

Sintez – qismlarni yoki xususiyatlarni fikran bir butun qilib qo'shishdir. Sintez dastlab narsa va hodisalarning qismlarni bir butun

qilib qo‘shishda ko‘rinadi. Chunonchi, tovush va harflardan bo‘g‘inlar, bo‘g‘inlardan so‘zlar, so‘zlardan esa gap tuzamiz va hokazo.

Sintez ayrim narsa va hodisalarning xususiyatlarini fikran birlashtirishda ham ko‘rinadi. Masalan, adabiy asarda ayrim xususiyatlarni ko‘rib chiqqach, keyin biz butun adabiy qahramonga, tarixiy shaxsga, har xil voqealarga xarakteristika beramiz.

Analiz bilan sintez o‘zaro chambarchas bog‘liqdir, ular hamisha birgalikda o‘tadi. Fikran analiz hamda sintez narsa va hodisalar bilan amaliy ish bajarish asosida yuzaga keladi. Bu hol bolalarda ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Ular biron narsani fikran analiz va sintez qilishdan avval, uni amalda bajaradilar, bunda ular narsalarning o‘zi yoki ularning ko‘rsatmali tasviridan foydalanadilar. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalardayoq biz ularning o‘yinchoqlarini qismlarga bo‘lishlarni, kubiklardan har xil narsalar qurishlarini va boshqa shu harakatlarini kuzatamiz. Kichik maktab bolalari yoddan sanashni bilib olgunga qadar avvaliga, sanash tayoqchalari, barmoq va boshqa narsalar yordamida ish ko‘radilar. Katta yoshdagi kishi ham biror narsa va hodisa bilan birinchi marta duch kelganda amaliy ish bajarishi zarur bo‘ladi.

Taqqoslash – narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarini topish.

Umumlashtirish – narsa va hodisalarni umumiy va muhim belgilari bo‘yicha fikran birlashtirish demakdir. Umumlashtirish analiz va taqqoslash asosida yuzaga keladi. Taqqoslashda biz dastlab narsa va hodisalarning umumiy hamda xilma-xil xususiyatlarinigina topamiz va shundan keyin bu narsa va hodisalarni eng muhim umumiy xususiyatlari bo‘yicha birlashtiramiz. Lekin biz narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan xususiyatlarini e‘tiborga olmaslik tufayli, ularni shu tarzda bir turkumga birlashtira olamiz.

Sistemalashtirish – fikr obyektiv hisoblangan narsa va hodisalarni zamon (vaqt), makon (fazo) va mantiqiy jihatdan ma‘lum tartibda joylashtirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir. U bilimlarni o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Odatda, sistemalashtirish operatsiyasi yordamida narsa va hodisalar, dalillar, fikrlar va obyektlar makonda, vaqtda egallagan o‘rniga qarab mantiqiy joylashtiriladi.

Tarixiy voqealarning xronologik tartibda joylashtirilishi, kutubxonadagi kitoblarning xronologik jihatdan terib qo'yilishini voqealarni zamonga qarab tizimga solishning namunasi deb atash mumkin. O'quv ta'limida o'zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ish bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Konkretlashtirish – muayyan umumiy turkumga kiruvchi qisman narsa haqidagi fikr. Aniqlashtirish umumiyini aniq faktlar orqali ko'rsatishda, umumlashtirilgan, nazariy bilimlardan misollar keltirishda namoyon bo'ladi. Konkretlashtirish hodisalarning ichki bog'lanishi va munosabatlaridan qat'iy nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir.

Konkretlashtirish bilimlarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Umumga taalluqli xususiy hollar, konkret voqealar ko'proq ko'rib chiqilgan sari umumiy qoidalar, qonunlar chuqurroq o'zlashtiriladi.

Mavhumlashtirish - narsa va hodisalarning, qonun va qonuniyatlarning ayrim belgisi, sifati, alomati yoki xususiyatlarini fikran ulardan ayirib olib, mustaqil fikr obyektiga aylantirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi.

Masalan, bilish jarayonida tabiat, jamiyat va ayrim insonlarga xos bo'lgan „go'zallik“ belgisini ayirib olib, ularning go'zalligi to'g'risida emas, balki umuman go'zallik, ya'ni estetik kategoriya mazmunidagi tushuncha yuzasidan mulohaza yuritiladi.

Abstraksiyalash shunday fikr, tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordamida avval moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olamiz, so'ngra ulardagi muhim bo'lmagan, ikkinchi darajali xususiyatlarni fikran ajratib olamiz.

Tasniflash – bir turkum narsalar ichida bir-biriga o'xshashlarini boshqa turkumdagilardan farq qilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish tizimi.

Bunda D.I.Mendeleevning “Elementlarning davriy tizimi” jadvali tasniflash uchun yorqin misoldir. O'quvchilarning alifbe tartibi bilan tuzilgan ro'yxati, jinsiy belgilari, ulgurishlari va qiziqishlarini nazarda tutib turkumlarga ajratish ham sun'iy tasnifga misol bo'la oladi.

Hozirgi islohotlar amalga oshirilayotgan O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosi bo'lib, shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ko'plab loyihalarni ishlab chiqishga qodir bo'ladilar.

Chunki o'zgalar fikriga qaram bo'lish, turli ziddiyatlar va yot mafkura-ga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib keli-shi shubhasizdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, **mustaqil fikrlash** bir qarashda shaxsning individual xususiyati bo'lsada, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o'rtasidagi munosabatlar muhiti yaxshi bo'lganda rivojlanadi.

Mustaqil fikrlash – shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o'z qarashi va nostandart yechimlariga ega bo'ladilar. Masalan, predmet-ruchkaning nima ekanligini va nima maqsadda undan foydalanish mumkinligini ko'pchilik biladi. Bu-yo-zuv quroli. Lekin agar mustaqil, nostandart tafakkurga erk berilsa, un-ing ko'rsatkich sifatida, yoki sanoq tayoqchasi o'rinda, yoki g'altakka o'xshatib ip o'rash mumkinligi kabi o'nlab vazifalarini aytish mumkin. *Demak, mustaqil fikr – insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro'y berayotgan hodisalarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlari chegarasini ken-gaytiradi.*

Tafakkur maqsadga yo'naltirilganlik xarakteriga egadir. Qachonki hayot va amaliyot jarayonida kishi oldida yangi maqsad, yangi muam-mo, yangicha vaziyat va yangi faoliyat sharoitlari paydo bo'lsa, unda dastavval tafakkur qilishga zarurat tug'iladi. Masalan, shifokor qan-daydir yangi, shu paytgacha ma'lum bo'lmagan kasallikka duch kelib, davolashning yangi metodlarini topib, undan foydalanishga intilganda ana shunday bo'ladi. *O'z mohiyati jihatidan olganda, tafakkur faqat shunday sharoitlarda zarur bo'ladiki, yangi maqsadlar tug'ilib, bu maqsadlarga erishish uchun faoliyatning eski, avvalgi vosita va usul-lari yetishmay qoladi. Bunday vaziyatlar muammoli vaziyat deb yuri-tiladi.*

Tafakkur yangilikni izlash va ochish demakdir. Harakatning ilgari-dan ma'lum bo'lgan eski usullari, eski bilimlar va malakalar bilan chek-lanish mumkin bo'lgan hollarda muammoli vaziyat yuzaga kelmaydi va shuning uchun tafakkur ham mutlaqo talab qilinmaydi.

Muammoli vaziyat bilan masalani farq qilish zarurdir. Muammoli vaziyatda kishi faoliyat davomida ko'pincha kutilmaganda, qandaydir tushunib bo'lmaydigan narsaga, noma'lum, tashvishli narsalarga duch kelib qoladi. Masalan, uchuvchi samalyotni boshqarib ketayotganda to'satdan motorda qandaydir o'zgacha, noaniq shovqinni payqay bosh-

laydi. Darhol uchuvchi faoliyatiga sodir bo'lgan hodisa ma'nosini ochish uchun zarur bo'lgan tafakkur qo'shiladi.

Masalani muammoli vaziyatdan kelib chiqadi, vaziyat bilan mahkam bog'liq bo'ladi, lekin vaziyatdan farq qiladi. *Muammoli vaziyat – ancha xira, hali ko'p jihatdan aniq bo'lmagan va kam anglanilgan taassurotlar.* Muammoli vaziyat bamisoli “nimalardir ko'ngildagidek emasligi”dan go'yo signal beradi. Masalan, uchuvchi motorda qandaydir tushunib bo'lmaydigan hodisa ro'y berayotganligini payqay boshlaydi, lekin u motorning qaysi qismida, nima sababdan, qanday hodisa ro'y berayotganini hali aniqlay olmagan, bundan tashqari, u yuz berishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish uchun qanday harakat qilish kerakligini hali bilmaydi. Mana shunday tarzda muammoli vaziyatdan tafakkur jarayoni boshlanib ketadi. Tafakkur ana shu muammoli vaziyatning o'zini tahlil qilishdan boshlanadi. *Muammoli vaziyatni tahlil qilish natijasida sof ma'nodagi masala, sof ma'nodagi muammo paydo bo'ladi.*

Masalani yuzaga kelishi, muammoli vaziyatdan farq qilib, garchi oldindan bo'lsa ham berilgan va noma'lum narsani taxminan bo'laklarga bo'lishga ulgurildi degan ma'noni anglatadi. Bu bo'laklarga bo'lish masalaning so'z bilan ifodalangan qismida namoyon bo'ladi. Bu bilan dastlabki yaqinlashish tarzida va mutlaqo taxminiy qidirilayotgan narsa belgilanadi. Masalani yechish davomida, uning tobora yangi va tobora muhim shartlari hamda talablarini namoyon qilish jarayonida qidirilayotgan tomonlari ortiqroq darajada aniqlanadi.

Tafakkur shakllari, turlari va sifatlari. Odatda, nutq tafakkur jarayonida hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalab kelinadi. Shuning uchun hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning o'ziga xos shakllari deb ataladi.

Tushunish – fikrlash faoliyatining maxsus natijasi hisoblanadi. Fiziologik nuqtayi nazardan qaraganda, tushunish bosh miya po'stida tegishli muvaqqat nerv bog'lanishlarning paydo bo'lishi natijaidir. I.P.Pavlov bu haqda ta'kidlab, “... bog'lanishlar bilan erishilgan bilimlardan foydalanish – bu tushunishdir”, - degan edi.

Tushuncha shunday bir fikrki unda voqeylikdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim farq qiladigan belgilari aks ettiriladi. Masalan, “odam” tushunchasining tarkibiga mehnat faoliyati, mehnat qurollarini ishlab chiqarish nutq kabi nihoyatda muhim belgilar kiradi. Ana shu barcha zaruriy muhim xususiyatlar odamlarni hayvonlardan farqlaydi.

TAFAKKUR SHAKLLARI		
TUSHUNCHA	HUKM	XULOSA
KONKRET ABSTRAKT	YAKKA CHIN YOLG'ON TAXMIN JUZ'IY	INDUKTIV DEDUKTIV ANOLOGIK

Fikr bu – narsa va hodisalarning umumiy hamda muhim belgilarini aks ettiruvchi tushuncha. Odatda, tushunchalar mohiyati jihatidan konkret va abstraktga ajratiladi. *Alohida olingan bir butun narsaga aloqador tushuncha konkret tushuncha deb ataladi.* Masalan: stol, divan, qayrag'och, traktor, holva va hokazo. *Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat, sifat holatlarga, shuningdek, narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi.* Masalan: oqlik, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug'lik, qiymat haqidagi tushunchalar va hokazo.

Tushunchalar ko'lami jihatidan uch turga bo'linadi:

- 1) yakka tushunchalar;
- 2) umumiy tushunchalar;
- 3) to'planma tushunchalar.

Yakka tushunchalar, yakka narsa va hodisa haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga Alisher Navoiy, general Sobir Rahimov, Toshkent, Amudaryo, Himolay, Tinch okeani to'g'risidagi tushunchalarni misol qilib keltirsa bo'ladi.

Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha aniq obraz mavjud bo'ladi. *Umumiy tushunchalarda bir jinsda bo'lgan ko'p narsa va hodisalar gavdalantiriladi.* Masalan: kitob, maktab, yulduz, talaba, o'spirin, hosil, tog' va yer.

To'planma tushunchalar bir jinsda bo'lgan narsa va hodisalar to'plami haqida yaxlit fikr yuritishdir. Masalan: paxtazor, kutubxona, yig'ilish va hokazolar. To'planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda **umumiy to'planma tushunchalar** hosil bo'ladi. Masalan: Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat kutubxonasi tushunchasini yakka to'planma tushunchaga oid desa bo'ladi. Guruh, sinf, jamoa, xalq, olomon va boshqalar umumiy to'planma tushunchaga misoldir.

“Mavhum” tushunchalarning yuqorida qayd qilib o‘tilgan tushunchalardan farqi shuki, ular idrok yoki tasavvurga bevosita asoslanmaydi. „Abstrakt” tushunchaga misol tariqasida „qiymat” tushunchasini keltirib o‘tamiz: siz ayrim tovarni ushlab har birini qo‘lingizda aylantirib ko‘rishingiz, uni xohlaganingizcha ishlatishingiz mumkin, ammo shu tovarni qiymat tariqasida olib qaraganimizda uni aslo ushlab bo‘lmaydi.

Logika tafakkurning mantiqiy shakllarini, tushunchalarini, hukmlarini va xulosalarni o‘rganadi.

Tushunchaning mazmuni hukmlarda ochiladi, hukmlar hamisha so‘z shaklida ya‘ni og‘zaki yoki yozma shakilda ovoz chiqarib yoki o‘z ichida ifodalanadi. *Hukmlar voqelikdagi narsalar, voqeyalar va hodisalar o‘rtasidagi qandaydur munosabatlarni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi.* Masalan, biz, ”Yer quyosh atrofida aylanadi” der ekanmiz, buning bilan koinotdagi ikkita jism o‘rtasidagi ma‘lum bir obyektiv makoniy aloqa borligini tasdiqlaydi.

Hukmlar *chin, ayiruvchi, umumiy, juz‘iy va yakka-yolg‘iz bo‘ladi.* Umumiy hukmlarda, mazkur guruhlardagi mazkur sifatdagi hamma narsalar to‘g‘risida nimadir tasdiqlaydi, yoki inkor qilinadi.

Narsa va hodisalarda, voqelikda haqiqatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan belgilar, alomatlar, hukmlarda bog‘liq ravishda ko‘rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsa (tomon) hukmlarda ajratib ko‘rsatilsa bu chin hukm deb ataladi. Masalan, “Metallar elektr tokini o‘tkazuvchidir”, “Metallar qizdirilgandan kengayadi” degan chin hukmlardir. Chunki elektr tokini o‘tkazish, qizdirilganda kengayish metallarga xos xususiyatlardir, bu hukmda u yoki bu holat faqat tasdiqlanib aytilayotir.

Moddiy olamda haqiqatdan bog‘liq bo‘lmagan narsa hukmda bog‘liq qilib ko‘rsatilsa, bunday hukm xato (yolg‘on) hukm deyiladi. Chunki bu hukmda aks ettirilgan sifatlar (belgi va alomatlar) bu narsalarga aslo muvofiq kelmaydi. Masalan, “Atom – moddaning bo‘linmas zarrachasidir” degan hukm noto‘g‘ri hukmdir. Atom murakkab moddiy tizimga ega bo‘lib, u yadro va elektronlarga bo‘linadi. Atomning yadrosi ham bo‘linadi, bu yadro proton va neytronlardan iboratdir, degan hukmlardir.

Narsa bilan belgining aloqasi (bog‘liqligi) aks ettirilgan hukm tasdiqlovchi hukm deb ataladi. Masalan, “Alisher Navoiy buyuk o‘zbek

shoiri va mutafakkiridir”, “O‘zbekiston qorako‘li bilan jahonga mashhurdir”, “1977-yil Toshkent metrosi ishga tushgan sanadir” va hokazo.

Narsa bilan belgi o‘rtasidagi biror bog‘lanish yo‘qligini aks ettiruvchi hukm inkor hukm deb ataladi. Masalan: “O‘zbekistonda paxta ekilmaydi”, “Samarqandda oliy maktablar qurilmagan” va boshqalar.

Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi hukmda fikran ajratilishi mumkin. *Yakka (yolg‘iz) narsa va hodisa to‘g‘risidagi hukm yakka hukm deb ataladi.* Misol uchun: „Alisher Navoiy nomli katta opera va balet teatri respublika faxridir”, “Toshkent – O‘zbekiston Respublikasining poytaxtidir”, “Amudaryo sersuv daryolardan biridir”.

Belgining biror turkumigagina taalluqligini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm juz‘iy hukm deb ataladi. Masalan: “Ba‘zi metallar elektr tokini o‘tkazmaydi”. *Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to‘g‘risida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm umumiy hukm deb ataladi.*

Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm shartli hukm deb ataladi. Masalan: “Agar quyosh nuri uch burchakli prizmadan o‘tkazilsa, ekranda spektr hosil bo‘ladi” Agar o‘quvchi imtihonga qunt bilan puxta tayyorlansa, u “yaxshi” va “a‘lo” baholar oladi, “Agar o‘quvchi diqqat qilmasa, yangi materialni o‘zlashtira olmaydi”, “Agar dehqon bahorda yerga yaxshi ishlov bermasa, kuzda hosil cho‘g‘i kam bo‘ladi”.

Hukmda narsa va hodisalarga bir necha belgi nisbat berilib, shu belgilardan faqat bittasi unga tegishli bo‘lsa, bunday hukm ayiruvchi hukm deb ataladi. Misol uchun: “Jismlar yo qattiq yoki suyuq, yo gazsimon holda bo‘ladi” “Yer yuzasi fasllarning o‘zgarishiga qarab goh qattiq isib ketadi, goh ilib qoladi, goho keskin soviydi”. *Narsa bilan belgi o‘rtasidagi aloqaning bor yoki yo‘qligi qat‘iy shaklda aks ettirilsa, qat‘iy hukm deb ataladi.* Masalan: “Yonish kimyoviy jarayondir”, “Bahorda barcha joylarda ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib boriladi” va hokazo.

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o‘rtasida aloqa bo‘lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u holda inson o‘z fikrini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin: “Ehtimol, Marsda organik hayot bordir”, “Yigirma birinchi asr boshlarida fan va texnika rivoii hozirgi

davrdagidan taxminan uch baravar ortishi mumkin”, “Jahondagi foydali qazilmalar zaxirasi yana bir yuz ellik – ikki yuz yilga yetsa kerak” va boshqalar. *Bunday hukmlar ehtimollik hukmlari deb ataladi.* Narsa bilan xususiyat o‘rtasidagi aloqani taxminan etmas, balki haqiqatda aniq bilganimizda biz o‘z fikrimizni mana bunday shaklda ifoda qilamiz: “Bizning Milliy universitet O‘rta Osiyoda eng keksa oliy o‘quv yurtidir” “Maktabimizda fizika kabineti juda yaxshi uskunalar bilan jihozlangan”, “Istiqlol” jamoasi paxta topshirishda oldinda”, “Maktab kutubxonasida yangi kitoblar ko‘p”. *Bunday hukmlar voqelik (asseptorik) hukmlari deb ataladi.*

Hukmning shunday yuqori shakli borki, unda faqat haqiqatdan bo‘lib o‘tgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. Masalan, “Butun dunyoda, tinchlik g‘alaba qozonishi muqarrar”, “Sezgi chegarasining me‘yori qanchalik kichik bo‘lsa, mazkur analizatorning sezgirligi shunchalik yuksak bo‘ladi”, “Sezgilarning intensivligi qo‘zg‘atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir”. *Bunday hukmlar zarurlik (apodiktik) hukmlari deb ataladi. Bunday hukmlarda inson narsa, hodisa bilan uning xususiyati o‘rtasida mahkam bog‘lanish borligini va bu bog‘lanishga zid keladigan boshqa bir holning bo‘lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi.*

Xulosa chiqarish. Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. *Psixologiyada xulosa chiqarish jarayonida foydalanilgan tayyor hukmlar asoslar deyiladi, ularni tahlil qilib chiqarilgan yangi hukmni esa xulosa deb atash qabul qilingan. Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz.* Masalan: “Har qanday harakat materiya harakatidir”, “Issiqlik harakat shaklidir” degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan: “Demak, issiqlik materiya harakatidir” degan yangi hukm chiqariladi; yoinki, ushbu misolni olib qaraylik: “Barcha sayyoralar harakatlanadi. Oy-sayyora. Demak, Oy harakatlanadi”. Bunda har qanday harakat materiya harakatidir (umumiy yoki katta asos). Issiqlik harakat shaklidir (juz‘iy yoki kichik asos) deb yuritiladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo‘linadi: *induktiv, deduktiv va analogik.*

Induktiv xulosa chiqarish – bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usulidirki, bunda bir necha yakka yoki ayrim hukmlardan umumiy hukmga o‘tiladi yoki ayrim fakt va hodisalarni o‘rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratiladi. Masalan: „Temir elektr tokini o‘tkazadi“, „Mis elektr tokini o‘tkazadi“, „Kumushda ham elektr tokini o‘tkazuvchanlik xususiyati bor“ va hokazo. Inson yuqoridagi hukmlardan yangi umumiy xulosa chiqarib, demak, „Metallarning hammasi elektr tokini o‘tkazadi“ degan yangi xulosa chiqaradi.

Deduktiv xulosa chiqarishda – umumiy va yakka xulosalardan yakka yoki juz‘iy xulosa keltirib chiqariladi. Misol uchun: „Har qanday metall – element“. „Vismut – metall“. Demak, vismut – element. Hamma planetalar maxsus shakldadir. Kamolot O‘zbekiston yoshlar ijtimoiy harakati a‘zolari shijoatli yoshlardir. Toshkent Davlat pedagogika universitetining ko‘pgina talabalari kamolot a‘zosidirlar. Demak, ular ham shijoatlidirlar.

Analogik xulosa, bu xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda biz ikki predmetning ba‘zi bir belgilari o‘xshashligiga qarab, bu predmetlarning boshqa belgilari ham o‘xshashligi to‘g‘risida xulosa chiqaramiz. *Analogiya deb, narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ba‘zi belgilariga qarabgina xulosa yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakliga aytamiz.* Analogik usulda chiqarilgan xulosa chin, taxminiy hamda yolg‘on bo‘lishi mumkin. Fikr yuritishning bunday shakli ko‘pincha yosh bolalarga xos xususiyatdir. Bog‘cha yoshidagi bola mana bunday mulohaza yuritadi: “Adamlar darvozadan ismimni aytib chaqirib keldilar. Ular sovg‘a olib kelgan bo‘lsalar kerak”. Bu bolaning fikrini analiz qilib ko‘rsak, uning fikr yuritishi mana bunday tarzda taraqqiy etganligini shohidi bo‘lamiz. “O‘tgan galda adam ismimni aytib chaqirib kelgan edilar. O‘shanda ular menga sovg‘a olib kelgan edilar. Yana chaqirayotirlar. Albatta, adam menga sovg‘a olib kelganlar” deb xulosa chiqaradi.

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va birmuncha shartli klassifikatsiyasi tarqalgandir:

1. Ko‘rgazmali-harakat;
2. Ko‘rgazmali-obrazli;
3. Mavhum tafakkur;
4. Emotsional tafakkur;
5. Amaliy va nazariy tafakkur;
6. So‘z-mantiq tafakkuri;
7. Ijodiy tafakkur.

Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o‘z oldilarida turgan masalarni dastlab *amaliy faoliyat* nuqtayi nazaridan yechganlar; keyinchalik undan *nazariy faoliyat* ajralib chiqqan. Masalan, bizning uzoq avlodimiz yerni dastavval amaliy o‘rgangan va shundan keyingina mana shunday amaliy faoliyat davomida to‘plangan bilimlar asosida, asta-sekin maxsus nazariy fan sifatida geometriya fani yuzaga kelgan va rivojlangan. Amaliy va nazariy faoliyat o‘zaro chambarchas bog‘langandir. “G‘oyalar, tasavvurlar va ong ishlab chiqarishi dastavval bevosita moddiy faoliyatga qo‘shilib ketgan bo‘ladi...”

TAFAKKUR TURLARI	
SHAKLIGA KO‘RA	KO‘RGAZMALI HARAKAT KO‘RGAZMALI-OBRAZLI MANTIQUIY
MASALANING XARAKTERIGA KO‘RA	NAZARIY AMALIY
IJODIYLIGIGA KO‘RA	KONVERGENT DIVERGENT
YANGILIGI VA NOYOBLIGIGA KO‘RA	REPRODUKTIV PRODUKTIV

Bu shuni anglatadiki, sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o‘zi birlamchidir. Amaliy faoliyatning taraqqiyoti davomida undan nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqadi.

Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyotida emas, balki har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayonida ham asos sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyat asos qilib olinadi. So‘nggi faoliyat ichida avval bola tafakkuri rivojlanadi. Bog‘chagacha yosh davrida (uch yoshgacha) asosan ko‘rgazmali harakat tafakkuri bo‘ladi. Bola bilayotgan obyektlarini o‘z qo‘llari bilan amaliy ravishda va go‘yo tabiiy ravishda ajratadi, bo‘laklarga bo‘ladi hamda, ayni chog‘da, idrok qilayotgan narsalarni birlashtiradi, solishtirib ko‘radi, narsalarni bir-biri bilan bog‘lab, analiz va sintez qiladi. Qiziquvchan bolalar ko‘pincha “ichida nima borligini” bilish maqsadida o‘z o‘yinchoqlarini buzib, sindirib ko‘radilar.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko‘pincha bog‘cha yoshidagi bolalarda, ya‘ni to‘rt-yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarda mavjud bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar

bilan aloqasi garchi saqlanib qolsa ham, lekin bu aloqa avvalgidek mustahkam, to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bola bilayotgan obyektlarni analiz va sintez qilishi davomida qiziqtirayotgan narsasini qo'llari bilan albatta va hamma vaqt ham ushlab ko'rishi shart emas. Juda ko'p hollarda sistemali ravishda obyektни amaliy tahlil qilib ko'rish talab qilinmaydi. Lekin barcha hollarda mazkur obyektни aniq idrok qilish va yaqqol tasavvur etish shartdir. Boshqacha qilib aytganda, bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va hali tushunchalarga ega bo'lmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tushunchalarning yo'qligi shveysariyalik psixolog J.Piajening quyidagi eksperimentlarida juda yaqqol namoyon bo'lgan.

Yetti yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil va hajm jihatidan bab-baravar soqqalar ko'rsatiladi. Har bir bola ko'rsatilgan narsalarga diqqat bilan qaraydi va ular o'zaro bir-biriga teng deb aytadi. Shundan so'ng bolalarning ko'zlari oldida soqqaning bittasi ezib non shakliga keltiriladi. Bolalar yassilantirilib non shakliga keltirilgan soqqaga ozgina bo'lsa ham xamir qo'shilmaganini, faqat uning shakli o'zgartirilganini ko'rib turadilar. Shunga qaramay, tekshirilayotgan bolalar, non shakliga keltirilgan soqqada xamirning miqdori ortgan deb hisoblaydilar.

So'zlar orqali ifodalangan fikrlar so'z-mantiq tafakkuri yordamida esda olib qolinadi. O'quvchilar o'zlari o'rganadigan hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi tushunchalarni o'zlashtirish, hukm va xulosa chiqarish jarayonida xotiraning xuddi mana shu turiga suyanib ish ko'radilar. Badiiy va ilmiy adabiyotlar matnlarini esda olib qolish va hamda esga tushurish asosida so'z-mantiq xotirasi yotadi. Bunda fikrlar xuddi kitobdagidek so'zma-so'z shaklida ham, shuningdek, fikrning so'z ifodasi aniq saqlanmagan holda ham esda olib qolinishi va esga tushirilishi mumkin.

So'z-mantiq xotirasini ba'zan mantiqiy xotira deb ham yuritiladi. Bu xotira keng va chuqur fikr yuritishga asoslanadi, shaxsdan materiallarni sistemali o'zlashtirishni talab etadi.

Emotsional tafakkur – odamning ilgari o'z boshidan kechirgan his-tuyg'ularini, emotsional holatlarini esda olib qolishdir. Chunonchi, qachonlardir biron ulkan hamda murakkab ishni amalga oshirgan paytingizda yoki musobaqa g'olibi bo'lganingizda va shu kabi boshqa

hollarda sizda jo'sh urgan quvonch yohud iftixor hissi oradan ancha vaqt o'tgandan keyin ham xotirangizda tiklanishi mumkin. Imtihon vaqtida qoniqarsiz javob qaytargan yoki noto'g'ri nojo'ya xatti-harakat tufayli qattiq xijolat chekib, uyalgan bo'lsangiz, siz uni uzoq vaqt esdan chiqarmasligingiz mumkin.

Shunday qilib logikaning predmeti – tafakkur jarayonida paydo bo'ladigan bilish mahsulotlari, bilish natijalarining o'zaro nisbatidan iborat. Psixologiya esa logika talablarini qondiradigan bilish natijalariga olib keluvchi fikrlash jarayonining qonuniyatlarini o'rganadi. Logika ham, psixologiya ham bir xil bilish faoliyatining o'zini o'rganadi, lekin ular fikrlash faoliyatini har xil tomondan, har xil sifat jihatidan o'rganadi;

O'quvchilarning tushunchalarni o'zlashtirishlari davomida mavhum tafakkurning rivojlanishi ularda ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli tafakkur bundan keyin taraqqiy etmay qo'yishini yoki umuman yo'qolib ketishini anglatmaydi. Aksincha, har qanday fikr yuritish faoliyatining bu boshlang'ichi va dastlabki shakllari mavhum tafakkur bilan birga hamda uning ta'siri ostida rivojlanib, ilgari o'zgarib va takomillashib boradi. Bolalardagina emas, balki katta yoshli odamlarda ham fikr yuritish faoliyatining hamma turlari va shakllari doim rivojlanib boradi. Masalan, texnik, muhandis va loyihalovchilarda tafakkurning ko'rgazmali-harakat turi, yozuvchilarda bo'lsa ko'rgazmali-obrazli tafakkur yuksak rivojlangan bo'ladi.

Ijodiy tafakkur ijodiy xayol bilan uzviy aloqada bo'ladi. Shuning uchun inson amaliy faoliyatida bir talay savollarga javoblarni xayol yordami bilan topadi. Jumladan, har xil taxminlar, farazlar, ilmiy gipotezalar yaratiladi, kashfiyotlar, texnika sohasidagi ixtirolar shu yo'sinda amalga oshiriladi, ya'ni xayol yordami bilan zarur natijalarga erishiladi.

Har xil odamlarda tafakkurning individual xususiyatlari eng avvalo ularda fikrlash faoliyatining har xil va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi turlari hamda shakllari turlicha nisbatda tarkib topgani uchun yuzaga keladi. *Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyatining mustaqilligi, epchilligi, fikrning tezligi kabi boshqa sifatlar ham kiradi.*

Tafakkurning mustaqilliligi dastavval yangi masala, yangi muammoni ko'ra bilishda, undan so'ng esa ularni o'z kuchi bilan yecha bilishda namoyon bo'ladi. Tafakkurning ijodiy xarakteri xuddi mana shunday mustaqillikda yorqin ifodalanadi.

Tafakkurning o'zgaruvchanligi shundan iboratki, masalaning yechishning boshda belgilangan yo'li asta-sekin yuzaga chiqadigan va avvaldan hisobga olib bo'lmagan muammo shartlarini qanoatlantirmasa, ana shu yo'li o'zgartira olishdan iboratdir.

Fikrning tezligi xususan shunday hollarda kerak bo'ladiki, ba'zan kishidan biron qarorni juda qisqa muddat ichida qabul qilish talab qilinadi. Fikrning tezligi maktab o'quvchilariga ham kerakdir. Masalan, ayrim yaxshi o'quvchilarni, hatto yuqori sinf o'quvchilarini doskaga chaqirib, ulardan yangi masalani yechish talab qilinganda, hayajonlanib butun sinf oldida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Bu salbiy emotsiyalar go'yo ularning tafakkurini tormozlab qo'yadi. Fikr juda sekin va tez-tez muvaffaqiyatiz ishlay boshlaydi. Garchi o'zlari uchun tinch sharoitda, doskaning oldida emas, uyda yoki partada o'tirganda o'sha o'quvchilar, shu masalaning o'zini hatto undan qiyinroq masalalarni ham tez va yaxshi yechadilar. Fikrni tormozlashtiruvchi his va tuyg'ular ta'sirida jiddiy sekinlashuvi ko'pincha imtihonlarda ham namoyon bo'ladi.

Ayrim o'quvchilarning ana shu individual xususiyatlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini to'g'ri baholash bilan maxsus hisobga olish zarurdir.

Tafakkurning yuqori ko'rsatilgan barcha va boshqa juda ko'p sifatleri uning asosiy sifati yoki belgisi bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday tafakkurning eng muhim belgisi, uning ayrim individual xususiyatlaridan qat'iy nazar, muhim tomonlarni ajratib, mustaqil ravishda tobora yangi umumlashtirishlarga kela bilishdan iboratdir. Kishi o'ylayotgan paytda, bu o'yning hatto juda yorqin, qiziq, yangi va favqulodda bo'lishiga qaramay, biror narsa yoki hodisalarni sharhlash bilan cheklanmaydi. Tafakkur mazkur hodisaning mohiyatiga chuqur kirgan va tashqi jihatdan bir-biridan qanchalik farq qilishidn qat'iy nazar, ozmi yoki ko'pmi bir xil hodisalarni barchasining umumiy taraqqiyot qonunini kashf etgan holda zarur ravishda oldinga qarab boradi.

Tayanch iboralar:

tafakkur shakllari: tushuncha, mavhum, aniq, hukm, chin, yolg'on, juz'iy, taxminiy, umumiy, to'planma; xulosa chiqarish: induktiv, deduktiv, analogik; tafakkurning sifatleri: mustaqilligi, o'zgaruvchanligi, kengligi, mazmundorligi.

Mustahkamlovchi savollar:

1. Tafakkur shakllarining tasnifi.

2. Tushuncha va uning turlari.
3. Hukm va uning turlari.
4. Xulosa chiqarish va uning yo‘llari.
5. Tafakkur turlari.
6. Tafakkur sifatlari.

O‘quvchilar uchun mustaqil topshiriqlar:

1. Tafakkurni charxlovchi mashqlardan foydalanish.
2. Mantiqiy savol va masalalar yechish.

NUTQ

Nutq – odamlar til orqali bir-biri bilan muomala va aloqa qilishining alohida usulidir. Odam o‘z nutqi yordami bilan o‘zining bilimlari, fikrlari, hislari va istaklarini boshqa kishilarga aytib bera oladi va boshqa kishilarning hislari va istaklarini bilib oladi. Odamlar o‘zlarining kundalik faoliyatlari va kundalik hayotlarida bir-birlari bilan shu tarzda aloqa qilib turadilar. Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash jarayonida har bir kishi bilimlarning ko‘p qismini boshqa kishilardan oladi. Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash odamning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr alishuvga xizmat qiladi.

Odam boshqa kishilar bilan nutq orqali muomala qilmay yashay olmaydi. Odam yakka o‘zi qolganda, ko‘pincha, xayolidagi suhbatdoshlar bilan “o‘z ichida” gaplashadi. Odam o‘ziga notanish bo‘lgan bir yoki bir necha kishi o‘rtasiga tushib qolsa, unda nimalarnidir aytish yoki shu kishilardan nimalarnidir eshitish ehtiyoji albatta paydo bo‘ladi. Bu ehtiyoj qondirilmay qolsa, odamni maxsus qiladigan “o‘ng‘aysizlik hissi tug‘iladi. Odamning “aytadigan hech bir gapi” bo‘lmagan taqdirda ham shunday ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bunday hollarda u “nima qilishini” bilamay qoladi. Bunday hollarda unda “nimani gapirsam ekan?”, “nima madan gap boshlasam ekan”, “qanday gap boshlasam ekan” deb gap mavzusini qidira boshlaydi.

NUTQ VOSITALARI
IFODALASH VOSITASI
BILDIRISH VOSITASI
TA’SIR KO’RSATISH VOSITASI
MUOMALA VOSITASI

Nutq – ifodalash vositasi. Nutqda bizning fikrlarimiz bilan birgalikda tuyg‘u-hislarimiz ham ifodalanadi. Og‘zaki nutqda hissiyotlarimiz(emotsional kechinmalarimiz) so‘z yordami bilan qilingan tasvirlarda, ohangda, qofiyada, xitob va savollarda, gaplashish vaqtidagi pauzalarda va ayniqsa intonatsiyalarda namoyon bo‘ladi. Chunonchi, biz biron kishining ismini ataganimizda, shu shaxsga bo‘lgan turli hislarimizni va munosabatlarimizni: o‘zimizdagi mehri, g‘azabni, qo‘rquvni, muhabbatni, hurmatni, nafratni, mensimaslikni va boshqa shu kabilarni atayin yoki beihtiyor namoyon qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, gapiruvchining intonatsiyasida uning holati ham: charchaganligi, umumiy hayajoni, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yoki ishonchsizligi va shu kabilar ham ifodalanadi.

Nutqda bizning irodamiz: maqsad-muddaomiz, istagimiz, niyatimiz, qarorimiz ham, shuningdek, iroda jarayonlarining ayrim sifatlari – qat‘iyat va qat‘iyatsizlik, dadillik, kishining o‘zini tuta bilishi, kishidagi qunt va boshqa shu kabilar ham namoyon bo‘ladi.

Nutq - ta’sir ko‘rsatish vositasi. Ta’sir ko‘rsatish – biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo‘lsak, shu shaxsda biz istagan hislar, intilishlar va harakatlarni tug‘dirish, ularning fikrini biz istagan tomonga burish, ularni o‘zimiz xohlaganimizcha o‘ylashga majbur etish, ularni ishon-tirish demakdir. Ma’lumki, nutq yordami bilan boshqalarda xursandlik, qo‘rquv, g‘azab, ruhlanish hislarini tug‘dirish mumkin, boshqalarda biz istagan intilishlarni, harakatlarni qo‘zg‘atishimiz mumkin. Yozuvchi badiiy asar yaratayotganda odamlarda muayyan fikr, his, intilish tug‘dirishni, turmushga muayyan qarash hosil qilishni nazarda tutadi. Agitator o‘z nutqi bilan odamlarda muayyan siyosiy kayfiyat, qarashlar, muayyan yo‘lda harakat qilish istagini tug‘dirishga intiladi.

Nutq ta’sir vositasi bo‘lib, u tibbiyot tajribasida katta ro‘l o‘ynaydi. Shu narsa ham ma’lumki, shifokorning so‘zi, ya’ni uning bemor bilan bevosita nutqiy aloqasi kuchli sur’atda ta’sir qiladigan vositalaridan biridir. So‘z og‘riqni bosadigan, darmon kiritadigan va shu kabi shifobaxsh vositadir. Tajribali shifokorning aytishlariga qaraganda, so‘z kasalning jismoniy va ma’naviy alamlarini ba’zan doridan ham yaxshiroq yengillashtirar ekan. Masalan, shifkorning maslahatlari, kasalning xavfsizligi va tezda tuzalib ketishiga bemorda ishonch va e’tiqod hosil qilishi ham ana shunday ta’sir ko‘rsatadigan nutqiy vositalar jumlasiga kiradi.

Nutqning ta'sir o'tkazuvchi vazifasida intonatsiya katta ro'l o'ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar, iroda xususiyatlari – norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'quvchilarda tabiat va turmushdagi biror hodisaga qiziqish paydo qilish, bilimni yanada mustahkamroq bilib olishga ishtiyoq uyg'otish uchun, shuningdek, ularni ma'lum bir harakatga yo'llash uchun o'quvchilarga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lganida o'qituvchi o'z nutqida talaffuzga ayniqsa alohida e'tibor bermog'i lozim.

Nutq – biror nimani bildiruvch vosita. Odamning nutqida uning fikrlari va xilma-xil ichki holati-emotsional kechinmalari va irodasigina ifodalanib qolmasdan, shu bilan birga hamisha biror obyektiv narsa ham bildiriladi.

Sayrash va qichqirish tarzidagi xilma-xil tovush birikmalari hayvonlarda ham bo'ladi, lekin bu tovush birikmalari faqat tug'ma reaksiyalardir – tashqi yoki ichki ta'sir sababli tug'iladigan shartsiz reflekslardir.

Qushlarning sayrashi va hayvonlarning qichqirishi, shuningdek ularning xilma-xil harakatlari (masalan, itning dumini likillatib turishi) ulardagi instinktlarning va shu instinktlar bilan bog'langan hislarning ifodasi va tarkibiy elementidir xolos.

Bu tovush birikmalari va harakatlar ifodasi boshqa hayvonlar uchun signal vazifasini ham bajaradi. Masalan, hayvon biror xatarni sezganida alohida tovush bilan qichqiradi, bu qichqiriq uning bolalarida instinktiv ravishda mudofaa harakatini (yashirinish va onasining oldiga yugurib kelish harakatini) vujudga keltiradi.

Yakka bir narsani, masalan, Toshkent, Buxoro va shu kabilarni bildiradigan so'zlar bor. Lekin so'zlarning ko'pchiligi bir-biri bilan biror munosabatda bog'langan buyumlar va hodisalarning butun bir turkumini bildiradi.

Nutq va ayrim so'zlar narsalarning faqat belgilari – “yorliqlari”gina emas, narsalarni ifodalovchi nomlar nutqning xususiy funksiyalaridan biridir, xolos. Har bir so'zning bundan tashqari yana ichki mazmuni ham bor, har bir so'z ma'lum tushunchani ifodalaydi.

Nutq – aloqa vositasi. Nutqning asosiy vazifasi, demak, uning asosiy funksiyasi – odamlarning bir-birlari bilan aloqa qilish vositasi bo'lishdir. Bu aloqa asosan odamlarning o'z fikrlarini bir-birlariga aytishlaridan iborat bo'ladi. Aloqa jarayonida fikrlar nutq yordamida

shakllanadi, ifodalanadi, aytiladi va tushuniladi. Og'zaki va yozma nutqda ifodalab berilgan fikrlar shu fikrlarni aytuvchi kishi uchun ham ravshanroq bo'lib qoladi. Shunday qilib, nutq aloqa jarayonida tafakkur quroli bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga mana shu aloqa jarayonida nutq ifodalash vositasi bo'lib, biror nima bildirish vositasi bo'lib va ta'sir o'tkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida til tufayli aks ettirish imkoniyatlari qayta quriladi, olam miyasida yanada aniq, ravshan aks ettirildi. Tilning paydo bo'lishi munosabati bilan har bir alohida shaxs jamiyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida to'plagan tajribalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Til yordami bilan har bir inson shaxsan o'zi hech qachon duch kelmagan notanish hodisalar, holatlar, vaziyatlar, sharoitlar yuzasidan bilim olishga erishdi. Xuddi shu boisdan til odamga ko'pchilik hissiy va intellektual ta'sirlar hamda taassurotlar to'g'risida o'ziga-o'zi hisobot berish imkoniyatini yaratdi. Endi esa inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqeilik yuzasidan axborot, xabar, ma'lumot berish, ularga ijtimoiy tajribalarga doir ko'nikma hamda malakalarni o'tkazishi, uzatishi mumkin.

Ma'lumki, hayvonlar, jonivorlar o'zlarining individul tajribalarini o'z turkumidagi boshqa namoyondalarga o'tkazishga yoki berishga mutlaqo qobil emaslar. Ular, ayniqsa, o'z turkumlaridagi avlodning ilgari tajribalarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega emaslar, chunki mavjudodlar tug'ma irsiy belgilarga, instinktlarga va shartsiz reflekslarga asoslanadilar, xolos.

Odamdagi shaxsiy tajribaning umuminsoniy tajriba bilan bog'liqligi kishilarda tilning mavjudligi bilan izohlanadi. Til oddiy qilib tushuntirilganda so'z va belgilar sistemasi hamda majmuasidan iboratdir. Inson tomonidan u yoki bu faoliyatning bajarilishi belgilar, alomatlar xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning mahsuldorligi, muvaffaqiyati til tarkiblarining ahamiyatiga bevosita aloqadordir. Masalan, haydovchi uchun ko'cha qoidalari, matematik uchun formulalar, operator uchun signallar, belgilar, simvollar faolyat uchun regulator sifatida xizmat qiladi.

Shuning uchun belgilar va ularning ahamiyati insonning yuksak psixik funksiyalari (ya'ni idrok, xotira, tafakkur, xayol)ning vositasidir. Odatda belgilar turli-tuman bo'lishidan qat'iy nazar, ularning eng muhimi so'zdir. Har bir so'z ma'lumot, xabar, axborot vazifasini baja-

radi va muayyan mazmunni o'zida aks ettiradi (masalan, mashg'ulot, daftar, yomg'ir, va boshqalar).

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy – tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga berish (uzatish) yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadidan tildan foydalanish jarayoni.

Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish kabi aqliy topshiriqlarni yechish faolyatidan iboratdir. Agar til aloqa vositasi (quroli) bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonning o'zidir.

Nutqning asosiy moddiy birligi nutq tovushi bo'lib, unda ham har qanday murakkab tovush qo'zg'atuvchisiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar mavjuddir: *balandlik, kuchlilik, yo'g'onlik, davomiylik va tembr*. Bundan tashqari, nutq tovushi o'ziga xos alohida xususiyatga ham egadir, shu tufayli so'zning ma'nolari farqlanadi. Masalan, *kitob-kitop, do'st-do's*. Nutq tovushiga xos bo'lgan bu belgi fonetik belgi deb ataladi, tovushning o'zi esa fonema deb yuritiladi. Fonema bo'g'in tarkibiga kiradi, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan esa gap tuziladi. Gap ma'lum ma'noni bildiruvchi so'zlar sistemasidan iboratdir. Har bir gap ma'lum intonatsiya bilan aytiladi, intonatsiya esa gapiruvchining gapda fikr etilayotgan narsaga nisbatan emotsional irodaviy munosabatini ifoda etadi. Gaplar sistemasi nutq oqimini hosil qiladi.

Shunday qilib, fonema, bo'g'in, so'z, gap va intonatsiya nutqning moddiy, fizik asosini tashkil etadi. Nutqni idrok etish uning moddiy asosini analiz va sintez qilish demakdir.

Nutq faolyatining fiziologik mehanizmlari. Nutq oddiy reflektor faolyat qonunlari asosida idrok qilinadi. Chunki uni yuzaga keltiruvchi stimullar birinchi signallar (masalan, “ Marsh”, “ Salom”) tipidagi qo'zg'atuvchilardan iboratdir.

I. P. Pavlovning nutqning yuzaga kelishi va idrok qilinishida inson “signallar – signali” tarzidagi so'zlaridan foydalaniladi. Mazkur jarayon bosh miya katta yarim sharlarining po'stida amalga oshadi.

Nutqning rivojlanishi uch davrga bo'linadi:

- 1- davr – 2 oydan 11 oygacha;
- 2- davr – 11 oydan 19 oygacha;
- 3- davr – 19 oydan 3 yoshgacha.

Nutqning rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga ega:

- gugulash;
- g'udurlanish (soxta so'zlar);

– paradigmatic fonetika (1,3 – 1,5 yoshgacha) – buvi, buva, o‘tir, o‘tirdi, o‘tiradi;

– nutqning vaziyatboblighi (J. Piaje – situativ nutq);

– nutq egosentrizmi (J. Piaje – egosentrik nutq).

Nutqni vujudga keltiruvchi umumiy apparat sxemasi sakkiz jihatni o‘zida aks ettiradi.

I. Nutqning anatomik tasviri:

1) ko‘krak qafasi;

2) o‘pka;

3) traxeya;

4) ovoz paychalari (aloqalari);

5) tomoq trublasi;

6) halqum bo‘shlig‘i;

7) tanglay pardasi;

8) og‘iz bo‘shlig‘i;

9) burun bo‘shlig‘i.

So‘zlar belgilar sistemasi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi.

Ijtimoiy tajribani jamg‘arish va uzatish vositasi sifatidagi til mehnat jarayonida paydo bo‘lib, hali sinfsiz jamiyat tongotaridayoq rivojlana boshlagan edi. Odamlar bir-birlariga biron muhim ahamiyatga molik axborotni uzatish uchun aniq tovushlardan foydalana boshladilar.

Qo‘llarida biron mehnat qurolini ushlab, ko‘zlari esa ushbu narsalarga qarab turgan vaqtda bir-birlari bilan munosabatga kirishish uchun aniq tovushlardan foydalanish kishilarga ayniqsa moyillik tug‘diradi. Munosabatga kirishadigan odamlar o‘rtasidagi masofa anchagina olis bo‘lgan kezlarda ham, xuddi shuningdek qorong‘ulikda, tuman tushganda, chakalakzorda o‘y-fikrni tovushlar vositasida yetkazish qulay bo‘lgan.

Til yordamida munosabatga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in‘kosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgan yoki aks etgani bilan doimiy ravishda to‘ldirib turadigan o‘y-fikrlarni ayriboshlash, axborot berish ro‘y beradi.

NUTQ TURLARI	
NOVERBAL	VERBAL
IMO-ISHORALI MIMIKALI PANTOMIMIKA DAKTIOLOGIK SIGNIFIKATSIYA EXOLOGIK	OG‘ZAKI, YOZMA MONOLOGIK, DIALOGIK ICHKI, TASHQI AKTIV, PASSIV

Inson hayot va faolyatining dastlabki pallalarida imo-ishora asosiy nutq turi vujudga kelgan. *Kechinmalarni, ma'lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma'noli, mazmunli nutq turi imo-ishorali nutq deyiladi.* Masalan, o'zbeklarda fikrni tasdiqlash old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma'noni bulg'orlarda boshni sarak-sarak qilish orqali anglatiladi. Bir xalqda sanash boshmaldoqdan boshlansa, boshqasida jimjiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida bukilmaydi.

Yuz harakatlari yordamida insonning inson tomonidan idrok qilinishida, o'zgarlar fikriga javob qaytarishda, tana a'zolarining o'zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo'luvchi noverbal nutq turi mimika deyiladi. Tabassum, jilmayish, miyig'ida kulish, labni qisish va cho'chchaytirish, til chiqarish, qosh uchirish, xullas, turli psixologik holatlarni, ayniqsa, hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatli nutq turi mimika hisoblanadi. Mimika yordami bilan haqgo'ylik, quvlik, yoqtirish va yoqtirmaslik, samimiylik va ikkiyuzlamachilik, hasad: quvonch, qayg'u, baxtiyorlik singari yuksak tuyg'ular aks namoyish etiladi.

Yuz harakatlari, tana a'zolari, qaddi-qomat yordami bilan fikrlarni uzatishga, sujetli, qoidali, ma'noli, dramatik kechinmali noverbal nutq turiga pantomimika deb ataladi. O'z mohiyati ko'lami bilan mimikadan ustivor xususiyatga ega bo'lib, axborotlar, intim holatlar, murakkab kechinmlar yuzasidan o'zgalarga ma'lumot uzatish tarzida hukm suradi. Pantomimika yumor hissini, qo'rqinch tuyg'usini, zahmat obrazini, dahshat kechinmasini o'zida aks ettirib, ko'pincha kommunikativ funksiyani bajaradi, hissiy aloqa o'rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta'minlanadi.

Ayrim xis-hayajonli shartli tovushlarda mujassamlashgan axborot uzatish va qabul qilish maqsadini amalga oshiruvchi, tabiiy to'siqlarga urilib qaytuvchi aloqa vositasiga exologik yoki sado nutqi deyiladi. Exologik yoki aks sado nutq turi bir tomonlama aloqa (tog'-inson, inson-jism) negizida vujudga keladi, ko'pincha individual tovush harakatiga javob, masofa funksiyasini ijro etadi. Lekin aks sado orqali tog'larda, qalin o'rmonlarda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasida aloqa quroli sifatida muayyan ahamiyat qozonadi.

Shartli alomatlar orqali muayyan mantiqiy mulohazalarni o'zida

aks ettiruvchi kommunikativ xususiyatli noverbal nutq turi signifikatsiya deyiladi. U shartli belgilr, signallar, modellar shaklida ifodalanishi mumkin. Uzoq masofalarga xabar yoki ma'lumot uzatish va qabul qilish vositasi sifatida Morze alifbosi va shunga o'xshash " sun'iy til" nomi bilan mashhur kommunikativ manbalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Noverbal nutqning yana bir turi daktiologik nutq (barmoq nutqi) dir. Insonning tana a'zolari, imo- ishoralar, mimika, xullas, hissiyot yordami bilan muomala o'rnatishga qaratilgan aloqa vositasi daktiologik nutq deyiladi. So'z orqali ifodalanuvchi nutq mazmuni ma'noli qo'l, yuz harakatlariga, ayrim hayajonli sadoga, qahr-g'azab, iliq tabassum, qahqahaga ko'chiriladi.

Verbal nutq turkumi quyidagi turlarga ajratiladi:

1) og'zaki; 2) yozma; 3) monologik; 4) poliologik; 5) tashqi; 6) ichki; 7) ekspressiv; 8) impressiv; 9) lakonik (qatra yig'iq); 10) epik (yoyiq); 11) affektiv (jahl holatidagi) turlarga ajratiladi:

Og'zaki nutq shaxslararo munosabatning puxta negizini tashkil etib, maqsadga yo'naltirilgan yoki tasodifiy mohiyatlar negizidan kelib chiquvchi fikr almashish jarayoni. Og'zaki nutqning dastlabki turlaridan biri – bu monologik nutqdir. Yakka shaxsning ichki kechinmalarini til mexanizmlariga asosan aks ettiruvchi, uning o'ziga qaratilgan (egosentrik), ta'sirlanishini ifodalashga va axborot uzatishga mo'ljallangan nutq turi monologik nutq deb ataladi. Unda shaxsiy tuyg'ularning ichki va tashqi shakllari uyg'unlashadi, o'zgalar fikrini ifodali o'qishda o'z aksini topadi.

Ikki shaxs o'rtasida namoyon bo'luvchi, axborot uzatishga va qabul qilishga mo'ljallangan nutq turi diologik nutq deb ataladi.

Bir necha kishilar bilan amalga oshirishga mo'ljallangan, triada va poliada negizida quriluvchi, axborot uzatish va qabul qilishga yo'naltirilgan, bahs tarkiblari ishtirok etuvchi og'zaki nutq turiga polilogik nutq deyiladi.

Artikulatsion apparati orqali vujudga keluvchi, verbal holatida aks etuvchi, o'zgalarga yo'naltirilgan, har xil xususiyati vaziyatlarda namoyon bo'luvchi nutq turiga tashqi nutq deb ataladi.

Muayyan axborotlarni tartibga keltirish, g'oyalarni yaratish, fikriy dasturni ishlab chiqishga mo'ljallangan, lekin latent davridagi ma'lumotlar majmuasidan tuzuluvchi nutq turi ichki nutq deyiladi.

Axborotlar ichki mohiyatini tashqi his-hayajon bilan kuchaytir-

uvchi, shaxslararo munosabatni yaqqol ifodalanishini aks ettiruvchi, ovoqli, til vositalariga asoslanuvchi nutq turiga ekspressiv nutq deyiladi.

Ichki kechinmalar shaxsiy fikrlash bilan uyg'unlashuvi tufayli fikriy bog'lanishni vujudga keltiruvchi holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga impressiv nutq deyiladi.

Millat va elatlarning til boyligi adorizmlar, maqollar, matnlar sifatida shakllangan, yuksak ma'naviy yuklamaga ega bo'lgan yig'iq nutq turi lakonik, ya'ni yig'iq, qatra nutq deyiladi. Masalan, yetti o'lchab-bir kes, sabrning tagi-oltin.

Turli omillar ta'sirida birdaniga vujudga keluvchi, jahlning mahsuli hisoblanmish, qisqa muddatli nutq turiga affektiv nutq deyiladi.

Tilning barcha qoidalariga asoslangan tarzda, muayyan shartli alomatlar yordamida axborotlarga aylantirib beruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi.

Nutq sifatlari. Nutq sifatlari ikki guruhga ajratiladi. Nutqni leksika, fonetika nuqtayi nazaridan to'g'ri qiladigan sifatlar, jummalarning talaffuz etilishi, tuzilishi, noaniq, noto'g'ri va keraksiz so'zlarning yo'qligi birinchi guruhga kiritiladi. Ikkinchi guruhga nutqning shunday sifatlari kiradiki, ular tufayli so'zlovchining fikrlari tinglovchining ongiga qadar yetib boradi va tinglovchiga kutilgan ta'sirni ko'rsatadi, unda ishonch hosil qiladi. Nutqning mazmundorligi, aniqligi, tushunarligi, bayon etishning to'g'ri shakli, mantiqiylik, obrazlilik, emotsionallik shunday sifatlar jumlasiga kiradi.

Tayanch iboralar:

nutq, til, nutq mexanizmi, vositalari, kommunikativ, verbal, noverbal nutq turlari, mimikali, imo-ishora, panatomimikali, signifikatsiya, daktiologiya, yozma, og'zaki, impressiv, ekspressiv, lakonik, epik, affektiv, poliologik.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nutq deb nimaga aytiladi?
2. Nutqning tildan farqi nima?
3. Nutqning vazifalari nimadan iborat?
4. Nutqning qanday turlari mavjud?

Mavzu yuzasidan mustaqil topshiriqlar:

1. O'z nutq va o'zgalar nutqini kuzatish.
2. Nutq vazifalarini namoyon bo'lishini o'rganish.
3. Nutq talaffuziga e'tibor berish va qurilishidagi kamchiliklarni aniqlash.

XAYOL

Biz ilgari idrok etgan va etmagan predmet va hodisalarni yaratishdan iborat psixik jarayon xayol deb ataladi.

Xayolni ko'pincha fantaziya deb ataydilar, holbuki, ba'zan "fantaziya" degan so'z bilan haqiqiy hayotda kam aloqador xayolni tushunadilar. Xayolni boyligi idrok qilish ko'nikmasiga, predmet va hodisalarning obrazlarini kuzatish va xotirada saqalab qolishga bog'liq bo'lib, ular keyinchalik qayta ishlab chiqiladi. Bu jarayonda tafakkur muhim ro'l o'ynaydi. Tafakkur fantaziya natijalariga tuzatishlar kiritadi, ya'ni tanqidiy baholaydi. His-tuyg'ular ham xayolga ta'sir ko'rsatadilar va ularning o'zi ko'p jihatdan xayolga bog'liq bo'ladi. Nihoyat insonning xayoli bilan yaratilgan ijodiy natijalarni amalga oshirish uchun iroda zarur bo'ladi.

XAYOL JARAYONLARI
XAYOL KENGLIGI VA MAZMUNDORLIGI
XAYOL KUCHI
XAYOLNING REALLIGI

Xayolning muhim tomonlaridan biri – uning ijod va shaxs munosabatining yaxlit holda talqin qilish xususiyatidir. Ijod shaxsning ichki imkoniyatlari va zaxiralarining ro'yobga chiqishining asosiy shartlaridan biridir. Shu sababdan shaxs o'zining ijodiy faoliyati bilan, birinchidan, yaratuvchilik qudratini amaliyotda namoyish qiladi. Ikkinchidan, u ijod ta'sirida yangi fazilatlarni egallaydi, nafosat, badiiy ijod, texnik qobiliyat, kashfiyot, ijtimoiy muammolarni integratsiya qilib, differensiallashtiradi. Uchinchidan, jahon faniga o'z hissasini qo'shadi va sivilizatsiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi, ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchisiga aylanadi. Ijod davomida shaxs motivatsion, emosional, irodaviy barqarorlik, xarakterning mustahkamligi va boshqa individual-tipologik xususiyatlari samaradorligiga, sifatiga munosib ravishda ijodiy ta'sir o'tkazadi.

Xayol tafakkur bilan bevosita aloqada bo'ladi:

1) xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar yechish jarayonida tug'iladi;

2) yangi yechim, usul, vosita qidirishda va ularni saralashda umumiylik mavjud;

3) xayolning ham, tafakkurning ham paydo bo'lishi shaxsning ehtiyojlariga bevosita bog'liq;

4) ehtiyojlarni qondirishning dastlab xayoliy obrazlari yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkoni tug'iladi;

5) xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar, bilvositalik xususiyati orqali ro'yobga chiqadi.

Xayolning fiziologik asosi- miyaning katta yarim sharlar po'stlog'ida hali mavjud bo'lmagan, lekin u yerda bor qo'zg'alishlarning qoldiqlaridan tashkil topadigan birikmali yangi sistemalari vujudga kelishi zarur. Xayol ikkala signal sistemasining faoliyat bilan mustahkam bog'langan. Agar shaxs tegishli sezgilar, idroklarga ega, ya'ni atrofdagi voqelikning dastlabki signallarini olgan taqdiridagina, unda narsalar va hodisalar to'g'risida obrazlar, tasavvurlar hosil bo'lishi mumkin.

Inson miyasi fantaziya obrazlariga hamda organizmning periferik (chet) qismlariga boshqaruvchanlik ta'sirini o'tkazib, ularning faoliyatini o'zgartirib turadi. Shaxs asabiylashganida biror narsa haqida qattiq o'ylasa, albatta tana a'zolarida ko'zga tashlanadigan o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Yuzaga kelgan bunday alomatlar (belgilar, izlar) „stigmat“lar deb nomlanadi (yunoncha *stigma* – dog' yoki *chandi*q degan ma'noni anglatadi). Qadimgi xalq afsonalari, rivoyatlariga qaraganda inson qattiq jismoniy kaltaklangan davrini eslasa, go'yoki o'sha azobning izlari yana favqulodda yuzaga kelishi ta'kidlanadi.

Psixologiyada qo'rqinch holati to'g'risida muayyan materiallar to'plangan va tahlil qilingan. (*Qo'rqinch yunoncha phobos – „fobiya“ deb nomlanadi*). *Fobiya muayyan sharoitlar va vaziyatlarda shaxsda vujudga keladigan kuchli asosga ega bo'lmagan qo'rqinch va tashvishlanishdan iborat, inson tomonidan yengishning imkoniyati yo'q muttasil psixopatologik holat.* Mazkur patologik holatning ba'zi birlariga tushuncha berishga harakat qilamiz: 1) *agorafobiya* – shaxsning gavjum maydonlardan, shohko'chalardan o'tishga qo'rqishi;

2) *kaustrofobiya* – insonning eshikni qulflab yolg‘iz o‘tirishidan qo‘rqishi; 3) *monofobiya* – shaxsning yolg‘iz, hech kimsiz qolishdan qo‘rqishi; 4) *atropofobiya* – insonning ko‘pchilik davrasidan, xaloyiqdan qo‘rqishi; 5) *nazofobiya* – odamning kasal bo‘lib qolishdan qo‘rqishi; 6) *eyrotrofobiya* – shaxsning ko‘pchilik davrasida izza bo‘lishdan, o‘zini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqishi; 7) *didaktogen* – o‘quvchi yoki talabaning o‘qituvchidan qo‘rqishi; 8) *yatrogen* – bemorning shifokordan qo‘rqishi va hokazo.

Xayol turlari to‘g‘risida umumiy tushuncha. Xayol o‘zining faolligi shaxs ijodiy faoliyatining muhim sharti sifatida xizmat qiladi. Ba‘zi bir psixologik ma‘lumotlarga qaraganda, goho xayol faoliyatning funksiyasini bajaradi, bunda u xatti-harakatlarning sun‘iy ravishdagi majmuasi vazifasini ijro etadi, xolos. Inson quyidagi holatlarda yaqqol tasavvurdan yiroq bo‘lgan xayolot olamiga kirib borishi mumkin: 1) inson hech qanday yo‘l bilan hal qilib bo‘lmaydigan masalalar, muammolar iskanjasidan berkinish maqsadida; 2) turmushning og‘ir sharoitlaridan, zahmatlaridan himoyalaniish niyatida; 3) shaxsiy nuqsonlar ta‘qibidan qutulishda; 4) ushalgan armonda; 5) patologik holatga (ruhiy nuqsonga) uchraganda; 6) alkogolizm, narkomaniya va boshqa vaziyatlarda. Xayol (fantaziya) turmushda gavdalaniishi mumkin bo‘lmagan, amalga oshirish imkoniyati yo‘q xatti-harakatlar dasturini namoyon etadi.

Yuqoridagi mulohazalar negizidan kelib chiquvchi xayolning bunday shakli psixologiya fanida *passiv (sust) xayol* deb nomlanadi. Psixologiyada *aktiv (faol), ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tiklovchi va ijodiy xayol* turlari to‘g‘risida ham muayyan ma‘lumotlar mavjuddir.

Inson passiv xayolni oldindan rejalashtirib yuzaga keltirishi ham mumkin.

Xuddi shu bois iroda bilan bog‘liq bo‘lmagan, jo‘rttaga „kashf“ qilingan, biroq hayotda gavdalantirishga yo‘naltirilgan xayolning o‘ziga xos obrazlari majmuasi „shirin xayol“ deyiladi.

Odatda „shirin xayol“da fantaziyaning mahsullari bilan insonning ehtiyojlari o‘rtasidagi aloqa yengillik bilan yuzaga kelganligi tufayli quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida odamlar xayol suradilar. Inson qanchalik shirin xayolga berilsa, u shunchalik darajada passiv shaxs sanaladi, bu holat uning nuqsoni hisoblanadi.

XAYOL TURLARI	
AKTIV	PASSIV
IJODIY QAYTA TIKLOVCHI ORZU IXTIYORSIZ IXTIYORIY	SHIRIN IXTIYORIY IXTIYORSIZ

Passivlik (sustkashlik) kishining qiyinchiliklarini yengishdan chetlashtiradi, yashash uchun kurashga chorlamaydi, demak, u reallikdan uzoqlashadi. Goho *passiv xayol* hech o‘ylamaganda, ixtiyorsiz ravishda vujudga kelishi ham mumkin, bunda quyidagi holat yuz beradi; a) ong nazoratining kuchsizlanishi; b) ikkinchi signallar tizimining susayishi; d) insonning vaqtincha harakatsizlanishi; e) uyqusirash; f) affektiv vaziyat; g) tush ko‘rish; h) gallutsinatsiya; i) patologik holatlar va hokazo.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, passiv xayol ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga ajratilganidek, aktiv xayol tiklovchi va ijodiy xayollarga bo‘linadi.


O‘zining mohiyati bilan tasavvurlarga muvofiq keladigan tasavvurlar, tasvirlar tizimini yaratuvchi xayol „tiklovchi xayol“ deb ataladi. Tabiatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga, bilimlarga oid ma’lumotlar o‘rganilishida xayol bevosita ishtirok etadi hamda uning, yordamida matnlarda, rasmlarda, xaritalarda aks ettirilgan narsalar xayolda qayta tiklanadi. Ijtimoiy tajribada, ta’lim-tarbiya jarayonida fazoviy xayol, vaqt va harakat birliklariga oid axborotlar, masofa, hajm to‘g‘risidagi xabarlarga sinchkovlik bilan qarash, tikilish jarayonida mazkur xayol turi rivojlanadi.

Ijodiy xayol tiklovchi xayoldan farqli o‘laroq original va qimmatli moddiy, ijodiy mahsulotlarda gavdalanuvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat xayol turidir.

Ijodiy xayol o‘ziga xos muayyan xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan eng muhimi assotsiatsiyadir. U an’anaviy yo‘l-yo‘riqdan voz kechib, ijodkor ruhiyatida favquloddagi his-tuyg‘ular, o‘y-fikrlar, xohish-istaklarga tobe etishdir.

Xayolning analitik-sintetik xususiyati. Insoniyat taraqqiyotining boshidanoq kishilar o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi narsalarni o‘ylab topganlar. Odamlar qo‘llari bilan ishlar ekanlar, eng

oddiy mehnat quollarini ixtiro qilganlar, bu quollar qo'llar vazifasini tezroq va yaxshiroq bajargan. Ayrim san'at asarlari predmetlardan bir xil xususiyatlar va xossalarni ajratib olish hamda ularni yangidan bir-lashtirib, uyg'unlashtirish yo'li bilan hosil qilingan.



Insondagi bor tasavvurlar asosida ijodni hosil bo'lishi

Bu timsollarni xayolni eng oddiy shakli agglutinatsiya (lotincha *agglutinare* – *yopishtirmoq, yelimlamoq* degan ma'noni bildiradi) muayyan tasavvurlarni bir-biriga qo'shib yoki ulardan foydalanib, narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidir; giperbolizatsiya (yunoncha *hyperbole* – *bo'rttirish, kuchaytirish* ma'nosini anglatadi); sxematizatsiya (yunoncha "*schema*" – *obraz, shakl vujudga keltirish* demakdir); tipizatsiya (yunoncha "*Tipos*"iz, *chiziq* degan ma'noni bildiradi) yoki tipiklashtirish; o'xshatma – muayyan narsalarga nisbatan qiyoslash orqali muhim va nomuhim tomonlaridan umumiylikni tanlab olishdir.

XAYOL SIFATLARI AGGLUTINATSIYA GIPERBOLIZATSIYA SXEMATIZATSIYA TIPIZATSIYA

Agglutinatsiya – obrazlar sintezlashuvi jarayonining soddaroq ko‘rinishidan biri hisoblanib, insoniyatning kundalik hayoti va faoliyatida ro‘y-rost yaxlitlashtirish imkoniyati yo‘q xilma-xil xislatlar, fazilatlar, sifatlar va qismlarni „qorishiq“ tarzda shaklda aks ettiradi. Odatda agglutinatsiya yordami bilan xalq tomonidan yaratilgan ertak timsollari, afsona tasvirlari yaratiladi yoki xayoliy kompozitsiyasi to‘qib chiqariladi. Masalan, odamsimon (boshi odam, tanasi qush) bir jonivor, suv parisi (rusalka) (bosh va gavdasi odamniki, dumi baliqniki, sochi yashil suv o‘tlaridan iborat); kentavr (ot va odam); pegas (qanot va ot) – qanotli ot; tovuq oyoqli uycha; yetti boshli ilon, ajdaho (ilon, ot va qushdan iborat) va boshqalar.

Giperbolizatsiya – fenomeni xayol obrazlarini hamda tasavvur shakllarini o‘zlashtirish jihatidan agglutinatsiyaga o‘xshash psixik jarayondir. Giperbolizatsiya narsalar va jonivorlarni nafaqat haddan ziyod kattalashtirish yoki kichiklashtirish bilan tavsiflanibgina qolmasdan, balki tasavvur obrazlari miqdorini ko‘paytirish yoki ularning o‘rniga almashtirish xususiyatlarini ham namoyon etadi. Masalan, yetti boshli ajdarlar, ko‘p qo‘lli va ikki boshli maxluqlar, olti oyoqli jonivorlar, quyosh nurini to‘sgan afsonaviy qushlar shular jumlasidandir.

Sxematizatsiya – fenomeni xayol obrazlarini yaratish vositalaridan biri hisoblanib, u borliqdagi narsa va hodisalarning u yoki bu alomatlari hamda sifatlarini ta’kidlashdan, shuningdek, butun diqqat-e’tiborni ularga qaratishdan iborat psixik jarayondir. Shu usul, yo‘l, vosita yordami bilan muayyan yaqqol insonlarga mo‘ljallangan o‘rtoqlik hazillari va achchiq, ayanchli, kulgili tasvirlar yaratiladi. Mazkur jarayonda xayol tasvirlarida yuzaga keladigan tasavvurlar o‘zaro birlashib ketishi natijasida tafovutlar qariyb yo‘qoladi, o‘xshashlik alomatlari esa birlamchi voqelikka aylanadi, qolaversa ushbu holat sxematizatsiyalashga qulay negiz hozirlaydi. Bunga konstruktorning qushlar olamidanda andoza olib, yangi qurilmalar

yaratishi, modeldan haqiqiy asbob ishlab chiqishi; rassomning tabiat mo'jizalarini *matoga tushirishi yaqqol misoldir.*

Tipizatsiya – fenomeni yordami bilan xayolda tasavvurlar sintezi ro'yobga chiqishi mumkin. Odatda badiiy adabiyotda tipizatsiya yoki tipiklashtirishdan keng ko'lamda foydalaniladi hamda uning yordamida ba'zi bir jabhalari bilan o'zaro o'xshash, hatto mutanosib narsa va hodisalarda aks etuvchi muhim belgilari ajratib olinadi hamda ular yaqqol obrazlarda mujassamlashtiriladi. Ijodiy jarayonlarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi bir talay assotsiatsiyalar orqali paydo bo'ladi, lekin ularning qayta tiklanishi xotira jarayonlarida uchraydigan tiklanish yoki jonlanishdan farq qiladi.

Xayol shakllari to'g'risida tushuncha. Orzu xayol shakllaridan biridir. *U shaxsning o'zi uchun eng yoqimli istiqbol obrazlarini xayolida (tasavvurida) yaratishda gavdalanadi. Orzu insonning ehtiyojlari, xohish-istaklari, intilishlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni kelajakda faoliyatni amalga oshirishga undaydi.*

Shaxsning ijodiy faoliyati mohiyatida fantaziya ishtirok etmasdan iloji yo'q, chunki hamisha ham uning amaliy xatti-harakatlarida xayol jarayonlari ro'yobga chiqavermaydi. Aksariyat hollarda xayol jarayonlari shaxs amalga oshirishni istaydigan obrazlar shaklida mujassamlashtadi hamda ichki faoliyat turiga aylanadi. Shaxsni kelajakka undovchi, uning xohish-tilaklarini aks ettiruvchi obrazlar majmuasi orzu deyiladi. Orzu shaxsning atrof-muhitni, ijtimoiy voqelikni o'zgartirishga yo'naltirilgan ijodiy kuchlari va intilishlarini turmushga tatbiq etishning asosiy shartlaridan biridir.

Shu bilan birga, orzu shaxsiy va ijtimoiy hayotni ilmiy faraz qilish elementlaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda taraqqiyotni oldindan ko'ra bilish, oldiga biror aniq maqsad qo'ysa va shu maqsad sari intilish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun orzu batamom tugallanishi ma'lum bir sabablarga ko'ra kechiktirilgan faoliyatga undovchi motiv (sabab) tariqasida yuzaga kelishi mumkin. O'zlari uchun zarur ehtiyoj his qilgan ajdodlarimizning orzulari: uchar gilamlar; oynayi jahon; elektr chirog'i; o'zi yurar arava va hokazolar ko'rinishida gavdalanganligini shohidi bo'lamiz.

Badiiy va ilmiy ijodda fantaziyaning o'rni to'g'risida muayyan darajada ishlar qilingan. Ma'lumki, rassom hamda yozuvchining ijodiy

faoliyatida ishtirok etuvchi xayol obrazlarining muhim xususiyatlari – bu uning emotsional kechinmalar, his-tuyg‘ular bilan mujassamlashganligidadir. Hozirgi davrda: badiiy ijodiyot, badiiy tarjima, ilmiy ijodiyot, adabiy qobiliyat va iste’dod singari maxsus xayolij jarayonlarga asoslangan holda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.



Xayol timsollarining yaratilishi



Fantaziya bo‘lmagan insonda ilhom ham bo‘lmaydi



Kattalashtirish asosida yangi timsolni yaratilishi



Hayotda birlashtirib bo'lmaydigan qismlarni birlashtirish

Hozirgi yoshlarimiz yangi texnika va texnologiyalarni yaratish; o'ziga xos kashfiyotlarni amalga oshirish, o'zlari yoqtirgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, yuksak kasbiy mahoratga erishish to'g'risida orzu qiladilar. Fan va texnika rivojiga hissa qo'shish istagi, intilishi, ularning barkamol inson bo'lib voyaga yetishlariga puxta zamin hozirlaydi. Kasb-hunar egasining bugungi kundagi obro'-e'tiborining ortishi, milliy hunarmandchilikka shart-sharoitlar yaratilishi o'z sohasining mahoratli kishisiga aylanishiga imkon tug'diradi. Donishmandlarimizning insonni kasb ulug'laydi degan fikriga amal qilish kasbiy tayyorgarlik darajasining yuksalishiga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar:

xayol, tasavvur, timsol, obraz, passiv, aktiv xayol, ijodiy, tiklovchi, shirin xayol, fantaziya, orzu, agglutinatsiya, giperbolizatsiya, sxematizatsiya, tipiklashtirish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Xayol deganda nimani tushunasiz?
2. Xayol qanday turlarga ajratiladi?
3. Xayolning ijodiyotdagi roli nimalardan iborat?
4. Xayol fenomenlariga tavsif bering.
5. Orzuning mohiyatini tushuntiring.

IRODA

O'quvchi kutilmaganda qalamdonini polga tushurib yuborib, sinfdagi tinchlikni buzadi: o'qituvchi beixtiyor unga baqirib berdi-yu keyin bundan o'zi afsuslandi; ofitserga duch kelib qolgan saldat beixtiyor unga ches berdi, holbuki u buni qilmasligi lozim edi, chunki furajkasi yo'q edi, o'spirin o'z suhbatdoshining g'amgin hikoyasini eshitar ekan, unung to'zib ketgan sochlariga etibor berdi va garchi o'rtog'ini xafa qilib qo'yish mumkin bo'lsa ham kulib qo'ydi. Bunday harakatlar kutilmagan beixtiyor, bexosdan bo'lgan reflektiv harakatlar deyiladi.

Kishining hamma ta'sirlanishlari reflektor xarakteriga ega bo'ladi, lekin yuqorida ta'svirlangan harakatlar ongning nazoratsiz yoki uning yetarli ishtirokisiz maxsus niyatni ko'zlamay amalga oshirilgan bo'ladi va shu sababli ixtiyorsiz harakat yoki ataylab qilinmagan harakatlar deyiladi.

Lekin har bir kishi juda oddiy hamda murakkab harakatlarni amalga oshiradiki, ular batomom ongli ravishda bajariladi va muayyan maqsadni ko'zlaydi. Bunday harakatlar ixtiyoriy yoki ataylab qilingan harakatlar deyiladi. Ularning atalishining o'ziyoq bu harakatlarda irodaning ishtirok etishini ko'rsatadi.

Ongli ravishda amalga oshiradigan va muayyan maqsadni ko'zda tutgan barcha ixtiyoriy harakatlar irodaviy harakatlar deb atalishi mumkin. Kishi suv ichgisi kelib stakanga qo'l uzatadi, unga suv quyib ichdi. Bu garchi bajarish qiyin bo'lmasa ham aniq maqsadga qaratilgan va shu sababli irodaviy harakatdir.

Kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayoni so'zini asl (tor) ma'nosida iroda deb atash qabul qilingan.

Kishi yengadigan tashqi to'siqlar deganda, ishning o'zida xos bo'lgan obyektiv qiyinchiliklar uning murakkabligi, har xil xalaqit berishlari, boshqa kishilarning qarshilik ko'rsatishi, ishning og'ir sharoitlari va shu kabilar tushuniladi.

Ichki to'siqlar – kishi o'zini ishlashga, charchovni, bajarilishi kerak bo'lgan vazifaga aloqasi bo'lmagan boshqa biror narsa bilan shug'ullanish istagini yengishga majbur qilish, qiyin bo'lgan vaqtda belgilangan narsani bajarishga xalal beradigan shaxsiy mayllardir.

Irodaning fizologik asoslari. D.M. Sechenovning so'zlari bilan aytganda har qanday xatti-harakatining dastlabki sababi tashqi hissiy qo'zg'alishdadir. Faoliyatning determinizimi ana shundan iborat bo'lib unga ko'ra, kishining har qanday harakati o'z sababiga ega bo'ladi. Lekin keyinchalik hayot tajribasi asosida ko'pgina xatti-harakatlar bevosita hissiy qo'zg'almasdan yoki hatto unga qarama-qarshi tarzda amalga oshiriladi.

Irodaviy harakatning fiziologik asosi miya po'stlog'ida avvalgi tajriba natijasida ilgari hosil bo'lgan nerv aloqalarining ikkinchi signal sistemalidir. Bu sistemalar irodaviy harakat paytida kelib aktivlashgan (qo'zg'algan) bo'ladi, bu esa ayrim harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi, natijada kishi o'zini, garchi televizion eshittirish qiziqarli bo'lsa ham uni ko'rishga emas, balki ishlashga majbur qiladi.

Qo'zg'atuvchi vosita bo'lgan so'z irodaviy harakatda alohida rol o'ynaydi. So'z kishiga tashqaridan ta'sir qiladigan signal bo'lishi mumkin (masalan, o'qituvchining ko'rsatmasi) lekin u ko'pincha kishining o'z-o'zida bo'lgan ichki talabi, mustaqil buyrug'i ham hisoblanadi.

Irodaviy harakatning manbalari. Bevosita irodaviy harakatga undaydigan sabablarga kishining ehtiyojlari, uning motivlari va maqsadlari, ishtiyoqlari, istaklari va hokozalar kiradi.

Biror narsaga zarurat sezish bo'lsa ehtiyoj faoliyatga undovchi boshlang'ich (mòtiv) sababdir. Ehtiyoj asosida bahona ya'ni harakat qilishga undaydigan sabab paydo bo'ladi. Anglanmagan intilishlar-havaslar deb ataladi. Havas istakka qaraganda kishining irodaviy yordamini ko'proq oladi va shu sababli havasning maqsadi ko'pincha real amalga oshmaydi.

His-tuyg'ular irodaviy harakatlarga undaydigan muhim sababdir. Ular qiyinchiliklarni yengishga, o'z oldiga qo'yilgan maqsadga sabot bilan erishishga undaydi. Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqq

qiyotida mehnat irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kishilar ayni mehnat uchun o'z irodalarini tarbiyalaganlar va tarbiyalamoqdalar, bu siz hech qanday ishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Kishining mehnati eng boshlanishdanoq jamoa bo'lishi muhimdir.

IRODAVIY HARAKATLARNING BOSQICHLARI

- MAQSADGA ERISHISHNING BIR QANCHA IMKONIYATLARINI ANGLASH;
- BU IMKONIYATLARNI TASDIQLOVCHI YOKI INKOR ETUVCHI DALILLARNING PAYDO BO'LISHI;
- MOTIVLAR KURASHI VA TANLASH;
- IMKONIYATLARDAN BIRINING QARORGA KELISH TARZIDA QABUL ETILISHI;
- KELINGAN QARORNING AMALGA OSHIRILISHI.

Irodaviy harakatni tahlil qilish. *Irodaviy jarayonlar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy irodaviy jarayonlarga shunday jarayonlarni kiritish mumkin unda kishi hech ikkilanmasdan ko'zlagan maqsad sari boradi, u nimaga va qanday yo'l bilan erishajagini aniq biladi.*

Lekin ko'pincha xilma-xil ba'zan esa ziddiyatli sabab – bahona-lar bo'lganda harakat maqsadni tanlashda ikkilanmasdan yoki qan-day harakat qilishni aniqlashda qiyinchiliklarni boshdan kechirishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda irodaviy harakat murakkab xarak-terga ega bo'ladi va ikki bosqichdan:

- 1) Tayyorgarlik;
- 2) bajarilish bosqichlaridan tashkil topadi.

Tayyorgarlik bosqichining mohiyati, maqsadini anglashni, bazan motivlar kurashini bir qarorga kelishi, ish olib boriladigan metodlar-ni tanlashni o'z ichiga oladi. Nihoyat maqsad aniq bo'ldi. Bir qaror-ga kelish bilan harakatning ketidan qarorning bajarilishidan iborat bo'lgan ikkinchi bosqich kelmasa, u irodaviy harakat bo'lmaydi.

Kishining irodasi o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun xalaqit beradigan istaklarini yengish va unung amalga oshirishi uchun qat'iyat bilan astoydil harakat qilish qobiliyatidan iborat.

Shaxsning irodaviy sifatlari. *Kishi faoliyati jarayonida iroda-viy xatti-harakatlarning amalga oshirar ekan, o'zidan o'zi shaxsni xarakterlab beradigan va hayot hamda mehnati uchun juda katta aha-*

miyatga ega bo'lgan irodaviy sifatlarni hosil qiladi. Ayrim xususiyatlar kishini yanada aktiv qiladi bu hol yarim sharlar po'stlog'ida qo'zg'alish jarayonlarining ustunlik qilishi bilan bog'langan bo'ladi, boshqa sifatlarni yoqimsiz psixik jarayonlarga va harakatlarga xalaqit berishda, ularning to'xtatib qolishda, yo'q qilishda namoyon bo'ladi.

1. Aktivlik bilan bog'liq bo'lgan sifatlarga qat'iylik, dadillik, sabr-matонат, mustaqillik kiradi.

Qat'iylik – ortiqcha ikkilanmasdan, o'z vaqtida va qat'iy qarorlar qabul qila bilishdir. Qat'iylik o'ylab ko'rilmagan shoshilinch qabul qilingan harakatlarda emas, balki yetarli darajada chamalab ko'rilmagan, asoslangan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Qat'iylik kishi boshqacha emas, balki ayni shunday ish qilish kerakligiga chuqur ishonadi.

Dadillik – kishining qo'rqish va dovdirab qolish tuyg'usini yengish qobiliyatidir.

Dadillik faqat inson hayoti uchun xavfli paytlardagi harakatlardagina namoyon bo'lib qolmaydi. Dadil kishi murakkab ishdan, katta mas'uliyatdan cho'chimaydi, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmaydi. Dadillik shaxsdan oqilona sog'lom munosabatda bo'lishni talab etadi.

Dadillik insondan mardlik ko'rsatmoqchi bo'lib xavf-xatarli ishga qadam qo'yishi bilan aralashtirmaslik kerak. Bunday kishilarni irodali insonlar deb bo'lmaydi. Irodali shaxsning haqiqiy dadilligi – qo'rquvni yengish va xavf solayotgan xatarlarni hisobga olishdan iborat. Bunday kishi o'z imkoniyatlarini biladi va qanday harakat qilishi yetarli darajada o'ylagan bo'ladi.

Rus sarkardasi Suvorov: “Dadillik va hushyorlik hamisha bir-biriga hamroh bo'ladi”, deb bejiz aytmagan edi.

IRODAVIY HARAKATLARNING SIFATLARI		
IRODA KUCHI	IRODANING AXLOQIYLIGI	IRODANING MUSTAQILLIGI
O'ZINI TUTA BILISH DADILLIK QAT'IYAT CHIDAM VA TOQAT	JAVOBGARLIK MAS'ULIYATLIK INTIZOMLIK	TASHABBUSKORLIK TANQIDIYLIK

Dadil kishi odatda mardlikka, ya'ni xavf-xatar vaqtida ruhi tetiklikka, o'z yo'lida uchraydigan qiyinchiliklar va musibatlarga qat'iy bardosh bera olish mahoratiga ega bo'ladi.

Sabot-matonat. Bu shunday sifatki, qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'li qanchalik uzoq va qiyin bo'lmasin, ularga erisha bilishdan iborat. Sabot-matonat tashqi va ichki to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi. Irodali kishi o'z kuchlarini zo'r berib sarflashga qobiliyatli bo'ladi, bunda qiyinchiliklar I.Pavlov aytganidek, uning o'z ishini davom ettirish istagini orttiradi xolos. Sabot-matonat pedagogik ishda ham juda zarurdir.

Sabot-matonat kishi o'zining arzimagan manmanlik tuyg'usi tufayli xato qarordan bosh tortishga qobiliyati bo'lmagan vaqtdagi o'jarlik bilan aynan bir narsa deb bo'lmaydi. O'jarlik shaxsning salbiy xususiyatidir.

Mustaqillik – kishining boshqalar ta'siriga berilmasdan qaror qabul qilish va belgilangan harakatni bajarish qobiliyatidir. Ana shu irodaviy sifat bilan ajralib turmaydigan insonlar odatda o'z yo'llarida uchragan qiyinchiliklar oldida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Bunday zaiflikka ko'pincha maktab yoshidagi tarbiyaning xususiyatlari sabab bo'ladi, bolaga mustaqil ishlash malakasini o'rgatishmagan va unda o'z harakatlari uchun mas'uliyatdan qochishga intilish avj olgan bo'ladi. Mustaqillik odamning boshqa kishilar bildirgan oqilona mulohazalarga bajonudil quloq solishni va agar ularning maslahatini to'g'ri deb topsa qabul qilishni istisno qilmaydi. Mustaqil harakat qilish- o'z xatti-harakatlarini jamoaning fikri va irodasiga bo'ysundirmaslik kerak, degan ma'noni bildirmaydi. Ko'pgina yomon odatlar (ichkilikbozlik, chekish va hokazolar irodasi zaif kishilarga, aynan mustaqillikning yetishmasligi tufayli ta'sirga berilishga va taqlid qilishga moyil bo'lgan kishilarga "yopishib" oladi.

2. Nomaqbul psixik jarayonlar va harakatlarning tormozlanishi bilan bog'liq bo'lgan iroda sifatlariga: chudam(o'zini tuta bilish, bardoshlilik, sabr-toqat, intizomlilik va uyushqoqlik kiradi.

Chidam yoki o'zini tuta bilish – bu insonning o'z-o'zini boshqara olishi. U o'zini xulq-atvori ustidan to'liq nazorat qilish xususiyatini saqlab qolar ekan, o'zidagi nomaqbul niyatlarni, beixtiyor harakatlarni, affektlarni (masalan, g'azablanish, qo'rquvni) yengadi.

Chidamning mavjudligi kishini o'z-o'ziga tanqidiy qarashga o'rgatadi, oqilona bo'lmagan xatti-harakatlardan o'zini tiyishga yordam beradi. Chidam, o'zini tuta bilish o'qituvchi uchun juda zarurdir. O'zini tuta bilish o'qituvchiga qattiq jahli chiqishdan o'zini tutishga,

xijolatni sarosimalikni bosishga, jur'atsizlik, siqqlikni va jamoa bilan ishlashda ayrim kishilarga vujudga keladigan boshqa psixik holatlarni yengishga yordam beradi.

Bardoshlik va sabr-toqat singari irodaviy sifatlar ham o'zini tuta bilishga yaqin turadi. Bunda kishi qiyinchilikni va azob chekishni (kasallik, och qolish, sovuq, ishning og'ir sharoitlari) yenga olishga qodir bo'ladi. Irodali kishi qiyinchilikka qaramay o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun intilaveradi.

Intizomlilik va uyushqoqlik singari iroda sifatlari ana shu tomoni bilan farq qiladi. Intizom avvalo jamoa talablariga bo'ysunishdan iborat bo'ladi. Uyushqoqlik inson o'zini, agar kerak bo'lsa boshqalarni ham samarali ishlashga majbur qila oladi. Tartibsizlik, noaniqlik (masalan, ishga kechikib kelish), o'z vazifalariga befarqlilik, sovuq munosabatda bo'lish – bularning hammasi intizomsizlik va uyushqoqsizlikning ko'rinishlari bo'lib, ular iroda kuchining yetishmasligini bildiradi. Intizomsiz kishi boshqalarning ishiga ham muvaffaqiyatli rahbarlik qila olmaydi. Batartiblik, aniqlik, puxtalik hamma sohada namoyon bo'ladi, ular kundalik xulq-atvorda va hatto mayda-chuyda bo'lib tuyilgan narsalarda ham sezilib turadi.

Irodani tarbiyalash. Irodani tarbiyalashga jamoa atrofdagilarning fikri, ularning kishi xulq-atvoriga ijobiy ta'sir yordam beradi. Odatdagi kundalik mehnat shu jumladan o'quv mehnati ham irodani mustahkamlash uchun yaxshi maktab bo'lishi mumkin. Agar ishda yoki o'qishda ko'pgina qiyinchiliklar mavjud bo'lsa ularni yengish irodaviy sifatlarni tarbiyalashni ajoyib vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib irodani tarbiyalash uchun o'z ustida iloji boricha erta boshlash zarur. Shaxsning irodaviy sifatlari irodaviy faoliyatda tarkib topishni unutmazlik kerak. Shuning uchun mehnat hamisha irodani mustahkamlashning eng yaxshi vositasi bo'lib keladi va shunday bo'lib qoladi. Har bir ishni oxiriga yetkazish, o'z harakatlarni puxta o'ylash, bajarib bo'lmaydigan qarorlar qabul qilmaslik, lekin qaror qabul qilgach qanday qilib bo'lsa ham uning bajarilishiga erishish juda muhimdir. Irodani tarbiyalash kishi o'z oldiga qo'yadigan maqsadga ham bog'liqdir. Qo'yilgan maqsadni anglash irodani chiniqtirishga yordam beradi.

Shuningdek, kishi o'zini qat'iy nazorat qilish, o'z ishini va xulq-atvorini nazorat qilish odatini ham o'zida tarbiyalamog'i kerak.

O'z irodasini avvalo o'z kamchiliklarini (dangasalik, tartibsizlik, yomon odatlar va hokazolarni) yengish bilan chiniqtirish kerak. Bu sohadagi har bir muvaffaqiyat kishining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, uni yanada irodaliroq qiladi. Bunda to'g'ri hayot kechirish, kun tartibi, nerv sistemasini umumiy mustahkamlash, o'zining iroda kuchini doimiy mashq qildirib borishdan iborat bo'lgan jismoniy va psixik chiniqish yordam beradi.

Tayanch iboralar:

iroda, qat'iylik, sabr-toqat, dadillik, o'zini tutish, mustaqillik, uyushqoqlik, intizomlik, irodani tarbiylash.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Iroda deb nimaga aytiladi.
2. Irodaviy harakatlar va iroda manbalari nimalardan iborat.
3. Faollik bilan bog'liq bo'lgan irodaviy sifatlar.
4. Tormozlanish bilan bog'liq bo'lgan iroda sifatlari.
5. Irodani tarbiyalash.

TEST-SO'ROVNOMA

IRODANGIZ NIMAGA QODIR?

1.Siz o'z xulq-atvoringizning atrofdagi odamlarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligi haqida tez-tez bosh qotirib turasizmi?

a) juda kam; b) kam;c) tez-tez; d) juda tez-tez.

2.Sizda o'zingiz ishonmasangizda, o'zgalarga qasdlashib, qaysarlik bilan biror narsani tasdiqlab turadigan holat bo'lib turadimi?

a) ha; b) yo'q.

3.Siz quyida keltirilayotgan sifatlardan odamlarda ko'proq qaysinisini qadrlaysiz?

a) qat'iyatni; b)keng fikrlashni; c) o'zini ko'rsata olishni;

4.Sizda o'taketgan rasmiyatchilikka moyillik bormi?

a) ha; b) yo'q.

5.Hayotingizda sodir bo'ladigan ko'ngilsizliklarni tez unutib yubora olasizmi?

a) ha; b) yo'q.

6. O‘z xulqingizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?

a) ha; b) yo‘q.

7. Sizga yaxshi tanish bo‘lgan odamlar orasida turib, Siz...

a) shu davrada amal qilinadigan axloq-odob qoidalarini saqlashga harakat qilasiz;

b) o‘zligingizni saqlashga intilasiz.

8. Qiyin vazifani bajarishga kirishishdan oldin sizni kutayotgan muammolar haqida o‘ylashga harakat qilasizmi?

a) ha; b) yo‘q.

9. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri sizga ko‘proq to‘g‘ri keladi?

a) hayolparastlik; b) ko‘ngli ochiq; c) ishda qat‘iyatli;

d) puxta va saranjom-sarishta; e) falsafa o‘qishni yaxshi ko‘radi;

v) hovliqma.

10. U yoki bu masalani muhokama qilganda, Siz..

a) ko‘pchilikning fikridan farq qilsda, har doim o‘z nuqtayi nazar-ingizni aytasizmi?

b) shunday vaziyatda yaxshisi jim turishga va o‘z fikringizni ayt-maslikka harakat qilasizmi?

c) tashqi tomonlama ko‘pchilikni qo‘llasangizda, ichingizda o‘z fikringizda qolasizmi?

d) o‘z shaxsiy fikringizdan voz kechib, o‘zgalarning fikrini qabul qilasizmi?

11. Sizda odatda rahbaringizning kutilmaganda yo‘qlashi qan-day hissiyot chaqiradi?

a) g‘ashim keladi; b) xavotirlanaman; c) tashvishlanaman;

d) hech qanday hissiyot chaqirmaydi.

12. Munozara qizib ketgan holatda sizning suhbatdoshingiz shaxsingizga tegadigan gaplar bilan haqorat qilsa, Siz...

a) unga o‘shanday javob berasiz; b) bunga e‘tibor bermaysiz;

c) namoyishkorona haqorat qilardingiz;

d) tinchlanish uchun u bilan suhbatni to‘xtatardingiz.

13. Agar sizning qilgan ishingizni yaroqsiz deb topishsalar, unda siz...

a) afsuslanib; b) uyalib ketasiz; c) g‘azabingiz keladi.

14. Siz to‘satdan noqulay ahvolda qolsangiz, bunda birinchi navbatda kimni ayblagan bo‘lardingiz?

a) o‘z-o‘zimni; b) taqdimi, omadisligimni; c) o‘zgalarni.

15. Atrofingizdagi odamlar sizning bilim va qobiliyatlaringizni qadriga yetishmayotganday tuyilmayaptimi?

a) ha; b) yo'q.

16. Do'stlaringiz yoki hamkasblaringiz sizni mazah qilishsa, ustingizdan kulishsa, unda siz...

a) ulardan jahlingiz chiqadi; b) ulardan uzoqlashishga harakat qilasiz;

c) o'zingiz ularga qo'shilib, o'zingizning ustingizdan kulasiz;

d) e'tibor qilmaganday ko'rinsangizda, ichingizda g'azablanasiz.

17. Siz shoshib turganingizda odatda qo'yadigan joyingizdan narsani topa olmasangiz, unda...

a) jimgina o'sha narsani izlashga tushasiz;

b) boshqalarni tartibsizlikda ayblagan holda izlay boshlaysiz;

c) kerakli narsani uyda qoldirib chiqib ketasiz.

18. Sizni odatda darg'azab qiladi...

a) oldiga zudlik bilan kirishingiz zarur bo'lgan qandaydir rahbarning qabulxonasidagi uzun navbat;

b) jamoat transportidagi ur-yiqit;

c) bir masala yuzasidan bitta joyga bir necha marta qatnash zarurati.

19. Kim bilandir munozarani tugatgandan so'ng ham o'z nuqtayi nazariningizni himoya qiladigan yangi isbotlarni fikran o'ylay boshlaysizmi?

a) ha; b) yo'q.

20. Birorta qiyin ishni bajarishda yordamchi olishingizga to'g'ri kelib qolsa, siz quyidagi mumkin bo'lgan nomzodlardan qaysi birini afzal ko'rasiz?

a) ijrochi, ammo tashabbuskor bo'lmagan odamni;

b) o'z ishini biladigan, ammo talashib-tortishadigan va qaysar odamni;

c) iqtidorli, biroq dangasa odamni.

Tekshiriluvchi javoblarning ballik baholari:

Jadval 1

Javoblar varianti	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	0	0	1	2	0	2	2	0	0	2
B	1	1	1	0	2	0	0	2	1	0
C	2	-	-	-	-	-	-	-	3	0

D	3	-	-	-	-	-	-	-	2	0
E	-	-	-	-	-	-	-	-	2	-
V	-	-	-	-	-	-	-	-	0	-

Javob varianti	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
A	0	0	2	2	0	0	2	1	0	0
B	1	2	1	0	2	1	0	0	2	1
C	2	1	0	0	-	2	1	2	-	2
D	0	3	-	-	-	0	-	-	-	-
E	-	-	-	-	-	0	-	-	-	-
V	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Kalit

1. Agar ballar yig'indisi 14 va undan oz bo'lsa, bunday odam kuchsiz irodaga ega bo'ladi.

2. Ballar yig'indisi 15 va 25 gacha bo'lsa, bunday odamning irodasi yetarli darajada kuchli, xatti-harakatlari mantiqli va mulohazali.

3. Ballar yig'indisi 26 dan 38 gacha bo'lsa, uning irodasi o'ta kuchli, xulq-atvori yetarli mas'ul. Bunday odamlarda o'ziga bino qo'yish holati kuzatilishi xavfi bor.

4. Ballar yig'indisi 38 dan baland bo'lsa, bunday odamning irodasi kuchli, xarakteri risoladagiday, biroq uning o'zini to'g'ri baholaganiga shubha bor.

HIS-TUYG'U

Shaxs idrok etayotgan narsalarga, bajarayotgan va o'ylayotgan hodisalarga befarq bo'lmaydi. Bir hil predmetlar, odamlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari hafa qiadi, yana boshqalari g'azab, nafratimizni qo'zg'atadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, qiyinchiliklarni yengish zavq, shodlik uyg'otadi. Har bir inson mehnat qilar ekan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun intilar ekan ana shunday va boshqa kechinmalarni boshidan o'tkazadi.

Odamning o'zi bilgan va bajarayotgan narsalarga o'z munosabatini boshidan kechirishi his-tuyg'ular yoki emotsiyalar (lot, emovere—qo'zg'alih, hayajonga solish) deyiladi. Shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqador omillar, qo'zg'ovchilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib chiqishi instinklar, shartsiz refleklar,

irsiy belgilar bilan bog'liq sodda hissiy holatlar „emotsiya“ deyiladi. Bular xoh zararli, xoh foydali bo'lsin bu ahamiyatga ega emas. Masalan, bularga ovqatlanish, himoyalalanish, qo'rqish va boshqalar kiradi. Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki jonli mavjudotlarga ham taalluqli ruhiy, psixik holatlardir.

Hissiyot bilan emotsiya inson shaxsining ijtimoiy hayotiy shart-sharoitlarida yuzaga kelgan, odamning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida evolutsion yo'sinda shakllangan, muayyan ijtimoiy muhitda istiqomat qiluvchi kishilar tomonidan o'zlashtirilgan g'oyalar, me'yorlar, qonun-qoidalar, nizomlar, qadriyatlarni aks ettiruvchi anglangan his-tuyg'ular, murakkab ichki kechinmalarni vujudga kelish jarayonidir.

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi va mahsuli bo'lib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga asosiy sabab tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlardir. O'zgarishlar **birinchidan**, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashishi yoki pasayishiga, **ikkinchidan**, insondagi ayrim ehtiyojlarning paydo bo'lishi yoki yo'qolishiga, **uchinchidan**, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi. Shartsiz va shartli reflekslar his-tuyg'ular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarim shari po'stlog'ida yuzaga keladi, mustahkamlanadi.

Shaxs ruhiy olamida, uni qurshab turgan tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan o'zgarishlar (xoh tabiiy, xoh subyektiv bo'lsin) kechinmalar subyekti inson uchun qancha qadr-qimmatli va yuksak ahamiyat kasb etsa, hissiy holatlarning mazmuni shuncha purma'no bo'ladi. Buning ta'sirida esa yuzaga keladigan muvaqqat bog'lanishlar tizimining qayta qurilishi qo'zg'alish jarayonini hosil qiladi, ichki sekretsiya bezlari ishini buzib ko'z yoshini oqizishi, hayajonlanganda og'iz qurishi, qo'rqqandan “sovuq” ter chiqishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ijobiy va salbiy his-tuyg'ularning shunga o'xshash markazlari bosh miyaning boshqa bo'limlarida ham joylashgan. Shunga qaramay, bulardan tashqari, shartli ravishdagi rohatlanish va azoblanish markazlari ham mavjuddir.

I.P.Pavlov o'sha davrdayoq, „dinamik stereotip“ hosil qilgan-

dan keyin oliy nerv faoliyatida uning buzilishi salbiy hissiyotlar kechishi uchun negiz bo'ladi, dinamik stereotipni oldindan tayyorlab, so'ng uning o'zgarishi ijobiy his-tuyg'ularni paydo qiladi, deb qat'iy ishontirgan edi. Ehtiyojga mutelik qilib, „tarki odat – amri mahol“ yo'sinda ish tutaveradi.

Insonlarning mehnat, ma'naviyat, siyosat, oila, ishlab chiqarish bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek, tabiat bilan odamlar orasidagi, shuningdek, shaxslararo munosabatlar bir qator insoniy hissiyotlarning va ularni ifodalash, tatbiq etish vositalarini vujudga keltiradi. Shaxs yuz ifodalari, boshini tebratish, xo'rsinish orqali o'zgalarga hamdardlik tuyg'usini bildiradi. Mazkur emotsiyalar bolalarga odob bilan javob berishni, suhbatdoshiga iliq, samimiy jilmayishni, qariya va nogironlarga hurmat bilan joy bo'shatishni, kichkintoylarga mehribonlikni shakllantirishi lozim. Shaxs o'z his-tuyg'ularini o'zi boshqaradi, ularni me'yoriy hujjatlar, ijtimoiy turmush qoidalari, etnik rasm-rusumlar, odatlar, an'analar, protsessual qonunlar nuqtayi nazaridan goh ma'qullaydi, goh qoralaydi. Shu bilan birga, insonlar ichki kuchli va jo'shqin emotsiyalarini kechirsalarda, tashqi xotirjamlikni saqlay biladilar. Ularning ba'zilari o'z hissiyotlarini berkitish uchun o'zlarini atayin xotirjam tutadilar, ammo salbiy emotsiyalarni ifodalashga intiladilar. Shaxs o'zining mimika va pantomimikalarini boshqarish imkoniyatiga ega, lekin organlaridagi tabiiy o'zgarishlarni ushlab tura olmasliklari mumkin. Masalan, nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish, ko'z yoshlarini ushlab turish, rangning o'zgarishi va hokazo.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi quyidagilarda ko'rinishi mumkin: mimika, imo-ishora, vajohat, qaddi-qomat o'zgarishi, tashqi sekretsia beziari faoliyati (yosh, so'lak, ter ajralishi), xatti-harakatlar (tezligi, kuchi, yo'nalishi, muvofiqlashuvi), nutqning xususiyatlari va boshqalar. Emotsiyalar, his-tuyg'ular mazmuni, sifati, shakli jihatidan etnopsixologik xususiyatiga ega.

HIS-TUYG'ULARNING SHAKLLARI
KAYFIYAT EHTIROS AFFEKT RUHLANISH STRESS

Hissiy kechinmalarning shakllari. *Hissiy ton. Hissiyot aksariyat hollarda faqat emotsional ton sifatida ruhiy jarayonning o'ziga xos sifat jihati tarzida vujudga keladi.*

Hissiyot bu o'rinda bilishga intilayotgan, o'zgartirayotgan, egalayotgan shaxsda ma'lum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisa va harakatlarning alohida xossasi, xislati hamda xususiyati ma'nosida gavdalanadi. Mazkur narsalarga qarab inson shaxsining subyektiv munosabatlari to'g'risida mulohaza yuritilayotganini odam hamisha ham payqay olmaydi. Masalan, yoqimli muloqotdosh, kulgili hangoma, badbo'y hid, behayo kino, ishtiyoqli mashg'ulot, iboli qiz, yaramas xulq, xushchaqchaq yigit, xotirjamlantiruvchi xabar, zahmatli mehnat va boshqalar.

Emotsional ton (masalan, affektiv ton) ba'zi hollarda barcha shaxslarda tug'ma, nasliy xususiyat kasb etishi mumkin. Jumladan, og'riq hissi va boshqa xususiyatli kuchli qo'zg'atuvchilar muayyan bir davrda aks etgan yoqimsiz hissiy ton bilan ajralib turadi. Hissiy ton shaxsning ehtiyojlarini atrofdagi narsa va vaziyatlar qoniqtirishi yoki qoniqtirmasligini, faoliyatning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kechishini yaqqol namoyish etishiga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik xislatlariga binoan hissiy ton o'ziga xos idiosinkraziya (yunoncha *idios* – o'ziga xos, *synrasis* – qorishmoq, *qorishuv* ma'nosini bildiradi) xususiyatini kasb etadi, bunday ta'bli odam boshqalar uchun befarq tuyulgan narsalarga ham jirkanch munosabatini namoyish qiladi, masalan, duxobaga tegib ketishni, baliq yo'g'i, gul hidlarini yoqtirmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ko'rish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgilarga hamda idroklarga taalluqli hissiy ton muhim amaliy ahamiyatga ega. Masalan, xonalar, ish joyi, transport vositalarining rangi (tusi) taassurotidan vujudga kelgan yoqimli va yoqimsiz hissiy ton mehnat samaradorligiga, xizmatchilarning kayfiyatiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Kimyoviy o'g'itlar va sabzavotlarning yoqimsiz hidi, ishlab chiqarishdagi shovqinlar, tovushlar hissiy ton jihatidan mehnat unumdorligini pasaytiradi. Xotirjamlik, yoqimli musiqa, shaxslararo iliq munosabatlar, muomala maromi, ahillik muvaffaqiyatning kafolati, ijtimoiy taraqqiyotning omili hisoblanadi.

Emotsiyalar. *Emotsiya – u yoki bu hissiyotning insonda bevosita kechishi jarayonidan iborat. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevvish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani*

eshitish, ijrochi mahoratiga tahsin aytish, undan huzurlanish yoki asar ijrosi yoqmasa g'azabli hissiy kechinma hosil bo'lishi salbiy yo ijobiy emotsiya deyiladi. Qo'rqinch, dahshat, hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi. Hatto o'zini xavf-xatarga tashlashi ham mumkin.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatli hissiy holatlar stenik (yunoncha *sthenos* – so'zidan olingan bo'lib, *kuch* degan ma'noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunday emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, ijobiy izlanishlarga kuch-quvvat, qanot bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs "parvoz qiladi", kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi, faollik, tinib-tinchimaslik uning asosiy sifati bo'lib qoladi. Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, zaifligi, nursizligi bilan tavsiflanadi, bunday hissiy holat astenik (yunoncha *actenia* – so'zidan olingan bo'lib, *kuchsizlik, zaiflik* ma'nosini bildiradi) deb ataladi.

Emotsional holatlar yo haddan tashqari kuchaysa yoki susaysa, xullas me'yori buzulsa, u holda shaxs faoliyatining maqsadga yo'nalganlik ko'rinishi izdan chiqadi, natijada obyektlar noto'g'ri aks ettiriladi, ular xolisona talqin qilinmaydi, baholashda mantiqiy nuqsonlarga yo'l qo'yiladi.

Affektlar. *Haddan ziyod tez kechishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, jarayonlar ustidan irodaviy nazoratlarning buzilishiga yetaklovchi, organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsional jarayonlarga affektlar deb ataladi.* Affektlar qisqa muddatli bo'lib, ular favqulodda yuz bergan yong'inga, yarqiragan portlashga, to'satdan yog'ib ketgan do'lga, to'fonga, kutilmagan silkinishlarga o'xshab ketadi. Ma'lumki, vahimaga, tahlikaga, sarosimaga tushib qolgan, o'ta quvongan, kulgi nashidasi bilan band bo'lgan, umidsizlik tuzog'iga ilingan inson turli vaziyatlarda borliqni bir xilda tasavvur eta olmaydi. Chunki u mazkur sharoitlarda o'z kechinmalarini har xil ifodalaydi, o'zini har xil tutadi, harakatlarini esa turlicha boshqaradi. Umidsizlik kechinmasida organizmning jo'shqin reaksiyasi ba'zan hushidan ketib qolish holati bilan almashinadi. Ushbu vaziyat psixologiyada (lotincha *stupos* – *stupor*, ya'ni *serrayib qolish*), karaxt holati deb qo'llaniladi.

Affekt holati boshlanishida shaxs barcha insoniy qadriyatlardan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati haqida ham o'ylab o'tirmaydi, hatto ifodali harakatlar unga bo'ysunmay qoladi. Kuchli zo'riqish natijasida mayda, kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stlog'ini to'la egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloqosti nerv tugunchalarida, oraliq miyada avj oladi. Natijada shaxs hissiy kechinmasida (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar)ga xohish paydo bo'ladi.

Stress. Stress (inglizcha *stress* – so'zidan olingan bo'lib, *jiddiylik, keskinlik, zo'riqish*) degan ma'nolarni anglatadi. *Stress – og'ir jismoniy va murakkab aqliy nagruzkalar, ishlar me'yoridan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug'ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishlardir.* Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron-bir emotsiya turi ro'yobga chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo'lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar (inglizcha *dispatcher* – *ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi* ma'nosini anglatadi) uchun, balki sudyalalar, korxonalar rahbari, ta'lim tizimi xodimlari uchun alohida ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, unda qo'zg'alishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshadi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalikni stressning tashqi ifodasi, deb taxmin qilsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon raqamlarini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil tormozlanadi, idrok ko'lami torayadi va boshqalar.

Kayfiyat. *Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi.* Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur'atsizlik, zerikish, qayg'urish singari his-tuyg'ular uning ruhiy holatini umumiy tizimiga aylanadi. Ushbu vaziyat ba'zi bir emotsional taassurotlarning vujudga kelishiga qulay

zamin hozirlasa, boshqasiga qiyinchilik tug'diradi. Inson xafa, ma'yus hissiy holatda bo'lsa, u tengdoshlarining haziliga, keksalarning o'gitanasihatlariga, maslahatlariga quvnoq kayfiyatdagiga nisbatan mazmun, sifat jihatdan boshqacharoq munosabat bildiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xalq ta'limi tizimi jamoalarida, rasmiy, real ishchanlik, o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhit yaratish, samimiy muomala maromini shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning asosidir.

Kayfiyat nihoyatda xilma-xil, uzoq va yaqin manbalar negizidan vujudga keladi. Uni barqarorlashtirib turadigan asosiy manbalardan biri—shaxslarning ijtimoiy hayotdagi umumiy nuqtayi nazarlari, hayotning turli jabhalarida aks etuvchi ta'sirlardir. Shaxsning ma'lum muddat ruhi tushib, noxush kayfiyatda yurishi turmushida muammolar yuzaga kelganligidan, halovati, tinchligi buzilganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlarda shaxsga oqilona xushtavozelik bilan ijobiy ta'sir o'tkazish, ruhini tetiklashtiruvchi vositalarni qo'llanish, kayfiyatini buzib turgan omillarni bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Psixologiya fanida asosiy hissiyotlar atamasi ko'chma ma'noda qo'llanib kelmoqda. Tadqiqotlar ichida K. Izartning tasnifi muayyan qiziqish uyg'otadi, lekin his-tuyg'ularning barchasini o'zida qamrab ololmaydi. K. Izartning talqinicha:

1) **qiziqish**—malaka va ko'nikmalar shakllanishiga, o'qishga moyillik uyg'otadigan bilimlarni egallashga yordam beruvchi ijobiy hissiy holatdir;

2) **quvonch**—qondirilishi dargumon bo'lgan yetakchi ehtiyojning qondirilishi mumkinligi bilan bog'liq ijobiy hissiy holatdir;

3) **hayratlanish** — favqulodda ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta'sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan ifoda etilmagan belgisi;

4) **iztirob chekish**—hozirgacha qondirilish ehtimoli ozmi yoki ko'pmi mavjud tasavvur qilingan, muhim hayotiy ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi to'g'risida ma'lumot olinishi bilan bog'liq salbiy hissiy holatdir;

5) **g'azablanish**—obyektiv tarzida kechadigan, shaxs uchun g'oyat muhim ehtiyojni qondirish yo'lida to'siqlarni yengib o'tadigan salbiy hissiy holatdir;

6) **nafratlanish** — obyektarga yaqinlashuv subyektning ma'naviy

yoki estetik ideallarga zid kelib qolishi oqibatida ro'y beradigan salbiy hissiy holatdir;

7) **jirkanish** – shaxslararo munosabatlarda ro'y beradigan va shaxsning hayotiy nuqtayi nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibligi oqibatida hosil bo'ladigan salbiy hissiy holatdir;

8) **qo'rquv** –shaxs o'zing xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi unga aniq tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mavjud ko'rinib turgan xavf-xatar to'g'risidagi xabarni olish bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir;

9) **uyalish** – o'zining ezgu maqsadlari, xatti-harakatlari va tashqi qiyofasi, nafrati katta muhitga mos kelmaganligi bilan emas, balki o'ziga loyiq xulq-atvor hamda tashqi siymosi shaxsiy tasavvurlarga ham mos emasligini anglashda ifodalanadigan salbiy hissiy holatdir.

Yuksak hislar. Kishilik jamiyati bilan hayvonot olami o'rtasida psixologik tafovutlar yuksak hislarda o'z ifodasini topadi. *Yuksak hislar ongli harakatlarni bajarishning obyektiv sharoitlari, yo'nalishlari, mazmuni bilan uyg'unlashgan shaxs emotsional holatining barqaror, murakkab tarkibida paydo bo'ladi va kechadi.* Ko'plab kechirilayotgan emotsiyalarda, affektlarda, kayfiyatlarda seziladigan umumlashma hislar yuksak hislar deb ataladi. Ular o'z tarkibiga sodda tuzilgan hislarni qamrab oladi, lekin oddiy hislar yig'indisidan iborat emas, chunki yuksak hislar mazmuni, sifati, shakli bilan ajralib turadi.

Shaxsda topshiriqni bajarish bilan bog'liq javobgarlik hissi har xil ma'noda kechadi:

1) tashvishlanish emotsiyasi (bir tomondan, xursandlik, ikkinchi tomondan esa qo'rqish hissi) sifatida;

2) o'z kuchiga, g'ayratiga, iftixoriga ishonch emotsiyasi tariqasida;

3) vazifaga jiddiy qaramaydigan tengdoshlardan g'azablanish emotsiyasi sifatida;

4) shart-sharoitlarni hisobga olishga befarq qarashi sifatida va hokazo.

Ko'rinib turibdiki, javobgarlik hissining mohiyati ularning oddiy yig'indisidan iborat emas, balki jamoa a'zolarining ehtiyojiga aylangan voqelikni anglashdir. Masalan, kitob o'qib lazzatlanish bilan kitobni o'qib tugatishdan shodlanish hissini aralashtirib yubormaslik lozim.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi:

1) mehnat faoliyati davomida kechadigan hislar – **praksik hislar** (yunoncha *praxis* – so‘zidan olingan bo‘lib, *ish, faoliyat, yumush* degan ma‘noni anglatadi);

2) **intellektual hislar** (lotincha *intellectus* – so‘zidan olingan bo‘lib, *tushunish, aql* degan ma‘noni bildiradi);

3) **axloqiy hislar** (lotincha *moralis* – so‘zidan olingan bo‘lib, *axloqiylik* degan ma‘noni anglatadi);

4) **estetik hislar** (yunoncha *aistesis* degan so‘zdan olingan bo‘lib, *hissiy idrok, hissiy* degan ma‘noni anglatadi).

HISSİYOT TURLARI		
INTELLEKTUAL HISLAR	MA'NAVİY HISLAR	ESTETIK HISLAR
URINCHOQLIK QIZIQISH TAAJJUBLANISH HAYRON QOLISH ISHONCH SHUBHALANISH	VATANPARVARLIK INSONPARVARLIK DO'STLIK VA O'RTOQLIK MEHNATSEVARLIK UYALISH VA VIJDON BURCH, OR - NOMUS	QUVONCH ZAVQ XURSANDCHILIK OSOYISHTA

Praksik hislar. *Shaxsning amaliy hayotining istalgan tarmog‘i, maqsadga muvofiq ongli faoliyati shaxsning ularga muayyan munosabatda bo‘lishning muhim sohasiga aylanib qoladi.*

Mehnat faoliyatida shaxs:

- 1) biror maqsadni anglaydi;
- 2) uni e‘tirof qiladi yoki inkor etadi;
- 3) maqsadga erishish yo‘l-yo‘riqlarini baholaydi;
- 4) unga tatbiq etish usullari va vositalarini ma‘qullaydi yoki ma‘qullamaydi;
- 5) ularni tanlaganligiga shubhalanadi;
- 6) inson muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradi.

Mehnat shaxs hayotining negizi hisoblanib, uning mehnatga bo‘lgan ijobiy emotsional munosabatlari orasida yuksak hislar muhim ahamiyatga ega. Mehnat jasorat tuyg‘usi, shodlik makoni, jangovar kayfiyat manbayi, muvaffaqiyat tantanasi hislaridan tashkil topgandir. Mamlakatimizda mehnat zo‘r qoniqish, ko‘tarinki his-tuyg‘uni vujudga keltiradi, shuningdek, u anglashilgan ehtiyoj, farovonlik manbayidir. Xalqimiz mehnat muvaffaqiyati bilan kelajagi buyuk davlatimiz ravnaqiga hissa qo‘shadi.

Axloqiy hislar. *Axloqiy hislarda shaxsning boshqa kishilarga, mehnat jamoasiga va sinf yoki kurs guruhiga hamda o'zining ijtimoiy burchiga munosabatlari yaqqol mujassamlashadi.* Inson axloqiy hislarni butun vujudi bilan kechirar ekan, u albatta ijtimoiy axloq tamoyillari, me'yorlari mezoniga asoslangan holda odamlarning xatti-harakatlarini, psixik xususiyatlarini, shaxsiy xulq-atvorini baholaydi.

Mamlakatimiz fuqarolarining yetakchi axloqiy hislaridan biri – burch hissidir. Uning asosini davlatimizning hayotiy manfaati talab qiladigan ishlarni bajarishga qat'iy undaydigan jamiyatimiz ehtiyojlarini tushunish va ularni ongli his qilish aks ettiradi. Shaxsning individual va ijtimoiy burchlari mavjud bo'lib, ishlab chiqarish, maktab, oila, yoshlar harakati manfaatlarini ichdan his etib yashashdan iboratdir.

Ona-Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishda faol namoyon bo'luvchi jonajon yurtga muhabbat hissi vatanparvarlik deb ataladi. Bu his o'z xalqiga, o'z Vatanga, mamlakatimizning barcha millat vakillariga bo'lgan birodarlik, do'stlik tuyg'ularida aks etadi. Vatanparvarlik hissi eng muhim motiv hisoblanib, u xalqimizning jangovar va qahramonona mehnatining manbayidir.

Axloqiy hislar tarkibiga mas'uliyat, javobgarlik, fidoyilik, vijdon, adolat, ibo, iffat, or-nomus, uyalish, simpatiya, empatiya, g'urur, o'rtoqlik, do'stlik, mehr-muhabbat va boshqalar kiradi.

Haqiqiy muhabbat hissi shaxsning aqliy va jismoniy kuchlarini faollashtiradi, uni ijodiy yuksaklikka ko'taradi, o'z ichki kechinmalari olamiga berilib ketishdan asraydi, faollikka undaydi, unga ham ruhiy, ham biologik kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Intellektual hislar. *Mazkur hislarda shaxsning ham haqqoniy, jonli, mantiqiy mushohadalari, ham soxta, yuzaki, ajablanarli, shubhali, goh tushunarli, goho tushunib bo'lmaydigan, ba'zida hayratda qoldiradigan fikrlarga munosabatlari ifodalanadi.* Intellektual hislarga hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish, qiziqish, qiziquvchanlik, shodlik, ishtiyoqmandlik va boshqalarni kiritish mumkin. Hayajonlanish va ajablanish shaxsni bilish faoliyatining ajralmas qismidir. Ajablanish va hayajonlanish emotsiyasiga berilib ketgan shaxs o'zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Shaxsni haqiqatni izlash faoliyati shubhalanish hissi sifatida kechishi mumkin. Haqiqatni topish esa ishonch hissi bilan bir davrda amalga oshadi.

Estetik hislar. Ma'lumki, estetik hislarga hamisha tayangan axloqiy hislar o'z taraqqiyotini maqsadga yo'naltirgan holda yuzaga keladi. *Odamlar tabiatning va jamiyatning turli omillariga hamda ularning o'ziga xos tarzda aks etishiga go'zallik yoki xunuklik, fojiali yoki kulgili, oliyanob yoki razil, nozik va dag'al, xushbo'y yoki noxush, yoqimli yoki yoqimsiz hodisalar, holatlar sifatida munosabatda bo'ladilar.* Estetik hislar muayyan mezondagi baholarda, nafosat me'yorlarida ma'lum ta'b va didda ro'yobga chiqadi hamda o'ziga xos badiiy lazzatlanish, go'zallikni his etish holatida kechadi. Ushbu his-tuyg'ular ijobiy yoki salbiylikni anglatish bilan bir-biridan ajralib turadi. Nafosat his-tuyg'ulari shaxsning madaniy saviyasi, uning ong darajasi mahsuli sanaladi.

Insonlarning hislari uning aql-farosatining o'sib borishi bilan birgalikda, uning ehtiyojlarining o'sib borishi bilan birlikda, faoliyatida o'sib boradi. O'sib borayotgan hislar esa odamning aqliy va amaliy faoliyatini o'stiradi, o'sib borayotgan shaxsning ehtiyojlarini kuchaytiradi va mustahkamlaydi.

Tarbiya olish va o'z-o'zini tarbiyalash hislarning o'sishida katta ahamiyatga egadir. Hislarni tarbiyalash keraksiz va salbiy hislardan tiyilish, ijtimoiy jihatdan qimmatli va barqaror ijobiy hislarni o'stirish hamda mustahkamlashdan iboratdir. Hislar xilma-xil yo'llar bilan tarbiyalanadi. Chunonchi, ayrim hislarning manbalari bir shaklda ko'p martalab takrorlana bersa, unday hislar "so'nib qolishi" mumkin. Murakkab, chuqur hislar bizda shu hislarni hosil qilgan obyektlar qayta ta'sir o'tkaza berganida yo'q bo'lib ketmaydi, balki, aksincha, tag'in ham kuchli va barqaror bo'lib qoladi. Masalan, musiqa asarlarini qayta-qayta eshitish natijasida bizning estetik hislarimiz chuqur, kuchli bo'lib qoladi. O'zimiz yaxshi ko'rgan, o'zimiz uchun qadrli bo'lgan joylarga har safar borganimizda bizning shu joylarga bo'lgan hislarimiz, mehrimiz, odatda kuchaya boradi, bir hislarning tashqi ifodasini ixtiyoriy ravishda o'zgartirish yoki vujudga keltirish mumkin. Chunonchi, odam o'zining tashqaridan qaraganda quvongan qilib ko'rsatish bilan ba'zan haqiqatan ham o'zida xursandlik hissini kechira boshlaydi. Shu sababli hislarni tashqi ifodasini boshqarib turish, hislarning tashqi ifodasini tiya bilish yoki shunday hislarni o'zida tug'dira bilish va vujudga keltira olish odamning emotsional holati uchun katta ahamiyatga egadir.

Tayanch iboralar: His-tuyg'ular, hissiyot, emotsiyalar, nerv fiziologik asoslari, emotsional holatlar, emotsional ton, stenik va astenik holatlar, kayfiyat, affekt, stress, hissiy ton, yuksak hislar, praksik hislar, axloqiy, estetik, aqliy hislar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. His-tuyg'ular deb nimaga etiladi?
2. His-tuyg'ularning inson hayotida qanday ahamiyati bor?
2. His-tuyg'ularning mexanizmi nimalardan iborat?
3. Hissiy kechinmalarining shakllarini aytib bering.
5. Affekt qanday holat?
6. Kayfiyatni boshqarish nimalardan iborat?
7. Yuksak hislar qanday?

Mavzu yuzasidan mustaqil topshiriqlar:

1. Dars jarayonida o'quvchilarning hissiy kechinmalarini namoyon bo'lishini kuzatish va keltirib chiqaruvchi sabablarini aniqlash, ifodalinishini (mimika, gavda harakatlari, nutqida) tahlil qilish.
2. Badiiy asarlardan qahramonlarning ichki kechinmalarini namoyon bo'lish holatlari haqidagi parchalardan misol keltirish va tahlili.

EHTIYOJ, MAYL VA QIZIQISHLAR

Shaxsning muhim belgisi – faqat odamga xos maxsus ehtiyojlarning borligidir. Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan ham mohiyat, ham shakl jihatdan tubdan farq qiladi. Mavjudotlarning ehtiyojlarida ularning faolligi omili sifatida tabiiy alomatlar, instinktlar, shartsiz reflekslar va hokazolar bevosita qatnashadi.

Lekin insonlarning faolligi va ularning faollik manbayi hisoblanish insoniy ehtiyojlar tubdan boshqacha bo'lib, biologik shartlanganlikdan tashqari, moddiy va ma'naviy ko'rinishlardan iboratdir. *Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma, malaka, odat, ma'naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.* Tabiat tomonidan vujudga keltirilgan jism, narsa, buyum inson uchun biologik ehtiyojni qondiruvchi o'lja ma'nosini va ahamiyatini yo'qotadi. Odam boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, ijti-

moiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zarurat talabiga binoan tubdan qayta o'zgartirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir.

“Insonga xos bo‘lgan ehtiyojlarning mazmuni, shakli va qondirilish usuli” ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrida rivojlanib, o‘zgarib va takomillashib boradi. Hozirgi zamon kishisining ehtiyojlari va ularning qondirilishi ajdodlarnikidan ham, avlodlarnikidan ham butunlay farqlanadi, lekin etnopsixologik xususiyatlar ta’siri o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Kamolotga erishishning muhim sharti hisoblanmish mehnat insonning ehtiyojiga aylanmas ekan, u o‘z ehtiyojlarini yengil, oson yo‘llar bilan qondirishga harakat qilsa, inqirozga uchraydi.

Huquqiy, demokratik jamiyat kishisi shaxsini shakllantirishga nisbatan qo‘yilayotgan muhim talablardan biri – unda mehnat qilish ehtiyojini, mehnatdan faxrlanish tuyg‘usini va undan lazzatlanish hissini tarkib toptirishdan iborat.

Inson bir davrning o‘zida ham individuallik, ham ijtimoiylikni aks ettirganligi sababli uning ehtiyojlari *shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga* egadir. Boshqacha aytganda, undagi tor ma’nodagi shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan tuyg‘u uyg‘otuvchi (tabiat in’omiga aloqador) ehtiyojlarni qondirish jarayoni ijtimoiy hamkorlik faoliyatining mahsuli bo‘lgan (dehqonlar, ishchilar, xodimlar va boshqa kasbdagi) odamlarning sa’y-harakati, hamkorlikdagi mehnatining moddiy ifodalanishidan foydalanishda aks etadi.

Odatda, ular kelib chiqishiga ko‘ra ehtiyojlar **tabiiy va madaniy** turga ajratiladi.

Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyatining faolligi, o‘z shaxsiy hayotini himoya qilish, o‘z avlodi hayotini saqlash, uni qo‘llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlarga tortilganlik, tobelik aks etadi. Shuningdek, tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarning ovqatlanish, tashnalikni qondirish, jinsiy moyillik, uxlash, issiq va sovuqdan saqlanish, musaffo havoga intilish, tana a’zolariga dam berish ham kiradi. Tabiiy ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmasa, oqibatda inson halokatga mahkum bo‘ladi, o‘z sulolasi hayoti va faoliyatini xavf ostida qoldiradi.

Tabiiy ehtiyojlar insonda ibtidoiy jamoa a’zolarinikiga o‘xshash bo‘lsa-da, lekin ular o‘zining psixologik mohiyatiga ko‘ra mavjudotlarnikidan ham sifat, ham miqdor jihatdan farqlanadi. Ehtiyojlarning

qondirilish usullari, shakli, quroli tobora takomillashib borib, shu bilan birga, ularning mohiyati, mazmuni ham o'zgarib bormoqda. Misol uchun hozirgi zamon kishisi eramizdan oldingi ajdodlarimizga nisbatan o'z ehtiyojlarini boshqacha ro'yobga chiqaradi va qondirishga intiladi. Uy-ro'zg'or buyumlarining o'zgarishi ehtiyojlarining qondirilishiga talab doimo oshib boraveradi. Shuning uchun insonlarning tabiiy ehtiyojlari ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, chunki ular ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsulidir.

Inson faoliyatining faolligi insoniyat madaniyatining mahsuli bilan bog'liq bo'lib, u madaniy ehtiyojlarni yuzaga keltiradi.

Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi, chunki ular biri-birining negizidan kelib chiqadi. Shu bois madaniy ehtiyojlar obyektiga tabiiy ehtiyojlarni qondiruvchi uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan bog'lanish vositalari, madaniy aloqalar o'rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o'qish va tajriba orttirish yo'llari kiradi. Odatda, jamiyat ta'lim va tarbiya tizimini egallash, xalq an'analari, marosimlari, bayramlari, odatlari, rasm-rusumlari, xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida rang-barang madaniy ehtiyojlar vujudga keladi, yangicha ma'no kasb eta boshlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tabiiy ehtiyojlar qondirilmas ekan, ular insonni halokat yoqasiga yetaklaydi, biroq madaniy ehtiyojlarning qondirilmasligi unday oqibatlariga olib kelmaydi, biroq kishidagi madaniy fazilatlarining shakllanishiga putur yetadi, uning kamolotini sekinlashtiradi.

Psixologiya fanida ehtiyojlar o'z xususiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy turlarga ajratiladi va ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbayi ham turlicha ekanligi e'tirof etiladi.

Insonning ovqatlanish, kiyinish, uy-joyga ega bo'lish, maishiy turmush ashyolariga intilish, komfort hissini qondirish bilan bog'liq madaniy-maishiy buyumlarga ehtiyoj sezishi moddiy ehtiyojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma'naviyatni yaratish va o'zlashtirish, shaxsning o'z fikr-mulohazalari va his-tuyg'ulariga binoan boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish hamda axborot almashtirish, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, mahalliy matbuotni o'qish, kino va teatrga borish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya'ni ijtimoiy ong mahsuliga tobelik ma'naviy ehtiyojlar tizimini vujudga keltiradi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, vujudga kelgan ma'naviy ehtiyojlarni qondirish jarayoni moddiy ehtiyojlarning tarkibiga kiruvchi moddiy narsalar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, kitob, yozuv qog'ozi va boshqalar.

Inson har jihatdan qulay turmush (komfort) sari intilar ekan, demakki unda yangi ehtiyojlar yuzaga keladi, ularning qondirilishi esa yangi bir sifat darajasiga ko'tariladi. Madaniyatning yangi qirralari ochilishi, ma'naviyatni egallashga istakning kuchayishi, fan va texnikaning taraqqiyoti, millatlararo munosabatlar ko'lamining kengayishi rang-barang ehtiyoj turlari va shakllari rivojlanishiga muhim shart-sharoitlar yaratadi. Insonning barkamollik sari intilishdagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish orzusi ehtiyojlar rivojlanishida harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Psixologiya fanida ehtiyoj quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Individual – yakka shaxsga oid.
2. Guruhiy – real guruhlarining moddiy va ma'naviy intilishi.
3. Jamoaviy – jipslashgan guruhlar talabi majmuasi.
4. Hududiy – etnik guruhning muayyan o'ziga xos talablarining qondirilishi.
5. Etnik – ma'lum millat yoki xalqlarning ehtiyojlarini qondirish.
6. Umumbashariy – yer yuzi xalqlarining umumiy talablarining aks etishi.

Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) muammosi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan.

Ustanovka so'zi inglizcha so'z bo'lib, u ko'rsatma berish, anglanmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nolarida qo'llanib kelinadi. Biroq keyingi atamalar uning haqiqiy ma'nosini, mohiyatini mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun ushbu atamani o'zgarishsiz qoldirsa ham bo'ladi.

Odatda, *ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyorlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir.* Bunday holatda shaxs biron-bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga ruhan tayyor turadi.

D.N.Uznadzening ta'kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog'liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasininggina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mahsuli bo'lib hisoblanadi. D.N.Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o'ng qo'lga navbat bilan avval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10–15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo'lga bir-biriga teng soqqalar beriladi. Buning natijasida uning chap qo'lida ham illuziya, ya'ni noto'g'ri idrok qilish vujudga keladi. Ko'z bilan idrok qilishda ikkita o'zaro teng obyektlarni qayd qilishdagi ustanovka o'ng ko'zga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Eksperimental tarzda o'rganilgan ustanovkali vaziyatlarni takrorlash evaziga insonning o'ziga sezilmagan holda muayyan obyektlarda subyektga taalluqli „fiksial ustanovkalar“ (qayd etilgan ko'rsatmalar) vujudga kelganligi aniqlangan. Demak, ustanovkani eksperimental tadqiq etish natijasida anglanmagan mayllar asta-sekin tadqiq qilinuvchi darajasiga o'sib o'tishi mumkin. D.N.Uznadzening natijalariga o'xshash qator ma'lumotlar shaxsda mustahkamlanib qolganligi tufayli ijtimoiy turmushda ustanovka funksiyalarini bajarib kelmoqda: 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining oldida turgan ustanovkalar xuddi shunday toifaga kirganligi sababli o'quvchilar o'qituvchining barcha topshiriqlarini darhol bajarishga tayyor turadilar; 2) hisobchilarga nisbatan qo'rs, rasmiyatchi deyishlik; 3) olimlarga nisbatan parishonxotirlik; 4) savdo xodimlariga nisbatan uddaburonlik, daromad qilishga ustasi faranglik; 5) bolaning haqgo'yligi, sir tutmasligi; 6) qariyaning so'zi tugaguncha – o'salning joni uzilishi to'g'risidagi fikr-mulohazalar ustanovkaga yaqqol misol bo'la oladi.

Ustanovkaning yanada yuksak bosqichi anglanish ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. Guruhiy va jamoaviy munosabatlarda uning a'zolarini ishontirish (ularga ta'sir o'tkazish) orqali muayyan yo'nalishga safarbar qilish; fikrlarda umumiylikni vujudga keltirish holatlari bunga yorqin misoldir. Ishonish va ishontirish odamlarning xarakter xislatiga, xulq-atvoriga bevosita bog'liq.

Xulq-atvor va faoliyatning anglanmagan omillari qatoriga mayllar kiradi. Faoliyatni amalga oshirishga undovchi omil mayl deb ataladi. Mayllik holatiga kirib borayotgan shaxs uchun jalb qilayotgan obyektida uni nima qiziqtirayotgani va qaysi alomat o'ziga tortayotganining sababi noaniqligidir.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina ro'yobga chiqadi. Shu bois, ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, malaka ko'nikmalarni egallash va umuman biror narsani o'rganish uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart. Odatda, bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, *tashqi* va *ichki* degan atamalarni yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi.

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan hisoblanib, unda bevosita insonning individual xususiyati mujassamlashgan bo'ladi. *Qiziqish – insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu-umidlari bo'lib, uning shakllanishida bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.*

Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror anglagan holda o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, shaxsning qobiliyatini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tuman shakllariga ijodiy yondashishni vujudga keltirishga yordam beradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishini shakllantiradi.

QIZIQISH TURLARI			
MAZMUNIGA KO'RA	MAQSADIGA KO'RA	KO'LAMIGA KO'RA	DARAJASIGA KO'RA
IJTIMOIIY-SIYOSIIY INTELLEKTUAL ESTETIK SPORT	BEVOSITA BILVOSITA	TOR KENG	BARQAROR BEQAROR

Har qaysi yakkahol shaxsda ishchanlik, g'ayrat-shijoat, yegilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi.

Qiziqishlar sodir bo'lsa inson ruhiyatida o'zgarishlar sodir bo'ladi. *Birinchi holda o'z diqqatini shu narsaga qaratadi. Diqqatning to'planishi*

va barqarorligini saqlab turishda kishining qiziqishlari katta ahamiyatga egadir. Ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi, asosan, kishining ayni faoliyatiga bevosita qiziqishiga, ishtiyoqiga bog'liq.

Qiziqish psixologik mohiyatining *dastlabki ko'rinishi* – bu uni odamlar tomonidan anglab yetishi yoki tushunish imkoniyatidir. Shaxs qiziqish mahsulini, uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqaligina obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli, tanlab munosabatda bo'ladi. Psixologik mohiyatining *ikkinchi ko'rinishi* – uning his-tuyg'ular, emotsional holatlar bilan uyg'unlashgan, mujassamlashgan tarzda ifodalanishidadir. Inson o'z shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyingina unda yoqimli his-tuyg'ular uyg'onadi, ruhiy qoniqish, o'z navbatida, lazzatlanish (praksik) hissi vujudga keladi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining *uchinchi ko'rinishi* – bu uning iroda sifatleri, iroda akti bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo'r berish, muayyan qaror bo'yicha intilish, ba'zi qiyinchiliklarni yengish, mustaqillik namoyon qilish qiziqishni qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari yetaklaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining *to'rtinchi ko'rinishi* – bu uning oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir.

Qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to'g'risida mulohaza yuritilganda, dastavval rus olimi I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotini eslab o'tish joiz. Uning „bu nima?“ refleksi, ya'ni oriyentirovka (mo'ljal olish) refleksi qiziqishning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda qiziqish shaxsning individual-psixologik xususiyatidan iborat, degan xulosa odatiy bo'lib qoldi. Shunga qaramay, ba'zi manbalarda qiziqishga muayyan soha bo'yicha to'g'ri mo'ljal olishga, yangi omillar bilan tanishishga, voqelikni to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir, degan ta'rif ham beriladi. Shunga mutanosib tarzda qiziqish bilish jarayoni sifatida o'rin egallab, u ijobiy his-tuyg'ularda yo'naltirilgan obyekt bilan chuqurroq tanishish, u haqda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, uning mohiyatini anglab yetish borasida shaxsning istagida namoyon bo'ladi, degan mulohazalar ham mavjuddir.

Shaxs nimalarga qiziqadi, uning bilish ehtiyojlari obyektining ijtimoiy qiymati qanday? *Insonning shaxsiy qiziqishining kelib chiqishi birlamchi bo'lishiga qaramay, u bir davrning o'zida ijtimoiylik aha-*

miyatiga ham ega. Uning kasbiy faoliyatiga qiziqishi oxir-oqibat jamiyat uchun naf keltirishi, ravnaqi uchun qimmatlidir. **Ijtimoiy xususiyatli qiziqishlar** keyinroq borib shaxsiy ahamiyat kasb etishi muqarrar. Chunki umumiylik – ijtimoiylik bilan xususiylik – shaxsga oidlik bilan, uyg'unlashgan holda mavjud bo'ladi va ular bir bosqichdan boshqa bir bosqichga avtomatik ravishda o'taveradi yoki ular doimo o'rin almashib turadi. Shaxs o'z qiziqishi tufayli biron-bir narsani kashf etsa, individual ehtiyojini qondiradi, shunday bo'lsa-da, jamiyat, jamoa uchun ishlab chiqarishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, jamiyatning, jamoaning eng dolzarb vazifalaridan biri – yoshlarni mustaqil, faol bilishga, ijtimoiy ahamiyatga ega mehnat faoliyatiga qiziqish uyg'otishdan iboratdir. Toki ularda jiddiy, mazmunli, jamiyat tomonidan rag'batlantiruvchi, mehr-muhabbatga sazovor qiziqishlar shakllansin.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo'lishiga qarab aniqlanadi. *Bevosita qiziqishlar voqelikning, jism va hodisalarning emotsional jozibaliligi, his-tuyg'ularga ega bo'lishligi, tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi tufayli vujudga.* Bilvosita qiziqishlar esa mehnat faoliyati yoki ta'lim olish jarayonining muayyan ijtimoiy ahamiyati bilan uning shaxs uchun subyektiv ahamiyati o'zaro mos tushganida bilvosita qiziqish yuzaga keladi.

Odamlarning qiziqishlari o'zining ko'lami bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday shaxslar toifasi ham mavjudki, ularning qiziqishlari birgina sohaga qaratilgan bo'ladi. Boshqalarida esa qiziqishlar qator sohalarga, fanlarga, obyektlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Lekin turli sohaga qiziqishlarning biri ikkinchisiga salbiy ta'sir etishi mumkin emas, agarda ularni oqilona boshqarish imkoni bo'lsa. *Qiziqishning torligi ko'pincha salbiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, lekin, ayni chog'da, ularning haddan ortiq kengligi ham nuqson tariqasida tahlil qilinsa bo'ladi. Biroq shaxsning barkamol shaxs bo'lib kamol topishi qiziqishlar ko'lamini tor emas, balki keng miqyosda bo'lishini taqozo etadi.*

Qiziqishlar o'zlarining darajasiga qarab **barqaror va beqaror** turlarga ajratiladi. *Barqaror qiziqishga ega bo'lgan shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan buyumlariga, obyektlariga, hodisalarga o'z maylini hech o'zgarishsiz saqlab tura oladi. Shu bois, inson ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, shaxsning ruhiy fazilatiga aylana boshlagan qiziqishlar barqaror qiziqishlar deyiladi.* Barqaror qiziqish shaxs qobiliyatining rivojlanganligidan darak beradi. Shu nuqtayi nazardan

mazkur qiziqish tashxis qiluvchanlik xususiyatiga ham ega. Biroq insonlarda barqaror qiziqishning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun ularning mehnat faoliyati va o'quv jarayonidagi qiziqishlarining tashqi ifodasini atroflicha o'rganishga to'g'ri keladi. Odatda, qiziqishning tashqi ifodasi shaxsning o'ziga o'zi baho berish, o'zini o'zi tahlil qilish faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Barqaror qiziqish to'g'risida mulohaza yuritilganda, uning boshqa tarkibiy qism va qirralarini hisobga olish lozim, chunki bu narsa ko'p jihatdan shaxsning irodaviy sifatlari, xarakterining vazminligi bilan bog'liq.

Qiziqishning barqarorligi uning jadal tarzda namoyon bo'lishi hamda uzoq davom etishi bilan ifodalanadi. *Shaxsning zaruriy ehtiyojlarini yuksak darajada aks ettiradigan, shuningdek, uning psixologik tuzilishiga xos xislatlarga aylanib boradigan qiziqishlari barqaror qiziqish deyiladi.* Barqaror qiziqish qobiliyatning bir ko'rinishiga o'xshashli bo'lib, maqsadga yo'nalganligi bilan ham muhim individual, ham ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Qiziqishlarning ba'zi holatlarda beqaror bo'lishligi insonlarning yosh, jins, tipologik xususiyatiga ham bog'liqdir. Bunday toifadagi kishilarda qiziqishlar g'oyatda ehtirosli kechadi, biroq u qisqa muddatli bolishi mumkin. Masalan, bir vaqtning o'zida ular bir nechta fanlarga, tabiat hodisalariga qiziqadilar, barcha narsaga ishtiyoq bilan yondashib, muammoning mohiyatiga chuqur kirib bormay, boshqa holatlar bilan mashg'ul bolib ketadilar. Bunday xususiyatli shaxslar mashg'ulotlarga qanchalik tez kirishgan bo'lsalar, qiziqishlari shunchalik tez so'nadi.

Shaxsdagi qiziqishlarni rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ularning negizini tashkil etadigan faoliyat bilan mashg'ul bolishga, maqsadga muvofiq shug'ullanishga mayl uyg'otishga puxta zamin hozirlash zarur, toki qiziqishlar motiv, ehtiyoj, e'tiqod funksiyasini bajarishga aylansin.

Shunday qilib, qiziqishlar – shaxs faoliyati asoslarining tanho yo'nalishi boyimasa-da, ammo uning eng muhim jihati hisoblanadi.

Psixologiya faning so'nggi ma'lumotlariga asoslangan holda qiziqishni bir necha darajalarga ajratish mumkin:

a) sinchkovlik; d) bilishga qiziqish;

b) qiziquvchanlik; y) turg'un yoki kasbiy qiziqish.

Sinchkovlik qiziqishning biror narsaga kuchli intilishdan iborat qisqa muddatli turi yoki darajasidir.

Qiziquvchanlik shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, ularni bilishga faol munosabatidan iborat darajasidir. *Bilishga qiziqish* anglashilgan darajadagi, maqsadga muvofiqlashgan, jismoniy va aqliy faoliyatning yangi qirralarini egallashga yo'naltirilgan turidir.

Turg'un qiziqish shaxsning kasbiy ko'nikmalar, malaka va bilimlarni egallashga yo'naltirilgan, kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan uyg'unlashgan, maqsadga erishish yo'lida faollik ko'rsatuvchi turidir.

Tayanch iboralar:

ehtiyoj, motiv, ustanovka, qiziqish, havas, qiziquvchanlik, shaxsiy, ijtimoiy, bilvosita, bevosita, barqaror, beqaror, sinchkovlik, turg'unlik.

Mustahkamlovchi savollar:

1. Inson va hayvon ehtiyoji o'rtasidagi farq.
2. Tabiiy va madaniy ehtiyoj tushunchalari.
3. Moddiy va ma'naviy ehtiyojlar haqida tushuncha.
4. Ustanovka deb nimaga aytiladi.
5. Mayl-istaklar tushunchasining ta'rifi.
6. Qiziqish xususiyatining ahamiyati.
7. Qiziqish turlari.
8. Inson ruhiyatida qiziqishning hosil bo'lishi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Oila a'zolari va o'rtoqlarini kuzatib, qiziqishlarini aniqlashga o'rganish.
2. Kasbga aylangan qiziqishlardan jonli misollar keltirish.

QOBILIYAT

O'qituvchi maktab o'quvchilarini kuzatib, ulardan bir xillari o'qishga qobiliyatli, boshqalari kamroq qobiliyatli bo'ladi deb hisoblar ekan, bu gapda jon bor. Shunday bo'ladiki, o'quvchi matematika-ga qobiliyatli bo'ladi-yu, lekin o'zining og'zaki va yozma nutqini yaxshi ifodalay olmaydi yoki tillarga, adabiyotga umuman gumani-tar fanlarga bo'lgan qobiliyatini namoyon etadi, biroq matematika, fizika, texnikani o'rganish unga qiyinlik qiladi.

Qobiliyatlar deb shunday psixik sifatlarga aytiladiki, kishi ular yordamida bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab oladi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Idrok etish paytida, masalan, ranglarning tovlanishidagi nozik farqlar, predmetlarning aniq ko'rinishi, nisbatlarni tushunishi (rassomlar ishida) absolyut eshitish (musiqa bilan shug'ullanishda) kuzatuvchanlik (juda ko'p faoliyat turlarida) va hokozalar ayon bo'ladi. Ayrim qobiliyatlar xotiraning yaxshi ishlashi bilan bog'liqdir. (masalan, o'quv materialini tez va mustahkam o'zlashtirib olish, uni oson va aniq takrorlash qobiliyati). Kishining fikrlash faoliyatida (materialni tushuntirish, murakkab masalalarni hal qilish, fikrning chuqurligi, tanqidiy, mulohazokorlikda) qobiliyatlar yoqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi ixtirochining mehnatida ayniqsa zarur bo'ladigan ijodiy xayol ham qobiliyatlar uchun katta ahamiyatga ega.

Qobiliyatlilar bilimi, malaka va ko'nikmalardangina iborat emas (garchi ular asosida paydo bo'lib va rivojlanib borsa ham). Shuning uchun o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashda, bolaning biror narsani sust bilishi unda qobiliyatning yo'qligida deb hisoblamaslik uchun juda ehtiyot bo'lish va xushmuomalalik bilan ish ko'rish kerak. Bunday xayollar ba'zan biror sabab bilan maktabda yaxshi o'qimagan bo'lajak yirik olimlarga nisbatdan ham yo'l qo'yilgan. Xuddi shu sabab bilan past qobiliyatlarni emas, balki bilimlardagi kamchiliklarni isbotlab beradigan ayrim xususiyatlar asosida qobiliyatlar to'g'risida xulosa chiqarish to'g'ri emas.

Qobiliyat turlari umumiy va maxsus bo'ladi. *Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda, kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Umumiy qobiliyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar ishlab chiqarishda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladigan, ayniqsa bizning mamlakatimizda, jismoniy mehnat ishida ham qobiliyatlar nomoyon bo'laveradi.*

Ko'pgina olimlar qobiliyatlar tug'ma bo'ladi va avloddan-avlodga o'tib turadi, deb, hisobladilar. Bu ta'limot tarafdorlarining da'vo qilishicha unchalik qobiliyatli bo'lmagan ko'pchilik orasidan layoqatli kishilar kam bo'ladi, bu kishilarning qobiliyatlari avloddan-avlodga o'tib keladi.

Lekin qobiliyatlar to'g'risida bunda butunlay qarama-qarshi nuqtayi nazar ham mavjud bo'lib, bu nuqtayi nazar tug'ma layoqatlarni to'lato'kis inkor qiladi va hamma narsa faqat tarbiyada, hamma kishi voyaga yetib, rivojlangan, ishlayotgan shart-sharoitga bog'liq deb hisoblaydi.

Bu ta'limotni ham to'g'ri deb hisoblab bo'lmaydi. Agar mantiqan ish ko'riladigan bo'lsa, bu nazardan muvofiq, har bir kishida huddi Pushkinda bo'lgani kabi poetik talantni yoki Repinda bo'lgani kabi ta'sviriy san'atda qobiliyatni taraqqiy ettirish mumkin bo'lar edi.

Olimlar qobiliyatlarni miya va sezish organlarining tuzilishiga bog'liq, ular har xil kishilarning tug'ilgan vaqtdanoq turlicha bo'ladi, deb hisoblaydilar. Har bir kishida *tug'ma layoqat nishonalari, ya'ni miyyaning, oliy nerv faoliyatining, analizatorlarning o'ziga xos xususiyatlari bor bo'ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyat rivojlantirishda bo'lgan muayyan moyillik* ana shunga bog'liqdir.

Tabiiy anatomik - fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarini majmuyi kishining iste'dodi deyiladi.

Lekin bu tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning to'la to'kis shart-sharoiti bo'la olmaydi, layoqat nishonalarini rivojlantirish kerak, bu esa faoliyat jarayonidagina ro'y berishi mumkin.

Bundan tashqari, layoqat nishonalari ko'p qiymatlidir, ya'ni tegishli sharoitlar mavjud bo'lganda, faoliyatga qarab layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlarni rivojlanishi mumkin. Masalan: yaxshi eshitish va ohangni sezish qobiliyati mavjud bo'lganda bir kishi kompazitor, tanqidchisi va hokozolar bo'lib, agar kishi tegishli faoliyat bilan shug'ullanmasa, bu imkoniyatlarni "uyg'otish", aniqlash ulardan foydalanish mumkin emas. Bunday mashg'ulotlar uchun ijtimoiy shart-sharoit: moddiy ta'minot, muayyan faoliyatga undovchi tevarak atrofdagi muhit, o'qish imkoniyati va hokozolar zarur bo'ladi. Rus olimi V.G.Belinskiy, odatni tabiat yaratadi, lekin uni jamiyat rivojlantiradi va unga ta'lim beradi, deb yozgan edi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs aldanib o'zidagi iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz inson bo'lib ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri angalay olmagan sabab bo'lib, u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

Qulay sharoitlar mavjud bo'lganda ayrim kishilarda qobiliyatlarni juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy san'atga bo'lgan layoqat ancha ertaroq paydo bo'ladi. Masalan, M. I. Glinka 3-4 yoshdayoq musiqa asboblarning ovozi juda yoqtirgan: u ovoz chiqaradigan turli buyumlarni (mis, tog'ora, kostryulka) yog'och bilan

chalgan. Bunda kattalarni hayron qoldiradigan darajada ohangdosh tovushlar paydo bo'lganki ularni eshitish maroqli edi. Keyinchalik bu bola buyuk rus kompozitori bo'lib yetishdi.

Bolalarda muzika va tasviriy san'atga bo'lgan layoqatni, bir muncha o'quvchilarda esa adabiy qobiliyatlarni paydo bo'lishini lekin ayrim insonlarda esa texnikaga yoki tabiatni o'rganishga bo'lgan moyillikni ko'rishimiz mumkin. Ba'zi insonlarda esa bu qobiliyatlar juda erta uyg'onishini ko'rishimiz mumkin. Masalan: G'azal mulki-ning sultoni o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiy olti yoshdan boshlab, rus shoiri Pushkin, Lermontov va Nekrasov o'n yoshga to'lmasdan oq she'r yoza boshlaganlar.

Kishilarning layoqatlari ancha erta paydo bo'lib, ular biror sohada talantli arboblardan bo'lib yetishganliklarini ko'rsatuvchi ko'pgina misollarni keltirish mumkin. Odatda barcha fanlarda yaxshi va qiy-nalmay o'qiydilar. Maxsus qobiliyatli kishiga qandaydir bir muay-yan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beradi. Masalan, matematik, texnikaviy, adabiy, musiqaviy, tasviriy, badiiy va boshqa qobiliyatlar bo'ladi.

Biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli mustaqil va orginal tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo'r qobiliyatlar birikmasi iste'dod (talant) deyiladi. Ijodiy faoliyatga qobiliyatli bo'lgan kishilarni talantli kishilar jumlasiga kiritish mumkin. Bunday kishilar ijtimoiy munosabatlar sohasida o'z davrining progressiv g'oyalarni juda muvaffaqiyatli ravishda amalga oshiradilar, adabiyot va san'at sohasida hozirgi zamonning ilg'or tafakkuri darajasidagi mukammal asarlarni yaratadilar, fan va texnika sohasida murakkab nazariy va amaliy vazifalarni yaxshi hal etadilar. Har bir ongli inson o'zida qobiliyat va zehni ustida ilk yoshlikdan boshlab "yuragi chopgan" ish bilan shug'ullansa va undan qoniqish olib qobiliyatni o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. *Iqtidor – insonning o'z xatti-harakati bilimlar, imkoniyatlar, malakalarga nisbatan subyektiv munosabat.* Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo'lib, ishni sidqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zan o'ta iste'dodli, lekin kam harakatli kishilardan ko'ra jamiyatda ko'proq foyda keltiradilar. Iqti-dorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor.

Talantlilikning yuqori bosqichi daholar (geniallilik) deb ataladi. Ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san'at, va shu kabi sohalarda prinsipial ravishda yangi bo'lgan biror narsa yaratgan kishilarni daholar deb ataganlar.

Daho kishi ijodining mahsullari faoliyatning biror sohani rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Geniy kishilar insoniyat tariq-qiyotida yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladilar, tarixiy shaxslar bo'ladilar. Bizning vatanimiz ko'pgina talantli olimlarga, yozuvchilarga ega bo'lib keldi va egadir. Bularga Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al Xorazmiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur kabi mutafakkirlarni misol qilib olishimiz mumkin. Shular jumlasidan ajoyib yevropalik olim Leonardo dainchini kiritish mumkin. U rassom, xaykaltarosh, arxitektor va boshqa fanlar sohasida favqulodda qobiliyatlarini namoyon qilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, kishining qobiliyatlari uning mayllari bilan mahkam bog'liqdir. Shuning uchun biror narsa bilan shug'ullanishda qiziqish, unga berilish ko'pincha faoliyatning ana shu yo'lida bo'lgan qobiliyatlarning mavjudligiga guvohlik beradi.

Qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti faoliyatda bo'lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Ishlashni yoqtirmaydigan, aqliy mehnatdan ham, jismoniy mehnatdan ham, o'zini olib qochadigan dangasa kishilarda qobiliyatlar rivojlanmaydi.

O'z faoliyatida katta muvaffaqiyatlarga erishgan barcha atoqli kishilar qobiliyatlarini rivojlantirish uchun jiddiy mehnat qilishning ahamiyati haqida gapiradilar. Talant deydi rus avto konstruktor A.S. Yakovlev - ollohning in'omi emas..... *"Bu avvalo sabr-toqatga ko'paytirilgan, mehnat, mehnat va yana bir karra mehnatdir"*.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida har bir pedagog o'quvchilarga muayyan fanlardan bilimlar berish, malaka hosil qilish, ularning his va irodasiga ta'sir etish bilan bir qatorda, ularning har biri jamiyatda munosib o'z o'rniga ega bo'lishi, buyuk daho darjasiga ega bo'lishlari uchun tinmay o'z ustilarida ishlashlari lozim ekanligini ular bilishlari kerak.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha davlat ishlari sobit qadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli o'smir va o'spirin yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularni qobiliyatlarini va iste'dodlarini rivojlanti-

rish uchun fondlar tashkil etildi. Qobiliyatli yoshlarni yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish ishlari yo'llarga qo'yildi. Bolalarning oilada tarbiyalashni tashkiliy psixologik-pedagogik uslubiy jihatdan ta'minlash, o'quvchilarni imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, sohashtirish, tabaqalashtirish kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlaydi.

Tayanch so'zlar:

Qobiliyat, layoqat, umumiy qobiliyatlar, maxsus qobiliyatlar, iste'dod, daholik, iqtidor.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Qobiliyat deb nimaga aytiladi?
2. Layoqat nima?
3. Iste'dod va iqtidor haqida tushuncha bering, farqi nimada?
4. Qobiliyatlarni rivojlantirish yo'llari.

Mavzu yuzasidan mustaqil topshiriqlar:

1. Guruh o'quvchilarini kuzatish va ulardagi qobiliyatlarni aniqlash.
2. Oila a'zolarini o'rganish va ularning qobiliyatlarini aniqlash.

TEMPERAMENT

O'quvchilar bir-biridan psixik xususiyatlari jihatidan farq qiladilar. Buni avvalo o'quvchilarning induvidival xususiyatlari, ularning temperamenti bilan tusnuntirish mumkin. Temperament kishining yurishida ham, mimikasida ham, tafakkur faoliyatining xususiyatlarida ham namoyon bo'ladi. Temperament kishining butun faoliyatiga va xulqiga individual tus beradi.

Temperament – bu shaxsning psixik jarayonlari sodir bo'lishi dinamikasida, umumiy harakatchanligi va emotsional qo'zg'aluvchanlikda ro'yobga chiqadigan individual xususiyatlardir.

Oily nerv faoliyati tiplari haqidagi ta'limot temperamentning fiziologik asosidir.

Qadimgi grek olimi va tabiatshunosi *GIPPOKRAT* (er.av.460-356 yillar) temperament kishi organizmida qon, balg'am, sariq yoki qora o'tning qanday nisbatdan aralashganiga bog'liq, deb hisoblagan. *Temperament* so'zi "*temperamentum*" so'zidan olingan bo'lib "*nis-*

batning aralashmasi, qorishmasi” ma’nosini anglatadi. Keyinchalik ba’zi bir olimlar kishilarning temperamentini endokrin bezlarining faoliyatidagi farqlar, yurak faoliyatining xususiyatlari, qon tomirlari tuzilishidagi farqlar, qonning kimyoviy tuzilishidagi tafovutlar, gavda tuzilishdagi xilma-xillik bilan tushuntirishga harakat qiladilar. Biroq temperamentning fiziologik asosi to’g’risidagi masala I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta’limotidagina birinchi marta ilmiy asosda tushuntirib berildi.

TEMPERAMENT TURLARI			
SANGIVINIK MUVOZANAT- LASHGAN	XOLERIK MUVOZANATSIZ	FLEGMATIK INERT	MELANXOLIK KUCHSIZ
NERV SISTEMASINING TIPLARI			

Nerv sistemasi xilma-xil xususiyatlarning yig’indisi asosida, nerv sistemasining to’rtta tipi ko’p uchraydi.

1. Kuchli, muvozanatsiz (tinib-tinchimas) tip – xolerik temperamentini asosini tashkil etadi.

2. Kuchli, muvozanatli, harakatchan tip – sangvinik temperamentini asosini tashkil etadi.

3. Kuchli, muvozanatli, inter, (sustkash) – flegmatik temperamentini asosini tashkil etadi.

4. Kuchsiz (qo’zg’alish va tormozlanish jarayonlarining kuchsizligi bilan xarakterlanadi) melanjolik tip.

Temperament tiplarining tavsifnomasi.

Xolerik temperament. I.P.Pavlov xolerik temperamentli kishining qiyofasini ta’riflar ekan, bu “*Jangovar, jo’shqin, oson va tez ta’sirlanadigan tip*” deb yozadi.

XOLERIK TIPINING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI		
IJOBIY XISLTLARI	SALBIY XISLTLARI	PSIXOLOGIK YONDASHUV
Qiziquvchan, qat’iyatli, shijoatli, g’ayratli, hissiyotlari boy, toliqmaydi, intiluvchan, diqqati barqaror, diqqatni ko’chirish qiyin	Betoqat, serzarda, tinimsiz, shoshqaloq, o’zini tuta olmaydi, intizomga chaqirish qiyin, sezgirligi kam	Qiziqtirish kerak, muomalani yaxshilab nazoratni bo’shashtirmaslik, faoliyat bilan band qilish lozim, shoshmaslikka o’rgatish
KUCHLI, MUVOZANATSIZ, EPCHIL		

Xolerik temperamentli kishi ishga zo‘r ishtiyoq bilan kirishishi mumkin, ikkinchi tomondan qandaydir ahamiyatsiz sabablarga ko‘ra yomon kayfiyat, sustlik sodir bo‘lib ishni oxirigasha yetkazmaslik holatlari sodir bo‘ladi. Qiziqsa ishga butun vujudi bilan kirishadi, darsda doim qo‘l ko‘taradi, lekin shoshqaloqlik bilan yaxshi javob bera olmaydi. Tez qo‘zg‘aluvchanligi, sust hayajonlanishi bilan ajralib turadi. Unga baqirishlarga toqat qilmaydi. U ham baqira boshlaydi yoki koridorda yugurib yurganini yoki bolalar bilan urishayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Sangvinik temperamenti. I.P.Pavlov uni shunday deb xarakterlaydi “*Sangvinik – qiziqqon, mahsuldor, arbob.*” Lekin u ko‘p va qiziqarli ishlar mavjud bo‘lsagina, ya’na doimiy qo‘zg‘alish payitidagina shunday bo‘ladi. Agar bunday ishlar bo‘lmasa, u noxush, lanj bo‘lib qoladi. “Sangvinik – harakatchan, muvozanatli tip.

SANGVINIK TIPINING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI		
<i>IJOBIY XISLAMLARI</i>	<i>SALBIY XISLAMLARI</i>	<i>PSIXOLOGIK YONDASHUV</i>
Nutqi tez, g‘ayratli, ishchan, faol, darslarda tez qo‘l ko‘taradi, topqir, quvnoq, diqqatli, charchamaydi, intizomga chaqirish oson	Sezgir emas, arzimagan narsalarga kulaveradi, muhim bo‘lmagan faktga jahli chiqadi, qiziqishi so‘nsa ishni oxiriga yetkazmaydi	Faoliyatni natijasini tekshirish, o‘z hissiyotlarini jilovlashga o‘rgatish
KUCHLI, MUVOZANATLI, EPCHIL		

U yangi sharoitlarga tez moslashadi, kishilar bilan tez til topishib ketadi, dilkash. His-tuyg‘ulari yengillik bilan paydo bo‘ladi va o‘zgaradi, mimikasi boy, harakatchan, ifodali. U quvnoq, unda g‘am va qayg‘uli damlari bo‘lsa ham ko‘pincha quvnoq yuradi.

Ammo bu kayfiyatlardan tez qutiladi. Sangvinikda vaqtli bog‘lanishlar tez va osonlik bilan hosil bo‘ladi, demak dinamik stereotipning buzilishi va qaytadan hosil qilinishi osonroq bo‘ladi.

Flegmatik temperamenti. I.P.Pavlov shunday deb yozadi: “*Flegmatik hayotning osoyishta diomo bir xildagi savodli va tirishqoq mehnatkashdir*”. Flegmatikda shartli reflekslar sekin hosil bo‘ladi-yu, lekin barqaror bo‘ladi.

Hissiotlari ham sekin paydo bo'lsada, barqaror va davomli bo'ladi. Odatda vazmin va yuvvosh, uning jahlini chiqarish qiyin, affektlarga moyil emas.

Biroq bu temperamentning xususiyatlari hayotida turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim sharoitlarda ijobiy xislatlar: o'zini tuta bilish, sovuqqonlik, fikr teranligini tarbiyalashi mumkin. Boshqa bir sharoitlarda esa sustlik va tevarak-atrofdagi narsalarga beparvolik bilan qarash, yalqovlik va irodasizlik hollari bo'lishi mumkin.

FLEGMATIK TIPINING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI		
<i>IJOBIIY XISLATLARI</i>	<i>SALBIY XISLATLARI</i>	<i>PSIXOLOGIK YONDASHUV</i>
Og'ir, vazmin, osoyishta, diqqati barqaror, faoliyatni oxirigacha bajaradi, qiziqishlari turg'un, chidamli, matonatli, ishchan	Harakati sust, nutqi sekin, diqqatini sekinlik bilan to'playdi, rigid (qotib qolgan), faol emas, diqqatni qiyinlik bilan ko'chiradi, beg'am, emotsiyasi kam, sezgirmas	Ko'p faollashtirish kerak, faoliyatga undash lozim, beg'amligini jonkuyarlikka almashtirish lozim
KUCHLI, MUVOZANATLI, SUST		

Melanxolik temperamenti. "Hayotda yangi sharoitlarga tushib qolganda o'zini juda yo'qotib qo'yadi" deb qayd qilgan edi Pavlov. Melanxolikning reaksiyalari ko'pincha qo'zg'ovchining kuchiga to'g'ri kelmaydi.

Uning tashqi tormozlanish ayniqsa kuchli. Shuning uchun melanxolik diqqatini boshqa narsaga tortish oson. U har doim ham diqqatni bir obyektga to'play olavermaydi. Hayotdagi normal sharoitlarda va to'g'ri tarbiya natijasida melanxolik jiddiy, hayotiy voqealarga osonlik bilan bardosh bera oladigan kuchli bo'la oladi.

MELANXOLIK TIPINING PSIXOLOGIK TAVSIFNOMASI		
<i>IJOBIIY XISLATLARI</i>	<i>SALBIY XISLATLARI</i>	<i>PSIXOLOGIK YONDASHUV</i>
Sezgirligi o'tkir, samimiy, kamtarin, uyatchan, intizomli, mas'uliyatli	Arazchi, tez yig'laydi, sust, ishonchsiz, tortinchoq, g'ayratsiz, qat'iy emas, tez toliqadi, ishchan, faol emas, diqqati tez chalg'iydi	Dalda berib o'z ishonchini oshirish, faollashtirish, diqqatini barqarorlashtirish
KUCHSIZ		

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordamida aniqlashi mumkin:

1. **Senzitivlik** (lotincha – *sensus*, sezish, his qilish). Insonda biron-ta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur, o'ta kuchsiz sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerakli qo'zg'ovchining o'zigina kuchi, ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi mujassamlashadi.

2. **Reaktivlik**. Aynan bir hil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki ta'surotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishga qarab munosabat bildiradi. Reaktivning yorqin ro'yobga chiqishi – emotsionallik, ta'sirlanuvchanlikning ifodalanishi.

3. **Faollik**. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir ko'rsatishi va maqsadlarini amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishga qarab fikr yuritiladi.

4. **Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati**. Bunda odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga qarab, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favqulodda hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. **Reaksiya tempi**. Bu turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur'atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6. **Harakatlarning silliqli va unga qarama-qarshi sifat *rigidlik* (qotib qolganlik)**. Shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik yengillik va chaqqon muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va qotib qolganligiga baho berishdan iboratdir.

7. **Ekstravertirovanlik va intravertirovanlik**. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan nimalarga bog'liqligiga, chunonchi, favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertirovanlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (intravertirovanlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

O'quvchilar temperamentning xususiyatlari va ularni ta'lim-tarbiya ishida hisobga olish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida doimo bolalarga individual yondashish zaruriyati paydo bo'ladi. Temperamentning asosiy xususiyatlarini

bilish o'qituvchi va tarbiyachi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarda eng samarali usullarni topish hamda ulardan foydalanish, temperamentning ijobiy tomonlarga burish va salbiylarga qarshi kurashish imkonini beradi.

Sangvinik – quvnoq, qiziquvchan, jamoatchi, o'rtog'lariga mahribon, lekin beqarorlik mavjuddir. O'qituvchining asosiy g'am-ho'rliigi unda o'zini tuta bilish, sabotlilik, diqqat-e'tiborlikda tarbiyalash.

Xolerik – faol harakatchan, qiziquvchan, zo'r ishtiyoq bilan faoliyatni bajaradi. Lekin qo'pollik, o'zini tuta bilmaslik sifatlari bor. Ularda tormozlanish mexanizmlarini, diqqatini ko'chish xususiyatini tarbiyalash zarur. Haddan tashqari maqtab yuborish juda xavfli. Ba'zan ularning o'zlari ham o'zlariga ortiqcha baho berishga moyildir. O'qituvchi ularni ishga jalb qila olishi, xotirjam jazolash va buyruq berish mumkin.

Flegmatik osoyishta, vazmin, ba'zan o'zlashtirishda orqada, jamoga ham aralashavermaydi. Lekin bir ishga qiziqsa oxirigacha bajaradi. O'qituvchi ulardagi sustkashlikni yo'qotish, jadal harakat qilish ko'nikmasini tarbiyalashi, fikrlash xatti-harakatlari tezligini tarbiyalashga imkon beradigan topshiriqlar bajarishga jalb qilish lozim.

Melanxolik – ta'sirchanlikni, tez charchashlari bilan boshqalardan farq qiladilar. Ular tortinchoq, tez hafa bo'luvchi, o'ziga ishonmaydigan o'quvchi. Unga o'qituvchi g'amxo'r bo'lishi, samimiy, vazmin muomalaga kirishi, dalda berishi muhimdir.

Shunday qilib, o'qituvchilar qo'zg'alish jarayoni ustun turadigan, shuningdek, nerv sistemasi kuchsiz bo'lgan bolalarga alohida e'tibor berishlari zarur. Temperament ba'zan "niqoblanish" hollarini ham e'tiborga olishlari kerak. Kishining hayoti va faoliyati davomida hosil qilingan muvaqqat bog'lanishlarning sistemasi "Temperamentni qo'llab ketadi".

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

temperament, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, reaktivlik, faollik, reaksiya tempi, harkatlarning silliqligi, rigidlik, ekstravertirovanlik, intravertirovanlik.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Temperament deb nimaga aytiladi?
2. Temperament so'zining ma'nosi.
3. Gippokrat kim va uning ta'limoti qanday?
4. Pavlov ta'limoti nimalardan iborat?
6. Temperament tiplarining xususiyatlarini aytib bering?

Mustaqil topshiriqlar:

1. Temperament ayrim psixik jarayonlarning sodir bo'lishiga qanday ta'sir qiladi. Aniq misollar keltiring.
3. Temperament jihatdan turlicha bo'lgan bir qancha o'quvchilarni kuzatish hamda ularning xulqiga qiyosiy xarakteristika bering.
4. Temperamentning namoyon bo'lishiga doir misollar keltiring.

XARAKTER

Kishi jamiyatda yashab, biror faoliyat bilan shug'ullanar ekan, o'zini shaxs sifatida namoyon qiladi. O'zining atrofidagi muhitga, odamlarga, o'z ishiga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ba'zan ana shu munosabatning ko'rinishlari odatdan tashqari, tasodifiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan: maktab o'quvchisi o'z o'rtoqlari uchun kutilmaganda arzimagan narsadan jahli chiqib ketadi. O'rtoqlari uning bu xulqidan taajjublanadilar, chunki odatda bu bola yuvvosh, xushmuomala edi. Uning uchun qo'pollik tipik hodisa emas edi. Boshqa bir o'quvchi ko'pincha atrofdegilar bilan keskin va qo'pol muomalada bo'ladi. Bu narsa uning uchun individual bo'lgan barqaror, bir necha marta takrorlangan xususiyat bo'lib, bu uni shaxs sifatida xarakterlab beradi. Shuning uchun mazkur xususiyatni uning xarakteriga xos bo'lgan xususiyatdan biri hisoblash mumkin.

Jamiyat a'zosi bo'lgan, voqealikka bo'lgan munosabati asosida vujudga keladigan va uning xulq-atvori hamda xatti-harakatida namoyon bo'ladigan muhim, barqaror psixik xususiyatlar majmuyi xarakter deyiladi.

Ba'zan "xarakter" degan so'z bilan iroda kuchini, qat'iylikni yoki boshqa kishilar bilan muomala qiladigan keskinlikni ifodalaydilar. Aksincha irodasi zaif kishini "xaraktersiz kishi" deb aytadilar.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu ta'riflar noto'g'ridir, chunki "xaraktersiz" kishida ham xarakter bor.

Xarakter hamisha shaxsning o'ziga xos bo'lgan sifatlarni belgilab beradi. Shuning uchun ham xarakter kishining biror hayotiy vaziyatda, sharoitda o'zini tutish oldidan ko'rish imkonini beradi.

Xarakter tug'ma bo'lmaydi. Faqat layoqat nishonalari tug'ma bo'lishi mumkin, ular nerv sistemasining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham xarakter esa muayyan jamiyat a'zosi bo'lgan kishining hayoti jarayonida tarkib topadi.

Xarakterdagi ko'p narsa kishining dunyoqarashiga, uning e'tiqodi va g'oyasiga, ijtimoiy ahvoliga, atrof-muhitning ta'siriga bog'liq bo'ladi. Kishi o'z xarakteri va individual xususiyatlari bilan hamisha jamiyat mahsulidir. Turli ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan kishilarning xarakteridagi farqlarni sababi ana shundadir.

Xarakter shaxsning individual xususiyatlaridir. Xarakterlari mutlaqo bir xil bo'lgan ikki kishini topib bo'lmaydi, lekin ayrim kishining xarakteridagi ko'p narsa bir guruh kishilar uchun yoki butun jamiyat uchun tipik bo'lishi mumkin. Salbiy xislatlar uchun xudbinlik, boylik orttirishga, jamiyatda ustun mavqega ega bo'lishga intilish, jismoniy ishga nafrat bilan qarash kabilar kiradi.

Adabiy asarlarning ko'pgina qahramonlari xarakterning muayyan tipik xususiyatlarini shu qadar chuqur va to'g'ri aks ettiradilarki, ularning otlari turdosh otga aylanib qoladi.

Xarakterning nerv-fiziologik asosi. Ma'lumki, nerv sistemasining tipi oliy nerv faoliyatining tug'ma xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Biroq kishining fiziologik tabiati doimiy bo'lib qolmaydi. I.P.Pavlov nerv sistemasining bir-biriga munosabati haqida shunday deb yozgan: "tip hayvon nerv faoliyatining tug'ma organizmining konstitutsiyasiga bog'liq bo'lgan turi – genotipdir. Lekin hayvon tug'ilgan kundan boshlab atrofda sharoitni g'oyat xilma-xil ta'sirlarga uchrashi, u ana shu ta'sirlarga muayyan faoliyat bilan, ko'pincha, nihoyat butun umr bo'yi mustahkam bo'lib qoladigan faoliyat bilan muqarrar sur'atda javob berish lozimligi sababli hayvonning mavjud nerv faoliyati tipning xususiyatlari va tashqi muhit taqozo qilgan o'zgarishlar qorishmasidan iborat."

Garchi I.P.Pavlov hayvon to'g'risida gapirgan bo'lsa ham, lekin muhitning bu xil ta'sirlarini odamlar ham his qiladi. Shuni esda tut-

ish kerakki kishining nerv faoliyatini shakllantirishga faqat birinchi signal sistemasigana emas, balki ikkinchi signal sistemasi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib garchi nerv sistemasining tug'ma tipi bo'lgan temperament xarakterning asosi bo'lsa ham, biroq uni muvaqqat nerv aloqalari va ularning murakkab sistemalariga xos bo'lgan xususiyatlarni belgilab beradiki, ularga inson o'z hayoti va faoliyati jarayonida ega bo'ladi.

Oqibat - natijada tug'ma sifatlar emas, balki ijtimoiy shart-sharoit ya'ni muhitning ta'siri, tarbiya kishining u yoki bu xarakterga ega bo'lishining asosiy sababi hisoblanadi. Tuyg'ularning paydo bo'lishi va psixik jarayonlar hamda xarakterlarning o'tish tezligi asosan temperamentga bog'liq bo'lib, bu hol kishining xarakterida aks etadi.

Xarakter xususiyatlari. Kishining xakteri to'g'risida faqat yetakchi asosiy xususiyatlarga qarab fikr yuritish mumkin, bu xususiyatlar muayyan shaxsning kim ekanligi hamma narsadan ko'ra ko'proq belgilab beradi. Shuning uchun ham yozuvchilar o'z qahramonlarini ta'riflar ekanlar, ularni asosiy, tipik xususiyatlarini ko'rsatishga intiladilar.

Kishi faoliyatda qanday psixik jarayonlar ustun turishga qarab xarakter xususiyatlarini intellektual, emotsional va iroda xususiyatlariga ajratish mumkin. Kishining atrofdagi voqealikka munosabati nuqtayi nazardan xarakter xususiyatlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) *Shaxsning umumiy psixik tuzilishini ifodalaydigan xususiyatlar.*

2) *Kishining boshqa odamlarga munosabatini xarakterlovchi xususiyatlar.*

3) *Kishining o'z-o'ziga qanday munosabatda bo'lishi haqida guvohlik beradigan xususiyatlari.*

4) *Shaxsning mehnatga, o'z ishiga munosabatini ko'rsatuvchi xususiyatlar.*

5) *Kishining narsalarga munosabatini xarakterlovchi xususiyatlar.*

Kishining xarakterida unung umumiy psixik tuzilishini ifodalaydigan xususiyatlar juda muhim ahamiyatga egadir. G'oyaviy aniq maqsadga intilish kishi o'z xulq-atvorini muayyan go'yaga xizmat

qilishga, o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarishga bo'ysundiradi.

Odamning boshqa kishilarga munosabatini ifodalaydigan xususiyatlar orasida *insonparvarlik, sezgirlik, sahiylik, samimiyluk, hurmat ehtirom* kabi xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin. *Pishiqlik, beparvolik, toshbag'irlik, ichidan pishganlik, dag'allik, kishilarga nafrat bilan qarash* esa qarama-qarshi xususiyatlar bo'lib hisoblanadi.

Kishining mehnatga bo'lgan munosabatini *qat'iylik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, ijodga ishtiyoq, ishdagi halollik* kabi xususiyatlar xarakterlab beradi. *Mehnatga muhabbat* eng muhim fazilat bo'lib qolishi mumkin.

Kishining narsalarga bo'lgan munosabatini xarakterlab beradigan xususiyatlari uning puxtaligi yoki beparvoligidan qimmatli narsalarni behuda sarf qilish yoki ularga tejab-tergab munosabatda bo'lishdan dalolat beradi.

Xarakterning ayrim xususiyatlari shaxsning ijobiy xususiyatlari, boshqalari esa salbiy xususiyatlari bo'ladi. Xarakter xususiyatlariga baho berganda ularning har birining axloqiy mazmunini hisobga olish kerak. Masalan: Mehnatsevarlik-xarakterining ijobiy xususiyatidir, lekin odam u xudbinlik maqsadlariga, chunonchi, shaxsning boshqalar hisobiga boyishga xuzmat qilsa, bu shaxsning salbiy xususiyati bo'ladi. Vatan uchun fahrlanish yaxshi xususiyatdir, kishi o'z-o'zidan haddan tashqari mag'rurlansa, o'zining shaxsiy ustunliklarini bo'rttirib ko'rsatsa bunday fahrlanish xarakterni salbiy xususiyatidir.

Huddi shuningdek, kishilarga bo'lgan mehr-muhabbatni yaxshi, nafratni yomon deb aytib bo'lmaydi. Hamma narsa kimni yaxshi ko'rish va nafratlanishga bog'liq.

XARAKTER XISLATLARI		
INTELLEKTUAL XISLATLAR	IRODAVIY XISLATLAR	MA'NAVIY-AXLOQIY XISLATLAR
FAHM – FAROSATLIK KUZATUVCHANLIK HUSHYORLIK SEZGIRLIK	O'ZINI TUTA BILISH DADILLIK QAT'IYLIK SABR – TOQATLIK MATONATLIK	INSONPARVARLIK MEHNATSEVARLIK HAQQONIYLIK MEHRIBONLIK INTIZOMLILIK

Xarakterning ijobiy xususiyatlari orasida axloqiy xususiyatlar muhim o'rin egallaydi. Axloqiy fazilatlar tuyg'larga asoslangan bo'lib, kishining jamiyat talablariga javob beradigan ma'naviy xulq-atvorini belgilab beradi. Xarakter xususiyati bo'lgan vatanparvarlik faqat his-tuyg'ulardagina emas, insoparvarlik, halollik, to'g'rilik, o'z burchini anglash va kishining odamlarga foyda keltirishga tayyor turishni xarakterlovchi boshqa ijobiy sifatlar ham kiradi.

Kishining xarakterida ijobiy xususiyatlar katta rol o'ynaydi. Bu xususiyatlarga kuch-qudrat, aktivlik, mardlik, uyushqoqlik, qat'iylik, sabot-matonat, mustaqillik, izchillik va boshqalar kiradi.

Kishi xarakterlarining barcha xususiyatlari bir-biri bilan bog'langandir, shuning uchun ham xarakter muayyan darajada barqarorligi bilan ajralib turadi. Odamdagi xarakter xususiyatlari uning o'zi uchun ham, tevarak-atrofdagi kishilar uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Biror kishi haqida: "Uning yaramas xarakteri bor" deganlarida, odatda bunday kishidan o'zlarini olib qochadilar, jamoada unung do'stlari bo'lmaydi. Oilada ko'pincha u bilan birgalikda hayot kechirish mumkin bo'lmay qoladi. Ijobiy xarakter xususiyatlariga esa odatda atrofdagi kishilarning, do'stlarining mehr-muhabbati va izzat-ikromiga sazovor bo'ladi.

O'z xarakteri ustida ishlash. Ayrim kishilar xarakterni yaxshi tomonga o'zgartirib bo'lmaydi, deb hisoblaydilar. Salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishi ba'zan o'zi haqida "xarakterim shunday" deydi. Bu notog'ri, darhaqiqat o'zi haqida xarakterini o'zgartirish salbiy xususiyatlardan xolis bo'lish va o'zida ijobiy xususiyatlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash ustida ishlashni, qat'iy va keskin maqsad qilib qo'yish kerak. Ortiqcha manmanlikdan qutilish, o'z kamchiligini aniq ko'rish uchun o'ziga tanqidiy jihatdan qarashga, o'z xulq-atvoriga jiddiy munosabatda bo'lishga harakat qilish kerak. O'z xatolarini sezmaydigan yoki sezishni istamaydigan kishi hech mahal, o'z ustida muvaffaqiyatli ish olib bora olmaydi.

Ko'pincha kishining o'zi o'z sifatlariga xolis baho berish qiyin bo'ladi. Suning uchun ham boshqalarning fikriga quloq solish, to'g'ri tanqiddan xafa bo'lmaslik, ko'p narsaning chettan yaxshiroq ko'rishini esda tutish lozim. Yaxshi do'stona jamoa kishining o'z xarakterini tarbiyalash ustida ish olib borishga yordam beradi. Bir guruh kishilar orasida yashab, mehnat qilar ekansan,

boshqalardan qolishga harakat qiladi kishi. Ko'pchilik oldida berilgan vazifani bajarish oson boladi. Boshqalarda mavjud bo'lgan salbiy sifatlarni sezgach, hamisha o'ziga ham qarashning o'zida shunday kamchiliklar bor yo'qligini bilishi kerak. Ba'zan bu sifatlarni o'ziga yomon bo'lib tuyulmaydi, bu sifatlarni boshqalarda ko'rganida esa ular kamchiliklar ekanligi, ulardan qutilish lozimligi aniq bo'ladi.

O'z ustida muvaffaqiyatli ish olib borishning asosiy shartlaridan biri yaxshi tomonga o'zgarishga ahd qilgandagina iborat bo'lmasdan, balki ahd shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan aniq ishlarni ham bajarishdir. Oliyjanob xatti-harakatlarni bir va hatto ikki marta amalga oshirish mumkin, lekin odam ana shunday yaxshi ishlarni amalga oshirishni hohlamasa, bu ishlarni bajarish ba'zi bir shaxsning yaxshi sifatiga aylanmaydi. Shuning uchun ham o'zingda zarur xulq-atvorni tarbiyalash uchun ko'p marta *mashq qilish* zarur, toki ana shu takrorlanishlar natijasida miya po'stlog'ida tegishli bog'lanishlar mustahkamlansin va kishi hamisha lozim bo'lganidek harakat qilish ehtiyojiga ega bo'lsin.

Hatto unchalik muhim bo'lmagan xatti-harakatlar ham, agar ular boshqalar foydasiga xizmat qilsa va muntazam amalga oshirib borilsa, xarakterning ijobiy sifatlarini tarbiyalaydi.

Shaxsning irodaviy sifatlarini tarbiyalashda *intizom, kun tartibiga qat'iy rioya qilish* katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun harbiy xizmat qilgan vaqtda ichki tartib intizomga qat'iy rioya qilib, birorta ham hayfsan olmaganligini beradi.

O'z-o'zini tarbiyalash to'g'risida gapirganda bu tarbiya o'spirinlik yoshida ayniqsa samarali bo'lishini takidlab o'tish zarur. Xuddi ana shu vaqtda kishida o'zini anglash rivojlanadi. Yigit va qiz hayotida ko'zlagan maqsadlari to'g'risida bosh qotiradilar, o'zlariga va ustilarida ishlash jamiyat tomonidan yondashadilar, ularda o'z ustilarida ishlash jamiyat uchun foydali kishilar bo'lib yetishish istagi tug'iladi.

Lekin bu narsa kishi katta bo'lgach, o'zi yaxshi tomonga qarab o'zgartira olmaydi degan gap emas, kishi o'zining odat bo'lib qolgan xatti-harakatlari, ishlari bilan o'z xarakterlarini butun hayoti davomida tarkib toptirib boradi.

Tayanch iboralar:

xarakter, xarakter xislatlar, xarakterni shakllanishi, tarbiyalanishi, emotsional, irodaviy, axloqiy tomonlari, munosabatlardagi xislatlar.

Mustahkamlovchi savollar:

1. Xarakter so'zining ma'nosi va ta'rifi.
2. Xarakterning fiziologik asoslari.
3. Xarakter xislatlari.
4. Xarakterda munosabatlarni ifodalanishi.
5. O'z xakteri ustida ishlash.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Qahramonlarga xarakter xislatlarni ta'riflovchi tavsif berish.
2. Guruh o'quvchilarini birini kuzatish.

SIZNING XARAKTERINGIZ?

Insonlarning har birini o'ziga yarasha shakllangan xakteri mavjud. U o'zining xakterini o'zgartirishi, yaxshi xislatlarini tarbiyalab borishi mumkin. Uning xakteridan kelib chiqqan holda odamlar u bilan muloqot qilishadi yoki undan yiroqlashadi. Shuning uchun ham har bir odam o'zini bilishga intiladi.

Berilgan test savollariga javoblar yonma-yon joylashtirilgan. Siz o'z fikringizga mosini tanlab shunga mos ballarni yig'ib test oxiridagi uning kalitidan javobini olishingiz mumkin.

1. Siz achchiq ovqatlarni yaxshi ko'rasizmi? Ha – 4 ball, Yo'q – 1 ball.
2. Har qanday mavzuda gapira olasizmi? Ha – 4 ball, Yo'q – 2 ball.
3. O'yinga tushishni yaxshi ko'rasizmi? Ha – 1 ball, Yo'q – 3 ball.
4. Siz jamoaning yuragi bo'lganmisiz? Ha – 1 ball, Yo'q – 3 ball.
5. Suyinganingizdan sakragingiz keladimi? Ha – 4 ball, Yo'q – 2 ball.
6. Ba'zida sizning belingiz og'riydimi? Ha – 1 ball, Yo'q – 2 ball.
7. Tish tozalagich(shotka)ning yumshog'ini yoqtirasizmi, qattig'ini? Yumshog'ini – 1 ball, Qattig'ini – 3 ball.
8. Sartaroshga bormasdan avval qanday soch turmaklashni bilasizmi? Xa – 3 ball, Yo'q – 1 ball.

9. Krossvordlarni yaxshi ko'rasizmi? Ha – 1 ball, Yo'q – 4 ball.

10. Sizda ishonchsizlikka moyillik bormi? Ha – 1 ball, Yo'q – 4 ball

11. Kech yotishingiz sog'lig'ingizga ta'sir qiladimi? Ha – 4 ball, Yo'q – 1 ball.

20 ballgacha: Sizning nozik, sezgir tinchlikni xohlovchi. Siz yaxshi o'rtoqsiz, lekin ko'plar sizni jonga tekkan deb o'ylaydi.

21-25 ballgacha: Siz taqdirga ishonuvchi tanishlarning xayrixohligiga muhtoj, ularning fikriga tezda ishonasiz.

26 dan yuqori: Siz bir tekis xarakter egasiz. Hissiyotlarni boshqara oladigan, odamlarning niyatlarini, ehtiyojlarini to'g'ri baholay oladigan kishisiz.

DIQQAT

Aqliy faoliyatning barcha turlarida diqqat ishtirok qiladi. Bizning ish-harakatlarimiz ham diqqat ishtiroki bilan sodir bo'ladi.

Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv qaralishini aytamiz; biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, so'z va fikrlarimiz diqqatning obyekti bo'la oladi.

Diqqat paytida ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishidan iboratdir, bunda go'yoki ong doirasi anchagina tig'izlanadi. Ana shunday torayish va tig'izlanish tufayli ong doirasi juda ham yorqinlashadi. Ongning eng tig'izlangan va binobarin eng yorqin nuqtasi diqqatning fokusi (markazi) deyiladi. Shu fokusga tushgan barcha narsalar (predmetlar, tasavvurlar) juda tola, yorqin, hamda aniq aks ettiriladi.

Diqqatga hamma vaqt u yoki bu darajadagi aktivlik xosdir. Bunday aktivlik ongning bir nuqtaga to'planishining kuchayishi va ma'lum vaqt mobaynida diqqat qaratilgan narsaga ongning aktiv yonaltirilishini saqlab turilishidan iboratdir.

Diqqatimiz qaratilgan obyektlar ongimizning to'plangan xonasida juda aniqlik va yaqqollik bilan aks ettiriladi. Bu yerda yana shuni ham nazarda tutish kerak-ki, diqqat – xotira, idrok, xayol, tafakkur va nutq singari alohida psixik jarayon emas. Diqqat hamma psixik jarayonlarda ko'rinadi. Biz "shunchaki" diqqatli bo'la ol-

maymiz, balki biz diqqat bilan idrok qilamiz (qaraymiz, eshitamiz), diqqat bilan esda saqlab qolamiz, o'ylaymiz, diqqat bilan muhokama yuritamiz, gaplashamiz.

Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki aktivlikdir.

Diqqat har qanday faoliyatning zaruriy shartidir. Mana shu hol fransuz olimlaridan Kyureni o'z zamonasida geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashga undagan edi. Masalan, u Nyutonning genialligi diqqatining kuchi va barqarorligidadir, deb ko'rsatadi. Nyutonning o'zi " Siz butun dunyo tortilish qonunini ochishga nima tufayli muyassar bo'ldingiz" deb berilgan savolga – "Fikru zikrim doimo shu masalaga qaratilganligidan muyassar bo'ldim", – deb javob bergan. Albatta, diqqatga bunday baho berilishi uning ahamiyatini haddan tashqari oshirib ko'rsatishdir. Lekin bu baho diqqatning inson faoliyatining barcha turlari uchun ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, o'tin yorish, yer chopish kabi eng oddiy ishlarni ham, mashinalar bilan ishlash, ilmiy tekshinshlar olib borish kabi eng murakkab ishlarni ham diqqatning ishtirokisiz bajarib bo'lmaydi.

Diqqat o'qish ishining ham zaruriy shartidir. O'quvchilarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari, dastavval diqqatning mayjud bo'lishiga bog'liqdir. K.D.Ushinskiyning aytishicha: "Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik oraqli o'tib kiradi". Ayrim o'quvchilarda uchraydigan o'zlashtira olmaslik holatining sababini avvalo ular diqqatining yetarli emasligidan qidirish kerak. Xotiraning, o'quv materiallarini o'zlashtirishning bo'shligi, asosan, diqqatning bo'shligidan kelib chiqadi. Mana shuning uchun ham pedagog o'qitish ishida yuksak muvaffaqiyatga erishishni istar ekan, o'quvchilar diqqatini va xususan, eng barqaror va eng kuchli diqqatini uyushtirishi hamda tarbiyalash haqida jon kuydirishi lozim.

Diqqatning fiziologik asoslari. Diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi "optimal qo'zg'alish nuqtasi" tashkil qiladi. Bunday joyni yaqqol qilib ko'rsatish uchun I.P.Pavlov shunday tasvirlaydi:

Agar bosh suyagiga qaraganda uning ichidagi miya ko'rinadigan bo'lsa, agar katta miya sharlarida optimal (kuchli) qo'zg'alish uchun

eng yaxshi sharoit tug'ilgan nuqtasi yiltillab ko'rinadigan bo'lsa edi, ongi sog'lom bo'lib, bir narsani o'ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda, uning miyasining katta yarim sharlarida juda g'alati jimjimador shakl bolib, sur'ati va hajmi har lahzada bir o'zgarib, turlanib, jimir-jimir qilib turuvchi yorug' narsaning u yoqdan-bu yoqqa yugurib, g'imirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug' narsa atrofidagi boshqa yerlari bir muncha xira tortib turganini ko'rar edi".

Optimal qo'zg'alish nuqtasi manfiy induksiya qonuniga ko'ra, bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanishni vujudga keltiradi. Miya po'stining optimal qo'zg'algan joyi ("yiltillab turgan nuqtasi") o'z o'rnini almashtirib turishi diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga ko'chishini va shuning bilan birga, ongimizning ma'lum narsa, ma'lum faoliyat turiga qarata yo'naltirilishini va to'planishini shartlaydi.

Diqqatning fiziologik asosi bo'lmish optimal qo'zg'alish o'chog'i haqidagi I.P.Pavlov ta'limoti bilan akademik AA.Uxtomskiyning olib borgan tekshirishlari bir-biriga to'g'ri keldi. Bu tekshirishlar natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi. Agar nerv sistemasiga bir qancha qo'zg'ovchilar bir vaqtda ta'sir etsa, bosh miya po'stida shu onning o'zida bir necha qo'zg'alish o'choqlari paydo bo'ladi. Shu bilan birga, har bir qo'zg'alish o'chog'i bosh miya po'stining har bir joyiga tarqalishga, irradatsiyalanishga moyildir. Shuning uchun ayrim qo'zg'alish o'choqlari o'rtasida to'qnashish va "kurash" sodir bo'ladi. Bu kurash natijasida qo'zg'alish o'choqlaridan biri hukmron bo'lib oladi. *Mana shu hukmron bo'lib olgan qo'zg'alish o'chog'ini akademik Uxtomskiy "dominanta" deb atagan. Uning bergan ta'rifiga ko'ra, dominantata – bu ayni chog'da markazda sodir bo'ladigan reaksiyalar xarakterini bir qadar belgilab beruvchi hukmron qo'zg'alish o'chog'idir.*

Diqqatning orta borishi bilan nafas olish ham o'zgaradi. Bunday holatda nafas olish biroz susayib, havo olish va chiqarish biroz sekinlashadi. Ba'zan nafas olishimiz to'xtab ham qoladi. Biron narsani eshitayotganimiz yoki ko'rayotgan paytimizda "nafasimiz ichimizga tushib ketadi".

Diqqat paytida muskullar sistemasida ham o'zgarish paydo bo'ladi. Barcha ortiqcha harakatlar to'xtatilib, organizm qimirlamay

qoladi. Diqqat paytida organizm alohida vaziyatda bo'ladi. Ammo bu vaziyat diqqatning faqat tashqi ifodasi bo'libgina qolmay, balki uning ma'lum yonalishi va barqarorligini saqlab turuvchi shartlardan biri hamdir. Odatda, biz ishimizda organizmning diqqat paytida sirtidan moslashuviga e'tibor beramiz. Shuning uchun ko'pincha, biror ishni boshlashdan oldin organizmimizni shu ishga moslab, muayyan vaziyatda turib olamiz.

Diqqatning turlari. Diqqat dastavval o'zining aktivligi jihatidan – ixtiyorsiz va ixtiyoriy deb farqlanadi. Diqqat asosan ikki turga, yani *ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat* turiga ajraladi.

Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni ixtiyorsiz diqqat deyiladi. Bu diqqatni tug'diruvchi sabablar, avvalo, bizga ta'sir qiluvchi qo'zg'aluvchilarning qandaydir mashhur xususiyatlaridir: chunonchi, ularning go'zalligi, yorqinligi, kuchi, kattaligi, harakatchanligi, uzoq davom etishi, to'satdan sodir bo'lishi, kontrastligi va hokazo. Masalan, shiqildoqli, chiroyli va yaltiroq o'yinchoq bog'cha yoshigacha bo'lgan bolalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Qattiq tovush – momaqaldiroq, otilgan o'qning ovozi beixtiyor ravishda diqqatimizni o'ziga tortadi. Chunonchi kutilmagan holda to'satdan sinfga uchib kirgan kapalak yoki qovoqari ixtiyorsiz ravishda o'quvchilarning diqqatini o'ziga tortadi. Shuningdek, jim-jitlik davom etib turgan bir paytda to'satdan paydo bo'lgan shovqin-suron va aksincha, shovqin-surondan so'ng sodir bo'lgan jim-jitlik ham beixtiyor ravishda diqqatimizni jalb qiladi.

DIQQAT TURLARI		
AKTIVLIGIGA KO'RA	OBJEKTIGA KO'RA	SHAKLIGA KO'RA
IXTIYORSIZ IXTIYORIY IXTIYORIYDAN KEYINGI	TASHQI ICHKI	INDIVIDUAL GURUH JAMOA

Ixtiyorsiz diqqatning yuzaga kelishi odamning ayni chog'dagi holatiga ham bog'liq. Bir xil narsalar va hodisalar diqqatimizni o'ziga tortishi mumkin va mutlaqo tortmasligi ham mumkin. Bu narsa odamning ayni chog'dagi holati bilan bog'liq bo'ladi. Ix-

tiyorsiz diqqatning dastlabki fiziologik asosi oriyentirovka yoki tekshirish reflekslaridan iborat. Bu reflekslarni akademik I.P.Pavlov boshqacha nom bilan “bu nima ekan?” refleksi deb ataydi.

Diqqatimiz qaratilishi lozim bo‘lgan narsani oldin belgilab olib, ongli ravishda qo‘yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqatni ixtiyoriy diqqat deyiladi. Bu diqqatning boshlanishi va ko‘pincha, butun qilinayotgan ish davomida davom ettirilishi kuch va zo‘r berishni, yani irodaning ishtirokini talab qiladi. Shuning uchun uni *irodaviy diqqat* deyiladi. Ixtiyorsiz diqqatning kuchi asosan qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lgan irodaviy zo‘r berish darajasi bilan xarakterlanadi.

Ixtiyoriy diqqat fiziologik tomondan, asosan, ikkinchi signallar sistemasining faoliyati bilan belgilanadi. O‘quvchining tushuntirayotgan yangi darsni eshitib o‘tirishi ixtiyoriy diqqatning ishlashini misoli bo‘la oladi. Bunda o‘quvchi “eshitib o‘tiranman” deb, ilgari o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va o‘z diqqatini faqat o‘qituvchining so‘ziga qaratish uchun kuch sarf qiladi. Shuning bilan birga, o‘quvchi beixtiyor ravishda paydo bo‘lib, o‘qituvchining so‘zini eshitishga xalaqit beruvchi idrok, fikr, hissiyot, xayol kabi boshqa psixik jarayonlarni yo‘qotish uchun ongli ravishda harakat qiladi. Ixtiyoriy diqqat, masalan, ninaga ip taqish kabi juda oddiy ishda ayniqsa yaqqol ko‘rinadi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat turlari o‘rtasidagi farq yana shundan iboratki, ixtiyorsiz diqqat bilan qilinadigan faoliyat ko‘pincha unchalik zo‘r bermay, ancha yengillik bilan va deyarli toliqmasdan amalga oshiriladi: ixtiyoriy diqqat bilan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat esa anchagina zo‘r berishni talab qiladi va birmuncha toliqarli bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan diqqatlar o‘rtasidagi ayirmalarga ikkita alohida funksiya deb qarash yaramaydi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatning ham muhim belgilari bir xildir. Bunday belgilar muhim faoliyat davomida biz idrok va tasavvur qiladigan hamda uning haqida fikr yurgizadigan ma‘lum narsaga ongimizning qaratilishi va to‘planishidan iboratdir.

Faoliyat jarayonida, ko‘pincha, diqqatning ixtiyorsiz ravishda asosiy ishdan bo‘lak narsalarga ko‘chib turishi uchraydi. Bunday hodisa diqqatning chalg‘ishi deyiladi. Diqqatning chalg‘ishi

ishga yomon ta'sir qiladi. Shu sababli, diqqatni, garchi salgina bo'lsa ham chalg'itmaslik uchun, ish jarayonida ora-sira ixtiyoriy diqqatni kuchaytirishga hamda beixtiyor paydo bo'lib, ishga aloqasi bo'lmagan idrok, tasavvur va fikrlarni bosmoq uchun zo'r berishga to'g'ri keladi.

Manbaya bizning ongimizdan tashqarida bo'lgan diqqatga tashqi diqqat deyiladi. Tashqi diqqat dastavval bizning idroklarimiz jarayonida namoyon bo'ladi. Haydovchi, vagon haydovchisi, tikuvchining ishida sodir bo'ladigan diqqat tashqi diqqatga misol bo'la oladi. O'quvchining o'qituvchi bayonini tinglashdagi, kitob o'qishdagi, suratlarni ko'rishdagi va tabiat hodisalarini kuzatishdagi diqqati ham tashqi diqqatdir. Narsa va hodisalarni qaysi sezgi a'zomiz bilan idrok qilayotganimizga qarab, tashqi diqqatni *ko'rish* va *eshitish*, shuning bilan birga tuyish, *hid bilish* va *ta'm bilish* turlariga ajratish mumkin. Shuningdek tashqi diqqat biz tasavvur qilayotgan va fikr qilayotgan narsalarimizga ham qaratilishi mumkin.

Manbaya bizning tasavvurlarimiz, fikrlarimiz, hissiyotlarimiz va mayllarimizdan iborat diqqatga ichki diqqat deyiladi. Masalan, biz o'z fikrlarimizni kuzatayotganimizda, bu fikrlarni tekshirayotganimizda, pushaymon qilish hissini boshdan kechirayotganimizda, o'z-o'zimizni tanqid qilayotganimizda va o'z istaklarimizni mulohaza qilayotganimizda ichki diqqat namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi darsning borishi va o'z fikrlarining bayon etilish sistemasini kuzatib borishida ichki diqqat namoyon bo'ladi. Diqqatning bu turi odamning o'z-o'zini tarbiyalash ishida juda yaqqol ko'rinadi. Ichki diqqat *o'z-o'zini tarbiyalashning* tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ichki diqqat tashqi diqqatdan o'zining ortiq kuchliligi bilan farqlanadi va ko'proq ixtiyoriy bo'ladi.

Diqqatning xususiyatlari. Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiylari— *diqqatning ko'chuvchanligi, bo'linishi, ko'lami, kuchi va barqarorligidir.* Bu xususiyatlarning qanchalik yaqqol ifodalanishiga qarab, har turli faoliyat jarayonida ayrim odamlar diqqatining ma'lum bir (ijobiy yoki salbiy) sifatlari belgilanadi.

Diqqatning ko'chishi deganda biz uning bir narsadan ikkinchi boshqa narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa bir turiga o'tishini tushunamiz. Masalan, odam o'z diqqatini kitob o'qishdan

surat ko'rishga, surat ko'rishdan esa o'z fikrlarini bayon etishga ko'chirishi mumkin. O'quvchilar o'z diqqatini bir fanni o'qishdan boshqa fanga ko'chiradilar. Diqqatning ko'chishi ixtiyoriy va ixtiyorsiz tarzda sodir bo'lishi mumkin.

DIQQAT XUSUSIYATLARI
HAJMI YOKI KO'LAMI BARQARORLIGI YOKI TO'PLANISHI KO'CHISHI BO'LINISHI YOKI BUZILISHI TAQSIMLANISHI

Diqqatni ko'chirishning nerv-fiziologik asosi, asosan, ikkinchi signallar sistemasining signallari orqali bosh miyaning po'stida paydo bo'lgan optimal qo'zg'alish o'chog'ining o'rin almashtirishidir.

Eng yaxshi diqqat albatta, bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'cha oladigan diqqatdir. Diqqatning mana shu xususiyati tufayli, kishi atrofdagi muhitga tez moslasha oladi. Diqqatning tez ko'chuvchanligi kishining ishini ham tezlashtiradi. Diqqatning tez ko'chuvchanligi, uning boshqa sifatlari kabi kishining amaliy faoliyati jarayonida taraqqiy etadi.

Diqqatning bo'linishi. Ma'lum faoliyat jarayonida diqqat faqat birgina narsaga emas, balki ikki va uch narsaga ham qaratilishi mumkin. Diqqatimiz ayni vaqtda ayrim faoliyat turlariga bolina oladi.

Faqat birgina narsaga qaratilgan diqqatni to'plangan diqqat deyiladi. Masalan, matematik masala yechishdagi, leksiya eshitishdagi diqqatimiz shunday diqqatdir. Agarda diqqat faqat bir murakkab ish jarayonining o'zida ikki yoki uch narsaga qaratilgan va faoliyatning tirli usullari bilan bog'liq bo'lsa, bunday diqqatni bo'lingan yoki taqsimlangan diqqat deyiladi. Masalan, o'qituvchi darsni tushuntirish paytida o'z diqqatini o'quvchilar xulqiga, ko'rgazma qurollarni ko'rsatishga, sinf doskasiga va shu kabilarga taqsimlashi lozim.

Diqqatning ko'lami – diqqatga eng qisqa vaqt ichida (go'yoki birdanigina) sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar soni bi-

lan belgilanadi. Diqqat ko'lamini jihatidan tor yoki keng bo'lishi mumkin. Diqqat ko'lamining kengligini aniq idrok etish bilan birga qo'shilgan taqdirdagina yaxshi sifatlardan hisoblanadi. Diqqat ko'lamining keng bo'lishi, masalan, sinfda mashg'ulotlar o'tkazilayotgan paytda o'qituvchi uchun zarurdir; o'qituvchi sinfda o'tirgan barcha o'quvchilarga nazar solib turishi lozim.

Diqqatning kuchi va barqarorligi. Diqqatning kuchi va barqarorligi uning ayniqsa muhim xossasidir. Diqqatning kuchi turli darajada bo'lishi – diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. O'quvchining diqqati har xil, hatto kuchsiz darajadagi chetki qo'zg'ovchilardan, chunonchi, qalamning tushib ketishiga, qo'shni partadagi o'rtoqlarning pichirlashlariga, koridorda bo'layotgan gaplarga chalg'ib ketaversa bu ayni vaqtda o'quvchining diqqati kuchsizligidan dalolat beradi.

Eng kuchsiz diqqat, odatda, tarqoq, parishon diqqat yoki to'g'ridan to'g'ri parishonlik deyiladi. *Parishonlik odamning o'z diqqatini biron-bir muayyan ishda tutib tura olmasligidir.*

Diqqat ma'lum darajada barqaror va beqaror bo'lishi mumkin. *Uzoq muddatgacha bir narsaning o'ziga qaratilib tura oladigan diqqat barqaror diqqat deyiladi.* Agar diqqat biron-bir faoliyat jarayonida boshqa narsalarga, keraksiz narsalarga chalg'iyversa yoki tez sustlashib va so'nib qolsa, bunday diqqat beqaror diqqat deyiladi. Masalan, o'quvchi butun dars davomida darsning borishiga diqqat qilib o'qituvchining tushuntirishlarini boshqa narsalarga chalg'imagay tinglab borsa, biz u o'quvchining diqqatini barqaror diqqat deymiz. Bordi-yu o'quvchi o'qituvchining tushuntirishlariga avval boshda quloq solib borib, lekin 10-15 minutdan keyin boshqa narsa bilan shug'ullansa yoki boshqa narsalar to'g'risida xayolga berilib ketsa, yoki o'quvchining tushuntirishlaridagi ayrim momentlarini “eshita olmay qolibman” desa, yo bolmasa kitob o'qisa-yu, uning mazmunining ayrim momentlariga “e'tibor bermabman” desa, bunday diqqat beqaror diqqat deyiladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligini ta'min etadigan shart-sharoitlar. *Odam faoliyatining barcha turida, albatta, nihoyatda kuchli (eng ko'p to'planadigan) va nihoyatda barqaror diqqatning ahamiyati juda kattadir. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qator shart-sharoitlarga: diqqat obyektining mazmundorli-*

giga, faoliyatiga, ish bajarilayotgan vaziyatga, odamning ruhiy holatiga, irodasiga va qiziqishlariga bog'liqdir.

Diqqat obyektining xarakteri va ishning mazmundorligi: diqqatning kuchli va barqaror bo'lishiga bog'liqdir. Diqqat obyekti qanchalik mazmundor bo'lsa, diqqat ham shu qadar kuchli va barqaror bo'lishi mumkin.

Ish sharoiti va diqqati. Diqqatning kuchi va barqarorligi biror yumush bajarilayotgan va odam idrok qilib turgan sharoitga bog'liqdir. Masalan, sinfning eshigi ochilib-yopilib tursa, sinfda ikki-uch o'quvchi gaplashib o'tirsa yoki koridorda to'polon bo'lib tursa va shunga o'xshash hollarda o'quv ishi jarayonida diqqatning barqarorligiga xalal yetadi va diqqat kuchi zaiflashadi.

Hissiyot va diqqat. Diqqatning kuchi va barqarorligi hissiyotga bog'liq. Bu yerda hissiyotning roli ikki turli—ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Diqqatning kuchi va barqarorligiga kishining ayni paytdagi umumiy kayfiyati ham ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyat har qanday ishda diqqatimizning kuchini oshiradi. Masalan, qo'shni sinfdagi musiqa yoki ashula ovozi tufayli tug'ilgan hissiyot o'quvchilarning darsga qaratilgan diqqatlarini bo'shashtiradi.

Iroda va diqqat. Ixtiyoriy (irodaviy) diqqatning kuchi irodaning kuchi bilan saqlanib turadi. Ko'pincha ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi ham faoliyat jarayonida irodaning zo'ri bilan ushlab turiladi. Shuning uchun iroda, asosan, diqqatda ko'rinadi,—desa bo'ladi

Qiziqishlar va diqqat. Diqqatning to'planishi va barqarorligini saqlab turishda kishining qiziqishlari katta ahamiyatga egadir. Ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi, asosan, kishining ayni faoliyatiga bevosita qiziqishiga, ishtiyoqiga bog'liq.

Ixtiyoriy diqqatning kuchi va barqarorligi, asosan, vositali qiziqishga, ya'ni faoliyatning maqsadi, ishning natijasi bilan qiziqishga bog'liq. Ixtiyoriy diqqat asosida qilinadigan ish jarayonining o'zi zo'r berishni talab qilishi tufayli noxush bo'lishi mumkin. Bunday ish davomida diqqatning to'planishi va barqarorligi erishilgan maqsadni, ish natijalarining zarurligi va ahamiyatini anglash orqali saqlab turiladi.

Diqqatning rivojlanishi. Bolalar diqqati juda erta — hayotlarining birinchi oylaridayoq ko'rina boshlaydi. Dastavval ixtiyorsiz

diqqat namoyon bo'ladi. Bola o'z diqqatini biron jihati bilan rang-barangligi, ohangdorligi, harakatchanligi bilan ajralib turuvchi ma'lum bir narsalarga (tovushlarga va shuning kabilarga) qaratadi. Bolalarning yoshi ulg'aygan sari, o'yin faoliyatlari davomida, tarbiya ta'siri bilan ixtiyorsiz diqqatlari taraqqiy qila boradi. Ixtiyorsiz diqqatning taraqqiysi o'sib borayotgan ehtiyoj, hissiyot va qiziqishlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, ixtiyorsiz diqqat anchagina kuchli va barqaror bo'la boradi.

Ixtiyorsiz diqqat inson turlarining barcha turlarida katta o'rin oladi. Jumladan, ixtiyorsiz diqqat o'qish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu diqqat o'qish materiallarini o'zlashtirishlarini yengillashtiradi va o'quvchilarni unchalik toliqtirmaydi. Bunday material yengil va ko'pincha puxta o'zlashtiriladi. Shuning uchun ixtiyorsiz diqqatdan o'qish faoliyatida mumkin qadar kengroq foydalanish lozim. O'qitishning ko'rgazmali va jonli bo'lishi, o'qish materialini o'quvchilardagi bor bilimlar bilan bog'lab, bevosita qiziqarli qilib berish ixtiyorsiz diqqatni saqlab turishga yordam beradi. Lekin o'qish jarayonining hammasini ixtiyorsiz diqqat asosida olib borish yaramaydi.

Ta'lim va umuman inson faoliyatining barcha turlari, asosan ixtiyoriy diqqat bilan amalga oshiriladi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat asosida o'sib boradi. Ixtiyoriy diqqat yosh ulg'ayishi bilan, inson faoliyati davomida va asosan tarbiyaning ta'siri ostida o'sib boradi.

Bolalarda ixtiyoriy diqqat bilan ishlash, qobiliyatini o'stirib borish maxsus tarbiya vositalaridan biridir. Maktabda ta'lim-tarbiya ishlari sohasidagi vazifalarga, jumladan, o'quvchilar intizomi va irodasini tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash vazifasi ham kiradi.

Bolalarning diqqati, avvalo ko'lamining torligi, bir narsadan ikkinchi narsaga sekinlik bilan ko'chishi va zo'rg'a bo'linishi bilan ajralib turadi. Masalan, agar bir qo'lida olma ushlab turgan bolaning ikkinchi qo'lga ham olma bersak, u paytda ikkinchi olmani olishi bilanoq, avvalgi ushlab turgan olmasini tashlab yuboradi. Demak, bunda bolaning diqqati o'z qo'lida ushlab turgan ikkita narsaga ham taqsimlana olmaydi. Keyinchalik diqqatning bo'linuvchanligi kattalar yordami bilan bolalarning o'yin faoli-

yatlarida, o'qish jarayonida va amaliy mehnat jarayonlarida o'sib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar diqqatining kuchi va barqarorligi ularning tabiatidagi hissiyotchanlik bilan ko'p jihatdan bog'liq. Bu yoshdagi bolalarning hissiyotlari davomli va barqaror bo'lmaganidek, ularning diqqatlari ham aytarli barqaror bo'lmaydi. Lekin bolalarning hissiyotlari anchagina kuchli bo'ladi. Shuning uchun ularning diqqatlari, garchi qisqa vaqt ichida davom etsa ham, kuchli bo'ladi.

Iroda diqqatning barqarorligini va kuchini saqlab turuvchi asosiy manbadir. Shuning uchun diqqatga doir bu sifatlarning keyingi taraqqiyoti ham irodaning taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Tayanch iboralar:

diqqat, optimal qo'zg'alish, dominanta, diqqat markazi, kuchi, barqarorligi, hajmi, ko'chuvchanligi, tebranishi, bo'linishi, taqsimlanishi, irodali diqqat, ixtiyoriydan so'ngi diqqat, parishonxotirlik.

O'quvchilar bilimini mustahkamlovchi savollar:

1. Diqqat nima va hayotimizdagi ahamiyati.
2. Ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi sabablar.
3. Irodali diqqat deb nimaga aytiladi?
4. Ixtiyoriydan keyingi diqqat ahamiyati.
5. Diqqat xususiyatlari.

O'quvchilarning mustaqil ishlari:

1. Dars jarayonida va bolalarning ixtiyoriy diqqatlarini sodir bo'lishini kuzatish.
2. Diqqat tebranishini sodir bo'lishini o'rganish.
3. Bolalarning diqqat xususiyatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar tuzib kelish.

II bob. YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI

BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA TA'LIM-TARBIYA, MUHIT VA SHAXSIY FAOLLIKNING TUTGAN O'RNI

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari mustahkam, bir-biriga bog'liqdir. Ularning har ikkisi bitta, umumiy jarayonni – ulg'ayib borayotgan insonning psixik faoliyati hamda xulq-atvorini tadqiq etadi. Biroq shunday bo'lsada bu ikki fan psixologiya ilmining mustaqil sohalari hisoblanib, ularning har biri tadqiqot vazifalariga egadir.

Yosh davrlar psixologiyasi, ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonunyatlarini psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Ontogenez – (yunoncha, ontos – mavjud, jon, zot, genez – kelib chiqish, paydo bo'lish) individning paydo bo'lishidan umrining oxirigacha psixik tivojlanish jarayoni.

Yosh davrlari psixologiyasi fanining vazifasi turli yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish jarayonlarini, shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonunlarini o'rganishdan iboratdir. Yosh davlar psixologiyasi bolada turli psixik (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol) rivojlanishining o'ziga hos xususiyatlarini uning har faoliyatining (o'yin, o'qish, mehnat) jarayonlarini o'rganadi.

Yosh davrlari psixologiyasi fanining nazariy vazifalari shaxsning kamol topish qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon bo'ladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir. Yosh davrlar psixologiyasi fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topish qonuniyatlarini o'rganishda qo'lga kirgan ilmiy dalillarni ta'lim-tarbiya sohaslariga tadbiq etishni tashkil etadi.

Bola shaxsining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu sohadagi ma'lumotlarni to'plash, bolaning tug'ulishidan voyaga yetguncha har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lguncha ulg'ayishi va shaxsining tarkib topish muammolarini aniqlash yosh davrlar psixologiyasi sohasining muhim jihatidir.

Bola jamiyatning a'zosi, mukammal ijtimoiy muhitda kamol topar ekan, uning butun bilish jarayonlari o'ziga xos xususiyatlari

va ruhiy holatlari, ongi ham rivojlanadi. Ana shu rivojlanish natijasida uning psixikasi, ongi go'dakdagi dastlabki oddiy aks ettirish tarzidagi sodda ongidan balog'atga yetgan insonlarga xos tevarakatrofni, borliqni, odamlarni aniq, yaqqol, to'la va anglab aks ettirish darajasigacha rivojlanadi.

Inson shaxsining tarkib topishi hozirgi zamon psixologiyasining eng muhim muammolaridandir. Shu sababli bu masalani hal qilishda juda ko'p oqimlar, yo'nalishlar maydonga keldi. Birinchi oqim biogenetik ta'limot bo'lib, ikkinchi oqim sotsiogenetik nazariyadir. Biogenetik nazariyaning eng katta yo'nalishlaridan biri nativizm oqimidir (natura so'zidan olingan bo'lib tabiiylik degan ma'noni bildiradi). Bu ta'limotga ko'ra bola shaxsini shakllanishi nasliy xususiyatlar ta'siri bilan yuzaga keladi. Ular tashqi muhit va ta'lim-tarbiyaning bolani rivojlanishidagi ta'sirini hisobga olmadi-lar.

XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida tabiiy fanlar jadal rivojlana boshlagani sababli, hammaning diqqat-e'tibori tajribaga qaratilgan edi. Bu bilan bog'liq "emperizm" oqimi maydonga keldi ("empiria" — "tajriba"). Ularning fikriga ko'ra inson shaxsining tarkib topishi ta'lim-tarbiyaga bog'liq deydilar. Bu zamon uchun eng ilg'or fikr edi.

Rentgen, mikroskoplar kashf etilgandan so'ng biogenetik oqim vujudga keldi. Chaqaloqni yovaga yetib to tug'ulguncha bo'lgan davrni insoniyat boshdan kechirgan evolutsion taraqqiyot davriga moslashtiradilar.

Bolaning psixik rivojlanishini kuzatgan psixologlar (L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, J.Piaje) ning aniqlashicha, mazkur rivojlanishning o'ziga ular bolaning o'zi yashab turgan muhitga (bog'cha, oilada) xos xususiyatlariga ega bo'lgan davrlari mavjud bo'lib, o'rni, bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari, holatlari, shaxsi va ongining rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan bola shaxsi rivojlanishining ham o'z qonunlari bor. Bu qonunlar psixologiya faning maxsus tarmog'i — bolalar psixologiyasining predmetiga kiradi. Har bir fanning o'z predmeti borligi singari bolalar psixologiyasining ham o'zi tekshiradigan sohasi hamda tadqiqot metodlarining vazifalarini hal qilish bilan amaliy maqsadlarni ro'yobga chiqaradi; ta'lim-tarbiya ishlarini

takomillashtirishga yordam beradi, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqatni to'g'ri yo'naltirishga, jamoada ijobiy psixologik iqlim yaratishga, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bolaning psixikasi, shaxs xususiyatlarini rivojlanishi ta'lim-ta'rbiyaga va tashqi muhitga bog'liq. Nerv-sistemasining tuzulishiga ko'ra bir bola ikkinchi bir boladan ajralib turadi. Masalan, bir bola 2-3 yoshidanoq qaysar, o'jar bo'lib mustaqil bo'lishga intilsa, boshqa bir bola yuvvosh, kattalarning gapiga kiradigan, mo'min qobil bo'ladi.

Lekin, bola shaxsidagi tug'ma xususiyatlar ham hayoti va faoliyati jarayonida, tashqi ta'sir, tarbiyaning ta'siri ostida rivojlanib, o'zgarib boradi. Tug'ma ravishda, biologik yo'l bilan bolaga otanaga yoki avlodlariga o'xshashlik belgilari soch, ko'z, yuzlarining rangi, tuzulishi, bo'y-basti, ovoz toni hamda psixik xususiyatlaridan nerv sistemasining tiplari – temperament, qobiliyat kurtaklari, layoqat, ehtiyojlari beriladi. Bolaning nerv sistemasi plastiklik xossasiga ega bo'lgani uchun u o'zgaruvchandir. Bola kattalarning tarbiyalashi va o'qitish jarayonida kamol topadi. Shuning uchun bolalar psixologiyasi pedaagogikadan, tarbiya va o'qitish nazariyasidan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Bu bolaning rivojlanishi uchun sharoit, vaziyat topish hamda ijodiy yondashishni talab qiladi. Dastlab bola tor oila muhitidan sekin-asta keng bog'cha, maktab, jamoa muhitida yashaydi. Oilada u kattalarga taqlid orqali juda ko'p fazilatlar egallaydi. Ta'lim-tarbiya orqali bolalar o'qish, yozishni, bilim, ko'nikma va malakalarni, keng dunyoqarashni egallaydi. Salbiy fazilatlar maktab ta'siri ostida ijobiy tomonga yo'naltiriladi. Maktabga kelayotgan bola o'qish kerakligini chunki hamma o'qiyotganini biladi. Bir necha yil o'tgach, uning o'qishga bo'lgan munosabati bilimlarning rolini tushunib yetish, faqat oila va maktab oldidagi burchini emas, balki jamiyat oldidagi burchini ham his etish bo'lib qoladi. Yil sayin o'quvchilarning ongliligi oshib boradi, diqqatining, xotirasining ixtiyoriyligi ortadi, qiziqishlari, tafakkuri va nutqi rivojlanadi, faoliyatidagi aktivligi va mustaqilligi ortadi, irodasi mustahkamlanib, shaxsning ma'naviy qiyofasi barqaror bo'lib boradi.

Ma'lumki, odam shaxs sifatida muntazam, qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo'ladi, ya'ni

oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'yadi, shakllanadi. Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlar, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashlari tarkib topadi.

Ingliz olimi Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini "top-toza taxtaga" o'xshatadi. Uning fikricha bolaning "top-toza taxta" tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlarning ixtiyoridadir.

Shuning uchun bolaning qanday bo'lib yetilishi ya'ni, unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgaralar bilan muloqat jarayonida oladigan hayotiy tushucha va tasavvuriga bog'liqdir deb ta'kidlaydi.

Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamdagi tug'ma irsiy mexanizmlar uning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi-yu biroq uning mazmuni ham, shaxsiy fazilatini ham belgilab bera olmaydi.

Bola o'z rivojlanishida bir qancha bosqichlarni yoki yosh davrlarni bosib o'tadi:

PSIXIK TARAQQIYOT DAVRLARI

- 1.GO'DAKLIK DAVRI (TUG'ILGANDAN – 1 YOSHGACHA)
- 2.ILK YOSHDAVRI (1–3 YOSH)
- 3.MAKTABGACHA TARBIYA (3–6,5 YOSH)
- 4.KICHIK MAKTAB YOSH DAVRI (7–11 YOSH)
- 5.O'SMIRLIK DAVRI (11–15 YOSH)
- 6.O'SPIRINLIK DAVR (15–18 YOSH)

Ijtimoiy muhit ham bola psixikasini rivojlanishida muayyan rol o'ynaydi. Faqat buning uchun bolani o'qiyotgan kishilarining ta'siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir. Bolalar dastlab oilaviy turmush sharoitining ta'sirida o'sadi. Bola o'sgan sari muhit doirasi kengaya boradi. Oila hayotining umumiy tuzumi bola psixikasining taraqqiy etishiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Oilaning uyushqoqsizligi, o'ylamay yoki puxta o'ylab ko'rsatadigan ta'siri bolada chuqur iz qoldiradi. Muhit bolalar psixikasining o'sishiga

ta'sir ko'rsatadi, lekin muhit o'zgarmaydigan bir narsa emas. Jamiyat hayotining ijtimoiy-tarixiy sharoiti o'zgargan sayin, bola yashayotgan muhit ham o'zgarib boradi.

Bolalar psixikasining rivojlanishi ko'p jihatdan tarbiyaga va atrofdagi muhitning ta'siriga bo'liq. Bir bola 2-3 yoshidayoq qaysarlikka, qattiq turib olishga moyil bo'ladi, mustaqil bo'lishga intiladi, boshqa bolada esa huddi shu yoshda birovning gapiga kirish, yon berish, biror narsani boshqalarning ko'rsatmasi bilangina qilishga moyillik sezgilari bo'ladi. Lekin kishida tabiatdan mavjud bo'lgan xususiyat shaxsning hayoti va faoliyati jarayonida har xil tashqi ta'sirlarning va tarbiyaning ta'siri ostida rivojlanib, o'zgarib boradi. Kishilarning psixik sifatlari tevarak-atrofdagi hayot va mohir tarbiyachi tomonidan yo'naltirib turiladigan faoliyat ta'siri ostida o'zgarib borishi mumkin. Irsiyat ham katta ahamiyatga ega bo'ladi, lekin u bolaning kelajagini belgilab bermaydi, uning kelajagi ko'p jihatdan atrofdagi muhitning salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishiga bog'liq bo'ladi.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bo'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan, *birinchidan* – inson tug'ilib, voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri; *ikkinchidan* – odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'siri; *uchinchidan* – odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Muhit ma'lum qaratilgan ta'lim va tarbiya, azaldan berilgan genetik jihatdan qat'iy belgilangan, nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiruvchi shart-sharoitlardir. Bu borada, *birinchidan*, odam muhit ta'siri ostida passiv obyekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir. Shu bois tashqi hayot sharoiti tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol ta'sirining ahamiyati kattadir. *Ikkinchidan* – psixikaning rivojlanishi tashqi sharoitlarga tashqi ta'sirlarga bog'liqdir, lekin bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. *Uchinchidan* – odam faol mavjudot sifatida o'zi ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi bilan shug'ullanishi mumkin, lekin bu jarayon atrof-

muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Bola shaxsining rivojlanishi faqat sifatlarning ko'payishi, to'planishi tariqasida ro'y bermaydi. Masalan, 3-sinf o'quvchisida u yetti yoshlik bola bo'lgan vaqtdagiga nisbatan dunyo haqidagi bilimlar hajmi kengayibgina qolmasdan, bu bilimlar unda sifat jihatdan ham boshqacharoq bo'lib qolgan, maktab o'quvchisi ularni yangicha anglab olgan.

Maktabga ketayotgan bola o'qish kerakligini, chunki hamma o'qiyotganini biladi. Bir necha yil o'tgach uning o'qishga bo'lgan bahosi bilimlarning rolini tushunib yetish, faqat oila va maktab oldidagi burchini emas, balki jamiyat oldidagi burchini ham his etish bo'lib qoladi. Yil sayin o'quvchining ongliligi oshib boradi, diqqatining, xotirasining ixtiyoriyligi ortadi, o'z tuyg'ulari, istaklarini boshqarib olish mahorati takomillashadi, qiziqishlari, tafakkuri va nutqi rivojlanadi, faollikdagi aktivligi va mustaqilligi ortadi, irodasi mustahkamlanib, shaxsning ma'naviy qiyofasi yanada barqaror bo'lib boradi. Shu bilan birga bitta yosh davrdan boshqa yosh davrga o'tish hamisha ham sekin-asta ro'y beravermaydi, ba'zi yangi psixik sifat atrofdagilar uchun, shu jumladan, tarbiyachilar va ota-onalar uchun kutilmaganda paydo bo'ladi.

Tayanch iboralar:

faollik, irsiyat, muhit, ta'limot, oqim nazariyalari, biogenetik, sotsiogenetik, emperizm, taraqqiyot.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yosh davrlar psixologiyasi fanining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Bola shaxsining rivojlanishida ta'lim-tarbiya qanday ahamiyatga ega?

3. Bola shaxsining rivojlanishida shaxsiy faollikning tutga o'rni.

4. Bolaning rivojlanish bosqichlari.

5. Bolaning rivojlanishida muhitning ko'rsatgan ta'siri.

CHAQALOQLIK DAVRINING JISMONIY RIVOJLANISHI

Bolaning go'daklik (chaqaloqlik) davri jismoniy jihatdan juda tez rivojlanish davridir. Odatda odamning yoshi tug'ilgan kundan boshlab hisoblanadi. Lekin aslida odamning dunyoga kelishi, rivojlanishi tug'ilmasdan ilgarigi, ya'ni ona qornidagi davridan boshlanadi. Bola onaning qornidaligi davrida, ya'ni to'qqiz oy mobaynida juda tez va juda murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Bolaning tug'ilgandan keyingi normal taraqqiyoti uning ona qornidagi taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun bolaning tug'ulgunga qadar bo'lgan taraqqiyotiga ham diqqat-e'tibor bilan qarash lozim, chunki tug'ulgunga qadar ham bolaga tashqi muhit ta'sir qiladi. Lekin bu ta'sir faqat ong orqali, onaning organizmi orqali bo'ladi. Homiladorlik davrining har jihatdan normal o'tishi bolaning ona qornidagi normal taraqqiyotini va har jihatdan yetuk tug'ilishini ta'minlaydi.

Bolaning tug'ilgandan keyin bir yoshgacha bo'lgan davri nisbatan kam harakat va «nutqsiz» taraqqiyotdir. Bu davrda bolaning o'sishi va taraqqiyoti tor oila va yasli doirasida yuzaga keladi. Ammo shunday bo'lsa ham bu davr har jihatdan juda ildam rivojlanish davridir. Bu davrda bola deyarli faqat ona suti bilangina ovqatlanadi, u hali gapira olmaydi va mustaqil harakat qila olmaydi. Bu davrda bola ojiz bo'lib, kattalarning doimiy va to'g'ri parvarish qilishlariga muhtoj bo'ladi.

Yoshga qarab bola gavdasi tuzilishining o'zgarib borishi. Yangi tug'ilgan va bir yoshgacha bo'lgan bolalarning tashqi qiyofalari katta odamlarning tashqi qiyofalaridan ancha farq qiladi. Yangi tug'ilgan bolaning boshi gavdasiga nisbatan juda ham katta (gavdasining to'rtidan bir qismiga barobar), bo'yni deyarli yo'q darajada qisqa, gavdasi uzun, oyoq-qo'llari gavdasiga nisbatan qisqa bo'ladi. Katta yoshli odamning boshi gavdasining sakkizdan bir qismiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari chaqaloq bolaning yuzi juda kichkina bo'ladi, chunki yuqorigi va pastki jag'lari hali ishlamaganligi tufayli rivojlanmagan bo'ladi. Chaqaloq bolalar ichki organlarining holati va faoliyati ham katta odamlarnikidan anchagina farq qiladi. Masalan, o'pkadagi havo kiradigan mayda pufakchalarning son miqdor jihatidan katta odamlarniki bilan barobar bo'lsa ham, ular juda mayda bo'ladi (katta odamlarnikiga nisbatan uch barobar kichik bo'ladi). Shuning uchun

chaqaloq bolalar katta odamlarga nisbatan uch barobar tez nafas oladilar. Chaqaloq bola bir minutda – 60 marta nafas olsa, katta yoshdagi odam xuddi shu vaqt ichida 14–16 marta nafas oladi. Chaqaloq bola jismoniy jihatdan juda tez o‘sayotganligi tufayli sof havoga ayniqsa muhtoj bo‘ladi. Ilk yoshdagi bolalarning taraqqiyotida buni albatta hisobga olish zarur.

Agar chaqaloq bola o‘ringa o‘ng‘ay holatda yotqizilmasa, siqib yo‘rgaklansa va ochiq havoga olib chiqilmasa, uning nafas olishida qo‘shimcha qiyinchilik vujudga keladi.

Chaqaloq bolaning yuragi katta odamning yuragiga nisbatan anchagina tez uradi. Masalan, katta odamning yuragi bir minutda o‘rtacha 70–75 marta ursa, chaqaloq bolaning yuragi 120 va undan ortiq marta uradi. Buning asosiy sababi chaqaloq bolalar yuragining har bir qisqarishida bosib chiqargan qon hajmini (miqdorining) ozligi, yurak muskullarining hali zaifligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, chaqaloq bolalar yuragining nisbatan tez urishi ular organizmida modda almashish jarayonining intensivligi (jadalligi) bilan ham bog‘liqdir.

Chaqaloq bolalarda badanning haroratini idora qilish hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Chaqaloq bolalarda tanasining vazniga qaraganda terisining umumiy sathi (yuzasi) nisbatan katta hamda terisi katta odamlar terisiga qaraganda ancha yupqa bo‘ladi. Shu sababli ular normal taraqqiyot uchun kerakli haroratni yo‘qotib sovuq qotishi mumkin. Chaqaloq bola bilan munosabatda bo‘ladigan tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, bu yoshdagi bolalarning haroratlari tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bolaning ortiqcha harakatlari ham, ovqat yeyishi ham haroratiga ta‘sir qiladi. Shu sababli chaqaloq bolalarni tarbiyalashda kun tartibining ahamiyati nihoyatda kattadir. Chaqaloq bolalarni hamisha o‘z vaqtida ovqatlantirish, uxlatish va o‘z vaqtida u bilan shug‘ullanish (gaplashish, o‘ynatish) kerak.

Chaqaloq bolalarning ovqat hazm qilish a‘zolari ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Ularning oshqozonlar hali juda kichkina, oshqozon va ichak muskullari rivojlanmagan, juda zaif bo‘ladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi ovqati ona sutidir. Bolalar katta odamlarga nisbatan tez-tez ovqatlantiriladi. Buning sababi ravshan. Agar katta odamlarga ovqat sarf qilgan quvvatlarini tiklash maqsadida kerak bo‘lsa, bolalar uchun esa ovqat sarf qilgan quvvatlarini tiklashdan tashqari o‘sislari uchun ham kerak. Bolaning organizmi esa to‘xtovsiz

o'sadi, buning uchun juda ko'p ozuqa moddalar kerak bo'ladi. Ozuqa moddalarni bola ovqat orqali oladi. Shu sababli bolaning jismoniy jihatdan normal o'sishida o'z vaqtida ovqatlanishi va ovqatning sifati juda katta ahamiyatga ega.

Normal tug'ilgan bolaning o'rtacha vazni 2800–3500 g, bo'yi 45–52 santimetr bo'ladi. Bir yil davomida uning vazni va bo'yi ayniqsa sezilarli o'zgaradi. Normal o'sib, ulg'ayayotgan bola yarim yoshga yetganida uning vazni ikki barobar, bir yoshga yetganida esa uch barobar ortadi. Bolaning vazni dastlabki oylarda, ayniqsa, bir-uch oyligida ko'proq ortadi. Keyinroq borib vaznning ortishi birmuncha sekinlashib boradi va bir yoshga to'lgach, bolaning vazni 9 kg ga yetadi.

Bir yoshga to'lgunga qadar bolaning bo'yi ham juda tez o'sadi. Keyin bo'yining o'sishi ham ancha sekinlashadi. Agar bola bir yoshga to'lguncha taxminan 25 sm ga o'ssa, keyingi ikki yil ichida faqat 18 sm ga o'sadi.

Yangi tug'ilgan bolaning suyaklari, ya'ni skleti hali katta odamlarniki singari qattiq va mustahkam bo'lmaydi. Chaqaloq bolaning skeleti deyarli yumshoq tog'aydan iborat bo'ladi. Keyingi taraqqiyot davrida, ya'ni bir yoshga to'lguncha uning skeleti suyakka aylana boshlaydi. Agar bola chaqaloqlik davrida noto'g'ri parvarish qilinsa, uning skeletidagi turli qismlar noto'g'ri o'sib, biror yeri qiyshiq bo'lib qolishi mumkin. Ko'pchilik hollarda bolaning noto'g'ri o'tirishi, noto'g'ri yotishi natijasida umurtqa suyagi qiyshayib qolishi mumkin, chunki umurtqa suyagi juda elastik (egiluvchan) bo'ladi.

So'nggi yillarda bolalar organizmini noto'g'ri parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan skolioz kasalligi haqida ko'plab gapirilmoqda. Darhaqiqat, bolalarda paydo bo'ladigan skolioz (umurtqa suyagining qiyshayib qolishi) kasalligi ko'pchilik hollarda bolalar gavdasining normal o'sishiga ota-onalar va tarbiyachilarning befarq munosabatda bo'lishlari tufayli yuzaga keladi. Skolioz (bukri) kasalligi juda og'ir majruhlikdir. Skolioz asosan ikki yo'l bilan paydo bo'ladi. Ulardan birinchisi tug'ma skolioz bo'lsa, ikkinchisi individual hayot davomida orttirilgan skoliozdir. Biz asosan ana shu individual hayot davomida bo'ladigan skoliozning oldini olishimiz, ya'ni uning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Skolioz kasalligi dastavval mutlaqo bilinmaydi va juda sekinlik bilan rivojlanadi. Vaqt o'tishi bilan u ko'zga tashlana boshlaydi.

Skolioz kasalligi juda qiyin davolanadi. Uni davolashda ortoped-shifokorlar juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar. Skolioz kasalligi o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham uchraydi. Qiz bolalarning muskul va skeletlari o'g'il bolalarga nisbatan zaifroq bo'lganligi tufayli ular skolioz kasalligiga moyilroq bo'ladilar. Bolalarda uchraydigan skolioz kasalligi muskul va skletlarning tez o'sishi va bu o'sish davomida bolalarni noto'g'ri o'tirishlari va noto'g'ri yotishlari tufayli maydonga keladi. Skolioz kasalligiga uchragan bola juda nogiron qiyofaga kirib qoladi.

Skolioz kasalligiga uchramaslik uchun bola yotadigan to'shak tekis, boshiga qo'yiladigan yostiq ham ortiqcha baland bo'lmasligi kerak. Bola yurishni o'rgana-yotganida goh o'ng, goh chap qo'lidan ushlab unga yordam berish lozim. Ana shu kabilarg'a rioya qilgandagina bolani skolioz (bukr) kasalligidan saqlab qolish mumkin.

Yangi tug'ilgan bolaning kalla suyagi hali yaxshi qotmagan bo'lib, uning oldingi qismida peshana liqildog'i va orqa qismida esa esa liqildog'i bo'ladi. Bola bir yoshga to'lguncha uning kalla suyagi qotib, bu bo'shliqlar (liqildoqlar) tutashib ketadi. Liqildoqlarning biri 2–3 oy mobaynida, ikkinchisi bola 12–14 oylik bo'lgandagina tutashib, bitib ketadi. Chaqaloq bolalar kalla suyagining hali yaxshi qotmaganligi va ayrim joylarining tutashmaganligini nazarda tutib, ularni doimo ehtiyot qilish lozim. Bola yoshga to'lib, yurib ketgach, u jismoniy jihatdan ancha mustahkamlanib boradi.

Go'daklik davrida nerv sistemasining rivojlanishi. Bola psixik taraqqiyotining anatomik va fiziologik asosini tashkil etuvchi nerv sistemasining rivojlanishi bolaning bir yoshgacha bo'lgan davrida juda jadal sur'at bilan boradi. Bola anchagina takomillashgan nerv sistemasi bilan tug'iladi. Biroq chaqaloq bolalarning nerv sistemasi o'zining tuzilishi va vazifasi (funksiyasi) jihatidan katta odamlar nerv sistemasidan keskin farq qiladi.

Chaqaloq bolalar nerv sistemasining hamma qismlari barobar rivojlanmaydi. Ularda eng oldin nerv sistemasining quyi qismlari, ya'ni orqa miya, uzunchoq miya takomillashadi. Chunki nerv sistemasining bu qismlari tug'ma yo'l bilan o'tadigan shartsiz reflekslarning markazlari hisoblanadi. Eng oxiri nerv sistemasining yuksak qismlari, ya'ni oliy nerv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan katta miya yarim sharlari va uning po'stloq qismi takomillashadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloq bolalar katta miya yarim sharlari o‘zining tuzilishi va tashqi ko‘rinishi jihatidan katta odamlar miyasidan deyarli farq qilmasada, vazni (og‘irligi, massasi) jihatidan keskin farq qiladi. Masalan, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, katta odamlar miyasining o‘rtacha vazni 1500 g bo‘lsa, yangi tug‘ilgan chaqaloq miyasining vazni 350–400 g bo‘ladi. Bundan tashqari, chaqaloq bolalar bosh miya yarim sharlari po‘stining burmalari katta odamlarnikiga qaraganda juda sayoz bo‘ladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq bolalar bosh miya katta yarim sharlari po‘stidagi nerv hujayralarining soni katta odamlarnikidan kam bo‘lmaydi, ya‘ni 14–15 milliard bo‘ladi. Bosh miya katta yarim sharlari po‘stidagi nerv hujayralari (neyronlar) odamga tug‘ilishdanoq ma‘lum miqdorda berilgan bo‘ladi. Keyinchalik odamning individual hayoti davomida bunday nerv hujayralari birorta ham qo‘shilmaydi. Farq faqat shundaki, chaqaloq bolalar bosh miyasi katta yarim sharlari po‘stidagi nerv hujayralari hali tuzilishi jihatidan juda sodda, hajm jihatidan kichik, o‘simtalari (dendrit va neyrit) yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bolalar nerv sistemasining rivojlanishi davomida har bir hujayradan ko‘proq miqdorda dendritlar o‘sib chiqaveradi. Shu tariqa bolalar bosh miyasi katta yarim sharlari po‘stining sathi orta boradi. Bola yoshiga to‘lguncha jismoniy jihatdan tez o‘sar ekan, uning nerv sistemasi ham rivojlanadi. Chunonchi, yangi tug‘ilgan bola miyasining umumiy vazni 1 yoshga to‘lguncha 600 grammga ortadi.

Chaqaloqlarda sezgilarini rivojlanishi. Chaqaloq bolalarning hamma analizatorlari (sezgi a‘zolari) tug‘ilishidanoq normal faoliyatga tayyor bo‘ladi. Bola teri, ya‘ni badan analizatorlari orqali haroratni (issiq va sovuqni), biron narsa tekkanini va og‘riqni sezadi. Chaqaloq bolaning badani haroratga nisbatan juda sezgir bo‘ladi. Shuning uchun tez sovqotadi. Bola tarbiyalanadigan uyning harorati 20 gradusdan kam bo‘lmasligi kerak. Agar bolaning yuzi yoki labiga qo‘lingizni tekkizsangiz, u darhol emish harakatlarini qila boshlaydi. Bolaning kiyimi yoki yo‘rgaklari buklanib qolib, bo‘yniga yoki boshqa bir yeriga botsa, u bezovtalanib, yig‘lay boshlaydi. Ana shulardan ko‘rinib turibdiki, chaqaloq bolaning badan analizatorlari dastlabki kunlardanoq yaxshi ishlaydi.

Bolada tug‘ilgan kundan boshlab, hid va ta‘m bilish analizatorlari ham normal ishlay boshlaydi. Chaqaloq bolaning og‘ziga emizik bilan biron taxir yoki achchiq narsa solinsa, u aftini burishtirib, bezovtalanib,

so'laklari bilan uni chiqarib tashlaydi. Bola qo'lansa hiddan ham bezovtalanadi. Demak, chaqaloq bolalarda hid va ta'm bilish analizatorlari ham normal holatda bo'ladi.

Ko'rish va eshitish analizatorlari murakkab analizatorlar hisoblanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolalarda bunday murakkab analizatorlar ham faoliyatga tayyor bo'ladi. Chaqaloq bolalarda ko'rish refleksini bemalol kuzatish mumkin. Agar bir oz qorong'iroq uyda bola ko'zlarini ochib yotgan paytida to'satdan chiroq yoqib yuborilsa, u darhol yorug'likdan ko'zlarini yumib oladi. Lekin chaqaloq bolalarning ko'rish analizatorlari (ko'zlari) hali yaxshi takomillashmagan va ishlashga muvofiqlashmagan bo'ladi. Yangi tug'ilgan bola dastlab faqat ko'zining to'g'risidagi narsalarni ko'ra oladi. Buning sababi shundaki, chaqaloq bolalarda ko'z to'r pardasidagi markaziy qismlargina sezish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ko'rish retseptorlari joylashgan ko'z to'r pardasining chekka qismlari keyinroq ishga tushadi. Shuning uchun chaqaloq bolalar yon tomonlaridagi narsalarni yaxshi ko'ra olmaydilar. Bundan tashqari, ularda ko'zni qimirlatadigan muskullar ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ana shu sababli chaqaloq har ikkala ko'zini ayni bir vaqtda barobar qimirlata olmaydi. Natijada bir ko'zi g'ilayroqqa o'xshab turadi. Bola bir oyga to'lgandan keyin har ikkala ko'zi moslashgan holda harakat qiladigan bo'ladi. Ana shu davrdan boshlab bola biron narsaga tikilib qaray olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Yangi tug'ilgan bola dastlabki bir hafta davomida yaxshi eshitmaydi. U faqat qattiq tovushlarnigina eshinishi mumkin. Bunga sabab shuki, bola ona qornidaligida uning o'rta quloqlari suyuqlik bilan to'lib qolgan bo'ladi. Keyinchalik bu suyuqlik shimilib, singib ketgandan so'ng o'rta quloqning havo to'lqinlari kiradigan yo'li ochilib, bola eshitadigan bo'ladi.

Ko'rish va eshitish kabi murakkab analizatorlarning chaqaloq bolalarda hali yaxshi takomillashmaganligini sabablaridan yana biri yangi tug'ilgan bolalarda bosh miyaning po'sti yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Barcha analizatorlarning markaziy qismlari esa bosh miya po'stida joylashgan bo'ladi. Bola tug'ilgandan keyin birinchi oylarda uning bosh miyasi va ayniqsa, bosh miya po'sti tez rivojlanadi. Miya po'stida analizatorlar markaziy qismlarining rivojlanishi natijasida dastlabki shartli reflekslarning vujudga kelishi uchun sharoit tug'iladi. Ana shu tariqa bola bir oylik bo'lgandan so'ng uning teri,

harakat, hid va ta'm bilish, ko'rish va eshitish analizatorlarida shartli reflekslar paydo bo'la boshlaydi. Bir oylik bolani qo'lga olishingiz bilan yig'isi to'xtab, tinchib qoladi. Bu bolaning qo'lga o'rganib qolgani ko'rsatadi. Bolaning qo'lga o'rganishi unda teri, hid, harakat (kinestetik) va ko'rish analizatorlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab shartli reflekslar vujudga kelganligini ko'rsatadi. Shuni unutmaslik kerakki, noto'g'ri tarbiyalangan bolada bu refleks nihoyat darajada mustahkam o'mashib qolib, natijada bola o'z o'mida yotmaydigan va faqat qo'lda uxlashni talab qiladigan bo'ladi. Bu esa bolaning normal o'sishiga zarar yetkazadi.

Bola ulg'aygan sari ko'rish va eshitish analizatorlari bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Keyinchalik bu analizatorlar bolaning tevarak-atrofdagi muhitni bilib olishida tobora katta rol o'ynaydi. Bola ikki oylik bo'lganida, uning deyarli hamma analizatorlarida shartli reflekslar paydo bo'ladi. Bu shartli reflekslar tobora ko'payib va murakkablashib, bola psixikasining o'sishida fiziologik negiz bo'lib qoladi.

Tayanch iboralar:

shartli va shartsiz reflekslar, bolaning bo'yi, vazni, nerv tizimi, miya tuzilishi, skolioz, bolaning ko'rish va eshitish sezgisi, kinestetik sezgisi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Chaqaloq va go'dak bolalarni o'rganish.
2. Chaqaloqlarning sezgilariga xos bo'lgan xususiyatlarini kuzatish.

Mavzu yuzasidansavollar:

1. Chaqaloqlardagi shartsiz reflekslarning ko'rinishlarini tavsiflang.
2. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning bo'yi va vazni hamda uni ortib borishini ayting.
3. Go'dak bola nerv sistemasinining rivojlanishini tushuntiring.
4. Chaqaloqlarda sezgilar qanday rivojlanib boradi?

CHAQALOQLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ilk yoshdagi bolalar jismoniy jihatdan tez rivojlanishi bilan birga psixik jihatdan ham juda tez rivojlanadilar. Chaqaloq bolalar psixikasining rivojlanishi, birinchidan, analizatorlarning takomillashuvi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustaqil harakatlarining o'sishi bilan bog'liqdir. Analizatorlarning tez takomillashuvi natijasida bola uch oylik bo'lgandan so'ng unda dastlabki shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Demak, ana shu davrdan boshlab bola psixikasi tez rivojlanish yo'liga kiradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, dastavval bolada harakat analizatorlari bilan bog'liq bo'lgan, undan so'ng eshitish va ko'rish analizatorlari bilan bog'liq bo'lgan shartli reflekslar yuzaga keladi. Ana shu tariqa barcha analizatorlarga nisbatan har xil murakkablikda shartli reflekslar tobora ko'plab yuzaga kela boradi. Shartli reflekslarning yuzaga kelishi bola psixikasining rivojlanishi uchun moddiy zamin bo'ladi.

Keyinchalik, ya'ni ikki-uch oylik bolalarda analizatorlar faoliyatining takomillashuvi natijasida ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarni farqlash qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Dastavval turli ovozlarni, so'ngra ayrim yorqin ranglarni, ta'mlarni, farqlay boshlaydi. Nihoyat, uch oylik bola atrofidagi juda ko'p narsalardan odamni farqlaydigan va odamga nisbatan qandaydir boshqacha reaksiya qiladigan bo'ladi. Uch oylik bola oldiga kelgan odamga tikilib, emotsional munosabatda bo'la boshlaydi. U odamga uzoq vaqt tikilib qaraydi. Lablarini harakatlantirib, tilini aylantirib, go'yo odamning nutqiga taqlid qilmoqchi bo'ladi. Ana shu davrdan boshlab bolalar bilan imkoni boricha mehribonlik ohangida gaplashib turish kerak. Ana shunday munosabatlar natijasida bolada qandaydir aktivlik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi. Rus psixologlari bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatdan yuzaga keladigan emotsional reaksiyalarni jonlanish kompleksi deb ataganlar. Bu kompleksda bola uning bilan munosabatda bo'layotgan odamga muloyim tikilib, jilmayadi, qo'l va oyoqlari bilan talpinib, qandaydir ovoz chiqaradi. Bolada qandaydir kuchli mamnunlik hissi yuzaga keladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, agar bolalar bilan keragidan ortiq darajada munosabatda bo'lib, ularda jonlanish kompleksini yuzaga keltira berilsa, ular kattalarga o'rganib qoladilar va o'yinchoqlarga qaramay qo'yadilar.

Chaqaloq bola yoshiga to'lguncha juda ko'p harakatlarni o'zlashtirib oladi. Bolaning qiladigan turli-tuman harakatlari orasida qo'l harakatlari psixik taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan harakatlardir. To'rt oylik bola narsalarga qo'l cho'zadigan bo'ladi, ammo u hali o'zining qo'l harakatlarni idora qila olmaydi. Bola besh oylik bo'lgach, narsalarni ushlab, uni paypaslab, timirskilab ko'radigan bo'ladi. Bolaning qo'l harakatlari atrofdagi narsalarni bilish quroliga aylanadi, chunki u narsalarni paypaslab, timirskilab ko'rish orqali ularning ayrim xususiyatlarini bilib oladi.

Bolaning psixik taraqqiyotida murakkab harakatlarni egallab boriishi juda katta rol o'ynaydi. Bola olti oylik bo'lgach, mustaqil o'tira oladigan bo'ladi. Bola o'tira boshlagandan so'ng uning nazar doirasi kengayib, unda yangidan-yangi taassurotlar paydo bo'ladi. Bola ko'z o'ngida yangi taassurotlarning paydo bo'lishi idrok, diqqat, xotira kabi psixik jarayonlarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Bola sakkiz oylik bo'lgach, yana bir murakkab harakatni, ya'ni emaklashni boshlaydi. Bola psixikasining rivojlanishida bu yangi harakatning ahamiyati juda kattadir. Emaklay boshlagach bolaning atrofdagi narsalar bilan munosabatda qo'llash imkoniyati kengayadi. Natijada mustaqil harakat qilib, yangidan-yangi narsalarni taniy boshlaydi. Bolani hamma narsa qiziqtiradi. U bir narsani olib ikkinchi narsaga urib taqillatadi va chiqayotgan ovozga quloq soladi. Odatda bu yoshdagi bolalar biron narsaning qopqog'ini ochib yopishni yoqtiradilar. Bunday harakatlar bolaning qo'l muskullarini mustahkamlaydi va narsalarning turli xossalarni bilib olishlariga yordam beradi.

Og'ir kasallikka uchramay, jismoniy jihatdan sog'lom o'sgan bola 9—10 oylik bo'lganida yura boshlaydi. Bolaning mustaqil tarzda yura boshlashi uning hayotida g'oyat katta hodisadir. Bola yura boshlagandan so'ng uning psixik taraqqiyoti uchun juda katta imkoniyatlar yuzaga keladi. Yura boshlagan bolaning aktivligi kun sayin ortib, erkin harakat qilish doirasi kengayadi. Bemalol yura oladigan bola tor uy doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa idrok doirasini kengaytirib, mazmundor bo'lishiga yordam beradi.

Go'daklik davrida nutqni o'sishi. Bolada nutqning o'sishi uchun kerakli asos, uning go'daklik davrida vujudga keladi. Chinakam nutq go'daklik davridan o'tgandan keyin shakllanadi, lekin shunga qaramay, go'dak bolada nutqning dastlabki belgilari uning psixikasini o'stirishda juda katta rol o'ynaydi.

Nutq paydo bo'lishidan oldin bola tayyorgarlik bosqichidan o'tishi kerak. Tayyorgarlik davrida bolaning ovoz apparati takomillashadi, u tovushlarni talaffuz etishni mashq qiladi: bolaning dastlabki kunlaridagi yig'isiyoq, uning nafas olish apparatini, tomoq muskullarini va ovoz pardalarini mashq qildiradi, bu esa butun nutq apparatining ishlashi uchun zarurdir. 2-3 oylik bo'lganida bolada qichqirib yig'lashdan tashqari qandaydir yangi xatti-harakatlar paydo bo'ladi. Agar bola sog'lom bo'lsa, qorni to'q bo'lsa, hech bir narsa uni bezovta qilmasa, u anchagina vaqtgacha turli tovushlarni talaffuz qilib yotishi mumkin. Bunday vaqtlarda u "g", "k", "x" tovushlarni ko'proq chiqaradi. "Guvranish" deb ataluvchi bunday harakati bilan bola o'zining mamnuniyat hissini izhor qiladi.

3-4 oylik bo'lganda bola chug'ur-chug'ur qila boshlaydi. U endi tovushlarni ilgaridek qisqa va uzib-uzib talaffuz qilmasdan, balki ohangdor qilib talaffuz etadi. Shundan so'ng bola "da-da", "na-na" singari ayrim bo'g'inlarni alohida-alohida talaffuz qila boshlaydi. Bolaning tili chiqishi bilan uning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi.

Ba'zi bolalar o'zlari o'rganib olgan bo'g'inlarni muttasil takrorlay beradilar, ba'zilari nisbatan "kamgap" bo'lib, faqat o'ziga yaqin kishilarni ko'rgandagina "tilga kiradi".

Bola 6 oyga to'lgandan keyin hali gapirmasa ham, lekin unda nutqsiz tafakkur elementlari paydo bo'ladi. Aslini olganda, bola biror narsani yoki kimsani tanishni o'rgangan vaqtdan boshlab unda tafakkur elementlari bo'ladi.

Bola 8 oylik bo'lganda kattalarning gapini tushuna boshlaydi. Dastlab u intonatsiyaga va mimikaga ko'proq e'tibor beradi. Intonatsiyani, ya'ni ovoz ohangini o'zgartirish bilanoq, bola kattalarning gapini tushunmay qoladi. Biroq keyinroq bola, 9-10 oy bo'lganda biror narsani ifodalovchi so'z aytilsa, bolada shu narsa to'g'risida tasavvur paydo bo'la boshlaydi. So'z bilan tasavvurni bog'lashda bola bilan maxsus mashqlar o'tkazish katta rol o'ynaydi. Buning uchun bolaga biror narsa (masalan, soat) bir necha marta ko'rsatilib, unga shu narsaning nomi bir necha marta takrorlab aytib beriladi. So'ngra boladan soat qani deb so'ralsa, u yuzini soatga buradi, keyinroq esa soatni qo'li bilan ko'rsatadigan bo'ladi va "chiq-chiq", deb taqlidiy tovushlarni talaffuz qiladi. So'z bilan tasavvurning bunday bog'lanishi bola aqlining

o'sishida katta ahamiyatga ega. Bunday bo'glanishning paydo bo'lishi I va II signal sistemalari o'rtasida bog'lanish boshlanganidan va II signal sistemasi tez rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Ana shu asosda bolaning tafakkuri tez o'sadi. Nutqning o'sishi bolada fikrlash jarayonlarining rivojlanishini tezlashtiradi. So'z narsalarning bir-biri bilan taqqoslashga, ularning o'xshashligini va farqini belgilashga, avvalgi tajribasiga asoslanib narsani fikrlashga yordam beradi. Bola narsalarning qanday atalishini bilib olib, har bir yangi narsaning otini bilganida, shu narsaning ilgari ko'rgan narsasiga o'xshash belgilari bilan taqqoslashni o'rganadi. So'z yordami bilan bola umumlashtirishga o'rganadi. Eng dastlabki umumlashtirishlar bola 8-9 oylik bo'lganida paydo bo'ladi. U lampaga intiladi, uni ushlab olib, qo'li kuyadi, so'ng esa tajribaliroq bo'lib qoladi.

To'g'ri, 1 yoshga to'lguncha bolaning so'zlari o'ziga xos bo'ladi, asosan taqlid tariqasidagi va tovushga taqlid qilib aytilgan so'zlar bo'ladi. Lekin bola shu so'zlarni talaffuz qilish bilan bir-biriga o'xshash narsalarning belgilarini ifodalaydi. U o'zi ko'rgan har bir sigirni "mo'" degan so'z bilan ataydi, har bir itni "vov" degan so'z bilan ifodalaydi. Shunday qilib, so'zlarni tushunish va birinchi marta talaffuz etish bolaning t u s h u n c h a n i egallashga tayyorlaydi. Bola bir yoshga to'lish oldidan 10-20 ta so'zni tushunadigan bo'lib qoladi va so'zlarni birinchi bor talaffuz qila boshlaydi. Lekin shuni nazarda tutush kerakki, o'zlashtirib olingan so'zlarning miqdori har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlariga qarab turlicha bo'ladi.

Bola, avvalo, o'z atrofidagi narsalarning otini bildiradigan so'zlarni o'rganadi. Ko'pincha bolaning birinchi o'rganadigan so'zi "oyi", "buvi", "ada" degan so'zlar bo'ladi, ya'ni u o'zi hamisha ko'rib turgan va o'ziga ko'proq yaqin bo'lgan kishilarning nomini ataydi. Bolaning yangi so'zlarni o'rganishida, tovushga t a q l i d qilish muhimdir. Shu sababli u sigirni "mo'" deb, itni "vov" deb, mushukni "miyov" deb atashga odatlanadi. Keyinroq bola so'z-jumlalarni talaffuz qiladigan bo'ladi. Bunday vaqtda bola otni ham, fe'lni ham (odatda buyruq fe'lini) bir so'z bilan ifodalaydi. Endi bola so'z-jumlani faqat narsaning nomini aytish uchungina ishlatmay, balki shu bilan birga, o'zining istagini va talabini bildirish uchun ham ishlatadigan bo'lib qoladi. Bolaning "oyi" deb aytgan so'zi "Oyi, menga qo'g'irchoqni olib ber" degan ma'noni, yoki "Oyi, meni ko'tar", yoxud "Oyi, qornim ochdi" va

shu kabi bir necha ma'noni ifodalashi mumkin. Ma'lumki, bolaning bunday nutqi aniq vaziyat bilan chambarchas bog'langan bo'lib, shu vaziyatdan tashqarida uning istagan narsasini tushunib bo'lmaydi.

Bola nutqining bundan keyingi o'sishi ko'p jihatdan kattalarning gapiga taqlid qilish yo'li bilan boradi. Bola kattalarning so'ziga taqlid qilib, yangi so'zlarni o'rganib oladi, shu so'zlarni jumla tariqasida bo'glab ifodalanishni o'rganadi. U kattalar bilan gaplashish va muomala qilish yo'li bilan yangi-yangi so'zlarni o'rgana boradi. Shu sababli bola bilan muomala qilishning to'g'ri tashkil qilinishi, atrofdagi kishilarning bola bilan qanchalik ko'p gaplashishi, ular talaffuz qilgan nutq va gaplarning qanchalik to'g'ri, aniq, ifodali bo'lishi bolalarning nutq malakasini oshirishda katta ro'l o'ynaydi. Bola bilan uning tilida, ya'ni tilni chuchuklashtirib gaplashish yaramaydi, bu tarzda gaplashish bola nutqining o'sishiga to'sqinlik qiladi. Buni shuning uchun ham esdan chiqarmaslik kerakki, nutqni egallash bola psixikasining o'sishiga va birincha navbatda, bola tafakkurining o'sishiga katta ta'sir o'tkazadi. Bola 1 yoshga to'lguncha nutq va tafakkurni egallashga birinchi qadamlarnigina qo'yadi. Bola bog'cha yoshiga yetguncha uning tafakkuri va nutqi yanada o'sib, takomillashib boradi.

HARAKATLAR	vaqti
1.Odamning gapiga ilk marotaba qaraydi	1 oyda
2.Tovush yoki buyumning jaranglashiga quloq soladi, harakatlari tormozlanadi	2 oyda
3.Gaplashganda kulgi bilan javob qaytaradi	2 oylik
4.Qo'lda ko'tarib, u bilan gaplashganda shu odamga ko'zini tikib turadi	3 oylik
5.Katta odam gapirganda unga javoban quvonadi, suyunadi, oyoq-qo'llarini tipirlatadi, tovush chiqaradi ("jonlanish kompleksi")	3 oylik
6.Tovushga qarab, ko'rinmaydigan narsani qidiradi – boshini tovush kelgan tomonga buradi	4 oylik
7.Uyg'oqlik paytida ko'p kuladi, qattiq-qattiq ovoz chiqaradi, ko'p harakat qiladi ("jonlanish kompleksi")	4 oylik
8. U bilan o'ynashganda qiqirlab kuladi	4 oylik
9.Unga gapirilgan gapning ohangini ajratadi	5 oylik
10.Uzoq vaqtgacha guvranadi.	5 oylik
11.Ayrim bo'g'inlarni ayta boshlaydi.	6 oylik
12. Uzoq vaqtgacha guvranib yotadi, o'sha bir xil bo'g'inlarni takrorlayveradi.	7 oylik
13. "Qani soat" shular va boshqa savolga, bir necha marta aytilgan, ma'lum bir joyda turgan narsani ko'zi bilan qidiradi.	7 oylik

14. Har xil bo'g'inlarni qattiq-qattiq takrorlayveradi.	8 oylik
15. Kattalarning iltimosini, masalan, "chapak chalish", "xayr-xayr", "qo'lchangni ber" harakatlarni o'rganadi.	8 oylik
16. Kattalarga taqlid qiladi, ular aytgan, oldin o'zi bilib olgan bo'g'inlarni takrorlaydi.	9 oylik
17. O'zini ismini biladi, chaqirganda qaraydi.	
18. Kattalarga taqlid qiladi, ulardan keyin har xil tovush va bog'inlarni takrorlaydi.	9 oylik
19. Kattalarning iltimosiga ko'ra tanish o'yinchoqlarni topadi va olib beradi (m-n, "koptokni ber, qo'g'irchoqni ber").	10 oylik
20. "Shoshma-shoshma" o'yiniga javob qaytaradi, "aji" deganda yuziga yo'rgakni tortadi, "qag'-qag'" deganda "qanotini" silkitadi.	10 oylik
21. Birinchi belgili so'zlarni aytadi, m-n, "vov-vov", "pish-pish", "ber" kabilar.	10 oylik
22. Yangi bo'g'inlarga oson taqlid qiladi.	11 oylik
23. O'nga yaqin so'zni aytadi.	12 oylik
24. Tushunadigan so'zlar boyligi ortadi, gapga qarab (imo-ishoralarsiz) bir necha buyumlarning nomini (o'zi ko'p o'ynagan narsalarni), o'rgangan harakatlarni, o'ziga tanish bo'lgan katta odam va bolalarning ismini biladi.	12 oylik 12 oylik

Bola dastlabki paytlarda tilga tushuna boshlashi katta odamlarning talaffuz intonatsiyalari va bolaga ko'rsatib qiladigan ishora harakatlari bilan bog'lanmagan bo'ladi. Shuning uchun hali yoshiga to'lmagan bolalar har bir so'zni shu so'z orqali ifodalangan yaqqol narsalar bilan bog'lay olmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, yoshiga yetmagan bolalarda ayrim so'zlarni tushunish hali ikkinchi signal darajasiga (ya'ni signalning signali darajasiga) ko'tarilgan emas. Bu degani shuki, hali yoshiga yetmagan bolalar so'zlarni shu so'zlar orqali ifodalangan narsalar bilan assotsiativ tarzda bog'lash orqali emas, balki intonatsiya va imo-ishora, harakatlar orqali tushunadilar. Bolalar nutqining o'sishi ular idroki, xotirasi, tafakkuri, xayoli va irodasi kabi yuksak psixik jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, ilk yoshdagi bolaning psixikasi uning aktiv faoliyati, turli-tuman harakatlari, o'z atrofidagi narsalarni ko'proq bilib olishi jarayoni rivojlanar ekan, uning erkin harakatlari uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bola harakatlarini cheklash esa psixikasining normal rivojlanishiga ma'lum darajada zarar yetkazadi. Shu sababli bolani harakat qilishga imkon bermaydigan holatga solib qo'yish

haddan tashqari qattiq siqib yo'rgaklamaslik, uzoq vaqt yo'rgaklangan holatda qolib ketmasligi kerak.

Tayanch iboralar:

go'dak "tili", narsalarni farqlash, odam ajratish, tana qismlari, bolaning ilk harakatlari, analizatorlarning o'sishi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Go'dak bolalarni kuzatish.
2. Go'daklarning ilk harakatlarini o'rganish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Chaqaloqlardagi ilk harakatlarning o'ziga xos ko'rinishlari.
2. Boladagi taqlid harakatlarini ortib borishini misollar bilan tushuntiring.
3. Go'dakning emaklashi va yurishga tayyorgarlik ko'rishi qaysi oydan ko'rinadi.
4. Bolaning kattalarni idrok etishi va kattalarning bolaga bo'lgan munosabati.

ILK YOSH DAVRINING JISMONIY JIHATDAN RIVOJLANISHI

Bola yoshidan oshgan, uning ilk go'daklik (chaqaloqlik) davri tugaydi. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davr odatda ilk yoshdagi (yasli yoshdagi) davr deb yuritiladi. Bu davrda ham bola jismoniy va psixik jihatdan tez rivojlanishida davom eta beradi. Lekin, uning rivojlanishi chaqaloqlik davridagiga nisbatan ancha sekinlashadi.

Bola yoshidan oshgach, uning tashqi qiyofasi anchagina o'zgaradi. Bu o'zgarish turli a'zolarining nisbati boshqacha bo'lib qolganligida ko'rinadi. Bir yoshdan oshgan, bolaning bosh suyaklari ilgarigidek tez o'smaydi. Boshining o'sishi bir oz sekinlashib, uning evaziga qo'l va oyoqlari tez o'sa boshlaydi.

Agar tug'ilgandan bir yoshga to'lguncha bo'lgan bolaning bo'yi 25 sm o'ssa, bir yoshdan ikki yoshga to'lguncha bo'lgan bolaning bo'yi 10 sm ga o'sadi. Ikki yoshdan uch yoshgacha esa, bolaning bo'yi faqat 6 – 7 sm ga o'sadi. Ilk yosh davrda bolaning vazni ham

ana shu tariqa rivojlanadi. Agar tug‘ilgandan bir yoshga to‘lguncha bo‘lgan bolaning vazni 6 kg ga ortsa, bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan bolaning vazni 3,5 kg ortadi. Ikki yoshdan uch yoshgacha esa faqat 1,5 kg ga ortadi. Shuni e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bolaning bo‘yi va vaznining o‘shishiga nisbatan bo‘lgan bu ma‘lumotlar hamma bolalar uchun umumiy hamda o‘zgarimas emas. Bu ma‘lumotlar o‘rtacha hisobga to‘g‘ri keladi. Turmush kechirish yo‘sini, bola yeydigan ovqatning xillari, ayniqsa ovqatning miqdori, ayniqsa ovqatning sifati va irsiy xususiyatlar bola bo‘yi hamda vaznining o‘zgarishiga katta ta‘sir qiladi.

Ilk yosh davrida bolaning bo‘yi va vaznining o‘zgarishi

Yoshi	Bo‘yi, sm hisobida	Bo‘yining yil sayin o‘shishi	Vazni, kg hisobida	Vaznining yil sayin ortishi
1 yashar	75	25	9	6
2 yashar	85	10	12.5	3.5
3 yashar	92	7	14	1.5

Ilk yoshdagi bola suyaklarining rivojlanishida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Bu yoshdagi bolalarda tog‘aysimon suyaklarning o‘shishi va qotishi tezroq davom etadi. Umurtqa suyaklari borgan sari mustahkamlanib, suyaklanish (qotish) jarayoni tezlashadi. Umurtqa suyaklarining bunday o‘zgarishi bola yurganda, yugurganda va murakkab sakrash harakatlarini bajarganda gavda og‘irligini ko‘tarish imkonini beradi. Biroq ilk yoshdagi bolalar umurtqa suyaklari hali juda o‘jiz va elastik bo‘ladi. To‘g‘ri o‘tirmaslik tekis qilib solinmagan o‘rinda yotish natijasida bolaning umurtqa suyaklari qiyshayib qolishi mumkin. Qiyshayib qolgan umurtqa suyagini to‘g‘rilash juda qiyin ishdir. Bola bir umrga mayib bo‘lib qolishi mumkin. Shuni e‘tiborda tutib, yasli tarbiyachilari bola suyaklarining to‘g‘ri va normal o‘shishiga ahamiyat berishlari kerak.

Bola ikki yoshga borib qolganda bosh suyaklarida ham o‘zgarish yuzaga keladi. Kalla suyagining tutashmagan joyi, ya‘ni kalla liqildoqlari bitib ketib, ensa va tepa qismlari o‘sadi. Bolaning dastlabki sut tishlari chiqib, jag‘i avvalgiga nisbatan birqadar aktiv ishlay boshlaydi.

Bir yoshga to'lgan bolaning harakatchanligi orta borgan sari uning ichki organlari faoliyatida ham muhim o'zgarishlar yuzaga keladi. Ma'lumki, har qanday harakat qon aylanishi bilan nafas olishning aktiv ishlashini taqozo qiladi. Bola bir yoshga to'lgach, bemalol yurib, har xil harakatlarni qiladigan bo'lgach uning yurak vazni hamda o'pkasining hajmi anchagina kattalashadi, yurak muskullari ham birmuncha mustahkamlanib qon bosimi bir qadar oshadi. Bu esa qon tomirlari urishi-ning sekinlashishiga olib keladi. Masalan, chaqaloq bolaning qon tomiri minutiga 120–130 marta ursa, ilk yoshida bolaning yuragi 110–120 marta uradigan bo'lib qoladi.

Ilk yoshdagi bola organizmi jismoniy jihatdan jadal rivojlanishda davom etar ekan, o'sayotgan organizm juda ko'p ozuqa moddalarni talab qiladi. Yoshidan oshgan bola turli xil ozuqa moddalarni asosan ovqatdan oladi. Bola yoshidan oshgach, ko'krakdan ajratiladi. Ana shu davrdan boshlab uni kattalar iste'mol qiladigan ovqatlarga sekin-asta o'rgatila boshlanadi. Bolaning faqat ona sutini iste'mol qilishdan boshqa ovqatlarni ham iste'mol qilishga o'tishi uning ovqat hazm qilish organlarida o'zgarish yasaydi. Bir yoshdan oshgan bolaning oshqozoni birmuncha kengayadi, ichaklari mustahkamlanadi. Lekin ilk yoshdagi bolalarni hali katta odamlar iste'mol qiladigan yuqori kalloriyali ovqatlar bilan ovqatlantirib bo'lmaydi. Bolaning bu yoshdagi davrida ham asosiy ovqati sut va sutdan tayyorlangan ovqatlar, ya'ni yengil hazm bo'ladigan ovqatlar bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolalar ovqatida sutning o'mini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi.

Emishdan ajratilgan bolalarga sigir suti, echki suti (albatta, pishirilgan sut), qaymog'i olinmagan sutdan qilingan tvorog, qatiq, qaymoq (smetana) berish mumkin. Sut va sutdan tayyorlangan ovqatlardan bola o'zining jismoniy o'sishi uchun zarur bo'lgan mineral tuzlarni (kalsiy, fosfor kabi), har xil vitaminlarni (A, B, C, D kabi) oladi. Bola organizmining o'sishi uchun zarur bo'lgan juda ko'p ozuqa moddalar asosan nonda va dondan (yormalardan) tayyorlangan ovqatlarda bo'ladi. Bola shuning uchun ham nonni juda yoqtiradi. Lekin bu yoshdagi bolalarni asosan non bilan ovqatlantirish yaramaydi, chunki non ancha og'ir hazm bo'ladigan ovqatdir. Ikki yoshdan boshlab bolaga sistemali sur'atda har xil sabzavotlar (sabzi, pomidor, kartoshka kabi) va mevalar (olma, apelsin, nok, qulupnay, gilos, olcha kabi) yoki shularning sharbatlarini (soki) berib borish kerak.

Shubhasizki, ilk yoshdagi bolalarning jismoniy jihatdan normal o'sishlari uchun ularga juda ko'p oqsil moddalar kerak bo'ladi. Bolalar ko'p miqdordagi oqsil moddalarni sut va sutdan tayyorlangan ovqatlardan hamda go'sht, mol yog'i, tuxum kabi oqsilga boy ovqatlardan oladilar.

Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarning jismoniy jihatdan normal va sog'lom o'sishlari uchun oilada ham, yaslida ham ularning qat'iy kun tartibi bilan sifatli ovqatlantirishlarga jiddiy e'tibor bilan qarash kerak.

Ilk yoshdagi bola ovqatlanishida yuzaga keladigan bu o'zgarishlar bolaning qon tarkibini ham o'zgartiradi. Ovqatning xili ortgan sari qondagi eng muhim elementlar bo'lmish gemoglobin va eritrositlar miqdori ortadi. Lekin shunday bo'lsa ham bu yoshdagi bolada organizmni yuqumli kasalliklardan muhofaza qilib turadigan oq qon tanachalari (leykotsitlar) hali yetarli miqdorda bo'lmaydi va ular turli yuqumli kasalliklarga tez chalinadigan bo'ladi.

Shunday qilib, ilk yoshdagi bola jismoniy jihatdan tez o'sishda davom etsa ham, u hali tashqi muhit o'zgarishlariga yaxshi moslasha olmagan bo'ladi. Shuning uchun muhitning salgina o'zgarishi bolaga darhol ta'sir qiladi. Bola yangi muhit sharoitida tez toliqadi. Bolaning sog'lom o'sishi uchun uning organizmini mustahkamlaydigan tadbirlarga, ya'ni qat'iy kun tartibi, gigiyena qoidalari va organizmni sistemali tarzda jismoniy jihatdan chiniqtirishga rioya qilish kerak.

Ilk yosh davrida nerv sistemasining taraqqiy etishi. Bolaning ilk yoshdagi davrida ham nerv sistemasi tez rivojlanishda davom etadi. Bu davrda bosh miyaning hajmi va vazni anchagina ortadi. Masalan, bola bir yoshdan ikki yoshga kirguncha bosh miyasining vazni 940 gramm-dan 1025 grammga ortadi. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda esa bola miyasining vazni 1025 grammdan 1112 grammga ortadi.

Ilk yoshdagi bolada miya vaznining o'zgarishi

Yoshi	Miya vazni, gramm hisobida	Miya vaznining ortishi	Katta yoshli kishi miyasining vazniga nisbati (foiz hisobida)
1 yashar	944.7	—	66%
2 yashar	1020.4	80.7	71.7%
3 yashar	1112.4	87	77.7%

Bu davrda bola miyasi vaznining ortishi bilan birga miyaning ichki qismlarida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Miya po'stidagi nerv hujayralarining (ieyronlarning) tuzilishi murakkablashadi, ya'ni neyronlarning shoxsimon o'simalari tobora orta boradi. Bosh miya po'stidagi nerv hujayralarining takomillashuvi turli assotsiatsiyalarining (muvaqqat aloqalarning, shartli reflekslarning) yuzaga kelishini osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Ilk yoshdagi bola nerv sistemasining rivojlanishida ham nerv tolalarining miyelinizatsiyalanishi davom etadi. Bu davrda asosan bosh miya yarim sharlaridagi nerv hujayralarini bir-biri bilan bog'lovchi nerv tolalari miyelin pardasi bilan qoplanib, bir-biridan ajratiladi. Bola psixikasining rivojlanishida buning ahamiyati g'oyat kattadir. Chunki shu munosabat bilan, ya'ni miyelinizatsiya orqali nerv tolalarining bir-biridan ajratilishi bilan turli taassirotlar (qo'zg'alishlar) nerv sistemasida tezroq tarqaladi va ravshanroq aks ettiriladi. Nerv hujayralarini bir-biri bilan bog'laydigan juda ham nozik nerv tolalarining miyelin pardasi bilan qoplanib, bir-biridan ajratilishi butun nerv sistemasining tobora uyg'un va puxta ishlashiga yordam beradi. Bosh miya yarim sharlari po'stidagi nerv hujayralarining takomillanishi natijasida miya po'sti nerv sistemasidagi barcha quyi bo'limlar faoliyatini asta-sekin o'ziga bo'ysundira boradi. Ana shu tariqa bolaning butun hayotida oliy nerv faoliyatining roli orta boradi.

Go'dak (chaqaloq) bolalarga nisbatan ilk yoshdagi bolalarda shartli reflekslar tez va osonlik bilan yuzaga keladi hamda shartli reflekslar differensiyalashgan xarakterga ega bo'la boradi, ya'ni shartli reflekslarning xili orta boradi. Ilk yoshdagi bolalar nerv sistemasining rivojlanishidagi eng xarakterli tomonlardan biri shundan iboratki, bu davrda shartli tormozlanishning oddiy turlari yuzaga kela boshlaydi. Shartli tormozlanishning ishlay boshlashi tufayli bu yoshdagi bolalar ayrim harakatlardan o'zlarini darhol to'xtata oladigan bo'ladi. Masalan, ikki yoshli bolaga «tegma», «jim bo'l», «to'xta», «yo'q» kabi so'zlarni tegishli qo'l yoki boshqa ishoralar bilan aytilsa, u o'zini ba'zi harakatlardan tiya oladi. Shartli tormozlar ko'paya borgan sari ularning hosil bo'lishi ham yengillasha boraveradi va bola o'z xatti-harakatlarini idora qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalar oliy nerv faoliyatining ishida signallar sistemasining nisbati o'zgaradi. Agar bir yoshgacha bo'lgan bola aso-

san birinchi signallar sistemasi orqali tashqi muhitni aks ettirsa, ikki yoshga to'lgandan so'ng ikkinchi signallar sistemasi ham ishga tusha boshlaydi. Lekin ilk yoshdagi davrda birinchi signallar sistemasining faoliyati bari bir ustun bo'ladi. İlk yoshdagi davrda ikkinchi signallar sistemasi doirasida, ya'ni nutq materiallari, so'zlar, gaplarga nisbatan shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar anchagina so'zlarning ma'nosini to'g'ri tushuna oladigan bo'ladilar.

Ilk yoshdagi bolalarning analizatorlari ham tobora takomillashib boradi. Ularning ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish, teri hamda harakat sezgilarining sezgirligi ancha o'tkirlashadi. Ana shularning hammasi ilk yoshdagi bolalar psixikasining yanada rivojlanishi uchun qulay sharoit tug'diradi.

Ma'lumki, bolaning ilk yoshdagi davri butun sezgi a'zolarining jadal taraqqiy etish davri, ya'ni senzitiv davr hisoblanadi. Aslini olganda bolaning uch yoshgacha bo'lgan davri senzitiv taraqqiyotning boshlanish davridir. Bu davrdan boshlab bolaning turmush tajribasi orta boradi. Bolalarning tashqi olamni bilishdagi aktivliklari ortgan sari ular bir-birlaridan individual jihatdan farq qila boshlaydilar. Buning sababi shundaki, har bir bola maxsus sharoitda o'ziga xos ravishda aktivlik ko'rsatadi va tevarak-atrofidagi turli-tuman narsa va hodisalarni bilishga harakat qiladi. Bu esa ularda har sohaga doir o'nlab savollarning paydo bo'lishiga olib keladi. Mana shularning barchasi bolaning maktabgach yoshidagi davrida boshlanadigan haqiqiy senzitiv davr uchun asos yaratadi.

Tayanch iboralar:

go'dak bola, ilk yosh, sensomator, sensor tarbiya, psixik rivojlanish, jismoniy rivojlanish.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Godak va ilk yosh davridagi bolalarni kuzatish, ular o'rtasidagi tafaovutni aniqlash.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kuzatish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Go'daklik davri, uning tug'ma xususiyatlari nimalardan iborat?
2. İlk bolalik davrda shaxsning rivojlanish bosqichlarini ayting.
3. İlk bolalik davrda muloqatning psixik jihatlari haqida tushuncha bering.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi haqida tushuncha.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinining asosiy psixologik xususiyatlari.

ILK YOSHDAGI BOLA PSIXIKASINING TARAQQIYOTI

Ilk yoshdagi bolalarning analizatorlari yaxshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli bu davrda psixik jihatdan tez rivojlanadilar. Ma'lumki, ilk yoshdagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay, yugurish, sakrash hamda baland va past to'siqlardan oshib o'tish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Ilk yoshdagi bolalarning ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevarak-atrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda katta sharoit yaratib beradi.

Ilk yoshdagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bo'lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o'zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, yechinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o'zlashtira boshlaydi. Ilk yoshdagi bola o'zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko'z o'ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko'radi. Natijada juda ko'p yangiliklarni bilib oladi, o'zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va xayolini – umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarda nutq juda tez rivojlana boshlaydi. Ikki yoshga to'lgan bola bir necha so'zlarni aniq talaffuz qila oladi va atrofdagi kattalarning gapini tushuna boshlaydi. Nutqning o'sishi, ya'ni so'zlay bilish qobiliyati bolaning butun psixik taraqqiyotiga, undagi barcha psixik jarayonlarning va psixik xususiyatlarning o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ilk yoshdagi bolaning psixik taraqqiyotida asosan ikkita omil – erkin harakatlar va nutq katta ahamiyat kasb etadi.

Bu yoshdagi davrda sezgilarning rivojlanishi analizatorning tobora takomillashuvi bilan bog'liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to'qnash kelishi natijasida rivojlanadi.

Sezgilarning normal rivojlanishi bola idrokining taraqqiyoti uchun zamin bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo'lsa ham hali katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. *Birinchidan*, ilk yoshdagi bolalarda turmush tajribasi yo'qligi tufayli ularning idroklari ham anglashilmagan xarakterga ega bo'ladi. Ular ko'p narsalarga birinchi marta duch keladilar. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko'p narsalarga yangilik, ya'ni dastlabki taassurot kuchiga ega bo'ladi. *Ikkinchidan* esa, ilk yoshdagi bolalarning idroki ko'pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo'ladi, ya'ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko'zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko'chib keta beradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot (tuyg'ular) kuchli bo'lgani uchun ular o'zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qiladilar.

Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtira olmaydilar. Atrofmuhitdagi narsalarni qanday bo'lsa shundayligicha idrok qiladilar. Bu xususiyat ularning rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, ikki yarim yashar bolaga otning kallasi solingan surat ko'rsatilsa, hayron bo'lib, otning o'zi qani, deb so'raydi.

Ilk yoshdagi bolalarning tili chiqishi bilan idrokida ham jiddiy o'zgarish yuzaga keladi. Chunki bola atrofidagi katta odamlarning nutqini tushunib idrok qilish bilan narsalar haqidagi tajribasini oshiradi va shu yo'l bilan notanish narsalarni bilish imkoniyati kengayadi. Bolalar idrokining takomillashuvida so'zning ahamiyati shundan iboratki, so'z o'z mohiyati jihatidan umumlashgan xarakterga ega bo'lib, u narsalarni umumlashtirish imkoniyatini beradi. Bola so'z yordamida o'xshash narsalarni oddiygina guruhlariga ajrata boshlaydi.

Ilk yoshdagi bolalarning nutqi chiqqan bo'lishiga qaramay ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni to'g'ri idrok qila olmaydilar, chunki ular hali turmush tajribasi yo'q. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin-asta hosil qilib boriladi.

Shunday qilib, ilk yoshdagi bolalar idrokining rivojlanishida nutqning roli nihoyatda katta. Ana shuni nazarda tutib, tarbiyachi nutqdan idrokni rivojlantiruvchi vosita sifatida keng foydalanishi kerak. Buning uchun bolalar bilan ko'proq gaplashish, ularga erinmay tevarak-atrofdagi turli xil narsalar haqida so'zlab berish, bolaning turli-tuman savollariga tushunarli qilib javob berish kerak.

Ilk yoshdagi bolalarning diqqat, xotira, tafakkur, xayol, hissiyot va iroda kabi murakkab psixik jarayonlarida ham jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz bo'lsa, ikki yoshga to'lgan bolaning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi. Bola o'sib ulg'aygan sari uning diqqati barqaror bo'la boshlaydi. Diqqatning ozmi-ko'pmi barqaror bo'la boshlagani shunda ko'rinadiki, bola o'zini qiziqtirgan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shug'ullana oladi.

Ilk yoshdagi bolalarda diqqatning ixtiyorsizligi va beqarorligi ularda tormozlanish jarayonining hali kuchsizligi bilan bog'liqdir. Bu yoshdagi bolalarda tormozlanishga nisbatan qo'zg'alish jarayoni kuchli (ustun) bo'lganligi sababli qo'zg'alish jarayoni bilan tormozlanish jarayoni muvozanatlasha olmay, qo'zg'alish ustunlik qiladi va bosh miya yarim sharlarining tobora yangi-yangi qismlariga tarqalib ketaveradi.

Bolalar diqqatining o'yin jarayonida barqaror bo'la borishi

Yoshi	Diqqatning eng ko'p barqarorligi
1 yoshgacha	14,5 minut
1-2 yoshda	21.1 minut
2-3 yoshda	27,0 minut

Ilk yoshdagi, ya'ni ikki yoshga to'lib uch yoshga qadam qo'ygan bolalarda diqqatning ixtiyoriy turi ham rivojlana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda ko'rinadigan ixtiyoriy diqqat alomatlarini katta odamlarning buyruq va topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarida rivojlana boshlaydi.

Ilk yoshdagi bolaning yoshi ulg'ayib, atrof-muhitdagi turli-tuman narsalar haqida tasavvurlari ko'paygan sari uning xotirasi ham tez rivojlana boshlaydi. Bu yoshdagi bolaning xotirasi asosan ixtiyorsiz xotiradir.

Har kimning o'z tajribasidan ma'lumki, ikki-uch yoshlik davridagi ko'rgan bilgan narsalari xotirada yaxshi saqlanib qolmaydi, chunki bu yoshda turmush tajribasi hali juda oz bo'ladi hamda esda olib qolishda hech qanday sistema bo'lmaydi. Shu sababli esda olib qolish tufayli yuzaga kelgan assotsiatsiyalar (muvaqqat aloqalar) lokal xarakterga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yoshda esda olib qolingan narsalar uzuq-yuluq, ya'ni bir-biri bilan bog'lanmagan bo'ladi. Shu sa-

babli bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan, yakka-yakka holda yuzaga kelgan muvaqqat aloqalarni tiklab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham odatda «men es-es bilaman» yoki «sal-pal esimda qolgan» deb gapiriladi.

Ilk yoshdagi bolalarning xotirasi (esda olib qolishlari) ixtiyorsiz bo‘lishi bilan birga mexanik xarakterga ham ega. Bolalar narsalarni mantiqiy tarzda eslarida olib qololmaydilar, chunki ularning nutqi yetarli darajada rivojlanmagan va turmush tajribalari (tasavvur boyliklari) juda oz. Bu yoshdagi bolalarning mexanik xotiralari juda kuchli bo‘ladi. Buni bolalarning juda ko‘p so‘zlarni tezda eslab qola olishida ko‘rish mumkin, lekin ular hamma so‘zlarning ham ma‘nosiga tushunavermaydi. Bolaning nutqi o‘sib, so‘z boyligi tobora ortgan sari mantiqiy xotirasi rivojlana boshladi.

Ilk yoshdagi bolalar tafakkurining o‘shishiga nutq juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki til bilan tafakkur o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlardir. Lekin ilk yoshdagi bolalarda hali tom ma‘nodagi tafakkur bo‘lmaydi. Bu yoshdagi bolalarning tafakkurlari o‘ziga xos xususiyatlarga hamda aniq xarakterga egadir. Bu degan so‘z shuki, ular ayni chog‘da idrok qilib turgan narsalari haqidagina juda sodda tafakkur qila oladilar. Bundan tashqari, bu yoshdagi bolalarning tafakkur jarayonlarida harakat elementlari ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun ham ularning tafakkurini ba‘zan harakatli tafakkur deb ham yuritiladi.

Ilk yoshdagi bolalarda hali tafakkurning fikriy jarayonlarini, ya‘ni analiz, sintez, umumlashtirish kabilarni ko‘rmaymiz. Ular qo‘llaridagi o‘yinchoqlarini yoki qo‘llariga tushib qolgan narsalarni amaliy (aylantirib, paypaslab, buzib) analiz qiladilar. Lekin sintez qilishga hali qurbilari yetmaydi. Lekin bundan ilk yoshdagi bolalar fikriy jarayonni amalga oshirishga qodir emaslar, degan ma‘no kelib chiqmaydi. Ilk yoshning oxiriga kelib tafakkurning o‘shishida nutqining roli juda oshadi. Bola yangi so‘zlarni mumkin qadar ko‘proq bilib olib, ulardan o‘z tafakkurida keng foydalana boshlaydi. Bu esa fikrlash jarayonining o‘shishiga yordam beradi. Bolada so‘zlar vositasi bilan analiz va sintez qilish, mavhumlashtirish hamda umumlashtirishning dastlabki alomatlari ko‘rina boshlaydi.

Tafakkurning o‘shishida yana bir muhim bosqich shundan iboratki, ilk yoshning oxiriga kelib bola ayrim tushunchalarni bilib olishga va bu tushunchalarning eng muhim belgilarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Masalan, bola ko‘pincha katta kishilar bilan bolalar o‘rtasidagi

farqni bilishga qiziqadi. U bu farqni kuzatib, taqqoslab, ko'pgina savollarga javob topadi. Natijada bola tegishli tushunchalarning ayrim belgilarini bilib oladi. Uch yoshga to'lay deb qolgan bola katta yoshdagi hamma odamlarning ishga barvaqt ketishlarini juda yaxshi biladi. Agar bu yoshdagi bolaga «adang endi barvaqt ishga ketmaydi» deyilsa, u hayron bo'lib qoladi. Chunki katta odam bo'lgan adasining ishga bormasligi uning tushunchasiga to'g'ri kelmaydi. Uning tushunchasida hamma katta odamlar ertalab barvaqt ishga ketishi kerak. Shuning uchun u hech bir o'ylab o'ltirmay, «adam kattalar-ku!» deb javob beradi.

Ilk yoshdagi bolalar tushunchalardan foydalanib, sodda xulosalar chiqarishga o'rgana boshlaydilar. Ular bir necha hukmlardan foydalanib, katta, kichik, baland, past, ko'p, oz kabi sodda xulosalar chiqara oladilar, bu esa tafakkurining yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Ilk yoshdagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bo'lmish xayol ham anchagina rivojlana boshlaydi. Lekin bu asosan ixtiyorsiz xayolgina bo'ladi. Ular hali ma'lum maqsad asosida ixtiyoriy tarzda xayol yurgiza olmaydilar. Bolaning tush ko'rishi ham ixtiyorsiz xayol faoliyati bilan bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalarda xayolning rivojlanishi ular o'ynaydigan o'yinlar mazmunining o'zgarib turishida yaqqol ko'rinadi. Bu yoshda bolaning o'yinlari hali juda oddiy bo'ladi. Aslida ular tom ma'nodagi o'yin bo'lmay, balki chinakam o'yinga tayyorgarlikdir. Bu yoshdagi bolalarning sodda o'yinlarini mashq o'yinlari, harakat o'yinlari, manipulatsiya (timirskilash) o'yinlari deb atash mumkin. Bunday o'yinlarda bola o'yinchoqlarni bir joydan ikkinchi joyga olib borib qo'yadi, mashinalarini, aravachalarini yurgizib ko'radi, kubiklarni ustma-ust qilib taxlaydi va shu kabi harakatlarni bajaradi. Bunday sodda o'yinlarda hali bola xayolini boyitadigan mazmun yo'q.

Bola ikki yoshga to'lgach, uning o'yinlarida jiddiy o'zgarish ro'y beradi. Bolaning o'yiniga endi taqlidiy harakatlar qo'shiladi. Bola kattalardan ko'rgan-bilganlarini o'yinda taqlidan takrorlay boshlaydi. Bu davrda bola mashinasini u yoqdan bu yoqqa siljitish yoki tepalikdan sirg'antirib tushirish bilan cheklanmay, haydovchilarning harakatlarni bajaradi. Mashinaning motori ovoziga taqlid qilib ovoz chiqaradi, mashinada yuk tashiydi va hokazo. Qiz bola bo'lsa, bu yoshda qo'g'irchog'ini yuvintiradi, ovqatlantiradi, uxlatadi, jazolaydi. Bolaning bunday o'yinlarida esa endi tiklovchi xayolning yuzaga kela boshlaganini ko'ramiz. Bola uch yoshga to'lish oldida rollarga bo'linib

o'ynaydigan o'yinlar ham paydo bo'ladi. Ular o'yinda rollarni taqsimlab oladilar va ulardan – «Men samosvalning haydovchisi bo'laman», «Sen ekskavatorida turasan», «Men shifokor bo'laman» «Sen shifokorga kelasan» kabi mulohazalarni eshitish mumkin. Bolalar o'z rollarini mohirlik bilan bajarishga intiladilar. Ana shunday rolli o'yinlarda bolalarning xayol faoliyatlari rivojlanadi. Ularda ijodiy xayol kurtaklari ham yuzaga kela boshlaydi.

Nutqning o'sishi bola xayolining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bola kattalarning gaplariga tushunadigan bo'lgach, har turli er-tak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo'ladi. Bolalar o'zlari biladigan, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan narsalar (hayvonlar, bolalar kabi) haqidagi hikoyalarni joni-dili bilan eshitadilar. Bola bunday hikoyalarni eshitishda bevosita o'zining idrokiga, tasavvurlariga tayanadi. Bunday hikoyalarda («uch ayiq», «qizil shapkacha» kabi) o'ylab chiqarilgan voqea bolaning o'zi haqiqatda ishtirok qilgan, idrok qilgan voqealarga ulanib ketadi. Natijada bolaning tajribasi ortadi va mustahkamlanadi. Bu esa o'z navbatida bola xayolining o'sishiga yordam beradi. Har bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasavvurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bola hikoya eshitish orqali olgan tasavvurlarini so'zlar bilan ifodalaydi. So'z esa bolaning narsalarni boshqacha idrok qilishiga, ularning boshqa narsalarga o'xshashligini aniqlashiga va ana shunday o'xshashliklarni aniqlash asosida yangi obrazlar, yangi tasavvurlar yaratishiga yordam beradi.

Ilk yoshdagi bolalarning xayol faoliyatlarini rivojlantirishda o'yinning roli nihoyatda kattadir. Shuni e'tiborga olib, bolalarning o'yinlarini tashkil qilishga, ularga o'yinchoqlarni tanlab berishga ahamiyat bilan qarash kerak. Bu yoshda bolalarning o'yinchoqlari anchagina yirik, rangdor, qimirlaydigan, ya'ni bolalarning e'tiborini o'ziga jalb qiladigan, shuningdek, sinmaydigan, yengil va oson yuviladigan bo'lishi kerak.

Ma'lumki, ilk yoshning oxiriga borib, bolalarda tasviriy san'at faoliyatining elementlari yuzaga kela boshlaydi. Bola qalam bilan nimalarnidir rasmini chizishga juda qiziqadi. Bu sohada u kattalarga taqlid qila boshlaydi. Garchi bu yoshdagi bolalarning chizgan rasmi egri-bugri chiziqlardan iborat va unda hech qanday ma'no bo'lmasada, bu faoliyat ularda xayolning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'zining chizgan rasmlarini tushuntirib beradi. Lekin uning tush-

untirishi chizgan rasmiga mos bo'lmada (kam o'xshasa ham) uning o'z xayolida narsalarning tasavvurini yuzaga keltira oladi. Bu esa tiklovchi xayolning o'sishi uchun katta ahamiyatga egadir.

Ilk yoshdagi bolalarning hissiyotlarida (tuyg'ularida) ham anchagina o'zgarishlar yuzaga keladi. Bolada avvallari asosan organik ehtiyojni qondirish bilan bog'liq bo'lgan mamnunlik yoki noxushlik xislari bo'lsa, endi hislarning turi ancha ko'payadi. Bu yoshdagi bolalarda hissiy holatlar hamisha yaqqol tashqi ko'rinishga ega va juda kuchli o'tadigan bo'ladi. Lekin ilk yoshda ham bolalarning hissiy holatlari (kayfiyatlari, affekt holatlari) juda beqaror bo'ladi. Bola o'zining his-tuyg'ularini, o'zidagi hissiy holatni hali yaxshi boshqara olmaydi. Arzimagan narsa bilan kulib turgan bolaning birdan yig'lab yuborishi yoki yig'lab turgan bolaning birdan kulib yuborishi hech gap emas. Biroq bunday holatni katta odamlarda mutlaqo uchratib bo'lmaydi. Katta odamlar o'zlarining his-tuyg'ularini juda yaxshi idora qila oladilar.

Ilk yosh davrida bolada hislar yo'nalishining o'zgarishi

Bolaning jilmayishida ifodalangan hislarining yo'nalishi	Yosh	
	1.5 yosh	3 yosh
Bolaning o'z aktivligi bilan jilmayishlari	67	117
Tarbiyachiga qarab jilmayishlari	47	352
Boshqa bolalarga qarab jilmayishlari	7	297

Bir yoshdan oshgan bolada o'zining yaqin odamlariga nisbatan xayrixohlik hissi yuzaga keladi. Ular ota-onasini va boshqa yaqin odamlarini ko'rganda xursand bo'libgina qolmay, balki ularning, ya'ni ota-onasining unga nisbatan qanday munosabatda bo'layotganlarini ham anglaydi. Boshqacha qilib aytganda, bola o'z yaqin odamlarining kayfiyatlariga tushunadigan bo'ladi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning his-tuyg'ularini rivojlantirishda ular bilan tez-tez, yaxshi munosabatda bo'lib turish juda katta ahamiyatga ega. Katta odamlar quvonib kulsalar bolalar ham quvonib kuladilar. Onasining yoki boshqa bir yaqin odaming yig'laganini ko'rib, bola ham yig'laydi.

Ilk yoshning oxiriga kelib, bolaning turmush tajribasi o'sishi va nutqining rivojlanishi natijasida yuksak hissiyotlar, ya'ni intellektual, estetik, ma'naviy hislari yuzaga kela boshlaydi. Bola o'zini ajablantirgan yangi narsalarni ko'rib hayratda qoladi. Bu narsalarning nima

ekanini bilishga intiladi. Katta odamlarga savollar beradi. Bolaning ana shunday faoliyatlarida intellektual, ya'ni aqliy tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Ikki yoshdan oshgan bola chiroyli, jozibador narsalarni yoqtiradi. Chunonchi, bu yoshdagi bolaga chiroyli kiyim kiygizilsa, u o'zini g'oyat mamnun sezadi. Bola ilk yoshning oxiriga kelganda musiqaga, ya'ni sho'x va chiroyli kuylarga nisbatan juda ijobiy va aktiv munosabatda bo'la boshlaydi. Musiqaga iste'dodli bolalar hatto o'zlari ashula ham aytadigan, raqsga tushadigan bo'ladilar. Bolalarning ana shunday faoliyatlarida ularning estetik tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma'lum darajada rivojlanar ekan, bu ular ongining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o'sgan bola tevarak-atrofidagi har turli narsalarga ongli munosabatda bo'la boshlaydi. Bola o'zining turli ehtiyojlarini anglab, o'zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Rus fiziologi I. M. Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab o'z sezgilarini tevarak atrofdagi narsalardan ajratib, o'z-o'zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligida o'z shaxsini bildiruvchi «men» degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo'ladi. Ana shu tariqa bola juda elementar tarzda bo'lsa ham o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab ilk yoshdagi bolalarning shaxsiy (individual) xususiyatlari kamol topa boshlaydi.

Ilk yoshdagi bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyotlari ustida gap borar ekan, bu yerda yana bir masala ustida to'xtalib o'tish kerak. Bu akseleratsiya masalasidir.

Akseleratsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, bizningcha tezlatmoq degan ma'noni anglatadi. Akseleratsiya hodisasi XX asrning 30-yillaridan boshlab ko'rina boshladi. Akseleratsiya bolalar taraqqiyotiga tegishli bo'lib, u bolalarning jismoniy va psixik jihatdan tez rivojlanishlarini anglatadi. Masalan, ko'pchilik joylardagi bolalar (o'g'il va qiz bolalar) ning bo'yi 1975-yilda 1930-yilga qaraganda 15 sm balandroq, og'irligi esa 10 kg ga ortgan. Boshqacha qilib aytganda, 1930-yildagi bolalarga nisbatan 1975-yildagi bolalar aqliy jihatdan o'z tengqurlaridan taxminan 4 yilga o'zib ketganlar. Bu yerda shunday o'rinli savol tug'iladi. Akseleratsiyaning, ya'ni jismoniy va psixik jihatdan tez rivojlanishning sababi nimada?

Olimlar akseleratsiyaning sababini tushuntirishda turli xil nuqtayi nazarda turadilar. Bir guruh olimlarning fikricha, akseleratsiya hodisasi

organizmning ichki muhiti, birinchi navbatda uning genetik tuzilishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, XXI asr ilmiy texnika asridir. Bu yerda inson o'zlashtirishi lozim bo'lgan ilmiy ma'lumotlar soni kun sayin emas, balki soat sayin ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida odamning genetik tuzilishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Ikkinchi guruh olimlarning fikriga ko'ra, akseleratsiyaning sababi organizmning o'z ichki muhitiga, ya'ni genetik qurilmasiga emas, balki organizmdan tashqaridagi narsalarga bog'liqdir, deb qaraydilar. Boshqacha qilib aytganda, kishilarning hayot sharoitlari tubdan yaxshilanishiga bog'liqdir. Odamlarning ovqatlanish tartibi keyingi yillarda sifat jihatidan yaxshilandi. Kiyim-kechaklari, turar joylari ham sezilarli darajada yaxshilandi. Mana shular oqibat natijada akseleratsiyani keltirib chiqardi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki akseleratsiyaning sababini ana shu ikki xil tarzda tushuntirishdan tashqari boshqa bir necha xil tushuntirishlar ham mavjuddir. Masalan, ayrim olimlar akseleratsiyaning asosiy sababini kun sayin ortib borayotgan radiatsiya bilan bog'lab tushuntir-salar, boshqa bir olimlar turli kimyoviy moddalarning ortiq iste'mol qilinishi bilan bog'lab tushuntiradilar.

Umuman akseleratsiyaning haqiqiy sababi hali to'liq aniqlangan emas. Biz o'ylaymizki, akseleratsiyaning sababi organizmning o'z ichki muhiti, ya'ni genetik qurilmasi bilan to'la bog'liq emas. Akseleratsiya kishi yashash sharoitining nihoyatda yaxshilanishi bilan bog'liqdir. Akseleratsiya hodisasi mujassam tarzda o'rganish orqali hal qilinishi kerak.

Tayanch iboralar:

bolaning bo'yi, kalla suyagi, bolaning ovqatlanishi, vitaminlar, assotsiatsiyalar, sensitiv davr, akseleratsiya nazariyasi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Ilk yoshdagi bolalarni gavda tuzilishi, o'ziga xos harakatlarini kuzatish va tahlil qilish.
2. Bolalarning bilish jarayonlarini o'rganish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ilk yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishida erkin harkatlarning roli.

2. Ilk yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanshiga umumiy xarakteristika bering.

7. Ilk yoshdagi bolalarda sezgi va idrokning rivojlanishi.

8. Bola taraqqiyotida senzitiv davr va uning mohiyatini tushuntirib bering.

9. Ilk yoshdagi bolalarda diqqat rivojlanishi.

10. Ilk yoshdagi bolalarda xotira va xayolning rivojlanishi.

11. Ilk yoshdagi bolalarda tafakkur va nutqning rivojlanishi.

12. Ilk yoshdagi bolalarda gigiyenik va axloqiy odatlarning tarkib topishi.

13. Ilk yoshdagi bolalar bilan bog'liq bo'lgan akseleratsiya hodisasi va uni yuzaga keltiruvchi sabablarini aytib bering.

ILK YOSH DAVRIDA NUTQNING XUSUSIYATLARI

Ilk yosh davrida nutq tez o'sadi. Bu davrning boshida bola bir necha so'znigina ayta oladi. Ilk yosh davrning oxiriga kelib, bola nutqida aloqa vositasi sifatida foydalana oladi. So'zlay bilish bolaning butun psixik taraqqiyotiga, undagi psixik jarayonlarining yanada kamol topishiga, ayniqsa tafakkurning o'sishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ilk yoshda bolaning nutqi katta taraqqiyot yo'lini o'tadi.

Bola 2 yoshga to'lish oldidan bir nech so'zni talaffuz qiladi va tevarak-atrofdagi kishilarning gapini tushuna boshlaydi. Ammo bu tushunish hali juda oddiy bo'lib, unda tasodifiylik ko'p. Bola ko'pincha so'zning ma'nosiga emas, balki katta yoshli kishilarning gapirishda so'zga beradigan intonatsiyasiga, imo-ishorasiga e'tibor qiladi. M, 9 oylik boladan "deraza qani?" deb so'rashganida u boshini deraza tomonga burgan. Ammo savol chet tilda ham shunday intonatsiya bilan berilganda ham, bola o'shanday e'tibor qilar ekan. Bu yerda bola so'zning ma'nosini hali chinakamiga tushunmasligi ravshan.

Bola ikki yoshga qadam qo'yganda nutqning o'sishida katta sakrash yuz beradi. Bu yoshda nutqning o'sishi 2 davrga ajratiladi.

Birinchi davr bir yoshdan bir yarim yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola 20-30 ta so'zni biladi. "oyi", "buvi" so'zlari bilan birga bolaning ehtiyojlarini bildiradigan "ber", "ma" va boshqa so'zlarni bila boshlaydi.

Bola biladigan so'zlar miqdori turli bolalarda turlicha bo'lib, asosan bolani o'rab olgan nutq vaziyatiga bog'liq. Yurtimizda ko'p oila-

larda bola bir necha tilda (ikki va hatto uch tilda) so‘zlashishni aytib o‘tmoq kerak, bu oilalarda turli tillarda bab-baravar so‘zlashish ona tilini bilib olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda ona tilini ba’zan uzoq vaqtgacha o‘rgana omay qolishi kuzatishlardan ma’lum. Bundan, ilk yosh davrida bola atrofida avvalo ona tilining “nutq vaziyati” bo‘lishi kerak.

Bola odatda ayrim so‘zlarni uzuq-yuluq qilib, imo-ishora bilan aytib beradi. Bu “vaziyatli nutq” deb ataladi, chunki uning ma’nosini bola bilan yonma-yon, bir vaziyatda turgan kishigina tushuna oladi va shu vaziyatga qarab bola aytgan so‘zida nimani ifodalaganini fahmlay oladi. Fonetika nuqtayi nazaridan bu dastlabki so‘zlar juda o‘ziga xos bo‘lib, katta yoshli kishilar nutqidagi so‘zga kam o‘xshaydi, tovushlar buzib aytiladi, so‘zning yo boshi, yo oxiri, yo o‘rtasi yetishmaydi, ko‘pincha bola so‘zning (odatda urg‘uning qaysi bo‘giniga tushushiga qarab) yo faqat boshini, faqat oxirini, yoki faqat o‘rtasini aytish bilan kifoyalanadi. Shuning natijasida bola bilan doimo munosabatda bo‘lgan kishilar ham u aytgan so‘zlarning ma’nosini ko‘pincha zo‘rg‘a tushunadilar.

Bu davrning xarakterli belgisi shuki, bola aytib beradigan so‘zlar miqdori juda kam bo‘ladi, bu yoshda bolaning aktiv lug‘ati g‘oyatda sekin to‘lib boradi, shunga ko‘ra ko‘p ota-onalar bolani kuzatar ekanlar, nutq o‘shidagi siljishni deyarli payqamaydilar-da, bola shu jihatdan nima uchundir rivojlanishi sust, deb xafa bo‘lib gapiradilar, ba’zan esa tashvishga tushadilar ham.

Bu davrda nutq ancha o‘sadi, lekin bu o‘shish o‘ziga xos yo‘l bilan boradi. Bu davrda nutqning o‘shishi asosan tevarak-atrofdagi kishilar nutqini tushunish qobiliyatini o‘shish yo‘lidan boradi. Bola o‘ziga qarata aytilgan so‘zlarni yaxshiroq tushunadi. Uning passiv lug‘ati boyib boradi, bola o‘zi gapira olmaydi, boshqalarning so‘zini ko‘proq eshitadi. Tevarak-atrofdagi nutq materialini tezkorlik bilan singdirib boradi va shu materialdan keyinchalik mumkin qadar boy, rang-barang va to‘g‘ri material bo‘lishiga g‘amxo‘rlik qilishdan iboratdir.

Nutqning o‘shishida **ikkinchi davr** odatda bola bir yarim yoshga to‘lgandan keyin boshlanadi. Bu davrda avvalo aktiv lug‘atning tez o‘shishi bilan ta’riflanadi. Bola aytadigan so‘zlarning miqdori birdaniga oshib ketadi.

Bolaning katta yoshli kishilar nutqiga taqlid qilishi yangi so‘zlarni bilib olishida juda muhim ro‘l o‘ynaydi. Bola dastlabki so‘zlarni

o'rganish vaqtida ham taqlid qilgan, ammo endi taqlid xarakteri keskin ravishda o'zgaradi. Ilgari bola ko'p jihatdan ko'r-ko'rona, ongsiz ravishda taqlid qilar, ota-onasi unga yangi so'zni ko'p marta takrorlar, bolani shu tariqa mashq qildirib, unga yangi so'zni o'rgatar edi. Endi, ikkinchi davrda, bolaning taqlidi aktivroq va mustaqilroq bo'lib boradi, u tevarak-atrofdagi kishilar nutqidan yangi so'zlarni payqay oladi, ularni o'zlashtirib aytib beradi. Ilgari bola yangi so'zni anchagina qiyinlik bilan o'zlashtirgan bo'lsa, endi o'z lug'atini o'ynay-o'ynay osonlik bilan boyitib boradi.

Albatta, bu ma'lumotlar turli bolalarda turlicha bo'lishi mumkin. Bu bola yashayotgan oiladagi nutq madaniyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Ammo 3 yoshga to'lish oldidan ro'y beradigan va ilk yosh davridagi bola aktiv lug'atining tobora tez o'sib borishida ifodalanadigan sifat o'zgarishi yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinib turibdi.

Ilk yosh davrida bolaning lug'atining o'sishi quyidagi ma'lumotlar bilan ta'riflanadi:

Yoshi	O'rgangan so'zlarning miqdori	Lug'atning boyishi
1 yosh	3	-
1 yosh-u 3 oy	19	16
1 yosh-u 6 oy	22	3
1 yosh-u 9 oy	118	96
2 yosh	272	154
2 yosh-u 6 oy	446	174
3 yosh	896	450

Bola 2 yoshga kirish oldidan nutqi ma'noli bo'la boradi. Ilgari bolaning so'zlari asosan uning ehtiyojini ifodalagan bo'lsa, endi nutqning nom berish funksiyasi tobora kuchayadi. Narsalarning o'z nomi borligiga, har bir narsaning o'z nomi bilan atalishiga bola tajribada ko'rib ishonadi. Bolaning bu nima? Nomi nima? degan savollarida ko'rinadigan o'ta sinchkovligi shundan kelib chiqadi. Shu bilan birga bolaning miyasida narsa bilan so'z orasida yangi bog'lanishlar paydo bo'ladi. Demak, I va II signallar sistemasining o'zaro bo'g'lanishi tobora ko'p mustahkamlanadi, shu bilan birga bolaning psixik jihatdan o'sishida II signal sistemasining ro'li oshadi. Bola ko'rgan narsasini so'z bilan mustahkamlab, idrok qilinadigan narsalarning ma'nosini yaxshiroq tushunadi. Bolaning kattalarga murojaat qilib savollar berishi yanada

ko'payadi. Bola shu savollarga javob olib, narsalar haqidagi bilimlarini aniqlashtirib boradi. Bola 2 yoshga to'lib, 3 yoshga qadam qo'yganda narsalarning nomini bildiradigan so'zlar doimiy va aniq bo'la boradi. Ilgari bola bir necha xil narsani bir so'z bilan atagan bo'lsa, endi bir so'zni ma'lum bir narsaga ko'proq biriktirib, mustahkamlab qo'yadi. Lekin shu bilan kifoyalanmay, narsalar haqida yangi bilimlar olishga intiladi. Karim (2 yashar-u 4 oylik) ism, sharifi nimaligini bilib olgach, endi barcha tanishlarining shariflarini surishtiradi, "hatto shishacha, quticha va shunga o'xshashlarning shariflari nima?" deb so'raydi.

Shunday qilib, ilk yosh davrining oxirida nutq tobora o'sib, tevarak-atrofdagi dunyoni bilish vositasiga aylanib boradi.

Ilk yosh davrida bola nutqning grammatik tomoni anchagina o'zgaradi. Dastlab narsalarning nomini bildiradigan otlar ko'proq bo'ladi. Ikki yoshga to'lish oldidan fe'l ko'p ishlatiladi, ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'yganda fazoviy nisbatlarni bildiradigan ba'zi ravishlarni, masalan, "orqada", "yuqorida", "pastga" degan so'zlarni bilib oladi. Ilk yosh davrining oxiriga kelib, nutqning sintaksis tuzilishi ham ancha o'zgaradi. Ilk yosh davrining boshlarida bola nutqi bir so'z-gapdan iborat, ya'ni bola o'z fikrini bitta so'z bilan ifodalaydigan bo'ladi. Albatta, fikr shunday ta'riflanganda noaniq, tarqoq bo'lib, atrofdagi kishilarga yaxshi tushunarli bo'lmaydi. Bu kamchlikni to'ldirish uchun bola imo-ishora, mimika, ifodali harakatlardan bir qadar foydalanadi.

Ikki yoshga to'lish oldida bola nutqida dastlabki gaplar paydo bo'ladi. Ular juda oddiy jumlar bo'lib, odatda ikki-uchta so'zdan tuziladi, dastlab bola ikki-uchta so'z-gapni aytadi. Bola ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'yganda grammatik jihatdan o'zaro bog'langan bir necha so'zli gaplar paydo bo'ladi. Ikki yoshga to'lganda bosh gap bilan ergash gapdan tuzilgan dastlabki qo'shma gaplar ham paydo bo'ladi. Lekin ilk yoshda bolaning gapidagi so'zlarning grammatik bog'lanishi hali o'ziga juda xos bo'lib, unda noaniqlik, noto'g'rilik va buzilishlar ko'pdir. Biroq, grammatik formalarni shu tariqa bila boshlash bola nutqining o'sishida sifat jihatdan yangi bosqich hisoblanadi. Bola nutqi tobora ko'proq bog'lanishli tevarak-atrofdagilar uchun ko'proq tushunarli bo'la boradi. Nutqning mazmuni ham o'zgaradi va boyiydi. Ilgari bolaning nutqida uning o'ziga bevosita yaqin sharoit, uning eng muhim ehtiyojlari va orzu-istaklari aks etgan bo'lsa, endi

bola nutqi takomillashib, uzoqdagi narsalar, voqealarni ham o'z ichiga ola boshlaydi.

Tevarak-atrofdagi dunyoni bilish vositasi sifatida nutq imkoniyatlari shu tariqa kengayaveradi.

Shu bilan birga ilk yosh davrining oxiriga kelib, bola tevarak-atrofdagilarning nutqini tobora mukammalroq egallay boshlaydi. Katta yoshli kishilarning gaplaridan ko'pini tushunadi, ularning aytib bergan hikoyalarini, kichik she'rlarini, ashula, ertaklarini jon-jon deb tinglaydi. Bola o'ziga berilgan savollarni tushunib, javob qaytaradi, o'zi ham katta yoshli kishilarga tobora ko'p savollar beradi, ularning iltimos va topshiriqlarini bajo keltiradi, kattalarning ma'qullashi, maqtashi, koyishi, taqiqlashiga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rganadi. Shu tariqa, bolaning nutqi atrofdagilar bilan muomala qilish vositasiga aylanadi, bu esa nutqning yanada o'sishi uchun, umuman psixikaning kamolga yetishi uchun kuchli turtki beradi.

Ilk yosh davrida bola tafakkurining xususiyati shundan iboratki, idrok va tafakkur, idrok va ish-harakatlar bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Bola hali tili chiqmagan, o'z fikrlarini so'zlar bilan ifodalashga o'rganmagan bo'ladi, shuning uchun fikri faqat bevosita idrokka, bolaning xatti-harakatiga bog'langan holda mavjud bo'la oladi. Ilk yosh davridagi bolaning tafakkuri yaqqol-konkret tafakkurdir. Bola narsani idrok qilar ekan, ilgari ko'rilgan shunga o'xshash narsani taniydi, narsalar o'rtasidagi eng oddiy bog'lanishlarni aniqlaydi.

Bola narsa bilan o'ynab uni nari-beri surib, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirmaydi, "xatti-harakatning borishiga qarab" fikr yuritadi, ko'pincha esa fikri xatti-harakatdan o'zib ketish u yoqda tursin hatto orqada qoladi. Avvaliga bola bir nima yasamoqchi, bir nima chizmoqchi bo'lib, keyin unga nom beradi, uning nimaligini tushunadi. Bola o'yinchoqni ko'zdan kechirib, bo'lak-bo'lak qilib ajratib yoki hatto sindirib narsani amaliy analiz qiladi. Sekin-asta nutq o'sgan sayin, bu analizga fikriy analiz ham qo'shila boshlaydi. Bundan yaqqol va konkret tafakkur ilk yoshi uchungina emas, maktabgacha tarbiya yoshining ko'p qismi uchun ham xarakterlidir.

Harakatlar o'sishi va kengayishi munosabati bilan bola tushinadigan tashqi dunyo doirasi ancha kengayadi. Tafakkurning o'sishi uchun katta imkoniyatlar tug'iladi, bola tobora ko'p narsalarni tushinib oladigan bo'ladi, ular o'rtasida tobora yangi bog'lanishlar topadi.

Bola ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'yganda tafakkurining o'sishida sifat o'zgarishlar ro'y beradi. To'g'ri, bola tafakkuri avvalgiday yaqqol-konkret tafakkur bo'lib qolaveradi, ammo endi tafakkurning o'sishida nutq asosiy yetakchi ro'l o'ynay boshlaydi. Nutq bu yoshning boshlaridayoq bola tafakkurining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolaning bilib olgan dastlabki so'zlari uni umumiyashtirishga, narsalar o'rtasidagi bog'lanishlarni topishga, narsalarning bir-biriga o'xshashligini va farqini aniqlashga o'rganadi. Masalan, bola "stol" so'zini bilib olar ekan, bir-biriga o'xshash bir to'da narsalarni shu so'z bilan ataydigan bo'ladi va bu narsalarni, masalan, "stul" so'zi bilan ataladigan va bir-biriga o'xshaydigan, umumiy sifatga ega bo'lgan boshqa narsalardan ajratishga o'rganadi. Shunday qilib, dastlabki so'z-otlarni bilib olish jarayonidayoq asosiy fikrlashning oddiy ko'rinishlari: analiz (narsani fikran tarkibiy qismlarga bo'lish), taqqoslash (narsalar o'rtasidagi tafovut va o'xshashlikni fikran aniqlash), mavhumlash (narsaning asosiy muhim belgilarini ajratish), sintez (ana shu belgilarni yaxlit bir butun qilib birlashtirish) va nihoyat, umumiyashtirish (bir-biriga o'xshaydigan narsalarni tegishli so'z bilan ataladigan bir guruhga birlashtirish) hosil bo'ladi.

Tajriba orta borgani sayin, hammadan muhimi nutq o'sgani sayin, ahvol tubdan o'zgaradi. Ilk yosh davrining oxiriga kelib, tafakkurning o'sishida nutqning roli juda oshadi. Bola yangi so'zlarni mumkin qadar ko'proq bilib olish bilan kifoyalanmaydi, bu so'zlar bola uchun muayyan, doimiy ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Bola otlarni o'rganibgina qolmay, sifatlarni ham bilib oladi, ya'ni so'zlarida narsalarning xossa, belgilarini ifodalaydi. Bularning hammasi fikrlash operatsiyalarining o'sishiga yordam beradi.

Bola so'zlarni grammatik jihatdan bog'lanishni o'rgangan sayin, tevarak-atrofdagilar uchun tushunarli qilib, burro-burro so'zlashni o'rgangan sayin, o'z fikrlarini ham yangicha ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ilgari bola fikrini noaniq tushunilishi qiyin so'z bilan ifodalalar edi. Bu aslida fikr bo'lmay, fikrning bir bo'lagi bo'lib, imo-ishora bilan to'ldirililar edi. Ilk yoshining oxirida bola o'z fikrini grammatik jihatdan bog'langan bir necha so'zdan iborat gap bilan ifodalaydi. Endi gapda fikr bayon qilinadi. Fikr ilgarigidan qiyos qilib bo'lmaydigan darajada aniq va muayyan bo'lib qoladi. Ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'yganda ergash gaplarning paydo bo'lishi bola fikrini yanada ko'proq aniqlashtirib, mantiqiy jihatdan ko'proq o'stiradi.

Shunday qilib, ilk yosh davridagi bolaning psixik jihatdan o‘shida nutq bilan tafakkurning juda ham bo‘g‘langanligini, ularning bir-biriga ta’sir etishini, shuning uchun ham nutq ham tafakkur ham tez o‘shini kuzatamiz.

Bog‘chagacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bola nutqida uning tafakkur faoliyati qanday borayotganini aks ettiruvchi so‘zlar paydo bo‘la boshlaydi. Barcha yangi narsalar va ularning xossalarini bilish, bu bilimni so‘zlarda ifodalash, narsa haqida mantiqiy jihatdan shakllangan fikr yuritish – bularning hammasi bolaning ilk yosh davrining oxiriga kelib ba’zi tushunchalarni bilib olishga, shu tushunchalarning bir qancha eng muhim belgilarni o‘zlashtirishga olib keladi.

Barcha yangi narsalar va ularning xossalarini bilish, bu bilimni so‘zlarda ifodalash, narsa haqida mantiqiy jihatdan shakllangan fikr yuritish bularning hammasi bolaning ilk yoshning oxiriga kelib ba’zi tushunchalarni bilib olishiga, shu tushunchalarning bir qancha eng muhim belgilarini o‘zlashtirishiga olib keladi. Masalan, bola ko‘pincha katta yoshli kishilar bilan bolalar (kattalar bilan kichiklar) o‘rtasidagi farqni bilishga qiziqadi. U kuzatib, taqqoslab, ko‘pgina savollarga javob topadi. Natijada bola tegishli tushunchalarning ba’zi belgilarini bilib oladi. Salimga (yosh 6 oylik) onasi aytadi: “Adang endi barvaqt ketmaydi”. Salim hayron bo‘ladi: “Adam kattalar-ku!”. Salim hamma “kattalar”ning ishga barvaqt ketishini biladi, Salim “katta” tushunchasining asosiy belgisini bilib oladi. Bola o‘ziga qarata aytilgan “nega bilmaysan? “degan savolga “Men kichkinaman, katta bo‘lganimda bilib olaman”deb javob qaytaradi. Bu yerda ham bola “katta” tushunchasining muayyan belgisini bilib olganligi ko‘rinib turibdi: “Kattalar” ko‘p narsani bilishadi, katta bo‘lganimda men ham bilib olaman”, deydi bola.

Tushunchalarni bilib olish jarayoni bolaning son tushunchasi bilan tanishuvida ham yaqqol ko‘rinadi. Bola tushunchalar bilan tanishib, ularni birlashtirib, hukumlar chiqarib, hukumlarni ham mantiqiy jihatdan o‘zaro bog‘laydi, ulardan yangi fikrni vujudga keltiradi, ya’ni xulosa chiqaradi.

Ilk yosh davrining oxirida bolaning fikr yuritganini, o‘ziga xos xulosa chiqarganini ko‘p kuzatamiz. Ilk yoshdagi bolaning tushunchalari, hukm va xulosalari g‘oyatda o‘ziga xos bo‘lib, katta yoshli kishining tafakkur formalaridan katta farq qiladi. Bolaning tushunchalari, o‘zlashtirishda qiladigan xatolari, xulosa chiqarish jarayonida yangi-

lanishlari, avvalo, bola umumlashtirishining o'ziga xos xarakteri bilan izohlanadi. Ilk yoshdagi bola hali narsaning muhim belgilarini ajrata olmaydi va ikkinchi darajali belgilardan uzoqlasha olmaydi. Tajribasi juda kamlik qiladi. Abstraksiyalash jarayoni juda sust taraqqiy etgan, shuning uchun bola tushunchani o'zlashtirayotganda ko'pincha narsaning asosiy hal qiluvchi ichki bog'lanishlariga emas, balki tajribada tekshiriladigan va tushuniladigan tashqi belgilariga tayanadi. Bola: "kattalar" bilan "kichkinalar" o'rtasidagi farqni haqiqatda sezadi-yu, quyon bilan odam o'rtasidagi tafovutni sezmaydi, ya'ni bir tafovut ikkinchi tafovutni to'sib qo'yadi. Katta va kichik quyonchalar bo'lishini bilib olib, bola katta yoshli odamda qanday belgilar bor deb o'ylasa, "katta quyoncha" tushunchasiga o'sha belgilarni qo'sha boshlaydi. Shunday qilib ilk yoshdagi bolaning tushunchalari o'ziga xos bo'lib, ularda yanglishish va xatolar ko'p. Ammo tajribasi ortgan sayin bola tushunchalarni tobora yaxshi bilib, o'zlashtira boradi. Salim (2 yashar-u 8 oylik) "qaysi hayvonlarni bilasan?" degan savolga "kuchuk, mushuk, fil, aravacha" deb javob beradi.--Aravacha hayvonmi so'rashadi Salimdan

– Hayvon – deydi u

– Senchi, hayvonmisan?

– Yo'q, -deydi Salim, -yaxshi bolaman.

– O'zing kimsan?

– Men o'g'il bolaman.

Salim aravachani "hayvon" tushunchasiga qo'shib noto'g'ri qilgan edi, endi esa "o'g'il bola" tushunchasini "hayvon" tushunchasidan ajratib, to'g'ri xulosaga kelgan. Bola shu tariqa, xatolar qilib va ularni tuzatib, yiqilib asta-sekin tevarak-atrofdagi dunyoni bilish yo'lida olg'a boraveradi. Shu bilish jarayonida bolaning tafakkuri o'sa boradi. Bola tajribasining orta borishi tafakkurning o'sishi, tushunchalar hosil bo'lishi uchun muhim shartlardan hisoblanadi. Madomiki shunday tarbiyachining vazifasi bola tasavvurlarini narsalar haqidagi yangi bilimlar bilan boyitishdan, ilk yoshdagi bolaning e'tiborini narsaning bolaga eng oddiy va tanish bo'lgan, u bevosita idrok qila oladigan asosiy va muhim belgisini tushunishga sekin-asta yaqinlashtirish bilan narsalarning xossalari jalb qilishdan iboratdir.

Bolalar tafakkurining o'sishi nutqning o'sishiga chambarchas bog'liq. Shuning uchun, tarbiyachining kundalik ishi bola nutqini

o‘stirishdir. Bola maxsus ta‘lim natijasida emas, balki tevarak-atrofdagilar bilan doimiy munosabatda bo‘lish jarayonida tili chiqadi. Shunday bo‘lgach, tarbiyachi bola bilan so‘zlashish imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi. Bolaga mumkin qadar ko‘proq murojat qilish, u bilan suhbatlashish, savollariga javob qaytarish va uning o‘ziga ham savollar berish yo‘li bilan bola tevarak-atrofdagilarning so‘ziga quloq solish bilangina qolmay, aloqa vositasi sifatida nutqdan aktiv foydalanishiga, o‘zining aktiv lug‘atini boyitishiga erishmoq lozim.

Shuni nazarda tutish kerakki, bolalar har narsaga taqlid qiladigan, katta yoshli kishilar nutqidagi noto‘g‘ri talaffuzni bemalol, oson o‘zlashtiradigan bo‘ladilar, bu esa nutqning o‘sish jarayonini tormozlaydi, albatta. Tarbiya ishi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan yerlarda ilk yoshining oxiriga kelib, bola nutqni o‘stirishda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. To‘g‘ri, nutqida hali jiddiy kamchiliklar bo‘lishi turgan gap: lug‘ati bir-muncha kam (ayniqsa aktiv lug‘ati); grammatik jihatdan noto‘g‘ri, nonaniq so‘zlar va ifodalar ko‘p uchraydi. Shunga qaramay bola uch yoshga borib, mingtacha so‘zni bilib oladi. Bolaning nutqi endi bekami-ko‘st tafakkurning yanada o‘sishida ta‘sir ko‘rsatadi.

Tayanch iboralar:

bolaning gu-gulashi, g‘udurlashi, jonlanish kompleksi, vaziyatli nutq, aktiv nutq, lug‘ati, ehtiyojli nutq, nutqni rivojlanishi.

Mustahkamlovchi savollar:

1. Ilk yosh davridagi nutq taraqqiyot davrlari.
2. Vaziyatli nutqning tuzilishi.
3. Aktiv nutqning xususiyatlari.
4. Bola nutqining rivojlanib borishi va nutqidagi kamchiliklar.

Mustaqil topshiriqlar:

Ilk yoshdagi bolalarning nutqini kuzatib, o‘rganish va tahlil namunalari.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARAQQIYOTINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA TARAQQIYOTIGA UMUMIY XARAKTERISTIKA VA UNING JISMONIY JIHATDAN RIVOJLANISHI

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bog'cha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (insoniy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P. F. Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, insonning kamol topa borishida bog'cha yoshidagi davrning ahamiyatiga doir P. F. Lesgaftning bu fikri buyuk rus pedagogi A.S. Makarenkoning quyidagi fikriga to'la mos keladi.

A. S. Makarenko bolalarni juda kichiklik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning bir yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan ish butun tarbiya jarayonining 90 % ini tashkil etadi, degan edi.

Haqiqatan ham bolaning bog'cha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va aktiv davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi davr ta'sir kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir.

Bola yaslidan bog'chaga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. *Birinchidan*, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi. Uning o'yinlari, xatti-harakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi. *Ikkinchidan*, bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi. *Uchinchidan*, bola bog'chaga o'tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlanadi. Bog'cha yoshidagi bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o'sib kamol topishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bolaning jismoniy jihatdan eng tez o'sadigan davri bir-ikki yoshligiga to'g'ri keladi. Bola uch yoshga

to'lib bog'cha yoshiga o'tgandan so'ng uning jismoniy jihatdan o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bolaning jismoniy jihatdan o'sishidagi notekislik bu davrda ham davom eta beradi. Masalan, bola tug'ilgandan to bir yoshga to'lguncha 25 sm o'ssa, 1 yoshdan 2 yoshga kirguncha 40 sm o'sadi, 2 yoshdan 3 yoshga kirguncha 8 sm o'sadi va 3 yoshdan 4 yoshga kirguncha (ya'ni bog'cha davri boshlangandan so'ng) faqat 4 sm gina o'sadi. Bola 4 yoshdan oshgach, uning jismoniy o'sishi yana birmuncha jadallashadi. Chunonchi bola 4 yoshdan 5 yoshgacha 6 – 7 sm ga, 5 yoshdan 6 yoshgacha 7–8 sm ga va 6 yoshdai 7 yoshgacha 10 sm ga o'sadi.

Bog'cha yoshidagi bola tanasi va oyoqlarining uzayishi tufayli gavdasidagi umumiy mutanosiblik o'zgaradi. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning oyoqlari nisbatan ko'proq o'sadi. Biroq shunday bo'lsa ham 6–7 yoshgacha bo'lgan bolaning suyaklari hali yaxshi qotmagan, ya'ni tog'aysimon holatda bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning pay va muskullari hali baquvvat emasligiga qaramay juda harakatchan bo'ladi. Bolalar uzoq muddat davomida qiyshiq o'tirishlari (qiyshiq o'tirishga odatlanishlari) yoki bo'lmasa, qaltis harakat qilishlari natijasida ularning umurtqa suyaklari qiyshayib qolishi mumkin. Ana shularning oldini olish uchun bu yoshdagi bolalar skeletining to'g'ri o'sishiga alohida e'tibor berish kerak. Chunki bog'cha yoshidagi bolalarda skolioz (bukirlik) kasaliga uchrash xavfi hali kuchli bo'ladi. Shuning uchun ularni har doim muskul va suyaklariga ortiq zo'r berishidan saqlash kerak.

Bola 7 yoshga yetgach, umurtqa suyagining bo'yin qismida oldinga tomon, ko'krak qismida esa orqaga tomon ma'lum darajada egilish yuz beradi. Keyinchalik bolaning umurtqa suyagi mana shu shaklda saqlanib qoladi. Bola qaddi-bastining raso bo'lishida umurtqa suyagining ana shunday holda saqlanib qolishi juda katta ahamiyatga ega. Bog'cha yoshidagi bolaning bosh suyagi ham tez o'sadi. Bola uch yoshga to'lgandan so'ng bosh miya suyagining orqa va tepa tomonlari tez o'sadi. Umuman olganda, bola bosh suyaklarining hamma tomonlari 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda xususan tez o'sadi.

Bog'cha yoshida jismoniy jihatdan o'sishi, ya'ni tashqi qiyofasining o'zgarishi, muskul, pay va skeletlarining takomillanishi bilan birga bolaning ichki organlarida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolaning yuragi hajm jihatidan chaqaloq bolaning yuragiga nisbatan 4–5 barobar kattalashgan, biroq uning

muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Mana shuning uchun bog‘cha yoshidagi bolaning yuragi bir qisqarishda organizm uchun yetarli qon siqib chiqara olmaydi. Bog‘cha yoshidagi bola yuragining katta odamlar yuragiga qaraganda nisbatan tezroq urishining sababi ham mana shundadir. Agar 1 yoshdagi bolaning yuragi bir marta qisqarishda 10,2 kub sm qon siqib chiqarsa, 7 yoshli bolaning yuragi bir marta qisqarishda 23 kub sm dan qon siqib chiqaradi. Katta yoshdagi odamning yuragi esa bir marta qisqarishda 60 kub sm dan ortiqroq qon siqib chiqaradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar nafas olish a‘zolarining ishida ham anchagina o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bu yoshdagi bolalar o‘pkasining normal ishlashi va rivojlanishiga ko‘krak qafasining o‘sishi ko‘p jihatdan ta‘sir etadi. Chunki o‘pkaning faoliyati asosan ko‘krak qafasining shakli va elastikligiga (harakatchanligiga) bog‘liq bo‘ladi. Mana shu jihatdan kichik yoshdagi va bog‘cha yoshidagi bolalarning ham ko‘krak qafaslari nafas olish uchun qulay emas. Bundan tashqari, bog‘cha yoshidagi bolalarda ko‘krak qafasining doirasi ham kattalarnikiga qaraganda juda tor bo‘ladi. Shu sababli kichik va bog‘cha yoshidagi bolalarning nafas olishlari katta odamlarning nafas olishlariga nisbatan yuzakiroq bo‘ladi. Bolalar o‘pkasining hajmi yetarli darajada kattalashmaguncha chuqur nafas ololmaydilar. Natijada bolalar chuqur nafas olishning o‘rniga tez nafas olish bilan qoplaydilar. Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida boshqa organlari kabi ko‘krak qafasining o‘sishi ham bir oz sekinlashadi. Lekin ko‘krak qafasi doirasining kengayishi bu davrda ancha tez davom etaveradi. Bola ko‘krak qafasining doirasi yiliga 1–2 sm dan kengayib borib, 13–14 yoshga yetganida o‘z shakli va hajmi jihatidan katta odamlarning ko‘krak qafasiga yaqinlashadi.

Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida, ya‘ni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrida nafas olishining miqdori deyarli o‘zgarmaydi. Lekin bu davrda bola haddan tashqari harakatchan bo‘lgani uchun uning organizmi juda ko‘p miqdorda kislorod talab qiladi. Shuning uchun bola mumkin qadar ko‘proq ochiq havoda bo‘lishi kerak.

Ana shu yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, bog‘cha yoshiga kelib organizmining ishchanlik qobiliyati ancha osha‘li. Shuning uchun bog‘chada va oilada ta‘lim-tarbiya ishlari hamda bolaning kun tartibini tuzishda, bolalarning jismoniy taraqqiyot xususiyatlarini doimo hisobga olish zarurdir.

Bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasining rivojlanishi. Bog'cha yoshidagi bolalar psixikasining rivojlanishida ularning nerv sistemalarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar juda katta rol o'ynaydi. Bolalar nerv sistemalarining eng kuchli taraqqiy etadigan davri 1–3 yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Yangi tug'ilgan bola bosh miyasining o'rtacha og'irligi 380–400 g keladi. Bola bog'cha yoshiga yetguncha uning miyasi g'oyat tez rivojlanib, deyarli uch baravar ko'payadi. Demak, bog'cha yoshiga yetgan bolalar miyasining og'irligi 1100–1200 ga etadi. Bog'cha yoshidagi bolaning miyasi faqat vazn va hajm jihatidan ortishi bilan cheklanib qolmay, balki ichki tuzilish jihatidan ham ancha murakkablashadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasining bundan keyingi rivojlanish davomida bosh miya po'sti qismidagi son-sanoqsiz markazlarni bir-biri bilan tutashtiruvchi nerv tolalari ham miyelin qobig'i bilan qoplana boshlanadi. Bosh miyadagi nerv tolalarining miyelin qobig'i bilan qoplanishi, aks ettirish jarayoni, ya'ni psixik jarayonlar va ularning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega. Nerv tolalari miyelinizatsiyalashganda, *birinchidan*, qo'zg'alishlarning nerv tolalaridan tez o'tishni ta'minlansa, *ikkinchidan*, qo'zg'alishning faqat tegishli markazgagina borishini ta'minlaydi. Buning natijasida organizmga tashqi muhitdan ta'sir etib turuvchi turli qo'zg'atuvchilar ta'siri tufayli yuzaga keladigan shartli reflekslar nisbatan tez hosil bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasining taraqqiyoti davomida asosiy nerv tolalarining miyelin qobig'i bilan qoplanib, bir-biridan ajratilishidan tashqari bosh miya yarim sharlari po'stidagi nerv hujayralari ham tobora murakkablashib boradi. Bunda ilgari hech qanday shoxchalarga ega bo'lmagan nerv hujayralari bolaning bog'cha yoshidagi g'oyat aktiv faoliyatlari davomida har tomonga tarqalib ketgan juda nozik shoxchalarga ega bo'la boradi. Bu esa, o'z navbatida, bosh miya yarim sharlari po'stining turli yerlarida joylashgan nerv hujayralari (neyronlar) o'rtasida muvaqqat bog'lanishlar (assotsiatsiyalar) hosil bo'lish imkoniyatini yanada orttiradi.

Rus fiziologlari N.I.Krasnogorskiy va A. G. Ivanov-Smolenskiylar tomonidan ko'plab o'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalarning nerv sistemalari o'z faoliyati jihatidan hali qat'iy bir izga tushmagan, o'zgarib turadigan bo'ladi. Markaziy nerv sistemasini faoliyatining o'zgaruvchanligi xususan kichik yoshdagi bog'cha

bolalarida juda ravshan ko'rinadi. Masalan, bu yoshdagi bolalarda qo'zg'alish jarayoni tormozlanish jarayonidan ko'pincha ustunlik qiladi. Mana shuning uchun ham bu yoshda bolalar juda serharakat va o'ta hayajonlanuvchan bo'ladilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda qo'zg'alish jarayonining nisbatan ustun bo'lishi tufayli nerv bog'lanishlar kattalarga qaraganda sekinlik bilan maydonga keladi. Shu sababli ularda nerv bog'lanishlarni yuzaga keltirish takror-takror ta'sir etishni talab qiladi. Biroq shunga qaramay, hosil etilgan nerv bog'lanishlar juda yengillik bilan tormozlanib (o'chib) qoladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyatlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, tashqi muhitdan bolaga ta'sir qilayotgan biron qo'zg'atuvchining ta'siri bilan yuzaga keladigai qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari yasli yoshidagi bolalarniki kabi keng irradatsiyalash (atrofqa keng yoyilish) xususiyatini saqlab qolgandir. Natijada miya po'stining ma'lum markazida yuz bergan qo'zg'alish yoki tormozlanish hodisasi miya po'stida joylashgan boshqa markazlarga ham keng tarqalib ketadi. Bu bog'cha yoshidagi bolalarning ayrim psixik jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini biron narsaga uzoq muddat davomida qarata olmaydilar.

Nerv sistemasining taraqqiyoti bog'cha yoshidagi hamma bolalarda bir xil temp bilan davom etmaydi. Bu murakkab taraqqiyot bolalarning individual xususiyatlariga va yashash sharoitlariga ya'ni oilada hamda bog'chada qanday tarbiyalanishlariga bog'liqdir. Bolaning tarbiyasi qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, uning nerv sistemasi shunchalik normal taraqqiy etadi. Bola nerv sistemasining taraqqiy etishida uning atrofidagi har turli narsa va hodisalar bilan bevosita mustaqil munosabatda bo'lishi ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Chunki bunda bolaning mustaqil harakatlarida uning nerv sistemasi aktiv faoliyatda bo'ladi va tez rivojlanadi. Mana shu holatni nazarda tutib, tarbiyachilar bolalarning mustaqil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishga alohida e'tibor berib borishlari lozim.

Tayanch iboralar:

bola xususiyatlari, bolaning bo'yi, vazni, suyak sistemasi, tog'aysimon bo'lishi, pay va muskullari, nerv sistemasi, bosh miya jarayonlari, nafas olishi, qon aylanish tizimi, bola parvarishi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish va tahlili.
2. Bolalarni jismoniy tuzilishlarini, harakatlarini kuzatish.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy xususiyati.
2. Bolalarning bo'yi va vaznini ortib borishi.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nerv tizimini tuzilishi.
4. Bolalarning sklett sistemasini o'ziga xosligi.
5. Bolalarning nafas va qon aylanish tizimini rivojlanib borishi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXIKASINING RIVOJLANISHI

Bola bog'cha yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bola mustaqil faoliyatda bo'la olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. *Birinchidan*, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga, *ikkinchidan* esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi.

ILK VA MAKTABGACHA YOSH DAVRINING XUSUSIYATLARI

- 1-2 YOSHDA TAFAKKUR KURTAKLARINI KO'RINISHI;
- 2 YOSHDA MUSTAQIL YURISHI, ATROF-MUHITNI O'ZLASHTIRISH, SEZGILARINI ISHGA SOLISHI;
- 2-3 YOSHDA TASVIRLASH FAOLIYATI HOSIL BO'LISHI;
- 3 YOSHDA QIZIQUVCHAN, NARSALARNI BILISHGA INTILISH;
- 2-3 YOSHDA IXTIYORSIZ FAOLLIK VA HISSIYOTNING USTUNLIGI;
- 3 YOSHDA TAXMINAN 1000 TACHA SO'Z BOYLIGIGA EGA BO'LISH;
- 3 YOSHDAN BOSHLAB "MEN" LIGINI BILISH;
- 3 YOSHDAN KEYIN TASHABBUSKORLIK, VAZIYATNI EGALLASHGA INTILISH, TALABNI ANGLASH;

- 4-6 YOSHDA TAFAKKURNING KO'RGAZMALI-HARAKATLI, KO'RGAZMALI-OBRAZLI TURINI SHAKLLANISHI;
- 5 YOSHDA O'Z ONA TILINI EGALLAB OLISHI VA MULOQATGA KIRISHA OLISHI;
- 3-6 YOSHDA XOTIRANING MEXANIK, IXTIYORSIZ TURI, DIQQATLARI BEQAROR BO'LISHI;
- BU DAVRDA ASOSIY FAOLIYATI O'YINDIR.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muhit bilan bo'lgan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola bog'cha yoshiga yetgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. Shu narsa xarakterliki, kichik maktabgacha yoshdagi bola doimiy yordam va g'amxo'rlik talab qiladigan obyektidan sekin-astalik bilan oila hamda bog'cha bolalar guruhining faol a'zosiga aylana boshlaydi. Demak, bola bu davrdan boshlab, kattalarning yordamiga muhtoj bo'lmay, o'zi ham boshqalarga ma'lum darajada yordam bera oladigan, o'zining burchi, vazifalari, qiziqishlari hamda xilma-xil ehtiyojlarga ega bo'lgan shaxsga aylana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan xilma-xil ehtiyoj va qiziqishlar juda katta ahamiyatga ega. Chunki ehtiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi, ularni ishga soluvchi omil hisoblanadi. Ma'lumki, ilk yoshdagi bolalarda (ya'ni chaqaloqlarda) asosan organik ehtiyojlar (masalan, ovqatlanish, tashnalikni qondirish, uxlash kabi) mavjud bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar bunday organik ehtiyojlardan tashqari ijtimoiy va intellektual ehtiyojlarning dastlabki kurtaklari yuzaga kela boshlaydi. Masalan, maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hali yaxshi gapira olmasalar ham, haddan tashqari qiziquvchan bo'ladilar. Ular ko'zlariga ko'ringan har bir narsani qo'llari bilan timirskilab ushlab ko'rmagunlaricha tinib-tinchimaydilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan mana shunday qiziquvchanlik ularda intellektual ehtiyojlarning yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy intellektual va axloqiy ehtiyojlar yaqqol ko'rina boshlaydi. Agar maktabgacha tarbiya yoshidagi bola uzoq vaqt davomida yolg'iz o'zi biron o'yinchoq bi-

lan mashg'ul bo'lib o'tira olsa, maktabgacha yoshdagi (xususan o'rta va katta guruh bolalari) bola bunday yolg'iz o'ynashga toqat qila olmaydi. Ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o'z ehtiyojlarini qondira olmay, kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Natijada bu yoshdagi bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doiralari tobora kengayib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatlariga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri har narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyojdir. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari atrofidagi narsalarni bilishga qaratilgan ehtiyojlari ham orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Har bir narsa bola uchun yangilik bo'lib tuyuladi va bola uni har tomonlama bilib olishga intila beradi. Shuning uchun ham ular juda ko'p savollar beradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida bog'cha muhiti juda katta rol o'ynaydi. Bog'chadagi tartib, intizom va turli-tuman ta'limiy mashg'ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigiyenik ehtiyojlarning garmonik ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug'diradi. Psixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, odatlar o'z mohiyati jihatidan ehtiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik hayotda takrorlana berishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, ehtiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali ehtiyojlarni tarbiyalash deganda, ularda ijobiy va foydali odatlarni hosil qilishni tushunamiz. Maktabgacha yoshdagi davrda hosil qilingan mustahkam ijobiy odatlar (ehhtiyojlar) kishining butun umri davomida saqlanib qoladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida qiziqishning ham roli g'oyat kattadir. Qiziqish, xuddi ehtiyoj kabi, bolani biron faoliyatga undovchi (harakatga soluvchi) omillardan biridir. Qiziqish deganda, biz voqelikdagi narsa va hodisalarni birmuncha chuqurroq bilishga qaratilgan maxsus intilishni tushunamiz. Demak, qiziqish bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan har bir shaxsning murakkab sifatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar hamma narsalarga birdek qiziqmaydilar. Ular ayrim narsalarga ko'proq, boshqa bir narsalarga kamroq qiziqadilar. Lekin maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari katta odamlardagi kabi bir narsaga nisbatan qat'iy hamda mustahkam bo'lmay, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez-tez ko'chib turadi.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari juda tarqoq va yuzaki bo'ladi. Ular narsa va hodisalarning mohiyati yoki natijalariga emas, balki shu narsa va hodisalarning o'zigagina qiziqadilar. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan beqaror va bevosita qiziqishlar ustun turadi. Tarbiyachi bog'chada turli mashg'ulotlar, ekskursiyalar, suhbatlar o'tkazish va kitoblar o'qib berish orqali bolalarda markazlashgan barqaror qiziqishlarni yuzaga keltirishga harakat qilishi lozim.

Bola psixikasining rivojlanishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi (toqati chidaydi). Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixik jarayonlarini rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarda biror sohaga nisbatan barvaqt yuzaga kelgan qiziqish kelajakda ularning shu sohasini yaxshi egallashlari uchun qandaydir tayyorgarlik rolini o'ynaydi.

Bog'chada bolalarning birgalikda ta'lim-tarbiya olishlari, birgalikda o'ynashlari va birgalikda ovqatlanishlari ularda jamoatchilik tuyg'usini yuzaga keltira boshlaydi. Ko'pchilik bo'lib bir o'yinni o'ynash yoki biron vazifani bajarishda o'z xatti-harakatlarini kelishib olish, rollarga taqsimlash va bir-birlariga yordam berish kabi jamoatchilik hayotiga oid fazilatlar namoyon bo'la boshlaydi. Biroq maktabgacha yoshdagi bolalar jamoasi endigina tarkib topa boshlayotganini unutmасdavrdan bolalar jamoasini mustahkamlashda ularning jamoadagi endigina yuzaga kelayotgan o'zaro murakkab munosabatlari, ya'ni bir-biriga bo'ysunish, bir-biriga yon bosish kabi munosabatlar katta rol o'ynaydi hamda bolalarning psixik taraqqiyotiga yordam beradi.

Bolalarning bunday o'yinlarida pala-partishlik, tartibsizlik yo'q. Chunonchi, ular qo'g'irchoqlarini yuvintiradilar, kiyintiradilar, ovqatlaniradilar, so'ngra bog'chaga olib boradilar, uxlatadilar va hokazo. Bular qat'iy tartib (rejim) bilan amalga oshiriladi. Ana shunday tartibli, sistemali faoliyatda bo'lishga odatlanish maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy xislatlarining tarkib topishi uchun katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy va psixik jihatdan hali yetarli darajada rivojlanmaganliklari tufayli ular oddiygina mehnat topshiriqlarini bajara oladilar. Bolalarning ijodiy harakatlari asosan o'yin hamda tasviriy san'at faoliyatida (rasm chizish, loy ishi, qog'ozdan har

narsalar yasash kabi) namoyon bo'ladi. Bolalar o'zlarining o'yin va tasviriy faoliyatlarida kattalarning mehnatlarini taqlidiy tarzda qayta tiklab, mehnat hayotini faol ravishda o'zlashtira boshlaydilar. Bu ularning mehnat faoliyatiga tayyorlanishlarida katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z xatti-harakatlarini ma'lum vazifalarni ado etishga bo'ysundira olishlari, tobora kuchayib borayotgan qiziqish va erishgan aqliy taraqqiyot darajalari ularni ma'lum ta'limiy dasturlari asosida tarbiyalash imkonini beradi. Bog'chada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari hamda bilimga qiziqishni tarkib toptiradi.

Bog'cha hayotining ko'p qirrali va sarmazmunligi bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga hamda chuqurlashishiga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, asosiy bilish jarayonlari bo'lmish - idrok, tasavvur, xotira va tafakkur kabi jarayonlarning xarakterini o'zgartirib yuboradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bu jarayonlar ularning o'yin yoki biron amaliy faoliyatlari bilan birga namoyon bo'ladi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar biron narsa bilan mashg'ul bo'lib turganlarida uni idrok qiladilar, ilgari ham shu narsa bilan mashg'ul bo'lganlarini eslaydilar va uni analiz va sintez qilib ko'radilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda esa bu asosiy bilish jarayonlari bir-biridan differensiyalashgan (ajratilgan) bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bola biron o'yin faoliyati yoki biron narsa bilan mashg'ul bo'lish jarayonidagina emas, balki bunday amaliy faoliyatdan tashqari ham biror narsa yoki hodisani idrok qilishi, tasavvur etishi, esida olib qolishi, esiga tushirishi hamda oddiy tarzda tafakkur qilishi mumkin. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshdagi davrida ana shu asosiy psixik jarayonlar va xususan tafakkur hamda nutq jarayonlari jadal rivojlanadi. Bolalar kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida narsa va hodisalar haqida elementar tushunchalar sistemasini egallab olib, tafakkur qilishga o'rgana boshlaydilar. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo'lgan "nimaga?", "nima qiladi?", "nima keragi bor?" kabi juda ko'p savollar ularni narsa va hodisalarning sabablari haqida fikr yurita boshlayotganliklaridan darak beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari nihoyatda kuchli bo'ladi. Ularning barcha xatti-harakatlari ko'tarinki hissiy holatda o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari maktabgacha yoshdagi bolalar his-tuyg'ulariga nisbatan anchagina murakkab-

dir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari faqat bevosita idrok qilayotgan narsalari orqaligina emas, balki tasavvur qilayotgan narsalari orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari chuqur va mustahkam bo'la boshlaydi. Bolalarda bog'cha yoshidan boshlab axloqiy, intellektual va estetik hissiyotlarning eng sodda turlari yuzaga kela boshlaydi. Bog'cha yoshidan boshlab bolalarda iroda va irodaviy sifatlar ham tez rivojlana boshlaydi. Ularda o'zining butun xatti-harakatlarini ongli ravishda qo'yilgan umumiy bir maqsadga bo'ysundirish orqali yuzaga kela boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi davrda ayrim psixik jarayonlarning rivojlaniishi bilan birga ularning shaxsi va shaxsiy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Bolaning tashqi muhitdagi narsa va hodisalar hamda o'ziga nisbatan bo'lgan to'g'ri, oqilona munosabatlarining asosi xuddi shu davrda yuzaga keladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi davrda bolaning qobiliyatlari tez rivojlanib, yangi-yangi ehtiyojlari va qiziqishlari hosil bo'ladi. Bola shaxsining ana shunday rivojlanib borishi natijasida uning xarakteriga oid xislatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bog'cha yoshidagi davrda bolada qanday xarakter xislatlari tarbiyalansa, bu xislatlar bolaning maktab yoshidagi davrida va hatto katta odam bo'lib yetishganida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi davrda bolada ijobiy shaxsiy xislatlarning tarkib topishiga alohida ahamiyat berish zarur.

Bolalar bog'cha yoshidan boshlab xulq-atvorning axloqiy sifatleri va qoidalarini intensiv ravishda o'zlashtira boshlaydilar. Ular o'zlarining u yoki bu xatti-harakatlariga kattalar tomonidan beriladigan baholarga zo'r qiziqish bilan qaraydilar. Shuning uchun ular hamisha nima yaxshi-yu, nima yomonligini, qanday harakat to'g'ri-yu, qanday harakat noto'g'riligini aniqlashga intiladilar. Bu ishda bolalarga hamisha yordam berish kerak, ularning bunday harakatlarini qo'llab-quvvatlash lozim. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, axloqiy sifatlar va qoidalar haqida bilimga ega bo'lishning o'zi shu axloqiy me'yor va qoidalarni singdirish uchun hali yetarli emas. Ana shu bilimlardan tashqari bola axloqiy fazilatlarni va qoidalarni amalda, ya'ni kattalar hamda o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lishi kerak. Shundagina bola bu axloqiy sifat va qoidalarni singdira oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy sifat va qoidalarni ma'lum darajada o'zlashtirganlaridan so'ng ular endi boshqalarning yoki o'zlarining xatti-harakatlariga axloqiy jihatdan baho beradigan bo'ladilar. Ana shu yo'shida bolalarda sekin-astalik bilan burch hissi yuzaga kela boshlaydi. Bola o'zining yaxshi, odobli harakatlaridan mamnunlanadigan, o'rtoqlarining nojo'ya, odobsiz harakatlaridan nafatlanadigan bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarni va qoidalarni o'zlashtirishlari ularda irodaviy sifatlarning hamda xarakter xislatlarining tarkib topishi uchun katta ahamiyatga egadir.

Tayanch iboralar:

bola xususiyati, bola shaxsi, axloqiy sifatlari, bola qiziqishi, bilish jarayonlari.

Mustaqil topshiriqlar:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish va umumiy xususiyatlariga tavsifnoma berish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Maktabgacha yosh davrining xususiyatlari.
2. Bolalar ehtiyojlaridagi o'zgarishlar.
3. Boladagi axloqiy sifatlarni paydo bo'lishi.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qiziqishlarini o'ziga xosligi.
5. Bolalardagi bilish jarayonlari.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

Bolalarning o'yin faoliyatlari

Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o'yin hisoblanadi. Lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan, keyinchalik sujetli, rolli o'yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi. Harakat bolaning tabiatga, uni qurshab turgan kishilik dunyosiga nisbatan munosabatini bildiradi. O'yin bolalarning asosiy faoliyatidir. Lekin kattalar ham hatto hayvonlar ham o'yin o'ynashni yoqtiradi. Chunki o'yinning mazmuni keng. O'yinda san'at ham, boshqotirish ham, dam olish, mehnat,

shodlanish ham mujassamlashgan. Bolalar o'zlariga kerakli hayotni o'yindan topadilar.

Bolalarning ehtiyojlari o'yinda qondiriladi, ya'ni ular kattalardek o'qituvchi, uchuvchi, haydovchi ham bo'la oladilar. O'yin bola tomonidan bir qator amaliy tajribalarni egallash vositasi, ijobiy xislatlarni tarkib toptirish vositasidir.

O'yin bolalarning ijodiy faoliyati hamdir. Bola o'z atrofida ko'rgan voqealarni aynan o'zidagidek emas, o'zicha aks ettiradi.

Psixologiyada qabul qilinganidek, rolli o'yin faoliyati sujet va mazmundan tashkil topadi. Odatda sujet deganda, o'yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqelikning doirasi tushuniladi. O'yin sujeti turli davrga, sinfiy xususiyatga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda yaratiladi. Bola munosabatga kirishadigan voqelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo'lsa, o'yinning sujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

O'yin mazmunining rivojlanishi bolaning kattalar hayoti va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishida, atrofdagi voqeliklarga munosabati o'zgarishida, shuningdek, o'yin mazmuni hamda sujeti ijtimoiy shart-sharoit va jamiyat a'zolari turmushining tobora to'g'ri aks ettirishida ko'rinadi. Shuning uchun bolalarda rolli o'yin qobiliyatining o'sishi o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi. Balki kattalarning, tarbiyachilarning ta'siri natijasi; atrof-muhit bilan tanishish, sayrlar uyushtirish, shaxslararo munosabatlarning mohiyatini tushunish natijasida amalga oshadi.

A.P.Usovaning tadqiqotida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulg'ayishiga qarab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi:

1) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o'ynay oladilar;

2) 4-5 yoshlilar guruhi 2-5 ishtirokchidan iborat bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi;

3) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni guruh yoki jamoa bo'lib birga o'ynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, o'yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi.

Qator ilmiy tadqiqotlarda isbotlanishicha, o'yinda tarbiyaviy ta'sir jamoasi to'g'ri uyushtirilsa, bolalar hayotida juda murakkab, nozik psi-

xologik mexanizm paydo bo'лади va shaxslararo munosabat boshqacharoq tus oladi. Bolalar jamoasidagi o'zaro munosabatlar, muloqotlar o'yinning mazmunini boyitadi. Sujetning ko'lamini kengaytiradi, rollardagi g'oyalar barqarorlashib boradi. Guruh va jamoa bo'lib o'ynash orqali bolalarda jamoa harakati qoidalari, axloq normalari, o'zaro yordam ko'nikmalari va boshqa umuminsoniy qadriyat, ma'naviyat va ruhiyatning tarkibiy qismlari shakllanadi. Shuning uchun o'yin faoliyatida jamoa a'zolarining qoidaga muvofiq harakat qilishlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'yin davomida rollarni bajaruvchilar o'zlarining aloqalari orqali bir-birlari bilan uzviy bog'lanishlarini, o'yinni muvaffaqiyat bilan yakunlash, oxiriga yetkazish uchun birgalikdagi harakat qanchalik zarurligini anglay boshlaydilar.

Bolalarning o'yinlarida xayol qilish jarayoni, ijod etish elementi, bolalarning tashqi dunyoni o'zlaricha o'zlashtirishga urinish xususiyati borligini ko'ramiz. Bola xayol qilib, stolni samolyotga, gugurt qutisini mashinaga aylantiradi.

O'yin faoliyati kelgusida mehnat faoliyatiga tayyorlanishdir. Katta yoshdagi kishining hayotida faoliyat, ish, xizmat qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham shunday ahamiyatga ega. O'yinda bolaning tashqi muhitga ta'sir qilish ehtiyoji vujudga kela boshlaydi, aqliy, axloqiy va irodaviy sifatlari rivojlanib, bola shaxsi tarkib topib boradi.

O'yin faoliyatlarida bola shaxsida xulq va odob malakalari asta-sekin shakllantiriladi.

Bolaning shaxsi tarkib topishida kattalarning axloqiy ibрати alohida ahamiyatga ega. Lekin yuksak fazilatlarni, insoniy xislatlarni shakllantirishda shuning o'zigina yetarli emas, chunki bola o'zicha faol harakat qilmasa, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etmasa, unda hech qanday xulq-atvor ko'nikmalari hosil bo'lmaydi. Ma'lumki o'yin faoliyatida va muloqatlarda bolaning shaxsiy fazilatlari hamda xarakter xislatlari uning nutqiga bog'liq namoyon bo'лади.

Kamolotning mazkur pallalarida egosentrik nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli va rolli (sujetli va mazmunli) o'yinlar (chunonchi "Sotuvchi", "Shifokor", "Qorbobo" va boshqalar) jarayonida amaliy xatti-harakat bilan uzviy bog'liq holda bola shaxsida insoniy xislatlar tarkib topa boradi. Turli o'yinlar bolada irodaviy sifatlarini takomillashtirishda, his-tuyg'uni boshqarishda yetakchi faoliyat vazifasini o'taydi.

Rolli o'yin-maktabgacha bolalarning yetakchi faoliyati. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yat katta yoshdagi odamlarning barcha fazilatlarini va ishlarini amalda bevosita "bajaradilar". Shu boisdan o'yin faoliyati maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarini unumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar.

Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg'usi, o'zaro muomala va muloqatlarining xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muhitga munosabatlarning yaqqol voqelik tarzda ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan, o'ziga va o'zgalarga atrof-muhitga munosabati yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi va mohiyati va mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Yirik psixologlar A.Ballon, J.Piaje, Anan'ev, D.B.Elkonin va boshqalarning fikricha, go'daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rolli o'yin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi. Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to'plagan ma'lumotlarga asoslanib rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyatini yaratadi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;

2) Bola haqiqiy o'yinchoqlar o'miga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirmaydigan yasama va beo'xshov nusxalaridan keng foydalanadi;

3) Bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasini paydo bo'lishi;

4) Bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarning mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatdan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi;

5) Bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarni o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga urinishi. Rolli o'yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri – bolada o'z xatti-harakatini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga o'xshash tuyg'usini mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki iborat namunasi bo'ladi va kattalar uning xulq-atvori yurish turishining ham obyekt, ham subyekti hisoblanadi. O'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M. Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo'lishi kerak:

a). Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil taassurotlar tarkib topishi;

b) Har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoligi;

v) Bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Yuqorida tahlil qilingan obyektiv shart-sharoitlarining o'zi rolli o'yinlarni yaratish uchun bola bilan kattalar o'rtasida munosabatni tubdan o'zgartirish lozim, aks holda mustaqillik vujudga kelmaydi. Bunda kattalar bolaga nisbatan talabchanlikni oshirishlari bilan bolani mustaqil ravishda xatti-harakat qilishga majbur etishlari ma'qul. Shunga o'xshash tadbirlar bolada mustaqillik va mustaqil faoliyatni tashkil qilish uquvini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bola asta-sekin kattalarning hayoti va faoliyati dunyosiga kirib boradi, oldin hamkorlikdagi faoliyatda nomoyon bo'lgan ijobiy his-tuyg'ular shijoat va dadillik sari yetaklovchi ruhiy kechinmalardan iborat namuna darajasiga ko'tarilgan kattalarning ruhiy olamiga ko'chiriladi. Endi bolaning o'zi mustaqil ravishda kattalarning hayoti va faoliyatiga kirishish yo'llarini topa boshlaydi. U keyinchalik katta kishilarning hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida va shaxslararo munosabatlarida qatnashish istagini ko'rsatadigan bo'ladi.

Shuning uchun rolli o'yin kattalar bilan bola o'rtasidagi yangicha munosabatlar asosida vujudga keladi deb xulosa chiqarish mumkin.

Rolli o'yin bola mustaqil faoliyatining yorqin namunasi hisoblanib, bolalar o'yinning mazmuni orqali kattalar hayoti bilan yaqindan tanishadilar.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning rolli o'yinlarda faoliyatini, ana shu o'yin sharoiti va predmetli harakatning o'zaro munosabatini tekshirgan L.S.Slavina rolli o'yinlarda ko'pincha asosiy e'tibor o'yinchoqlar bilan harakat qilishga qaratilishini bunda o'yinchoq harakatining xususiyati subyekt uchun yetakchi faoliyat vazifasini o'tashini, bu jarayonda rol ikkinchi darajali alomatga aylanib qolishini, ammo bola o'yinlar ("Kubcha", "Geometrik shakllar", "Tushki ovqat tayyorlach" kabi ta'limiy mashg'ulotlar) da qandaydir vazifani bajarishini qayd qiladi. Olimaning yozishicha, rol va o'yinning shart-sharoitlari bolaning harakati uchun farqi yo'q narsalar emas, bola jismlarga ijtimoiy mazmunni aks ettiruvchi voqelik sifatida yondashadi.

Shunday qilib, psixologik adabiyotlar tahliliga tayanib, maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi;

2. Bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin his-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar;

3. Rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tatbiq qiladi;

4. Kattalarning hayoti va faoliyatiga kirish, bolaning tasavvuri, timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tganimizdek, bolaning maktabgacha yoshdagi davrida uning faqat psixik jarayonlarigina emas, balki shaxsi hamda shaxsiy sifatlari ham kamol topadi.

Biz yuqorida, ya'ni shaxs faoliyatining asosiy turlarida bolalarning asosiy faoliyatlari bo'lmish o'yin faoliyati ustida batafsil to'xtalib o'tgan edik. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinining turlari ustida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

Professor E. A. Arkin maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinining quyidagi taxminiy tavsifnomasini beradi:

I. Bolalarning ma'lum psixik jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan o'yinlar:

- a) hissiy sezgi organlarini takomillashtiruvchi o'yinlar;
- b) harakatli (sport o'yinlar);
- v) intellektual o'yinlar;
- g) estetik o'yinlar.

II. Texnikaviy o'yinlar:

- a) industrial o'yinlar;
- b) qishloq xo'jaligi o'yinlari;
- v) kasb bilan bog'liq o'yinlar;
- g) qurilish o'yinlari.

III. Hayotiy va ijtimoiy-siyosiy o'yinlar:

- a) oila hayotiga doir o'yinlar;
- b) bog'cha, maktab o'yinlari;
- v) ijtimoiy hayot bilan bog'liq o'yinlar;
- g) ijtimoiy-siyosiy o'yinlar.

IV. Dramatik o'yinlar:

- a) teatr o'yini;
- b) kino o'yini;
- v) sirk o'yini.

Professor E.A. Arkinning bu tavsifnomasi maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinining deyarli hamma turi ko'rsatilgan bo'lsa ham nima uchundir didaktik o'yinlar ajratib ko'rsatilmagan. Hattoki didaktik o'yinlarning sifatlari ham tilga olinmagan.

Ma'lumki, didaktik o'yinlar (loto, rasimli kubiklardan har turli ko'rinishlar chiqara bilish, son-sanoq, mozaika, shashka, topishmoqlar kabi) bog'chada maxsus dasturlar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishga ko'p jihatdan yordam beradi. Bundan tashqari didaktik o'yinlar ko'pincha turli vazifalar bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlar va tafakkurlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu jihatdan didaktik o'yinlar katta guruh bolalarini maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorlash vositalaridan biridir. Biroq shu narsani eslatib o'tish kerakki, bolalarning o'qish faoliyati bevosita didaktik o'yinlardan kelib chiqmaydi. Murakkab o'qish faoliyati bolalarning butun bog'cha davridagi umumiy psixik taraqqiyotlari bilan bog'liqdir.

Bolalar bog'chada asosan sujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni o'ynaydilar. Rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda bola-

lar tevarak-atrof muhitidagi narsalarni aks ettiradilar. Ular o'zlarining turli o'yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, yirik tarixiy hodisalarni, ya'ni kosmik fazoni zabt etish, shimoliy qutbga ekspeditsiya tashkil qilish kabi hodisalarni qayta tiklaydilar.

Ko'pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o'yin faoliyatining sujetini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma-xil bo'lsa, bolalar o'yinining sujeti ham shunchalik keng va xilma-xil bo'ladi. Ana shuning uchun o'z-o'zidan ma'lumki, kichik maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining sujeti nihoyatda tor bo'ladi. Bolalar o'sib ulg'aygan sari ular o'yinining sujeti tobora boyib, xilma-xillashib boradi. O'yin xilining ko'payishi bilan birga o'yinga sarf qilinadigan vaqt ham ortib boradi. Masalan, uch yoshli bolalar 10–15 minut mobaynida o'ynaydigan bo'lsalar, 4–5 yoshli bolalar esa 40–50 minut davomida o'yin faoliyati bilan shug'ullanadilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalarida o'yin faoliyati bir necha soat va hatto bir kundan ortiq vaqt mobaynida davom etishi mumkin.

Bir xil mazmundagi o'yinlar kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ham va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ham uchraydi (masalan, "ona-bola" o'yini "bog'cha" o'yini kabi). Turli yoshdagi bog'cha bolalari o'yinlarining mazmuni bir xil bo'lsa ham, sujet har xil bo'ladi. Chunki kichik yoshdagi bolalar voqelikning ayrim tomonlarini aks ettiradilar, katta yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida voqelikning boshqa tomonlarini aks ettiradilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalari sujetli o'yinlardan tashqari rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni ham juda mohirlik bilan o'ynaydilar. Rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar o'zining amalga oshirilishi jihatidan birmuncha murakkabdir. Bunday o'yinlarda oldin rollar taqsimlab olinadi. O'yinda ishtirok etuvchi har bir bola rolini ustalik bilan bajarishi kerak bo'ladi. Hamma bolalar ham bunday vazifaning uddasidan chiqavermaydilar. Kichik yoshdagi ayrim bolalar tasavvur doiralari keng bo'lmaganligi sababli o'z rollarini hali yaxshi bajara olmaydilar. Shuning uchun rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar asosan katta yoshdagi bog'cha bolalariga taalluqli o'yinlardir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holda amalga oshiriladi. Sujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar bolalarning ko'pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlan-

tirishga yordam beradi. O'yin sharoitining o'ziyoq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga aktiv yo'naltirishni talab qiladi. Bu esa, o'yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda aktivlashtiradi, ya'ni ular kuzatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroficha va chuqur analiz qiladigan bo'ladilar.

Sujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar o'yin jarayonida bolalarning bir-birlari bilan aktiv munosabatda bo'lishlariga imkon yaratadi. Bu esa, bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, sujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning o'z qonun-qoidalari mavjud. Bu qonun-qoidalarga rioya qilishda bolalar o'z iroda kuchlarini ishga soladilar. O'yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatlari ham rivojlanadi.


Shunday qilib, turli yoshdagi bog'cha bolalarining o'yin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish, ya'ni psixik jarayonlari aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, xarakter xislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. Shu narsa xarakterliki, maktabgacha yoshdagi bolalarning turli-tuman o'yin faoliyatlari sekin-astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi. Bolalarning o'yin faoliyatlariga tarbiyachilar ta'lim elementlarini kiritadilar. Natijada bolalar o'yin orqali juda ko'p narsalarni bilib oladilar, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlari orta boradi. Demak, o'yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida qudratli vositadir.



Bolalarning ixtiyoriy o'yinlari



Rolli-sujetli o'yindan namuna



Badantarbiya mashqlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvirlash faoliyati va uning psixologik xususiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida tasvirlash faoliyatlarining roli kattadir. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loydan yoki plastilindan turli narsalarni yasash, kubiklardan imoratlar, ko'priklar qurishni juda yoqtiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining tasvirlash faoliyatlarida ham qandaydir g'ayri tabiiy, xayoliy narsalarni emas, tashqi muhitni, undagi narsalarni, jonivorlarni aks ettirishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasvirlash faoliyatlarining psixologik xususiyati shundan iboratki, ularning bunday faoliyatlarida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlari bo'ladi. Bolalar o'zlaridagi istak, xohish, intilishlarni ana shundan tasvirlash (rasm chizish, loy yoki plastilindan biron narsa yasash, applikatsiya ishlari orqali) faoliyati orqali ifodalashga intiladilar. Bog'cha yoshidagi bolalarning tasvirlash faoliyatlari juda sodda bo'lsada, ular o'zlarining bunday faoliyatlarida atroflaridagi narsa va hodisalarni shunchaki passiv tasvirlash bilan cheklanib qolmay, o'zlaridan nimalarnidir qo'shib, yangilik yaratishga harakat qiladilar. Ana shuning uchun bolalardagi ayrim qobiliyatlar ularning tasvirlash faoliyatlarida juda erta namoyon bo'la boshlaydi.

Ma'lumki, odam tug'ilishdan rassom, haykaltarosh, naqqosh bo'lib tug'ilmaydi. Odamdagi bunday qobiliyatlar uning yoshligidan tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanishi jarayonida yuzaga kelib, takomillashib boradi. Masalan, biz chaqaloq bolalarda hech qanday tasvirlash faoliyatini ko'rmaymiz. Bunday faoliyat bolaning taxminan ikki-ikki yarim yoshidan boshlab yuzaga keladi. Ma'lumki, ikki yoshli bola qalam bilan (to'g'ri kelganicha ushlab olib) nimalarnidir chizib tashlaydi va o'zining egri-bugri chiziqlarini "bu daraxt", "bu odam", "bu uy", "bu mushuk" – deb tushuntiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizayotganlarida biron narsani tasvirlashni maqsad qilib olmaydilar. Keyinchalik chizgan chiziqlariga qarab, miyalariga kelgan birinchi nom bilan ataydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlaridagi bu davrni tayyorgarlik davri desak ham bo'ladi.

Bolalarning tasvirlash faoliyatlari asosan o'rta va katta guruhdan boshlanadi. Lekin bu davrdagi tasvirlash faoliyatlari ham ko'p jihatdai bir xil ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, bolalar odamning rasmini chizganlarida bitta kichik va bitta katta doira chizib, shundan qo'l va oyoqlarni chiqaraveradilar. Ular rasm chizganlarida yoki biron narsaning haykalini yasaganlarida hajm, perspektiva masalalariga mutlaqo rioya qilmaydilar. Ana shuning uchun ularning chizgan rasmlari hajm (o'lchov) jihatidan juda katta yoki juda ham kichkina bo'lishi mumkin. Buning sababi nimada? Albatta buning o'z sabablari bor. Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarda katta odamlardek kuzatuvchanlik qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi va ular chizayotgan rasmlaridagi obyektlarni real voqelikdagi haqiqiy narsalar bilan solishtirmaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari asosan tasavvurlariga asoslanadi.

Masalan, 4–5 yoshli bog‘cha bolasiga onasining rasmini chizish taklif qilinganda, u biron marta ham onasiga qaramay, rasm chiza boshlagan. Undan nega onanga qaramading, deb so‘raganlarida, u o‘zim juda yaxshi bilaman, deb javob bergan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyatining shu qadar sodda bo‘lishiga ikkinchi sabab ularda ayrim murakkab harakat malakalari hali yuzaga kelmaganligidir. Bundan tashqari bog‘cha bolalari tasvirlash faoliyati bilan shug‘ullanayotganlarida tasvirlayotgan narsalarini real voqelikdagi narsalarga o‘xshatishni maqsad qilib qo‘ymaydilar. Ular tasvirlash faoliyatini ham o‘yin tarzida o‘tkazadilar. Ularni tasvirlash faoliyatining natijasi emas, balki tasvirlash faoliyatining o‘zi qiziqtiradi, xolos.

Shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, ko‘pincha maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvirlash faoliyatlari (rasm chizish yoki plastilindan biron narsa yasash) rejali ravishda emas, balki xilma-xil ravishda tashkil qilinadi. Ana shuning uchun bola bunday faoliyat davomida voqelikni chuqur va to‘la kuzatmay, o‘z tasavvurlarigagina asoslanib qo‘ya qoladi.

Agar tarbiyachi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini rejali tarzda tashkil qilib, bu ishni pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysa, bolalarning tasvirlash faoliyatiga bo‘lgan munosabatlari o‘zgaradi. Bolalarning oldiga qat‘iy bir maqsad qo‘yib, ana shu maqsadni amalga oshirish buyurilsa, bolalar tasvirlash faoliyatini o‘yinga aylantirmay, bu ishga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar. Masalan, bayram o‘tgandan so‘ng bolalarga bayram rasmini chizish taklif etilsa, ular bu vazifani bajonidil bajaradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashda tasvirlash faoliyati juda katta yordam beradi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini har doim maqsadga muvofiq ravishda pedagogik jihatdan to‘g‘ri va qiziqarli tashkil qilishga e‘tibor bilan qarash zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rangli qalamlar, rangli bo‘yoqlar bilan rasm chizish va rangli qog‘ozlardan turli applikatsiyalar tuzish bilan uzoq muddat davomida shug‘ullanishni yoqtiradilar. Lekin bolalarning ranglarga bo‘lgan munosabatlari o‘ziga xosdir. Ular o‘zlariga yoqqan narsalarni juda yorqin, chiroyli ranglar bilan bo‘yaydilar, o‘zlari yoqtirmagan narsalarni esa qora, to‘q jigarranglar bilan bo‘yaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari ularning xayol va hissiy jarayonlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Chunki ular qanday tasvirlash faoliyati bilan mashg'ul bo'lmasinlar (rasm chizishni, loydan yoki plastilindan biron narsa yasashni, applikatsiya qilishni yoki qurish-yasashni) ishlariga befarq munosabatda bo'lmaydilar. Tasvirlash faoliyati orqali qilgan ishlarini, chizgan rasmlarini ko'zga ko'rinadigan joyga namoyish qilib qo'yadilar.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarning qurish-yasash o'yinlari ularning kuzatuvchanligi va tafakkurining rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir. Qurish-yasash o'yinlari hamisha ma'lum maqsadga qaratilgan o'yinlar bo'lib, bolalardan murakkab uquv, malaka va bilimlarni talab qiladi.

Qurish-yasash o'yinlarida bolalar turli narsalarning detallari (ya'ni ayrim qismlari) faqat tashqi tomondangina emas, balki ichki tomondan ham o'zaro uzviy bog'liqligini bilib oladilar.

Odatda biron narsani qurish-yasashga kirishishdan, ya'ni konstruksiyalashdan oldin uni sinchiklab qarab chiqiladi va diqqat bilan idrok qilinadi. Undan so'ng kerakli qismlarni to'plab ishga kirishadilar. Qurish-yasash o'yini rasm chizish yoki applikatsiyaga nisbatan bolalardan butunlay boshqa malaka va uquvlarni talab qiladi. Shuning uchun qurish-yasash ishlari bilan hamma bolalar juda qiziqadilar, kichik maktabgacha yoshdagi bolalar bu ishning uddasidan chiqa olmaydilar. Ularga ayrim malakalar, epchillik, tajriba yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalar yog'och va taxtachalarni ustma-ust qo'yib, ko'priikka o'xshagan narsalar yasashdan nariga o'ta olmaydilar. Kattaroq yoshdagi bolalar esa rasmga (andozaga) qarab turli narsalar yasashni uddasidan chiqa oladilar.

Odatda qurish-yasash faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi: a) andozaga qarab qurish-yasash; b) ma'lum shartlar yoki ko'rsatmalar asosida qurish-yasash;

v) tasavvurlar asosida konstruktorelash.

Qurish-yasash ishlari bilan bolalar yolg'iz o'zlari va jamoa bo'lib shug'ullanishlari mumkin. Har ikki holda ham qurish-yasash faoliyati bolalarning idroki, diqqati, kuzatuvchanligi, xotirasini hamda tafakkur qilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachilar qurish-yasash o'yinlarini tashkil qilishda bolalarga ko'rsatma va yo'llanma berishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limiy mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatlari. Bolalarga ta'lim berish bog'cha yoshidan oldingi davrdan boshlanadi. Chunki odam kelajakda ijtimoiy foy-

dali mehnatga tayyor bo'lishi uchun juda ko'p bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ta'lim bolalarni har tomonlama rivojlantirishning eng zaruriy shartlaridandir.

Bolalar juda qisqa muddat davomida butun ijtimoiy jamiyat tomonidan yaratilgan barcha bilimlarini o'zlashtirib olishlari kerak. Lekin bolalarga beriladigan bu ta'limning mazmuni har yosh davrida bir-biridan keskin-farq qiladi. Masalan, yasli yoshidagi bolalarga beriladigan ta'limni olib ko'radigan bo'lsak, bu yoshdagi bolalarga majburiy tarzda ta'lim (bilim) berilmaydi. Ularning har kungi hayotlarining o'zlari ta'limdan iborat bo'ladi. Chunki yasli yoshidagi bolalar kundalik hayotlarida atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar bilan tanishadilar, har turli narsalarni qo'llari bilan ushlab ko'rib, sinchiklab tekshiradilar.

Yasli yoshidagi bolalar o'ta hissiyotli va juda qiziquvchan bo'ladilar. Ularning ana shu qiziquvchanlik xususiyatlaridan ta'lim jarayonida keng foydalanish lozim. Yasli yoshidagi bolalarga ta'lim berishda ularni atrof-muhitdagi narsalar bilan bevosita tanishtirishda shu yoshdagi (2–2,5 yoshdagi) bolalar uchun chiqarilgan rasmlı kitoblardan va rasmlı lotolardan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan yasli yoshidagi bolalarni uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, qushlar, o'simliklar dunyosi va shu kabilar bilan rasmlı kitoblar orqali tanishtirish mumkin. Bu yoshdagi bolalarga ta'lim berishda rasmlı lotolar ham keng qo'llaniladi. Masalan, tarbiyachining va hamma bolalarning oldida har xil sabzavotlarning rasmlari solingan lotolar turadi. Tarbiyachi qo'lga piyozning rasmlı tasvirlangan lotoni olib bolalarga ko'rsatadi. Bolalar darhol sabzavotlarning rasmlari solingan lotolar orasidan piyozni topib olishlari va uning nomini xor bo'lib aytishlari kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish xarakteri esa tubdan o'zgarib ketadi. Bog'chada ta'lim jarayoni maxsus dastur asosida olib boriladi va maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtiradigan bilimi yasli yoshidagi bolalar o'zlashtiradigan bilimga nisbatan keng bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat va jamiyat hayotiga doir ko'pgina hodisalarni, o'zlari biladigan she'r yoki bilgan ertaklarini aytib bera olishlari, birdan o'nggacha to'g'ri hamda teskari sanay olishlari, rasm chizish, loy yoki plastilindan har turli narsalarni yasay olishlari kerak. Lekin maktabgacha yoshdagi bolalar bunday bilimlarni osonlikcha o'zlashtirib ololmaydilar. Bunday bilimlarni o'zlashtirish tarbiyachi tomonidan sistemali sur'atda o'tkaziladigan son-sanoq, ona tili, jis-

moniy tarbiya, musiqa va hokazo mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Shunday qilib, bolalarda asta-sekin maktabdagi o'qish faoliyatiga intilish havasini yuzaga keltiriladi. Ta'lim berish jarayoni mashg'ulotlarda o'yin tarzida o'tkaziladi.

Ma'lumki, bolalarni maktabdagi sistemali ta'lim va undan so'ng ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlash bog'chaning asosiy vazifasidir. Bolalarni sistemali ta'lim va ishlab chiqarish mehnatiga asosan didaktik o'yinlar hamda ijodiy tasvirlash faoliyatlari orqali tayyorlanadi. Bog'chada o'tkaziladigan ta'limiy mashg'ulotlarning asosiy maqsadi bolalarga turli sohalarga doir yangi bilimlar, malakalar va uquqlar berishdan iboratdir. Bolalar biron faoliyat bilan shug'ullanayotganlarida bajarayotgan ishlarini kechagidan yaxshiroq bajarishga intilsalar, bu ish ta'limiy xarakterga ega bo'ladi.



Bolalarning mashg'ulotlaridan namunalari



Bolalarning didaktik o'yinlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatlari. Bolalarning mehnat mashg'ulotlari asosan bog'cha yoshidagi davrda boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo'lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachining o'tkazadigan suhbatlari orqali mehnatning inson hayotidagi ahamiyatini bilib oladilar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida kishilarning fidokorona mehnat qilayotganlaridan xabardor bo'ladilar. Bolalar tarbiyachining savollar bilan ota-onalarining qayerda, kim bo'lib ishlayotganliklaridan, qanday mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etayotganliklarini bilib oladilar.

Ana shunday suhbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish ijtifoqi tug'iladi. Kattalarning mehnat faoliyatlariga taqlid qilish dastavval bolalarning o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o'zlarining o'yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Masalan, qiz bolalar onalari kir yuvayotganda suv tashish, ayrim kichikroq narsalarni (dastro'molchalarni) chayishda qatnashadilar, uy va hovlilarni yig'ishtirish, supurishga, o'g'il bolalar esa otasi bajarayotgan ishda qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning mehnatining natijasiga emas, balki mehnat jarayoning o'ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnatlariga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bolalar kuchlari yetadigan ishlarni bajarayotganlarida ko'p xatolarga yo'l qo'yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalar bajaradigan ishni kattalarning o'zlari bir pastda qilib qo'yishlari mumkin, degan ma'no kelib chiqmaydi. Sharq xalqida bir maqol bor: "Bolani ishga buyur, ketidan o'zing yugur". Bu juda to'g'ri, hayotiy gap. Bolalarga biron yumush buyurilganda, uni qanday bajarayotgan ishlaridan ko'z-quloq bo'lib turish kerak, degan ma'noni bildiradi.

Bolalarda, xususan, kichik yoshdagi bog'cha bolalariga hali mehnat malakalari yo'q, qo'l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ana shuning uchun bolalar qastdan yoki anqovliklaridan emas, balki eplay

olmasliklaridan biron narsani tushurib, sindirib yuborishlari mumkin. Ana shunday "falokat" yuz bergan paytda bolani "anqov, merov, ko'zinga qarasang bo'lmaydimi" deb urishish yoki urish yaramaydi. Buning o'rniga bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko'rsatib berish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib mehnat qilishda tarbiyachi har bir bolaga ma'lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Ana shu tariqa bolalar ahil bo'lib mehnat faoliyati bilan shug'ullanadilar. Masalan, katta guruh bolalari jamoa bo'lib navbatchilik qiladilar. Bunda bir bola stolga dasturxonlarni yozib chiqsa, ikkinchisi qoshiq va vilkalarni qo'yib chiqadi, uchinchi bola esa stulchalarni qo'yib chiqsa, to'rtinchi bola stolga nonlarni qo'yib chiqadi. Bog'chada navbatchilikka o'rgangan bolalar oilada ham yordamlashadigan bo'ladilar. Bolalar bunday mehnatda jon dili bilan qatnashadilar.

Umuman, o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalariga oilada kuchlari yetadigan mehnat topshiriqlarini berish kerak. Bu ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda va ularda ayrim mehnat malakalari hosil bo'lishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etmagan bolani keyinchalik mehnatga jalb qilish juda qiyin bo'ladi.

Bog'chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma-xildir. Masalan, tabiat burchagidagi jonivor yoki o'simliklarni parvarish qilish, bog'cha uchastkasida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, kichik yoshdagi bog'cha bolalari o'zlarining mehnat faoliyatlarini hali yo'lga qo'ya olmaydilar. Shuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan, ya'ni o'simliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, hovliga suv sepish va shu kabilar bilan shug'ullanadilar.

O'rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o'yindan batamom farqlab, unga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, ya'ni mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun mehnat qilish lozimligini tushunadi. Ular kattalarning oiladagi uy-ro'zg'or ishlariga zo'r ishtiyiq bilan yordamlashadilar, kichkintoylar uchun qog'ozdan, kartondan, faner

va plastilindan turli o'yinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama, ya'ni ham jismoniy, ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta'sir qiladi.

Bog'cha bolalari biron o'yin, ta'lim yoki mehnat faoliyatlari bilan mashg'ul bo'lar ekanlar, ular harakatlarining asosida ma'lum motivlar, ya'ni ularni harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlari ko'proq shu xatti-harakatlar amalga oshirilayotgan sharoitga bog'liq bo'ladi. Ular xatti-harakat motivlarini (ya'ni mayllarini) anglab ham yetmaydilar. Shuning uchun ko'pincha o'zlariga mutlaqo hisobot bermay, ma'lum bir vaziyatda u yoki bu xatti-harakatni amalga oshira boradilar.

Bu yosh davrida bolalarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlarining motivlari (mayllari) ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Katta yoshli bog'cha bolalarining xatti-harakat motivlari to'la anglangan motivlardan iborat bo'ladi. Masalan, katta yoshdagi bog'cha bolalarining xatti-harakatlari, xulq-atvorlari asosida yotgan motivlar hamma jihatdan katta odamlarga o'xshashdan iboratdir. Ular ana shunday kuchli mayl asosida taqlidiy o'yinlarni, ta'limiy, ya'ni didaktik mashg'ulotlarni va mehnat mashg'ulotlarining tashkil qilib o'tkazadilar. Bolalarning asosiy maqsadlari katta odamlar bilan o'zaro munosabatni mustahkamlashdir. Bolalar katta kishilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga intilar ekanlar, ular katta kishilarning buyurgan topshiriqlarini bajarishga, o'rnatgan tartib qoidalariga so'zsiz bo'ysunishga harakat qiladilar.

Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida o'z qadr-qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar bog'chaga kelganlarida dastavval o'z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka harakat qiladilar. Keyinchalik turli o'yin va majburiy mashg'ulotlar davomida bolalar jamoasiga qo'shilib, o'z tengqurlarining hurmatini qozonishga intiladilar, ya'ni boshqa bolalarga har tomondan yaxshi ko'rinishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xatti-harakat motivining rivojlanishida axloqiy motivlarini roli nihoyatda kattadir. Bolalar o'z xatti-harakatlarini anglaganlari sayin axloqiy motivlarining ya'ni ijtimoiy axloqiy qoidalariga rioya qilish motivlari kuchayib boradi. Bolalar endi o'zlarining egoistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtayi nazaridan harakat qilishga o'rgana boshlaydilar. Masalan,

bolalar o'zlari yoqtirgan bolalarga eng yaxshi o'yinchoqlarni beradigan va hattoki o'zlarining uydan olib kelgan shirinliklarini ham bo'lib beradigan bo'ladilar. Shu tariqa bolalarda ijtimoiy motivlar (mayllar) rivojlana boshlaydi. Katta yoshdagi bog'cha bolalari har doim kichik bolalarga yordam berishga, ya'ni ijtimoiy motivlar asosida harakat qilishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ana shunday motivlar bilan birga o'z-o'zini anglash, o'zining xatti-harakatlariga baho berish ham tarkib topa boshlaydi. Masalan, "Uch ayiq", "Uycha", "Aka-uka botirlar" kabi hikoyalarni ifodali qilib o'qib berish orqali bolalarda o'z-o'zini anglash va o'z xatti-harakatlariga baho berish tarbiyalab boriladi.

Tayanch iboralar:

bolalar faoliyati, o'yin, o'yin faoliyati, sujetli o'yin, didaktik o'yin, harakatli o'yin, tasvirlash faoliyati, mehnat faoliyati, axloqiy motivlar, bolaning ijtimoiylashuvi.

Mustaqil topshiriqlar:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarini kuzatish va tahlil qilish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyotida turli o'yin faoliyatlarining, sujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning ahamiyatini aytib bering.


2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasvirlash hamda qurish-yasash faoliyatlari va ularning psixologik xususiyatlari haqida so'zlang.

3. Bog'cha yoshidagi bolalarning ta'limiy mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatini aytib bering.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatlarini aytib bering.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xatti-harakat motivlarining paydo bo'lishi haqida so'zlab bering.

Bolalarning mehnat faoliyati



Bolalarning jamoa mehnati

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA PSIXIK JARAYONLARINING TARAQQIYOTI.

Bolalarning sezgi va idroklari hamda sensor taraqqiyotlari

Bolaning maktabgacha yoshidagi davri— sezgi a'zolari va idrokining intensiv, ya'ni juda tez rivojlanish davri. Bolalar sezgi va idroklarining yordami bilan tevarak-atrofdagi narsalarning shaklini, katta-kichikligini va ranglarini bilib oladilar. Ularning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid, ta'm, teri, taktil va harakat) va idroklari dunyoni bilish qurolidir. Shuning uchun bolalarning psixik taraqqiyotlari asosan ana shu yuqoridagi sezgi a'zolari va idroklarining taraqqiyotiga bog'liq.

Ana shuning uchun ham hozirgi kunda bog'chada bolalarga beriladigan sensor tarbiyaning roli nihoyat darajada ortib bormoqda. Bu yerda shunday bir savol tug'iladi. Sensor tarbiya deganda nimani tushunamiz? Sensor tarbiya aqliy tarbiyaning bir bo'lagi bo'lib, biz bunda sezgi a'zolari va idrokni maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish va mukammallashtirishni tushunamiz.

Ma'lumki, insoniyat jamiyati juda ko'p asrlik ijtimoiy mehnat taraqqiyoti davomida odamga ta'sir qiladigan tashqi qo'zg'atuvchilarni ixchamlashtirib, idrok qilish mumkin bo'lgan sistemaga solgan. Masalan, sezgi a'zolari bilan idrok qiladigan nutq tovushlari sistemasi, musiqa tovushlari sistemasi, ranglar sistemasi, shakllar sistemasi va shu kabilar. Inson uchun, uning intellektual taraqqiyoti uchun juda muhim bo'lgan ana shu qo'zg'atuvchilarni odam betartib ravishda va ma'lum tartibda, ma'lum izchillik bilan idrok qilishi mumkin.

Bolalar tarbiyachining rahbarligi ostida turli mashg'ulotlarda narsalarning har xil xususiyatlarini— qattiq-yumshoqligini, rangini, shaklini qayta-qayta idrok qilar ekanlar, ularning ongida narsalarning turli xususiyatlariga doir obrazlar yuzaga keladi. Keyinchalik bolalar narsalarning xususiyatlarini, belgilarini idrok qilganlarida o'z tasavvurlaridagi obrazlarga taqqoslab, solishtirib ko'radilar. Shuning uchun bog'chada bolalarga sensor tarbiya berish orqali ularda tasavvurlarni hosil qilish katta ahamiyatga egadir.

Chet el pedagog va psixologlari (Montessori, Frebel, Folkelt kabi) bolalar ma'lum sensor qobiliyatlar bilan tug'iladilar, shuning uchun ularning taraqqiyotlarida bu sezgi organlarini mashq qildirishning o'zi

kifoyadir, deb qaraydilar. Sensor tarbiyaga bunday tarzda qarash butunlay xatodir. Chunki bolalar ham ijtimoiy tajribaga mutlaqo ega emaslar. Ijtimoiy tajriba esa, birinchi navbatda sezgi a'zolari (ya'ni hissiy yo'l bilan) egallanadi. Ana shuning uchun sezgi a'zolarini yoshlik davridan boshlab o'tkirlashtirish, ya'ni sensor tarbiya nihoyatda zarurdir. Odamlargagina xos bo'lgan musiqa tovushlariga nisbatan sezgirlik, tovushlarning nozik tomonlarini anglay bilish sezgirligi, biron narsaning tekkanini seza bilish kabi nihoyatda muhim xususiyatlar bog'chada amalga oshiriladigan sensor tarbiya orqali rivojlantiriladi. Endi biz quyida sezgilarning va idrokning bolalarda rivojlanishi ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Barcha sezgi a'zolari go'dak hali onaning qornidalik paytidayoq ancha takomilga erishgan bo'ladi. Shuning uchun bola tug'ilishidan boshlaboq uning barcha sezgi a'zolari tashqaridan va ichki muhitdan bo'ladigan ta'sirotlarni aks ettirish qobiliyatiga egadir. Masalan, o'n kunlik bola ko'z qarashini biron yorug'lik manbayi (elektr lampochkasi) ustida to'xtata oladi. Bir oylik chaqaloq unga engashib qarab turgan (yuzini yaqin olib kelib) onasining chehrasiga o'z ko'z qarashlarini uzoq vaqt to'xtata oladi.

Ko'rish sezgisi chaqaloq bolalarda juda tez rivojlanadi. 2 oylik bola sekin harakat qilayotgan narsani ko'z qarashi bilan kuzata oladi. 4 oylik bola esa ko'rish emas, narsalarga aktiv qaray oladigan bo'lib qoladi. U qarayotgan narsalari turli hissiyotlarni yuzaga keltiradi. Go'dak bolalarda ko'rgan narsalarini tanish 5—6 oylik davrdan yuzaga keladi. Bola dastavval o'zi bilan eng ko'p munosabatda bo'ladigan odamni, ya'ni onasini tanib oladi. Sekin-asta atrofdagi boshqa yaqin odamlarni tanib oladi. Buni biz kichik bolalarning uyiga begona odam kelganda unga uzoq tikilish va yotsirashidan bilamiz.

Yasli yoshidagi kichik bolalarda ranglarni sezish juda erta ko'rina boshlaydi. Masalan, professor N. I. Krasnogorskayaning o'tkazgan tajribalariga ko'ra, ranglarni farqlash bolalarda 3—4 oylik davrdan boshlab ko'rina boshlaydi. Chunonchi, bola har xil rangli butulkachalardan ovqatlantirilgan (sut emizilgan), lekin faqat sut qizil butilkadagina berilgan. Oradan bir oz vaqt o'tgach, bola faqat qizil rangli butilkadagina reaksiya qiladigan, ya'ni faqat qizil butilkadagi emizikni og'ziga oladigan, boshqa butulkalarga esa befarq qaraydigan bo'lgan. Bu tajriba bolalarda ranglarni sezish va farqlash juda erta hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Yasli yoshidagi bolalarda eshitish sezgisi ham juda erta ko'rina boshlaydi. Lekin bola tug'ilgandan so'ng nechanchi kundan boshlab eshita boshlashini aniqlash qiyin. Har holda yangi tug'ilgan bola 4-5 kun davomida hech narsani eshitmaydi. Buning sababi shundaki, yangi tug'ilgan bolaning o'rta quloqlari ona qornidalik paytida suyuqlik modda bilan to'lib qolgan bo'ladi. Ana shu suyuqlik modda tugamaguncha havo to'lqinlari bola quloqlarining nog'ora pardasiga borib yetmaydi. 10-15 kunlik bola qattiq tovushlarga reaksiya qila boshlaydi. Buni biz qattiq tovush chiqqan paytida (masalan, bolaning quloqlariga yaqin joyda qattiq chapak chalinsa yoki eshik qattiq yopib yuborilsa) bolaning cho'chib tushishidan bilamiz.

2-3 oylik bolalar taqir-tuqurga quloq soladigan bo'lib qoladilar. Masalan, yig'layotgan bolaning oldida shaqildoq shaqillatilsa, bola yig'idan to'xtab quloq sola boshlaydi. 3-4 oylik bolalar faqat eshitishgina emas, balki tovush chiqayotgan tomonga boshlarini buradigan bo'ladilar. Ana shu davrdan boshlab bolalarda turli tovushlarni farqlash ham yuzaga kela boshlaydi. 4-5 oylik bola onaning tovushlarni boshqa odamlarning tovushlaridan bemalol farqlay oladigan bo'ladi. Tovushlarni farqlash qobiliyati nutq tovushlarini va undan so'ng ayrim so'zlarni o'zgartirish uchun asos bo'ladi. Eshitish sezgisining sifatli rivojlanishi yasli yoshidagi bolalarning nutqni egallashlari (til chiqishi) uchun g'oyat katta ahamiyatga ega. Eshitish sezgisi bola bilan xususan kattalar munosabatda bo'lganlarida jadal rivojlanadi. Shuning uchun yasli tarbiyachilari kichik bolalar bilan nutq orqali ko'proq munosabatda bo'lishlari kerak.

Yasli yoshidagi bolalarda hid, ta'm va teri sezgilari ham go'daklik davridan boshlab tez rivojlana boshlaydi. Agar 2-3 oylik bolaning emizugiga qo'llansa (yoqimsiz) hid tarqatuvchi biron narsa surtib qo'yilsa, bola bunda betoqatlanib, lab lunjlarini bujmaytira boshlaydi. Ta'm sezgisi ham deyarli shu davrdan boshlab yaqqol ko'rinadi. Chunonchi, ona sutiga o'rganib qolgan bolaga bir oz shakar solib shirin qilinadigan sigir suti berilsa, emgisi kelmaydi. Ana shulardan xulosa qilib aytish mumkinki, yasli yoshidagi kichik bolalarda hid va ta'm sezgilari yaxshi ishlaydi.

Teri sezgisi bolalarda tug'ilgan paytlaridan boshlab mavjuddir. O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, biron narsaning tekkanini sezish (ya'ni tuyush organi) go'dak bolalarda katta odamlarga qaraganda ham o'tkirroqdir. Kundalik hayotdan ham ma'lumki, bo-

lani yo'rgaklaganda yo'rgakning biron joyi buklanib qolsa yoki bola ko'ylakchasining choki qalin bo'lsa, badaniga botib, bolani betoqatlan-tiradi. Bundan tashqari, yasli yoshidagi kichik bolalar haroratga nisba-tan ham juda sezgir bo'ladilar. Ular cho'miltirilayotgan suvning salgina isib yoki salgina sovib qolganini darhol sezadilar.

Yasli yoshidagi bolalarning hid, ta'm va teri sezgilarini takomillashtirish yuzasidan maxsus ishlar (mashqlar) olib borilmaganligi tufayli bu sezgilar nisbatan sekin rivojlanadi.

Yasli yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlari uchun harakat sezgisining ahamiyati juda kattadir. Go'dak bolaning juda ko'p xilma-xil harakatlari ichida uning so'z harakatlari (qo'li bilan ushlashni o'rganishi) juda katta rol o'ynaydi. Bola biron narsani qo'li bilan ush-lashga o'rgangandan so'ng uni rosa timirskilab ko'radigan bo'ladi. Le-kin bola biron narsani ushlashi uchun dastavval u narsani atrof-muhiti-dagi boshqa narsalardan yaqqol ajratishi kerak. Buning uchun bola qo'l va ko'z harakatlarini moslashtirib idora qila olishi lozim. Bunday mu-rakkab harakatlarni bola darhol egallay olmaydi. O'tkazilgan tajriba-larning ko'rsatishicha, bola murakkab qo'l harakatlarini yasli yoshining bir necha bosqichlari davomida egallaydi.

Yangi tug'ilgan chaqaloq bolalarda harakat sezgilari boshqa sezgilar-ga nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'z harakatlarini boshqara olmaydi. Bolani yo'rgakdan yechib qo'ygan paytda u juda ko'p tar-tibsiz harakatlarni qiladi. Uning hamma yog'i (qo'llari, barmoqlari, oyog'i, oyoq barmoqlari, ko'zlari, boshi) harakatlanadi. Lekin bolan-ing bu harakatlarida mutlaqo moslik, tartib bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, bolaning harakat analizatorlarida miyelinizatsiya jarayoni, ya'ni nerv tolalarining bir-biridan ajratilishi hali tugallanmagan bo'ladi. Shuning uchun biron harakat organida yuzaga kelgan qo'zg'alish mi-yelinizatsiya yo'qligi tufayli hamma harakat markazlariga tarqalib ketib, bolada betartib harakatlarni yuzaga keltiradi. Demak, bolaning o'z harakatlarini idora qilishi, ya'ni harakat sezgilarining rivojlanishi bosh miya harakat nuqtasidagi nerv tolalarining miyelinizatsiya qilini-shi bilan bog'liqdir. Bu narsa bolaning 2–3 oylik davridan boshlanadi. Shuning uchun bola 2–3 oylik davridan boshlab o'z harakatlarini idora qila boshlaydi. Masalan, ana shu davrdan boshlab bola unga uzatilgan narsalarga qo'lini cho'zadigan, ushlashga intiladigan bo'ladi. 2–3 oylik bolani qorni bilan yotqizilsa, u boshini ko'taradi, 3–4 oylik bola boshini

bemalol ushlab oladi, 4–5 oylik bola esa o‘z gavdasini tik holda ushlab tura oladi. 6–7 oylik bola mustaqil o‘tira oladi. Ana shu tariqa yasli yoshidagi bolaning harakat sezgilari rivojlanib boradi.

Bola yoshiga to‘lib yura boshlagach, harakat sezgilarining rivojlanishi uchun juda keng imkoniyatlar maydonga keladi. Bu yoshda bola ko‘p narsalarni o‘zi mustaqil ravishda qo‘liga olib ushlab, timirskilab ko‘radi, stulga chiqib tushadigan, karavot tagiga kiradi, quti va eshiklarni tartib bilan ochib yopadi. Ana shuning uchun bola yurgandan so‘ng uning predmetlarni bilish doirasi juda kengayib, har kungi tinimsiz harakatlarida juda ko‘p narsalarni bilib oladi va uning harakat sezgilari ham takomillashadi hamda fazoni va fazoviy munosabatlarni (baland, past kabi) anglay boshlaydi.

Bog‘cha yoshiga kelib, bolaning barcha sezgi a‘zolari tuzilish jihatidan deyarli to‘la takomillashgan bo‘ladi. Biroq bunda bolaning sezgi a‘zolari keyingi davrlarga, ya‘ni bog‘cha yoshidan so‘ng ortiq rivojlanmaydi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bog‘cha yoshida ko‘proq sezgi a‘zolarining markaziy qismlari takomillashadi. Chunki kichik, ya‘ni yasli yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan miya po‘stida har qanday qo‘zg‘alishning keng irradatsiyalanish (yoyilish) xususiyati qisman maktabgacha yoshidagi davrda ham saqlanib qolgan bo‘ladi. Bu esa bolalarda farq ajratish sezgilarining takomillashuviga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun endigina bog‘cha yoshiga to‘lgan bolalar narsalarning farqini tez ajrata olmasliklari tufayli ularning har bir narsani bezovta ushlab timirskilab ko‘rishga bo‘lgan intilishlari maktabgacha yoshdagi davrda ham qisman saqlanib qoladi. Keyinchalik turmush tajribasining birmuncha ortishi bilan ko‘rish va eshitish sezgilari teri, muskul va harakat sezgilaridan (ya‘ni narsalarni hamisha bevosita timirskilab ko‘rishdan) ustunlik darajasiga ko‘tariladi. Natijada maktabgacha yoshidagi bolalar narsalarni o‘z qo‘llari bilan bevosita ushlamasalar ham, ko‘rish va eshitish bilan qanoatlanadigan bo‘ladilar.

Bolaning psixik jihatdan taraqqiy etishida ko‘rish sezgisining roli g‘oyat kattadir. Bolaning ko‘rish sezgisi bog‘cha yoshigacha bo‘lgan davrda juda tez takomillashadi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi bolaning ko‘zi katta yoshdagi odamlar ko‘ziga nisbatan uzoqni ko‘ra oladi. Agarda bolaning ko‘zi biron kasallikka uchramay, sog‘lom taraqqiy etsa, ko‘rish o‘tkirligi katta yoshdagi odamlarnikiga nisbatan ikki-uch barobar ortiq bo‘ladi.

Har bir tarbiyachi o'z ish tajribasidan biladiki, kichik guruh bolalariga nisbatan katta guruh bolalari ranglarning o'zini ham, nomlarini ham yaxshi farqlay oladilar. Bu, albatta, mashq qilish va turmush tajribasining ortishi natijasidir. Shubhasizki, yosh bolalar yorqin (juda yaltiroq) ranglarni yoqtiradilar. Yorqin ranglar ularga qandaydir zavq bag'ishlaydi.

Bu haqda N. K. Krupskaya shunday deb yozgan edi: "Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qilolmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o'yinchoqlar berish lozim (bolalarning qo'g'irchoq o'ynashlari uchun har xil rangli qiyqimlar berish, har xil rangli halqachalar, qutichalar va shuning singari narsalar berish juda yaxshi bo'ladi)".

Maktabgacha yoshidagi bolalarning ko'rish sezgilari o'tkirligi jihatidan kattalarning ko'zlaridan qolishmasa ham, lekin tez toliqadigan bo'ladi. Tarbiyachi ana shuni doim nazarda tutishi kerak. Chunki ayrim bolalar mutlaqo bilmasliklari orqasidan rasmlı kitobchalar va o'yinchoqlar bilan shug'ullanganlarida ularni ko'zlariga juda yaqin tutadilar. Mana shunday paytlarda bolalarga rasmlı kitob va o'yinchoqlarni ko'zlaridan birmuncha uzoqroq masofada tutishni o'rgatish lozim. Narsalar ko'zga qanchalik yaqin tutilsa, ko'z shunchalik tez toliqadi. Buning sababi shundaki, yaqin narsalarga qarashda ko'zning muskullari ko'z gavharini moslashtirish uchun ancha zo'r beradi. Odatda odamning ko'z gavhari ortiq zo'r bermay, uzoq narsalarga qarashga moslashgan bo'ladi. Ko'zning mana shu xususiyatlarini nazarda tutib, didaktik va ta'limiy mashg'ulotlardan so'ng bolalarni kengroq joyga olib chiqib, ochiq havoda o'ynatish kerak. Bunda bolalar uzoq masofa va manzaralarni tomosha qiladilar hamda shuning bilan birga mashg'ulotda toliqqan ko'zlariga dam beradilar.

Shunday qilib, bog'chada bolaning tasavvuri, xotirasi, tafakkuri va xayolining taraqqiyoti uchun turli-tuman yorqin obrazlar beruvchi ko'rish sezgisining faoliyatini har xil mashqlar orqali sistemali ravishda oshirib borish kerak.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan taraqqiy etishlarida eshitish sezgisining ham roli juda kattadir. Bola eshitish orqali nutqni egallaydi. Nutq esa inson taraqqiyotining eng muhim manbalaridan biridir. Eshitish sezgisi, yuqorida aytib o'tganimizdek, bolalarda yildan yilga tez rivojlanadi. Agar maktabgacha yoshidagi bolaning eshi-

tish a'zosi (qulog'i) biron kasallikka uchra may, to'g'i rivojlanib borsa, tez orada kamolotga erishadi va natijada e shitish sezgirligi kuchayadi. Lekin shuni unutmazlik lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarning eshitish a'zolari (quloqlari) anatomik jihatdan katta odamlarnikiga nisbatan birmuncha nozik va zaif bo'ladi. Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'rish sezgilari kab i eshitish sezgilari ham individual xarakterga ega, ya'ni eshitish sezgirligi hamma bolalarda birdek rivojlangan emas. Ayrim bolalarning ko'ri sh sezgilari zaifroq bo'lgani singari boshqa bir bolalarning eshitish sezgilari zaifroq bo'lishi mumkin.

Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalar eshitish sezgilari sezgirligini tekshirib ko'rishi kerak. Bunda x ususan yaslidan emas, balki uydan bog'chaga kelgan bolalarga ko'pro q e'tibor berish lozim. Yaxshi eshitmaydigan, bolalar odatda anqov va hadiksiraydigan bo'ladilar. Bunday bolalar «kar», «kar quloq», «anqov» degan laqab olishdan qo'rqib, o'zlarining ayblarini hech kimga, hatto tarbiyachiga ham bildirmaslikka tirishadilar. Eshitish sezgisi zaif bo'lgan bolalar nutqni o'zlashtirishdan orqada qoladilar. Bu esa ularning umuman psixik taraqqiyotidan orqada qolishlariga olib kel ishi mumkin.

Tarbiyachi eshitish sezgisi zaif bo'lgan bolalarni aniqlab olgandan so'ng ularga nisbatan individual munosabatda bo'lishi kerak. Bunday bolalarni hikoya o'qib berish yoki suhbatlashish kabi mashg'ulotlarda eng oldingi qatorga o'tkazish lozim. Bundan tashqari eshitish sezgisi zaif bolalar ayrim narsalarni qayta-qayta so'raganlarida ularni qaytarmay, osoyishtalik bilan aniq javob berish lozim. Ba'zi bir ota-onalar va tarbiyachilar bunday bolalarga qayta-qayta so'roqlariga osoyishtalik bilan javob berish o'rniga "ha, nima, kar quloqmisan eshitib o'tir, ovsar!" deb o'shqirib beradilar. Natijada bola o'z tengdoshlari o'rtasida mulzam bo'lib, ikkinchi marta so'rashga yuragi bezillaydigan bo'lib qoladi. Mana shunday g'ayri pedagogik munosabatda bo'lish bolaning umumiy psixik taraqqiyotiga juda salbiy ta'sir etadi. Chunki bola eshita olmagan va tushuna olmagan narsalar kattalardan so'rab olish o'rniga, o'zi bilganicha talqin qilishga odatlanib qoladi. Ana shularni nazarda tutib, maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy bilish qurollari bo'lgan ko'rish va eshitish sezgilarini sifatli rivojlantirish ishiga zo'r mas'uliyat bilan qarash lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'm va hid sezgilari ham yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Makta-

bgacha yoshdagi bolalar umuman ta'mni emas, balki ta'mning barcha turlarini deyarli ajrata oladilar. Hidlarga nisbatan ham xuddi shundaydir. Biroq bu yoshdagi bolalarning turmush tajribalari juda o'zligi tu-fayli ayrim hidlarning nomini to'g'ri ayta olmasliklari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hid va ta'm bilish a'zolari anatomi-k tuzilishi jihatidan katta odamlarning hid va ta'm bilish a'zolaridan deyarli farq qilmasada, lekin vazifasi, ya'ni o'z vazifasini qay darajada bajarishi jihatdan biroz farq qiladi. Bu farq hid va ta'm bilish sezgirligi-ning o'tkirligida namoyon bo'ladi. Katta odamlarda hid va ta'm bil-ish sezgirligi bolalarga nisbatan o'tkirroq bo'ladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, boshqa sezgilarga nisbatan hid va ta'm bilish sezgilarini bog'cha yoshdagi bolalarda qandaydir yo'l bilan mashq qildirish orqali rivojlantirish birmuncha qiyin. Teri sezgilari xususan ilk yosh, ya'ni yasli yoshidagi bolalar uchun atrofdagi narsalarni bilishda asosiy man-balardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham yasli yoshdagi bolalar har bir narsani o'z qo'llari bilan ushlab, timirskilab ko'rishga harakat qiladilar. Bolalardagi bu xususiyat ularning maktabgacha yosh-dagi davrlarida ham saqlanib qoladi. Ana shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar ham har bir narsani shunday sirtidan ko'rib qo'ya qol-ish bilan qanoatlanmay, "qani, men bitta ko'ray", "qani menga berib turing" degan iboralar bilan qo'llarini cho'zib intila beradilar.

Bog'cha bolalaridagi bu xususiyatni ularning haddan tashqari qizi-quvchanliklari va turmush tajribalarning ozligi bilan tushuntirish mum-kin. Shu sababli bolalardagi bunday intilishni bo'g'masdan, imkoniyat boricha so'ragan narsalarini ushlab ko'rishlariga ijozat berish kerak.

Teri sezgirligi maktabgacha yoshdagi bolalarda ham xuddi katta odamlardagi kabi organizmning ayrim joylarida kuchli, ayrim joylarida esa kuchsizroq joylashgandir. Bolalarda hali qo'l barmoqlarining uchi va yuz qismlari boshqa joylariga nisbatan g'oyat sezgirdir.

Ma'lumki, teri sezgirligini turli mashg'ulotlar va mashqlar orqa-li yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarish mumkin. Masalan, ko'zni bog'lab, turli narsalarni qo'l bilan paypaslab aniqlash, har xil taxtachalarning silliqlik darajasini aniqlash, bog'chalarda keng qo'llaniladigan "Ajoyib xaltacha" va hokazo o'yinlarni o'tkazish mumkin. Teri sez-girligini naqadar yuksak darajada rivojlantirish mumkinligining isboti sifatida ko'r tug'ilgan bolalarni ko'rsatish mumkin. Chunki onadan ko'r tug'ilgan bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni bilishda asosiy qurol

hisoblangan o'zlarining teri sezgirliklarini kishini hayratda qoldiradigan darajada rivojlantira oladilar.

Bolalar bog'chasi bolalarning sezgi a'zolarini rivojlantirish uchun juda qulay joydir, chunki bog'chada buning uchun hamma sharoitlar mavjud. Faqat sezgi a'zolarini rivojlantirish yuzasidan sistemali ravishda ish olib borish kerak. Har bir tarbiyachi o'z zimmasidagi bu muhim vazifani hech vaqt unutmasligi lozim.

Endi biz idrokning rivojlanishi masalasiga kelsak, shuni aytish kerakki, bolalarda idrok juda erta rivojlana boshlaydi, chunki idrokning rivojlanishi sezgi a'zolarining, ya'ni analizatorlarning tobora takomillashishi bilan bog'liqdir. Lekin, idrok faqat sezgi a'zolarigagina bog'liq jarayon emas. Idrok jarayonida sezgilardan tashqari odamning butun turmush tajribasi ham ishtirok etadi. Shuning uchun idrokning rivojlanishi turmush tajribasining tobora orta borishi, odamning turli bilimlarga ega bo'lishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Ana shu nuqtayi nazardan olganda, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda tom ma'nodagi idrok bo'ladi, deyish juda qiyin. Bir-ikki oylik chaqaloqlarda anglash elementi mutlaqo bo'lmasa ham ularda ixtiyorsiz idrok bor deyish mumkin.

Go'dak bolalarning uncha-muncha idrok qilishlari asosan uchto'rt oylik davrdan boshlansa-da, biroq idrok qiladigan narsalarining doirasi hali juda tor bo'ladi. Bu davrda bola ko'z o'ngidagi yaltiroq yoki tebranib, harakatlanib turuvchi narsalarni idrok qila oladi. Bola to'rt-besh oylik bo'lib, narsalarni qo'llari bilan ushlaydigan bo'lgach, uning idroki mazmun jihatidan boyib, ancha takomillashadi. Buning asosiy sababi shundaki, ko'rish hamda eshitish sezgilariga endi barcha teri sezgilari ham qo'shiladi. Natijada bola narsalarni har tomonlama to'la idrok qila boshlaydi.

Bola yarim yoshga to'lib, o'zi mustaqil o'tira boshlagach, uning idroki yana ham tezroq rivojlanadi. Bunda *birinchidan*, uning ko'rish doirasi ancha kengayadi, *ikkinchidan* esa, narsalarni sinchiklab timirskilab ko'rish imkoniyati ortadi. Bu davrda bola atrofidagi narsalarni (xususan o'ziga tegishli narsalarni) qayta-qayta idrok qilish tufayli ularni bir-biridan farqlaydigan, o'ziga tegishli narsalarni taniydigan bo'lib qoladi. Bu davrda ham bolaning idrok qilish doirasi qat'iy cheklangan, ya'ni juda tor bo'ladi, chunki bola hali o'zi mustaqil yura olmaydi. U faqat o'tirgach, boshini aylantirib chor atrofidagi narsalarnigina idrok qila oladi.

Bola emaklab, undan so'ng yura boshlagach, uning tevarak-atrofidagi narsalarni idrok qilish imkoniyati yanada kengayib ketadi. Bola xohlagan narsasining oldiga borib, uni qo'liga olib ushlab ko'radi, atrofidan aylanib qaraydi, iloji bo'lsa, albatta yalab ham ko'radi.

Yoshidan oshib, bemalol yura va yugura oladigan bolaning idroki uning har kungi tinimsiz harakatdagi jarayonida takomillashib, narsalar haqidagi tasavvurlari aniqlashib boradi. Ikki yoshga yaqinlashib qolgan bolaning idrokida narsalarni bir-biridan farqlash juda yaqqol ko'rinadi. Masalan, bola suratda tasvirlangan it, ayiq, qarg'a, koptok, mashina va hokazolarni bemalol tanib, ajrata oladi.

Ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'ygan bolalarning idroklarida ayrim fazoviy elementlar ham ko'rina boshlaydi. Masalan, ular narsalarning katta-kichikligini farqlay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar "katta", "kichik" so'zlarini hali ayta olmasalar ham bunday tushunchani imo-ishora va allaqanday ovoz chiqarish bilan ifodalashga intiladilar. Katta narsalar haqida qo'llarini baland ko'tarib "u-u-u" deyishlari kichkina narsalarni ifodalamoqchi bo'lganlarida esa— burunlarini bujmaytirib, ko'zlarini yarim yumib, ingichka ovoz chiqarib "ii-i-i!" deyishlari mumkin.

Yasli yoshidagi bolalarning nutqni egallashlari idrokning yana ham rivojlanishi uchun juda katta imkoniyat tug'diradi. Nutqni egallagan bola idrok qilayotgan narsalarning nomini ataydigan bo'ladi. Bu idrokning onglilik darajasini yanada o'stiradi. Ana shu davrdan boshlab bola endi nutq orqali ham (ya'ni narsalarning nomini eshitish orqali) idrok qila oladigan bo'ladi. Bola nomini bila olmagan narsalari haqida "bu nima?", "buning oti nima?" deb savol bera boshlaydi. Yasli yoshidagi bolalarning turmush tajribalari nihoyat darajada kam bo'lgani uchun ularning idroki bevositaliligi, nusxa ko'chiruvchanligi (ya'ni taqlidchanligi) bilan ajralib turadi. Bu yoshdagi bolalar idroklariga o'z turmush tajribalaridan hali hech narsa qo'sha olmaydilar. Hamma narsani zo'r ishtiyoq bilan qanday bo'lsa shundayligicha idrok qila beradilar.

Yasli yoshidagi bolalar idrokining bunday bevositaliligi ularning rasm idrok qilishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, bir yarim, ikki yoshli bolaga otning kallasi solingan surat ko'rsatilsa, u "otning o'zi qani?" deb so'raydi.

Yasli yoshidagi bolalarda vaqtni idrok qilish juda sodda, ya'ni boshlang'ich holatda bo'ladi. Bu yoshdagi, ya'ni bir yoshdan uch yosh-

gacha bo'lgan bolalar faqatgina hozirgi zamon vaqti bilan yashaydilar. Ular shu kunni, ayni shu daqiqani yaxshi tasavvur etib, o'tgan va kelasi zamonni noaniq, pala-partish tasavvur etadilar. Eng ko'p ishlatiladigan vaqt tushunchalaridan "kecha", "bugun", "ertaga" va "indinga" kabilarni ham ko'pincha almashtirib yuboradilar. Vaqt tushunchalarini idrok qilishdagi bu qiyinchiliklar bolalarda ko'pincha bog'cha yoshining dastlabki davrlarida ham saqlanib qoladi.

Shunday qilib, yasli yoshidagi bolalarning idroki kundalik faoliyatlarida tevarak-atroflaridagi narsa va hodisalarni kuzatish va ular bilan bevosita munosabatda bo'lishlari jarayonida har tomonlama rivojlanib boradi. Bolalar idrokining mazmunan boyishiga nutqni egallash juda katta ta'sir qiladi. Ana shu jihatdan olganda, yasli tarbiyachisining vazifasi nutqdan bolalar idrokini o'stiradigan vosita sifatida keng foydalanishdir. Bolalar bilan ko'proq gaplashish, tevarak-atrofdagi narsalar haqida ko'proq so'zlab berish, bolalarning turli-tuman savollariga mumkin qadar javob qaytarishga harakat qilish, narsalarning asosiy va muhim xususiyatlariga bolalarning diqqatlarini jalb qilish lozim. Bularning hammasi bolalar idrokini o'stirishda zarur va muhim yo'llar hisoblanadi.

Bola uch yoshga to'lib bog'chaga qatnay boshlagach, *birinchidan*, bolaning faoliyat darajasi juda kengayib ketadi, *ikkinchidan*, nutqi g'oyat tezlik bilan o'sa boradi. Buning natijasida bola juda ko'p narsalar bilan mustaqil hamda bevosita munosabatda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bola hayotidagi bu o'zgarish o'z navbatida uning idrokiga ta'sir etmay qolmaydi. Ular kundalik faoliyatlari davomida juda ko'p narsalar bilan to'qnashadilar. Shunday bo'lishiga qaramay katta yoshdagi bog'cha bolalari ham o'zlari idrok etayotgan narsalarning nima ekanini har doim kattalarning yordamisiz bilavermaydilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalar idrokida ikkinchi signallar sistemi (nutq)ning roli nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tevarak-atrofdagi narsalarni anglab idrok qilishda faqat narsaning o'zigina emas, balki uning nomi ham birga qatnashadi. Bolalar idrokini takomillashtirish maqsadida uyushtiriladigan ekskursiyalarda (hayvonlar va o'simliklar dunyosi bilan tanishtirishda) bolalar idrokida ikkinchi signallar sistemasining rolini oshirishga intilish kerak. Chunki qo'zg'atuvchilarning (ya'ni ekskursiya paytida ko'rsatilayotgan narsalarning) ayni bir paytda har ikkala signallar sistemasiga barobar

ta'sir etishlari idrok qilinayotgan narsalarning butun va to'la-to'kis aks etishini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar idrokining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ular turli narsalarni idrok qilishda bu narsalarning ko'zga tashlanib turadigan belgilariga asoslanadilar. Biroq tajribalari hali yetarli bo'lmagani, ya'ni ko'p narsalarning mohiyatiga mutlaqo tushuna olmasliklari tufayli narsalarning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan eng muhim va umumiy belgilarni aks ettira olmaydilar. Ular narsalarni idrok qilishda faqat yaqqol tasavvurlarga asoslanadilar. Shu sababli maktabgacha yoshidagi (xususan kichik maktabgacha yoshidagi) bolalar uchun narsalarning eng asosiy va muhim belgilari ularning rangi va shaklidir. Maktabgacha yoshidagi bolalar shuning uchun ham o'xshash narsalarning shaklini bir-biridan bemalol ajrata oladilar. Lekin, maktabgacha yoshdagi kichik bolalar (kichkina guruh bolalari) narsalarning shaklini farqlashda biroz qiynaladilar. Chunonchi kichik yoshdagi bog'cha bolalariga geometrik shakllar yoki ularning rasmi ko'rsatilsa, ular bu shakllarni o'zlariga ma'lum bo'lgan yaqqol narsalar bilan bog'lab, ya'ni predmetlashtirib idrok qilishga intiladilar. Masalan, ular aylanani "g'ildirak", to'rtburchakni "deraza" yoki "eshik" deb ataydilar.

Psixolog tajribalarining ko'rsatishicha, maktabgacha yoshidagi bolalar yaqqol narsalarning shaklinigina emas, balki bu narsalarning qora rang bilan qilgan siluetlariga (andozalariga) qarab ham ularni bir-biridan farqlay oladilar. Bolalar siluetga qarab (ya'ni qora rangda ishlangan quruq shaklga qarab) bu narsalarning nima ekanligini yanglishmay aytib bera oladilar. Bunda shu narsa ma'lum bo'ladiki, maktabgacha yoshdagi bolalar narsalarning shakllarini ularning mazmuni bilan bog'liq ravishda idrok qila boshladilar. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar tevarak-atrofidagi turli-tuman narsalarni idrok qilishda shu narsalarning mazmuni, mohiyati bilan organik bog'liq bo'lgan shaklga ham asoslanadilar. Kichik guruh bolalari turli geometrik shakllardan qilingan mozaikalar bilan o'ynaganlarida ularni shakliga qarab, ya'ni to'rtburchakni to'rtburchaklar guruhiga, uchburchakni uchburchaklar guruhiga, aylanani aylanalar guruhiga yanglishmay ajratadilar. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, mozaikadagi geometrik shakllar har xil rangda bo'lishiga qaramay, ular rangni emas, balki shaklni asos qilib olib guruhlarga ajratadilar. Bog'chada bolalarning narsalarni shakliga qarab to'g'ri farqlay olish xususiyatlarini o'stirish kerak. Bunga loy

yoki plastilindan turli narsalar yasash va rasm chizish mashg'ulotlari o'tkazish orqali erishish mumkin.

Maktabgacha yoshidagi bolalar idrok qilish paytida narsalarni chuqur analiz qila olmaydilar. Bolalar idrokidagi bu yetishmovchilik ularning turli rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko'rinadi. Bolalar (xususan kichik yoshdagi bog'cha bolalari) rasmda tasvirlangan narsalarning holatiga va fazoviy munosabatlariga tamomila befarq bo'ladilar. Ular rasmlarni teskari ushlab ham zavq bilan tomosha qilaveradilar. Buning asosiy sababi rasmni idrok qilishga nisbatan bolalarning analitik munosabatda bo'lolmasliklaridir. Bolalar rasmda tasvirlangan narsalarni bir-biri bilan ma'lum munosabatda emas, balki tasvirlangan narsalarning hammasini butunligicha idrok qilishga intiladilar. Ularda hali analiz qilish xususiyatlari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun rasmlar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarga yo'naltiruvchi savollar berib, ularni analiz qilishga o'rgatib borishi lozim. Ana shunday mashg'ulotlarda bolalar diqqatini, asosan *birinchidan*, ko'rsatilayotgan rasmning mazmunini (sujetini) to'g'ri idrok qilishga, *ikkinchidan*, rasmning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsaning o'rmini to'g'ri idrok qilishga, ya'ni rasmdagi narsalarni bir-biridan keskin farq qila bilishga, *uchinchidan* esa, rasmda tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak. Rasmlarni idrok qilish ana shunday tarzda yo'lga qo'yilgandagina bolalarning analitik idrok qilish qobiliyatini hamda kuzatuvchanlik xususiyatini rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatlari o'yin faoliyatidir. Ular o'zlarining kundalik o'yin faoliyatlarida juda ko'p narsalarga to'qnash keladilar. Bu narsalarni bilganlaricha idrok qilib, bir-birlariga tushuntiradilar. Umuman o'yin faoliyatida ularning idroki to'xtovsiz rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda turmush tajribasining yetarli emasligi ba'zan ular idrokining rivojlantirishiga to'sqinlik qiladi. Bu xususan murakkab idrok jarayonida, ya'ni fazo hamda vaqtni idrok qilishda yaqqol ko'rinadi. Masalan, ular narsalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni, fazo hamda vaqt o'lchovlarni to'g'ri idrok eta olmaydilar. Narsalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni hamda vaqtni bolalar asosan maktabgacha yoshdagi davrda o'zlashtira boshlaydilar. Bolalar o'zlaridan uzoq va yaqin, baland va past joylashgan narsalar bilan bevosita munosabatda

bo'lish jarayonida fazoviy tushunchalarni to'g'ri idrok qila boshlaydilar. Bunda tarbiyachilarning narsalari o'rtasidagi har xil fazoviy munosabatlarni so'z bilan ifoda etishlari bolalar idrokining rivojlanishiga katta yordam beradi. Uzoq-yaqin, baland-past, chuqur-yuza, katta-kichik, keng-tor kabi fazoviy tushunchalarni hamma narsalar o'rtasidagi bunday fazoviy munosabatlarni bolalar o'zlarining har kungi turli faoliyatlarida, ya'ni o'yin va mashg'ulotlarida ma'lum darajada o'zlashtirib boradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda fazoviy tasavvurlarning yetarli darajada aniq emasligini ularning chizgan rasmlarida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, kichik va o'rta guruh bolalari rasm chizganlarida narsalarning hajm munosabatlariga unchalik e'tibor bermaydilar. Ularning chizgan rasmlarida uyning balandligi avtomashinaning balandligi bilan, odamning bo'yi esa terakning bo'yi bilan barobar bo'lishi mumkin. Bu bog'cha bolalarini mutlaqo hayron qoldirmaydi. Fazoviy munosabatlarni to'g'ri idrok qilish va binobarin, fazoviy munosabatlari haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish asta-sekinlik bilan bolalarning turmush tajribalari orta borishi davomida o'sib boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning vaqtni idrok qilishlari fazoni idrok qilishlari kabi mukammal xarakterga ega emas. Bolalarda vaqtni to'g'ri va anglab idrok qilish fazoni idrok qilishdan ham qiyinroq desak yanglishmaymiz. Bolalar uchun vaqtni idrok qilishdan ham qiyin tomonlaridan biri shuki, ular vaqtning uzluksiz o'tuvchanligini (ya'ni vaqtning beto'xtov harakatini) anglay olmaydilar va idrok ham qila olmaydilar. Bu narsani ularga ko'rgazma asosida ko'rsatib bo'lmaydi. Natijada bolalar vaqt o'lchovlarini ma'lum narsalar va hodisalar orqali aniqlashtirib idrok qilishga intiladilar.

Odatda so'zlar bilan ifodalanadigan quyidagi asosiy vaqt o'lchovlari bor: "sekund", "minut", "soat", "kun", "hafta", "oy", "yil", "asr", "kecha", "bugun", "ertaga", "indinga", "ertalab", "peshin", "kechqurun", "kechasi", "avval", "keyin" kabilar. Ana shu vaqt o'lchovlaridan maktabgacha yoshdagi bolalar erkin foydalana bilmaydilar. Chunki bu vaqt o'lchov (vaqt tushunchalari)lari nisbiy hamda abstrakt xarakterga egadir. Bolalar ertaning bugunga, bugunning kechaga, kechaning o'tgan kunga tabiiy ravishda aylanib qolishini hech bir tasavvur eta olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ayrim vaqt o'lchovlarini idrok qilishlarida kun tartibining roli juda kattadir. Bolalarning kundalik

hayotlarida doimiy ravishda takrorlanib turadigan kun tartibi ayrim vaqt o'lchovlarini birin-ketin ajratib olishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular ayrim vaqt o'lchovlarini vaqtning asosiy belgilariga qarab ham farqlay oladigan bo'ladilar. Masalan, "kun (quyosh) chiqqanda – ertalab bo'ladi", "kun botganda kechqurun bo'ladi", "qorong'i bo'lib hamma uxlaganda – kechasi bo'ladi" deb aniqlaydilar.

Shu narsani aytish kerakki, vaqt tushunchalarini idrok qilish qiyin bo'lgani uchun maktabgacha yoshdagi bolalar (xususan kichik guruh bolalari) asosan hozirgi zamon (shu bugungi) tushunchasi asosida yashaydilar. Ana shu sababli ular kelasi va o'tgan zamon tushunchalariga nisbatan hozirgi zamonga oid vaqt o'lchovlarini to'g'ri idrok qila oladigan bo'ladilar. Shuning uchun bolalar dastavval –"ertalab", "peshin", "kechqurun", "kechasi", "bugun" kabi vaqt tushunchalaridan to'g'ri foydalanadigan bo'ladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning uzoq zamonga oid narsalarni tushuntirishlari o'ziga xos xarakterga egadir. Ular bunday narsalarni vaqt tushunchalari orqali emas, balki qalblarida chuqur iz qoldirgan taassurotlar orqali tushuntirishga intiladilar. Masalan, qachonlardir bir bo'lgan hodisani yoki qachonlardir ko'rgan narsalarini –"hov bir marta bayramda...", "hov bir marta to'y bo'lganda..." kabi. Ular xotiralarida qolgan ayrim hodisalarning qaysi yil va qaysi oyga tegishli ekanini aniq vaqt o'lchovida (vaqt tushunchasida) aytib bera olmaydilar.

Kichik yoshdagi bog'cha bolalarining vaqtni idrok qilishlarida shu narsa ko'zga tashlanib turadiki, ular bir-biri bilan tez almashib turadigan vaqt o'lchovlarini qiyinlik bilan o'zlashtiradilar. Shuning uchun ular bunday vaqt o'lchovlarini ko'pincha bir-biri bilan almashtirib yuboradilar. Masalan, kichik yoshdagi bog'cha bolalari: "kecha bugunmi", "bugun ertagami?" "qachon ertaga bo'ladi?", "bugun ham kechasi bo'ladimi?" degan savollarni berishlari mumkin.

Vaqtni to'g'ri idrok qilish ham xuddi fazoni idrok qilish kabi bolalarning amaliy faoliyatlari, ya'ni turmush tajribalari bilan bog'liqdir. Bog'cha bolalari o'zlarining har kungi xilma-xil faoliyatlari davomida vaqt munosabatlarini o'z ko'zlari bilan ko'radilar va sekin-asta o'zlashtirib boradilar. Lekin vaqt bolalarga bevosita ko'rinmaydi. Shuning uchun vaqtni to'g'ri idrok qilishni bolalarga yoshlikdan boshlab o'rgatish kerak. Bolalar eng sodda, ya'ni bo'linmaydigan vaqt o'lchovlarini osonroq o'zlashtiradilar. Bunday sodda o'lchovlaridan

“hozir”, “oldin”, “keyin” kabi tushunchalarni ko‘rsatish mumkin. Shundan so‘ng bir qadar murakkab, ya‘ni bir necha qismlarga ajratish mumkin bo‘lgan vaqt o‘lchovlarini (ya‘ni “bugun”, “kecha”, “ertaga”, “indinga” kabi) o‘zlashtirishlari mumkin. Katta guruh bolalari ana shu yuqoridagi vaqt tushunchalaridan tashqari kunlarning nomlarini (ya‘ni yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba) ham yaxshi o‘zlashtirib, “hafta”, “oy” va hatto ba‘zan “yil” kabi murakkab vaqt tushunchalaridan ham foydalana oladigan bo‘ladilar.

Tevarak-atrofdagi narsalar o‘rtasida mavjud bo‘lgan fazoviy munosabatlarni (baland, past, katta, kichik kabi) to‘g‘ri idrok qilishda bolalarning atrofdagi turli-tuman narsalar bilan bevosita munosabatda bo‘lishlari katta rol o‘ynasada vaqt munosabatlarini to‘g‘ri idrok qilishda vaqt o‘lchovlarini (tushunchalarini) ifodalovchi so‘zlarning ko‘proq ishlatilishi katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda, suhbatlarda, hikoyalar o‘qib berishda bolalar so‘z boyligida hozirgacha yo‘q bo‘lgan vaqt o‘lchovlariga oid tushunchalarni kiritish kerak. Umuman bolalarga bog‘chada vaqt o‘lchovlarini (ya‘ni hozir soat 2 bo‘lib, tush payti bo‘lib qolganligini, soat 5 dan oshib kech kirib qolganligini) muntazam ravishda eslatib turish kerak. Bu bolalarda vaqt hissini rivojlantirishga yordam beradi. Vaqt hissi esa vaqt o‘lchovlarini to‘g‘ri idrok qilishni ta‘minlaydi. Bolalar vaqt tushunchalarini to‘g‘ri o‘zlashtirayotganlarini aniqlash uchun ularga “qachon”, “qaysi kuni”, “qancha vaqtdan so‘ng”, “qaysi biri oldin”, “qaysi haftada”, “qaysi oyda” kabi savollarni berib turish lozim.

Bog‘chada idrokni rivojlantira borish asosida kuzatuvchanlikni ham tarbiyalash kerak. Kuzatuvchanlik odamning butun hayoti, butun o‘qish va mehnat faoliyati davomida juda zarur bo‘lgan fazilatdir. Bog‘chada turli didaktik mashg‘ulotlar o‘tkazish, ekskursiyalar tashkil qilish orqali bolalarda kuzatuvchanlikni tarbiyalab boriladi. Bu jihatdan yil fasllari (bahor, yoz, kuz, qish) bo‘yicha o‘tkaziladigan ekskursiyalar, rasmga qarab so‘zlatish (kim ko‘proq narsani ko‘radi) yaxshi natija beradi. Albatta, ekskursiya va mashg‘ulotlar paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan o‘ylab olingan ya‘ni rejali asosda bo‘lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokining sifatli o‘sishi hamda ularda kuzatuvchanlikning kamol topishi ko‘p jihatdan tarbiyachilarga, ularning pedagoglik mahoratiga bog‘liqdir.

Tayanch iboralar: bola sezgisi, sezgilarni rivojlanib borishi,

ko'rish sezgisi, eshitish sezgisi, bola idroki, vaqtni , fazoni, harakatni idrok etish, idrokini rivojlantirish.

Mustaqil topshiriqlar:

Bolalarni kuzatish va sezgi hamda idrok jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar:

1. Bolaning sezgi jarayonlarini xususiyatlarini aytib bering.
2. Bolaning ko'rish, eshitish sezgilarini rivojlanib borishi qanday kechadi.
3. Bola idrokining o'sib borishini aytib bering.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning vaqtni, harakat, fazoni idrok etishlarini aytib bering.
5. Bolalarda kuzatuvchanlini tarbiyalash ishlarini aytib bering.

IDROKNI TEKSHIRISH

Idrokni aniqlash tekshirilayotgan bolaning holatiga bog'liq bo'ladi. TPPKda asosan ko'rish va eshitish, zaruriyat tug'ilganda taktil idrok tekshiriladi.

Eshituv idroki avval eshitishi pasaygan yoki shunga taxmin qilinayotgan bolalarda tekshiriladi. Eshituv holati vrach-surdolog va surdopedagog tomonidan aniqlaydi. Psixolog ushbu ma'lumotlardan foydalanib, bola rivojlanishiga ularning u yoki bu darajada ta'sirini o'rganadi. Surdolog tekshiruvidan o'tmagan va nutqida kamchiligi bor bolani psixolog o'rganayotganda, TPPKdagi boshqa mutaxassislar bilan birgalikda bu bolada eshituvini pasayganligini taxmin qilib, uni surdologik tekshiruviga yuborishi kerak. Eshituv funksiyalari to'liq saqlangan, nutqida kamchiligi bor bolalarda ko'pincha nutqni eshitish idroki, ya'ni unga qaratib so'zlangan nutqni tushunish buzilganligi kuzatiladi. Bunda psixolog logoped bilan birgalikda boia nima uchun tushunmayotganligi tekshiriladi.

KERN-YERASEK TESTI

Bu test bolalarni tekshirish uchun, ya'ni ularda maktab uchun zarur bo'lgan funksiyalar motorika, bosh miya po'stlog'i analitik va sinte-

tik funksiyalarning taraqqiyotidan orqada qolishini aniqlash maqsadida olib boriladi.

Kern- Yerasek testi bo'yicha "Maktabga yetuklik" darajasini aniqlash individual yoki guruhli, yani bir vaqtning o'zida 10-15 bolani qamrab olgan holda o'tkaziladi.

Boshqa tadqiqotlar esa har bir bola bilan alohida-alohida va maxsus ajratilgan joyda olib boriladi.

Kern-Yerasek testi. Bolaga (yoki 10-15 tadan iborat bolalar guruhi) toza, qog'oz beriladi. Qog'ozning o'ng tarafidagi yuqori burchagiga tadqiq etilayotgan bolaning ismi, sharifi, yoshi hamda bolalar bog'chasi va tadqiqot o'tkazilgan vaqt yozib qo'yiladi. Bu varoqning tagiga qalin varoq qo'yib qo'yiladi. Qalam bolaning o'ng va chap qo'li bilan bema'lol oladigan qilib qo'yiladi.

Test 3 ta vazifadan iborat:

1.Odamning rasmi . 2.Uchta so'zdan tuzilgan qisqa jumlani chizish. 3.Bir qancha nuqtalar chizish.



Varaqning oldi tomoni 1- topshiriqning bajarilishi uchun ajaratiladi. 1- topshiriqning bajarilishi uchun quydagicha ko'rsatma beriladi: "Mana shu yerga erkak kishining rasmini chiz. Qo'lingdan kelganicha".

Tushuntirish, yordam qilish taqiqlanadi. Bolaning har qanday savoliga "Bilganingcha chizaver" deb javob berish lozim. "Qara, qanday yaxshi chiza boshlading. Shunaqa davom ettir" deb bolani ruhlantirishga ruxsat etiladi.

"Ayol kishini chizish mumkinmi?" degan savolga shunday tushuntirish bilan javob berish kerak: "hamma bolalar erkak kishining rasmini chizishyapti. Shuning uchun sen ham erkak kishining rasmini chizish-

ing zarur". Agar bola ayol rasmini chiza boshlagan bo'lsa, uni chizib tugatib, yoniga erkak kishi rasmini chizishga ruxsat beriladi.

Bola rasmni chizib bo'lgach, varaqning orqasi o'giriladi. Varaqning bu tomonini o'rtasidan teng ikkiga bo'linadi (buni oldindan qilib qo'yish ham mumkin).

2-topshiriqni bajarish uchun 10-15ta kartochka tayyorlab qo'yish kerak (hajmi 7-8, 13-14 sm). Bu kartochkalarga qo'l bilan „*U choy ichdi*“ degan jumla yozib qo'yiladi (harflarning kattaligi – 1sm, bosh harfi-1,5sm).

Jumla yozilgan kartochka bolaning oldiga –rasm chizilgan varaqning tepasiga qo'yiladi.

2-topshiriq quydagicha bayon qilinadi: „*Bu yoqqa qara*“ nimadir yozilgan. Sen hali yozishni bilmaysan, shuning uchun chizib ko'rishga harakat qil. Bu yerga nima yozilganligiga yaxshlab qaraginda, varaqning yuqoridagi qismiga (ko'rsatiladi) shunaqa qilib yoz. Agar bolalar orasida kimdir 3-so'zni qatorga sig'dira olmasa, uni teparoq yoki pastroqqa yozish mumkinligini aytish kerak.

3-topshiriqni bajarish uchun ham xuddi shunga o'xshash kartochkalar tayyorlash lozim. Bu kartochkalarga nuqtalar to'plami chiziladi (nuqtalar orasidagi masofa vertikal va gorizontal bo'yicha 1 sm, nuqtalarning diametri 2 mm bo'lishi kerak).

Bola tomonidan 2-topshiriq bajarib bo'lingach, kartochka olib qo'yiladi va uning o'miga nuqtalar ifodalangan karto'chka qo'yib qo'yiladi.

3-topshiriqqa quydagicha ko'rsatma berilgan:“*Bu yerda nuqtalar chizilgan. Varaqning pastki qismiga huddi shunday nuqtalar chizib qo'yishga harakat qilgin.*”

NATIJANI BAHOLASH

Har bir topshiriq ballar bilan baholanadi. Eng yuqori baho -1 ball, past baho -5 ball, har bir topshiriq bo'yicha baholarning taxminiy ko'rsatkichi ko'rsatilgan (5balli sistemada- 1ball-eng yuqori baho, 5 ball-eng past baho).

1-topshiriq.

1 ball – chizilgan figurada bosh, tana, oyoq, qo'l bo'lishi kerak. Bosh va tana birlashtirilgan bo'lib, bosh tanadan katta bo'lmasligi

lozim. Boshda soch (shapka yoki do'ppi), quloq, yuzda ko'z, burun, og'iz bo'lishi zarur. Qo'llari besh barmoqli, erkak kishining kiyim-bosh belgilari bo'lishi kerak.

2 ball – huddi 1- baldagidek barcha talablar bajarilishi lozim. Biroq 3 ta qism – bo'yin, soch, qo'lining bitta barmog'i bo'lmasligi mumkin. Ammo yuzining barcha qismlari albatta bo'lishi zarur.


3 ball – chizilgan figurada bosh, tana, qo'l-oyoqlar bo'lishi zarur. Qo'l – oyoqlar ikkita chiziq bilan bo'lsa ham chizilgan bo'lishi kerak. Bo'yin, quloq, kiyim hamda barmoqlar chizilmagan bo'lishi ham mumkin.

4 ball – bosh, qo'l-oyoqlardan iborat sodda rasm, qo'l-oyoqlar bitta chiziq bilan ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

5 ball – tana va qo'l-oyoqlar noaniq tasvirlangan.

Kern- Yerasak metodikasi bo'yicha baholash namunasi

1. Odam rasmini chizish bo'yicha.



2-topshiriq – Yozilgan matnни chizish.

u choy ichdi

1 ball – bola tomonidan chizilgan jumlani o'qish mumkin. Harflar namunadagidek deyarli ikki barobar katta, harflar uchta so'zni tashkil qiladi. Qator to'g'ri chiziqdan 30' gacha qiyshaytirilgan.


2 ball – gapni o‘qish mumkin. Kattaligi jihatidan harflar namunadagidek, ularning tashqi ko‘rinshi unchalik ahamiyatga ega emas.

3 ball – harflar kam deganda ikki bo‘g‘inga ajratilishi zarur. Juda bo‘maganda 4ta harfni o‘qish mumkin bo‘lish kerak.

4 ball – harflarning ikkitasi namunadagiga o‘xshashi kerak. Chizilgan rasm yozuvga o‘xshagan bo‘lishi mumkin.

5 ball – noaniq chiziqlar.

3- topshiriq – Nuqtalar to‘plamini chizish.



1 ball – namunaga aynan o‘xshash. Aylana emas, nuqtalar chizilgan, gorizont va vertikal bo‘yicha figuraning simmetriyasi saqlangan. Figurani kichraytirish mumkin, yarmigina kattalashtirilishi mumkin.

2 ball – simmetriya unchalik buzilmagan. Bir nuqta qatordan yoki ustundan chetga chiqqan bo‘lishi mumkin.

3 ball – nuqtalar to‘plami namunaga unchalik o‘xshamaydi. Figura simmetriyasi buzilgan, ammo besh burchak cheklangan, nuqtalar soni ko‘p yoki kam bo‘lsa (7 dan 20 tagacha bo‘lishi mumkin).

4 ball – nuqtalar bir joyga to‘plangan bo‘lib, har qanday geometrik figurani eslatishi mumkin. Nuqtalar soni va kattaligi noaniq, boshqa chiziq va tasvirlar bo‘lmasligi zarur.

5 ball – noaniq chiziqlar.

Alohida topshiriqlarning bajarilishidan to‘plangan ballar tadqiqotining umumiy natijasi hisoblanadi.


2. O'xshatib yozish vazifasi bo'yicha Tarbiyachining Bolalar bajargan ishi namunasi

U chay ichdi


- | | |
|---|--------------|
| 1 | U chay ichdi |
| 2 | U chay ichdi |
| 3 | U chay ichdi |
| 4 | U chay ichdi |
| 5 | U chay ichdi |

Nuqtalar chizish vazifasi bo'yicha ball qo'yish.

Namuna



Natija



Olgan ballar bo'yicha umumiy xulosa:

1- juda yuqori, 2- yuqori, 3- o'rtacha, 4- past, 5- juda past.

XOTIRANING BOLALARDA RIVOJLANISHI

Odamning butun aqliy taraqqiyoti asosan xotiraning taraqqiyotidan iborat ekan, xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab rivojlana boshlaydi. Bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofdagi odamlarni va narsalarni tanishida ko'rinish boshlaydi. Buni biz bola o'ziga tanish bo'lgan narsani ko'rganida qiladigan harakatlaridan ko'rishimiz mumkin. Masalan, bola o'ziga yaqin odamni ko'rganida unga talpinadi yoki notanish odamdan yotsiraydi. Kichik yoshli bolalarda tanib olish qobiliyatining borligi idrok qilgan narsa va hodisalarini esda olib qolish imkonini beradi.

Yoshiga to'lgach bolada xotiraning murakkab turlari, ya'ni eslash vujudga kela boshlaydi. Bolalar bu davrdan boshlab ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni eslay oladigan bo'ladilar. Bunda bolalardagi tasavvurlarning roli nihoyatda kattadir. Tasavvurlar tufayli bolalar o'tgan narsalarni bemolol eslay oladilar, masalan, bolaga ko'z o'ngida bo'lmagan narsaning nomini aytsangiz, u ko'zlari bilan chor atrofqa qarab shu narsani izlay boshlaydi.

Bola xotirasining rivojlanishida nutqining o'sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola narsa va hodisalarni faqat bevosita ko'rish orqali emas, balki shu narsa va hodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo'ladi. Bundan tashqari kattalardan so'rab bilib olish, eshitish orqali ham o'z xotiralarini boyitadilar.

Yasli yoshidagi bolalarda xotiraning barcha jarayonlari ko'rina boshlaydi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar dastavval mexanik ravishda, ya'ni ma'nosiga tushunmasdan esda olib qolaveradilar. Buning o'z sabablari bor, albatta. *Birinchi*dan, yuqorida aytib o'tganimiz kabi bolalarda turmush tajribasi juda oz bo'ladi va ular ko'p narsalarni hali mutlaqo bilmaydilar, lekin hayotda to'qnash kelganlari sababli eslarida olib qoladilar. *Ikkinchi*dan, bolalar nerv sistemasining plastikligi, ya'ni juda egiluvchanligi kattalarnikidan ham ustunroq bo'ladi. Ana shu sababli bolalarga mexanik esda olib qolish hech qanday qiyinlik tug'dirmaydi.

Bolalarda ma'nosiga tushunib esda olib qolish ham juda erta rivojlana boshlaydi. Masalan, yasli yoshdagi bolalar o'zlari yoqtirgan hikoyalarni ma'nosiga to'la tushungan holda eslarida olib qoladilar. Bu hikoyalardagi ayrim qahramonlarni sevadilar, ba'zilarini esa yomon ko'radilar. Umuman hikoyalarning mazmuni bolalarga ta'sir qilib, ularda ma'lum tuyg'u-hissiyotlarni uyg'otadi, bu esa bolalar hikoyaning mazmunini tushunayotganliklaridan darak beradi.

Yasli yoshidagi bolalarda dastlab ixtiyorsiz esda olib qolish va ixtiyorsiz esga tushirish vujudga keladi. Ular o'zlarini biron jihatdan qiziqtirgan, diqqatlarini o'ziga tortgan narsa va hodisalarni beixtiyor ravishda eslarida olib qoladilar. Biron narsani eslash, esiga tushirish assotsiatsiya tarzida namoyon bo'ladi. Ularni o'zlari ataylab esga tushirmaydilar. O'yin faoliyatida biron narsani eslash lozim bo'lib qolganda, assotsiatsiya tariqasida boshqa shunga o'xshash narsalar ham beixtiyor eslariga tushaveradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar (xususan kichik guruh bolalari) o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaydilar va hali maqsad qo'yishni ud-dasidan ham chiqa olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo'lishi tasodifiy bir hol emas. Buning o'z sabablari bor. Har bir tarbiyachi-pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to'g'ri rivojlantirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligidir. Bir qator psixologlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatlarga ega.

Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning nerv sistemasi xuddi yasli yoshdagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya'ni ularning nerv sistemalari haddan tashqari egiluvchan, ta'sirotda beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog'lanishlar (assotsiatsiyalar) juda yengillik bilan hosil bo'ladi. Bolalar nerv sistemasining xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar ashula, ritmli she'r, qiziqarli va chuqur ta'sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.

Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasi yengil qo'zg'aluvchan bo'lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog'lanishlar (assotsiatsiyalar) juda beqaror bo'ladi, ya'ni mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Ular tez esga olishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar. Ko'pincha narsa va hodisalarning maktabgacha yoshdagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning bolaga qanchalik emotsional ta'sir qilishiga bog'liq bo'ladi. *Uchinchidan*, maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasida qo'zg'alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo'lganligi tufayli ular o'xshash va birdaniga, ya'ni bir vaqtning o'zida juda ko'p idrok qilin-

gan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko'p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar maktabgacha yoshdagi boladagi kechagi bayram kuni bo'lgan, ya'ni idrok qilgan narsalarini bir boshidan so'zlab berish iltimos qilinsa, u ma'noli va sistemali qilib so'zlab berolmaydi. Bola bunday holda gapni tasodifiy esiga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi. Chunki birdaniga ko'rgan juda ko'p narsalarini bola tamoman aralashtirib yuborgan bo'ladi.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali sistema yo'q. Shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya'ni esida chuqur o'rnatilgan qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Agar maktabgacha yoshdagi bolalarga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'p narsalar ko'rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtaroq esda olib qololmaydilar.

O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib qolish hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg'aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o'sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o'sgan sari ular narsa va hodisalarni surunkasiga, ya'ni to'g'ri kelganicha emas, balki tanlab, ya'ni o'zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo'la boshlaydilar.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'p yillar mobaynida maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda olib qolish ustun bo'ladi, degan fikr mavjud bo'lib, shu bilan birga mexanik esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo'yilar edi. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda ham narsa va so'zlarning ma'nosiga tushunib esda qoldirish samarali ekani aniqlangan.

Lekin maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to'la tushuniladigan material berilganda ochiq ko'rinadi.

Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarda ko'proq obrazli xotira rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko'rgan narsalarini yaxshi eslarida olib qoladilar. Buning asosiy sababi, *birinchidan*, maktabgacha yoshdagi kichik bolalarning idroklari yaqqol

obrazli xarakterga ega, *ikkinchidan*, ularda hali nutq to'la-to'kis shakllanmagan. Bolalar yuqori guruhlarda nutqni anchagina egallab olganlaridan keyingina so'z orqali ifodalangan narsalarni esda yaxshi olib qoladigan bo'ladilar.

Bolalar juda ko'p narsalarni asosan turli o'yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko'pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo'ladi. Bu esa eslarida olib qolgan narsalarni ma'lum bir sistemaga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotiralaridagi narsalar tartibsiz, bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasiga xos bo'lgan tartibsizlikni yo'qotish va xotirasini o'stirish juda ko'p jihatdan tarbiyachilarga bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo'lgan materialni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "magazin-magazin" o'yini, har turli loto o'yinlari, topishmoqli o'yinlar va hokazo. Umuman, bolaning materialni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog'cha yoshida xotiraning hamma tiplari o'sa boshlaydi. Biroq, shu narsa xarakterliki, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexanik, mantiqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ostida o'ynashni bu yoshdagi bolalar osonlik bilan o'zlashtiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional xotira yaxshi bo'lsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq bo'ladi. Katta odamlar kuchli emotsional ta'sir qilgan ba'zi narsa va hodisalarni hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar esa kuchli emotsional ta'sir qilgan narsalarni ham ba'zan eslaridan chiqarib qo'yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o'stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola bilan gaplashilganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Xotiraning taraqqiyoti bolaning maktabgacha yoshdagi davrida tugallanmay bolaning bundan keyingi taraqqiyotida, ya'ni ta'lim-tarbiya va turmush tarziga qarab o'zgarib, o'sib boradi.

Tayanch iboralar:

bola xotirasi, nerv sistemasi, bola imkoniyatlari, mexanik xotira, emotsional xotira, xotirani rivojlanishi.

Mustaqil topshiriq:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish va xotirasiga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish.
2. Bolalarda xotira o'yini va xotira mashqi metodikalarini o'tkazib, tahlil qilish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasiga xos bo'lgan xususiyatlarini ayting.
2. Bolalardagi mexanik xotiralari qanday va nimalarda ko'rinadi.
3. Bolalardagi emotsional xotiraning kattalar xotirasidan farqi.
4. O'yin orqali bolalar xotirasini rivojlanib borishi.

XOTIRANI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR

Mehmonlar quvnoq Gnomga har xil sovg'alar olib kelishdi. Rasmga e'tibor bilan qarab, kim nima olib kelganligini eslab qol.




2

Kim nima olib kelgan edi, eslab ko'r. Sovg'alarni kim olib kelgan bo'lsa, o'shalarga ulab chiq.




3

Ushbu rasmlarni 1 minut davomida qarab ol, so'ngra ikkinchisiga qara.



Avvalgi rasmda qanday narsalarning rasmi bor edi, eslab ko'richi. Bu yerdan o'shalarni topib ber.



TAFAKKURNING BOLALARDA RIVOJLANISHI

Hozir biz yashab turgan zamonning eng ko'zga ko'rinib turgan belgisi ilmiy texnika asri ekan, bu odamlardan barcha psixik jarayonlarning, birinchi navbatda, tafakkurning rivojlangan bo'lishini talab qiladi.

Bola tug'ilishdanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Tafakkur bolaning o'sib, bilim va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanadi. Bola (chaqaloq) dastlab tashqi olamni va undagi narsalarni sezish, idrok qilish orqaligina biladi. Bunday bilish bolaning ana shu narsalar bilan bo'lgan aktiv faoliyati davomida tobora takomillashib boradi. Kichik yoshdagi bolalar atroflaridagi narsalar bilan qanchalik ko'p munosabatda bo'lsalar bu narsalar o'rtasidagi o'xshashlik tomonlarni shunchalik ko'proq payqay boshlaydilar. Keyinchalik bolalar o'xshash narsalarni umumlashtira boshlaydilar. Masalan, 6-7 oylik bola uyda yolg'iz qolgan paytida stol oldiga emaklab kelib, dasturxonni tortib o'ziga kerakli narsalarni olishga muvaffaq bo'lar ekan, xuddi shunday

harakat yo'li bilan karavotning ustidagi narsalarni ham olishga harakat qiladi. U dasturxonni tortgani kabi choyshab yoki adyolni tortib karavot ustidagi narsalarni olishga urinib ko'radi.

Yasli yoshidagi bolalarning tafakkuri o'z-o'zicha emas, balki katta odamlarning rahbarligida rivojlana boshlaydi. Katta odamlar bolalarning shu paytgacha orttirgan bilimlariga asoslanib, ularning o'zlari mustaqil egallay olmaydigan tushuncha va bilimlarni o'zlashtirib olishlarida yordamlashadilar. Ana shu tariqa bolalar o'zlarining individual faoliyatlari orqali bilish mumkin bo'lgan ayrim narsalarni va ayrim tushunchalarnigina emas, balki butun insoniyat tomonidan yaratilgan tushunchalarni hamda mantiqiy fikr qilish shakllarini ham egallab olib boshlaydilar.

Bolalarda tafakkur bir yoshga to'lib, ikki yoshga qadam qo'ygan davrdan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. Ana shu davr mobaynida, *birinchidan* bolalar anchagina turmush tajribasiga ega bo'la boshlaydilar, *ikkinchidan* tili chiqa boshlaydi. Bolalar bir yoshdan oshgach o'zlariga yaqin narsalarning nima uchun kerakligini tushunadigan bo'lib qoladilar (masalan, uydagi idish-tovoqlarning, piyola va qoshiqlarning nimaga kerakligini bilib oladilar).

Ikki yoshli bolalar tafakkurining eng ko'zga tashlanib turadigan xususiyati shundan iboratki, ular ayni shu chog'da ko'rib, idrok qilib turgan narsalari haqida tafakkur qiladilar. Tafakkurning asosiy jarayonlari, ya'ni analiz, sintez, umumlashtirish bolalarning narsalar bilan bo'lgan amaliy faoliyatlari jarayonida sodir bo'ladi. Ana shuning uchun ularning tafakkurlari bevosita harakatlari bilan bog'liq bo'ladi, tafakkur harakatlarida namoyon bo'ladi.

Yasli yoshidagi bolalar idrok qilayotgan narsalarining ichki va eng muhim xususiyatlarini hali aks ettira olmaydilar. Shu sababli ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtirganlarida bu narsalarning ko'zga tashlanib turadigan tashqi belgilariga, xususiyatlarigagina asoslanadilar. Masalan, bir yarim yoshli bola olmani, koptokni, yog'ochdan qilingan yumaloq sharni umumlashtirib, ularning hammasini olma deb ataydi.

Shunday qilib, kichik yoshdagi bolalarda tafakkur ularning turmush tajribalarining orta borishi, turli xil narsalarga doir bilim va tushunchalarining ko'payishi hamda nutqning rivojlanishi jarayonida takomillashib boradi.

Tafakkur bolaning maktabgacha yoshdagi davrida juda tez rivojlana

boshlaydi. Buning sababi, *birinchidan*, maktabgacha yoshdagi bolalarda turmush tajribasining anchagina ko‘payishi, *ikkinchidan*, bu davrda bolalar nutqining nisbatan yaxshi o‘sgan bo‘lishi, *uchinchidan* esa, maktabgacha yoshdagi bolalarining juda ko‘p erkin va mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarining mustaqil harakatlari davomida atroflaridagi turli xil narsalar bilan bevosita taqqoslash, analiz qilish va, nihoyat, umumlashtirish kabi fikr qilish jarayonlarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi.

Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni yasli yoshidagi davrga nisbatan juda ham kengayib ketadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z tajribalarida ancha narsalarni bilib olganlaridan so‘ng narsalarning ichki xususiyatlari bilan ham qiziqqa boshlaydilar. Shu sababli ularda juda ko‘p savollar (bu nima? nega bunaqa? kim qilgan? qayerdan kelgan? nima qiladi? kabi) paydo bo‘ladi. Bu, shubhasiz, tafakkurning aktiv va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda har xil sohalarga doir savollarining tug‘ilishi ular tafakkurining aktivlashayotganligidan darak beradi. Shuning uchun bolalarning savollariga doimo ahamiyat bilan qarash kerak. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki katta odamlar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik, sinchkovlik susaya boshlaydi. Lekin maktabgacha yoshdagi bolalarning hamma savollariga javob berish qiyin, chunki ular o‘zlari hali mutlaqo tushunmaydigan narsalar va hodisalar haqida ham savol beraveradilar. Tarbiyachi bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishi va tushuntirishi lozim.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsaga tushuna olmaslik, biron narsadan taajjublanish, hayron qolish natijasida hosil bo‘ladi. Juda ko‘p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar ortiqcharoq savol bersalar, ularni “ko‘p mahmadona bo‘lma”, “sen bunday gaplarni qayerdan o‘rganding”, deb jerkib tashlaydilar. Masalan, 7 yoshli katta guruh bolasi “yomg‘ir qayerdan yog‘adi?” degan savol berdi. Bu bolaga yomg‘irning yuzaga kelishi juda sodda va tushunarli qilib gapirib berildi (hatto sovuq oynaga issiq par bilan ta’sir qilganda suv zarrachalarining yuzaga kelishi misol qilib ko‘rsatildi). Bola biroz qarab turib, yo‘q unaqa emas deb javob berdi. Bo‘lmasa, qani sen tushuntirib ber,

deb so'raldi. Shunda bola quyidagicha tushuntirib berdi: "Yomg'ir osmonda yashaydi, uning uyi bulutlardan ham balandda. Bulutlar ochilib ketgan paytda yomg'ir yiqilib ketadi..." deb tushuntirdi. Bolaning ana shunday afsonaviy tushunchasidan voz kechib, to'g'ri, ilmiy tushunchani yuzaga keltirguncha ancha vaqt ketadi. Ana shuning uchun maktabgacha yoshdagi, hali turmush tajribasi oz bo'lgan bolalarga tabiat hodisalarini bunday yolg'on afsonaviy tarzda tushuntirish yaramaydi.

Bolalarning beradigan savollarini juda qiziq bo'lishiga bir necha sabablar bordir. *Birinchidan*, maktabgacha yoshdagi bolalar tevarakatdagi narsa va hodisalarni qanday bo'lsa, shundayligicha, ya'ni yaxlit holda, xuddi rasmdagidek aks ettiradilar, *ikkinchidan*, ularda katta odamlardagidek idrok qilayotgan narsa va hodisalarni chuqur analiz va sintez qilish xususiyati hali o'smagan bo'ladi, *uchinchidan*, ularda turli tabiat va jamiyat hodisalariga doir ilmiy tushunchalar hali tarkib topmagan va nihoyat, *to'rtinchidan*, ularning turmush tajribalari juda oz bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning beradigan savollaridan ular tafakkurining konkret obrazli xarakterga ega ekanligi ham ko'rinib turadi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar quyidagi savollar berishlari mumkin: Bulutlar nega yuradi? Osmon kattami, yer kattami? Yulduzlar nechta? Osmondagi yulduzlar nima uchun kunduzi ko'rinmaydi? Daraxtlar nima yeb o'sadi? Qorbobo odammi? Hozir qorbobo qayerda? Nima uchun qorbobo yozda kelmaydi? Elektr toki qayerdan keladi? Nega simda olov ko'rinmaydi? Bog'cha yoshdagi bolalarni tabiat va jamiyatdagi narsalarning sababiy bog'liqligi hamda ichki taraqqiyot qonunlari emas, balki shu narsalarning o'zi qiziqtiradi.

Ayrim bolalar haddan tashqari ko'p savol beradilar, boshqa bir bolalar esa deyarli hech savol bermaydilar. Bolalarning juda ko'plab savol berishlari ijobiy xarakterga ega bo'lib, bu ularning qiziquvchanligi, aktivligi va mustaqilligidan darak beradi. Odatda, juda tortinchoq bolalar savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va ekskursiyalar vaqtida tarbiyachining o'zi savol berishi, shu bilan ularni aktivlashtirib borishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tajribalari orta borgan sari narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ayrim tabiiy sabablarni tushuna boshlaydilar. Masalan, katta guruh bolalarining gaplariga diqqat qilsak, ular shunday hodisalar haqida mulohaza yurgizishayotganlarining guvohi bo'lamiz. "Temir og'ir narsa bo'lgani uchun suvda

cho'kadi, yog'och yengil, shuning uchun u oqadi", "ichi bo'sh banka yengil, shuning uchun u cho'kmaydi", "urug'ni yerga eksa, ko'karib chiqadi" shu kabilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkur jarayonida ayni shu chog'da idrok qilayotgan narsalargina emas, balki ilgari idrok qilgan narsalariga ham tayana oladilar. Masalan, bolaga ilgari ma'lum bo'lgan biron topshiriq yoki savol berilsa, u o'z tasavvuriga asoslanib, qiynalmay, darhol javob qaytaradimi. Chunonchi 6 yoshli bir boladan "yong'oq suvda cho'kadimi yoki oqadimi?" deb so'ralganda, u "oqadi" deb javob bergan. Bolaning to'g'ri javob berganligiga sabab shundaki, u o'z tajribasida yong'oqni suvga tashlab ko'rgan. Ana shu tarzda maktabgacha yoshdagi bolalarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning eng sodda shakli yuzaga kela boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining hamon konkret obrazli bo'lishidir. Ular o'zlarining mulohazalarida abstrakt tushunchalarga emas, balki konkret dalillarga asoslanadilar. Shuning uchun ular abstrakt tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydilar. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarda, xususan katta guruh bolalarida, ayrim narsa va hodisalarning muhim belgilariga qarab, umumlashtirish qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Masalan, katta guruh bolalari olma, o'rik, nok, olcha, olxo'ri, uzum, anor, behi va anjirlarning rasmlarini to'plab, meva deb ataydilar. Ular endi meva degan umumiy tushunchadan o'z nutqlarida erkin foydalana oladigan bo'ladilar. Bog'cha bolalari xilma-xil rasmliloto-lar bilan o'ynash jarayonida ana shunday umumlashtirishga o'rgana boshlaydilar. Bunday o'yinlarda ba'zan tarbiyachining aralashuvi va bolalarga umumlashtirish yuzasidan (masalan, hayvonlar, hashoratlar, gullar, qushlar, o'yinchoqlar va hokazolar haqida) turli vazifalar berishi yaxshi natijalarga olib keladi. Bolalar bu narsalarning eng muhim belgilariga qarab ularni guruhlarga ajratadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun narsalarning eng muhim belgilari ularning nima uchun qo'llanishidir. Chunonchi, ularga "sigir qanday hayvon?" deb, savol berilsa, ular – "sigir sut beradigan hayvon" deb javob beradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar har bir narsaning nima uchun kerakligini shu narsaning asosiy belgisi qilib oladilar. "Ot qanday hayvon?" deb savol berilsa, ular "ot minadigan hayvon" deb javob beradilar.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar juda qiziquvchan bo'ladilar. Ko'pgina narsalarni bilishga imkoniyatlari yetmasa ham, atroflaridagi turli narsa va hodisalarning mohiyati, paydo bo'lishi hamda sababiy bog'lanishlariga qiziqadilar. Ular hamma narsaning siridan xabardor bo'lgilari keladi. Bu ularning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan intellektual qiziqishlaridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda turli didaktik va ta'limiy mashg'ulotlarning roli g'oyat kattadir. Masalan, katta guruh bolalari bilan o'tkaziladigan son-sanoq (hisoblash) mashg'ulotlari, nutqni o'stirish mashg'ulotlari ularda tafakkurning taqqoslash, analiz va sintez qilish xususiyatlarini o'stirishga yordam beradi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, bolalar ana shunday ta'limiy mashg'ulotlarda narsa va hodisalarni shunchaki o'zlashtirib, faqat ularning nomlarini esda olib qolish bilan cheklansalar, tafakkur qilish qobiliyati yaxshi rivojlanmaydi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi davrda bolalarning tafakkuri jadal rivojlanadi va uning bundan keyingi o'sishi maktab yoshida, ya'ni sistemali ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar:

bolalar tafakkuri, konkret tafakkur, abstrakt tafakkur, tafakkurni rivojlanishi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish va tafakkur jarayonini tahlil qilish.

2. Bolalar tafakkurlarini rivojlantirish uchun mashq va o'yinlarni o'tkazish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Maktabgacha yoshidagi bolalarning tafakkurlarini o'ziga xos xususiyatlari qanday?

2. Bolalar imkoniyatlari va tafakkurlarini xususiyatlari.

3. Bolalar qiziquvchanligi tafakkurni rivojlanishiga ta'siri.

4. Bolalar tafakkurini konkret va abstrakt turlari.


TAFAKKURNI TEKSHIRISH

Tafakkurni tekshirish xususiyati bolaning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ilk yoshda ko'rgazmali-harakatli tafakkurning holati maktabgacha yoshda, maktab yoshida ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiqiy tafakkur tekshiriladi.


Bolaning aqliy faoliyatini tahlil qilishda uning – motivatsion, operasion, dinamik hamda tanqidiy fikrlash tomonlarini ko'rib chiqish kerak.

Tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar

Rasmlarni oxiriga yetkazib chiz.



Ushbu g'aroyib ko'zgular aksini o'zgartira oladilar: yani cho'zib yoki pachoq qilib ko'rsatadilar. Bo'g'irsoqning aksini har bir ko'zguda chiz.



XAYOLNING BOLALARDA RIVOJLANISHI

Yangi tugʻilgan chaqaloq bolalarda hali xayol boʻlmaydi. Xayolning rivojlanishi uchun bolaga turmush tajribasi, tasavvurlar boyligi hamda juda koʻp bilimlar kerak boʻladi. Tajriba esa bolaning tashqi olamdagi narsa va hodisalarni oʻzi kuzatishi, voqelik hamda turli sohalarga doir tasavvur hosil qilishi katta odamlar bilan keng munosabatda boʻlishi natijasida ortib boradi.

Xayol jarayonining dastlabki koʻrinishlari bolada ikki yoshga toʻlib, uch yoshga qadam qoʻyganida koʻrina boshlaydi. Ikki yoshli bolalarda koʻrinadigan dastlabki xayol maʼlum bir maqsadni koʻzlamaydigan ixtiyorsiz xayoldir:

Nutqni oʻzlashtirishi bolalarda xayol jarayonining oʻsishiga taʼsir koʻrsatadi. Ana shu davrdan boshlab bola tevarak-atrofdagi kishilarning soʻzini yaxshi tushunadigan boʻlib oʻzidagi tasavvurlar boyligini bevosita idrok qilingan narsalar orqaligina emas, balki katta yoshli odamlar nutqi orqali ham toʻldirib boradi. Bola oʻziga tushunarli mavzulardagi hikoya va ertaklarni qiziqib tinglaydi. Oʻzi asosiy qahramon boʻlib qatnashadigan hikoyalarni jon-dili bilan eshitadigan boʻladi.

Bunday hikoya bolaga juda tushunarli bo'ladi, chunki bola hikoyani eshitib turib, bevosita, o'zining idrokiga tayanadi. Bu yerda o'ylab chiqarilgan voqea bolaning o'zi haqiqatda ishtirok qilgan voqealarga ulanib ketadi. Bolaning hikoya va ertaklarni eshitishga juda ham qiziqishi, hikoya va ertaklarni tinglayotganida bolalarning tajribasini orttiradigan va xayolini o'stirishga yordam beradigan xilma-xil va aniq tasavvurlar hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Bolalar xayolining o'sishida nutqning ahamiyati yana shundaki, nutq bolaning yangi taassurotlar hosil qilishi va uni boyitish bilangina cheklanib qolmay, balki nutq miyada hosil bo'lgan yangi-yangi obrazlarni so'zlar bilan ifodalashga yordam beradi. Masalan, ikki yarim yoshlardagi qizcha derazalardagi pardalar hilpirab va quyosh nurlarining shu'lalaridan tovlanib turganini ko'rib, o'zini polga tashlaydi va "...qarang, oyi, go'yo dengizga o'xshaydi. Men cho'milyapman..." deydi. Bola nutqida shu "go'yo" so'zining paydo bo'lishi juda ham xarakterlidir. Bola xayolidagi vaziyatni shu so'z bilan ifodalaydi, real narsalar bilan xayolidagi narsalarni bir-biridan ajratadigan bo'ladi.

Bolalar xayolining dastlabki rivojlanishida ular o'yinining roli juda kattadir. Ularning yoshi ulg'aygan sari ular o'yinining mazmuni ham o'zgarib boradi. Ikki yoshga to'lish oldidan bolalar o'yinida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bola turmushda ko'rgan ish-harakatlarini o'z o'yinida aks ettiradi. Masalan, bola qo'g'irchog'ini "ovqatlantiradi", yotqizib "uxlatadi", uni "erkalaydi", "arg'imchoqda" uchiradi. Bola katta bo'lgan sayin o'yinida katta yoshli kishilarning harakatlariga taqlid qilish tobora ko'p o'rin egallay boshlaydi. Ayni vaqtda o'yinlar murakkablashib, mazmuni ham turli-tuman bo'la boradi. Masalan, bola o'ziga g'amxo'rlik qilayotgan onasining harakatlariga, duradgor, haydovchi, sartaroshning harakatlariga taqlid qila boshlaydi.

Ilk yoshdagi bolalarning harakatlarida tasviriy faoliyat elementlarining paydo bo'lishi xayolning o'sayotganligidan dalolat beradi. Masalan, bola bir nimalarni qog'ozga chizib, nimanidir tasvirlashga urinib ko'radi. Lekin dastlab bunday chizmakashlik faoliyati "al-moyi-aljoyi" chiziqlar chizishdangina iborat bo'ladi. Ikki yoshga to'lganda ilk yoshdagi bolaning tasviriy faoliyatida yangi, muhim element paydo bo'ladi. U endi o'zi chizayotgan rasmiga nom beradigan bo'ladi. Tasviriy faoliyatning yuzaga kelishi ilk yoshdagi bola-

ning tasavvur xayolini o‘stirishga yordam beradi. Ammo bu yoshda xayolning dastlabki nihollarigina paydo bo‘la boshlaydi, bu nihollarni diqqat-e’tibor bilan doimo parvarish qilib turish tarbiyachi va otionalarning vazifasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xayol bir xilda rivojlanmaydi. Agar kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida asosan tiklovchi xayol o‘sgan bo‘lsa, o‘rta va katta yoshdagi bog‘cha bolalarida xayolning ijodiy turi ham o‘sa boshlagan bo‘ladi.

Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, ayrim olimlar xayol jarayonini noto‘g‘ri talqin etadilar. Ularning fikricha, xayol bolalarning yoshlik davrida juda yuksak darajada o‘sgan bo‘lib, bola ulg‘ayib, o‘sa borgan sari xayolning kuchi pasayib, uning o‘rnini tafakkur egalay boshlaydi. Bu batamom xato fikrdir. Xayol ham boshqa psixik jarayonlar kabi bolalarda asta-sekinlik bilan, turmush tajribasining orta borishi davomida o‘sadi. Lekin xayol hech vaqt bolalik chog‘ida o‘zining yuksak ijodiy taraqqiyoti cho‘qqisiga ko‘tarilmaydi. Buning dalili sifatida katta odamlarning xayol qilish (xususan ijodiy xayol) qobiliyatini bolalarning xayol qilish qobiliyati bilan taqqoslab ko‘rishning o‘zi kifoya.

Bolaning bog‘cha yoshida harakat doirasining kengayishi, bilimlarining ortishi, turli xil yangi ehtiyoj va qiziqishlarning paydo bo‘lishi unda xayol jarayonining birmuncha tez sur‘at bilan rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning xayol qilish qobiliyatlari ilk yoshdagi bolalar xayolidan har tomonlama ustun turadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xayoli asosan ixtiyorsiz va tiklovchi xayol bo‘lib, ularning turli-tuman o‘yin faoliyatlarida o‘sib boradi. Biroq shu narsa diqqatga sazovorki, agar maktabgacha yoshdagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo‘lmaganda edi, ularning o‘yinlari ham xilma-xil bo‘lmas edi. Demak, bolalarning xayol qilish qobiliyatlari ularni turli xil o‘yinlar o‘ynashga undasa, o‘yin o‘z navbatida ularning xayolini o‘stiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xayoli mashg‘ulotlarda ham o‘sib boradi. Masalan, bolalar loy o‘ynashni, ya‘ni loydan turli narsalar yasashni (shu jumladan, plastilindan ham) qumdan turli narsalar qurishni, rasm chizishni yaxshi ko‘radilar. Bu mashg‘ulotlar, ayniqsa, rasm chizish mashg‘uloti bolalar xayolini o‘stirishga

juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida hali ijodiy xayolning yo'qligi ularning rasm chizishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, kichik yoshdagi bog'cha bolalarining chizgan rasmlari hamma vaqt uy-ro'zg'or mavzularidan nariga o'tmaydi. Chunki bu yoshdagi bolalar har kuni ko'rib turadigan narsalari haqidagina xayol qila oladilar.

O'rta va katta guruh bolalarining rasm chizishlarida ijodiy xayolning yuzaga kela boshlagani aniq ko'rinadi. Ular rasm chizishda tor uy-ro'zg'or mavzulari bilan cheklanib chizmay, uzoq o'tmish va kelajakdagi narsalarga oid rasmlar ham chizadilar. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida va solgan chizmalarida katta odamlarning turli-tuman faoliyatlarini mustaqil tasvirlashga intiladilar. Bunday paytda ular faqat xayolni tasavvur etish yoki taqlid qilish bilan cheklanib qolmay, balki o'zlari ijodiy ravishda yangiliklar ham qo'shib boradilar. Masalan, ular sujetli o'yin o'ynaganlarida yangi-yangi rollarni o'ylab chiqaradilar ("poyezd" yoki "vokzal" o'yinida poyezdda yoki vokzalda xizmat qiluvchi kishilardan tashqari yo'lovchilarni vokzalga olib keluvchi transport, ya'ni taksi haydovchi rollarini qo'shadilar).

Katta yoshdagi bog'cha bolalari o'zlarining mazmunli rasmlarida xayoliy obrazlarni (hatto orzularni) aks ettiradilar. Shuning uchun ular ko'pincha erkin mavzuda o'zlarini qiziqtirgan va ayni chog'dagi ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan narsalar haqida rasm chizadilar. Ana shunday erkin mavzuda rasm chizish jarayonida bolalarning ijodiy xayol qilish qobiliyatlari o'sib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xayolining rivojlanishiga turli xil hikoya va ertaklar ham ta'sir ko'rsatadi. Xalq turli qiziqarli, ibratli va ta'limiy ertaklar ijod etishda maktabgacha yoshdagi bolalarni ham unutmagan. O'zbek xalqining og'zaki adabiyotida yosh bolalarga tushunarli, sodda til bilan yaratilgan ertaklar mavjud. Bulardan tashqari, rus va boshqa xalqlarning tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan ertaklar ham ko'pdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan ertaklarning ko'pi antropomorfizm xarakteriga egadir. Buning ma'nosi shuki, ertaklarning qahramonlari odamlarga o'xshab "gapiradigan" hayvonlardan iboratdir. Bolalar bunday ertaklarni juda yoqtiradilar va har doim maroq bilan tinglaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida ularda shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan

ma'lum munosabat yuzaga keladi. Masalan, doim yovuzlik qiladigai bo'ri obrazini, haddan tashqari ayyor tulki obrazlarini bolalar sevmaydilar. Ularga qo'rqqoq quyon, xo'roz, g'oz, echki, beozor hayvonlarning obrazlari yoqadi. Turli ertaklar bolalarning xayollariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Ular o'z xayol kuchlarini ishga solib, eshitayotgan yoki eshitgan ertaklaridagi turli obrazlarning qiyofasiga kiradilar. Boshqacha qilib aytganda, eshitgan ertaklari ular o'yinining mazmuniga ham ta'sir etadi.

Bolalar uchun chiqarilgan turli ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutib, pedagog-tarbiyachilar bolalarga ertak aytib berish va o'qib berishga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim.

Shunday qilib, xayol maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiy etishlarida katta o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi davrda bolaning xayoli yetarlicha o'sgan bo'lishi kerak, chunki maktabdagi o'qish birinchi kundan boshlab bolalardan xayol qilish qobiliyatining, xususan, tiklovchi xayolning yaxshi o'sgan bo'lishini talab qiladi.

Tayanch iboralar:

bolalar xayoli, ijodiy xayol, fantaziya, antropomorfizm, xayolni rivojlanishi, xayoliy obrazlar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalar xayollarining xususiyatlari nimalardan iborat.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy xayolni ko'rinishi.
3. Bolalarning xayollarini ertaklar orqali rivojlantirish.
4. Tasviriy faoliyatlarida xayolni rivojlanib borishi.

Xayolni rivojlantiruvchi mashq

Ona sichqon sichqonchalarning tug'ilgan kuniga dasturxon yozdi. Rasmga e'tibor bilan qarab, nimalar borligini eslab qol



BOLALAR NUTQINI RIVOJLANIB BORISHI

Bolaning psixik taraqqiyotida nutqning katta rol o'ynashi haqida biz yuqorida batafsil gapirib o'tgan edik. Bolaning bog'cha yoshidagi davri ham nutqni amaliy va aktiv egallash davri hisoblanadi. Bola bog'cha yoshiga yetgach so'z boyligining ancha ortishi bilan birga ayrim iboralar, jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri ishlata boshlaydi.

Agar 2 yoshli bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan-400 tagacha bo'lsa, 3 yoshli bolaning so'z boyligi 1000 tadan-1200 tagacha va 7 yoshli bolaning so'z boyligi 3000 tadan-4000 tagacha yetadi. Demak, bolaning bog'cha yoshidagi davrida uning lug'at boyligi tez ortadi. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning nutqi faqat miqdor jihatidagina ortib qolmay, balki sifat jihatidan ham ancha takomillashadi. Masalan, yasli yoshida ancha so'z boyligiga ega bo'lishlariga qaramay, ayrim tovushlarni (r, l; r, y; sh, z;) yaxshi farqlay olmaydilar va shu tufayli so'zlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar bunday tovushlarning ko'pchiligini ravshan va o'z o'rnida talaffuz eta oladigan bo'ladilar. Bundan tashqari, bolalar o'z ona tillarining grammatik tuzilishini ham amaliy tarzda o'zlashtira boshlaydilar. So'z boyliklari miqdor jihatidan bog'cha yoshidagi bolalarning hammasida bir xil bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar so'z boyligining miqdori asosan bola tarbiyalanib o'sayotgan oilaning madaniy saviyasiga bog'liqdir. Bir xil oilalarda bola nutqining o'sishi bilan maxsus shug'ullanadilar. Ayrim oilalarda esa bola nutqining o'sishi o'z holiga tashlab qo'yiladi, ya'ni bu ish bilan kattalar mutlaqo shug'ullanmaydilar. Natijada bog'cha yoshidagi bolalar so'z boyligi o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi. Tarbiyachi bog'cha yoshidagi bolalar nutqining ana shu tomoniga e'tibor bilan qarab, so'z boyligi oz bo'lgan bolalar va ularning otionalari bilan maxsus ish olib borilishi kerak.

Ma'lumki bog'cha yoshidagi davrda bolaning turli sohaga doir bilimlari ancha ortadi va u inson faolyatining murakkabroq turlarida ishtirok eta boshlaydi. Ana shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar nutqi asosan ularning har turli o'yin faolyatlarida o'tkaziladigan maxsus mashg'ulotlarida va katta yoshdagilar bilan qiladigan turli muomalalarda o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqning tobora takomillashi shi ular tafakkurining o'sishi bilan chambarchas bog'liq. Bog'cha yoshidagi kichik bolalar konkret faol tafakkurdan asta-sekin mantiqiy tafakkurga o'tar ekan, buning uchun yetarli so'z boyligi talab etiladi.

Bu aktiv ravishda nutq vositalarini egallashga undaydi. Natijada bolalar yangi va murakkab nutq iboralarini o'zlashtira boshlaydi. Konkret narsa va hodisalar bilan bog'liq bo'lgan so'zlardan tashqari to'la nutq iboralarini o'zlashtira boshlab birinchi va ikkinchi signal sistemalari o'rtasidagi munosabatni o'zlashtirishga olib keladi. Endi so'zlar faqat konkret narsalar bilan emas, balki boshqa bir guruh so'zlar bilan va bevosita harakatlar bilan bog'lanadi.

Agar kichik yoshdagi bolalarning nutqi, ayni shu chog'da idrok qilib turgan joyda narsalar va harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, bog'cha yoshidagi bolalarning nutqi hozir idrok qilib turgan narsalardan tashqari ilgari idrok qilingan narsalar va xayoliy narsalar bilan bog'liq. Bog'cha yoshidagi bolalar katta kishilar aytib bergan ertaklarni bir-biriga bog'lanishli qilib aytib bera oladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishining xarakterli tomoni shuki, bu yoshdagi bolalar vaziyatli nutqdan, yani shu chog'dagi harakatlarga qaratilgan, biroq bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan nutdan mazmunan bog'langan mantiqiy nutqqa o'tadi. Bog'cha yoshidagi davrda bolalar nutni tez egallaydilar lekin og'zaki nutqni egallash bilan cheklanadilar. Yosh xususiyatiga ko'ra, ularning imkoniyatlari nutqning yozma turini egallashga yo'l bermaydi. Ular o'z ona tillarini grammatik jihatdan, amaliy tarzda o'zlashtiradi. Bog'cha bolalarining grammatik qoidalarini o'zlashtirishlari maktab bolalarining o'zlashtirishidan farq qiladi. Bog'cha bolalari grammatik qoidalarini o'qib, tushunib yodlarida saqlab qololmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, suffiks, kelishik kabi grammatik kategoriyalarni nima ekanligini bilmaydi. Shuning uchun ular grammatikaning juda ko'p qo'llaniladigan eng sodda qoidalarini kattalarning nutqlari orqali mazmunli o'yinlarida taqlidiy yo'llar bilan amaliy ravishda o'zlashtira boradilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar so'z boyliklarining ko'pchiligi otlardan iborat ekanligi ajablanarli hol emas. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalari otlarni ko'plik, birlik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarini va turli kelishiklarda amaliy to'g'ri ishlata oladigan bo'ladilar. Katta guruh bolalarida to'g'ri so'zlash hissiyoti yuzaga keladi, shuning uchun ular o'zlaridan kichik yoshdagi bolalar grammatik jihatdan xato so'zlashganlarida "bunaqa deb bo'lmaydi" deb, ularning nutqlarini to'g'irleydigan bo'ladilar. Kichik yoshdagi bolalar asosan hozirgi zamon bilan yashaydilar. Boshqacha qilib aytganda, ularda turmush

tajribasi juda oz bo'lganligi tufayli o'tgan va kelajak zamon tushunchalari deyarli to'la shakllangan bo'lmaydi.

Shuning uchun ular nutqlarida fe'llarning zamon qo'shimchalarini almashtirib yuboradilar. Bog'cha bolalarida bilish jarayonlarining o'sishi tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida bor bo'lgan bog'lanishlarni, munosabatlarni tobora anglash tufayli amalga oshirilgan. Bog'cha yoshidagi davrdan boshlab ona tilining so'z tarkibini va grammatik tuzilishini atroflicha egallashga jiddiy e'tibor berishgan.

Tekshirishlarning natijasida, bolalarga ayrim so'z turkumlari, bog'lovchilar va elementar grammatik qoidalar amaliy mashqlar orqali biroz o'zlashtirilgandan so'ng bolalarning jumla tuzishlarida sezilarli o'zgarish yuzaga keladi. Masalan:

1. Bolalar ko'rsatilgan suratga qarab u yerda tasvirlangan narsani ma'naviy bog'langan jumlar bilan aytib bera oladi.

2. Bolalar tafakkurining o'zgarganligi ularda asoslangan umumlashtirishning yuzaga kela boshlaganidan ko'rinib turadi. Bolalar suratda tasvirlangan narsalarga asoslanib uning mazmuniga mos keladigan nom topa oladigan bo'ladilar.

Tilning o'zlashtirilishi haqidagi ishlar muallifi chet el olimi Rodjer Braun hisoblanadi. Braun va uning hamkasblari bolalarning katta guruhida kuzatish olib borganlar va ulardan 3 ta bola ADAM, YEVA, SARALAR tanlab olinib, nutqlari kuzatilib borilgan. Braun so'zlashning o'rtacha uzunligi tushunchasini qo'llab turib, uni bola tomonidan nutq o'zlashtirish darajasi birligini o'lchashda ishlatgan. Shunga asoslanib Braun nutq rivojlanishida 4 ta bosqichni ajratadi:

1-bosqich. Bu bosqich uchun 2 ta so'zli gaplar xarakterlidir. Bolalarda "telegraf nutq" paydo bo'ladi. Lekin Braun ushbu strukturadan chiqib bolalar mavjudlik, yo'qlik, qaytish, ta'ajjublik, harakat va atributsiyalar tushunchalarini yetkazishga harakat qilishlarini ta'kidlaydi.

2-bosqich. Ushbu bosqichni tilni o'zlashtirish davomida nisbatan uzunroq so'zlashish xarakterlidir. Bolalar so'zlarni o'zlashtirish qonunlarini o'zining tanish bo'lgan so'zlarda qo'llay boshlaydilar. Ular gapda o'tgan zamon formalarini yarata olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, *o'ynayapman, o'ynadim.*

3-bosqich. Bolalar oddiy gaplarni o'zlashtirishni boshlaydilar. Ular rad etuvchi va buyuruvchi gaplar tuzadilar, umumiy savollarni beradilar. Dastlab bolalar rad etuvchi gaplar oldiga, rad etuvchi so'zni

qo'yib gapiradilar. Masalan, biron narsani yo'qligini "*chontagim yo'q*", yoqimsizlikni "*boshqa kerak emas*" va norozilikni "*kir emas*" kabi gaplar bilan ifodalaydilar, shuningdek ular rad etuvchi yashiringan ishchi so'zlarni ham qo'llaydilar. Masalan, "*Sanjar harakat qilmadi*", "*Dilshod ketmaydi*". Shu vaqtning o'zida bolalar mavhum gaplarni farqiga ham bormasligi yoki ularni bir ma'noni anglatishni tushunmasligi mumkin. Masalan, 3 yoshli bolaga qo'g'irchoq orqali "Bola qizni quvlayotgani," "Qiz bolani quvlayotgani" sahnasini qo'yib berishingizni so'rasangiz u buni osonlik bilan bajaradi. Agar unga "Qiz bolaga yordam berayotgani", "Bola qizga yordam berayotgani" sahnasini qo'yib ber desangiz bolalar bunga ko'pincha tushunmaydilar va bu 2 xil gap bir ma'noni anglashini anglamaydilar.

4-5-bosqich. Bolalar bu bosqichda so'zlardan foydalanish imkoniyatlari oshib boradi. 4, 5 yoshga kelib bolalar sintaksisni puxta egallaydilar va hayoti davomida bu ko'nikmani shakllantirib boradilar.

Bolalar gapirishdan oldin ularda nutqning idrok etish ko'nikmalari shakllanib boradi. Nutqni farqlash qobiliyati ularda tug'ilishdan oldin namoyon bo'ladi.

Dastlabki muloqat bolada nutq rivojlanishida bolaning "qichqirishi", "gugulashi" birinchi so'zlaridan boshlanadi.

Dastlab bolaning gugulashida odam nutqining barcha tovushlari mavjud bo'ladi. 1 yoshda bola "gu-gulashi"dagi ovozlari torayadi va bola nutqi ona tiliga moslashadi.

Gugulashni torayishidan jargon paydo bo'ladi va bola "birinchi" so'zlarini aytadi. Shundan so'ng unda telegraf nutq paydo bo'ladi va uning ketidan nutq rivojlanishi o'z cho'qqisiga yetadi.

Bolalar qandaydir bir tushunchani, maslan, "*kamroqni*" unga qarama-qarshi bo'lgan so'zlardan "*ko'proq*"ni oldinroq o'zlashtiradilar. Ko'pincha ular qandaydir fikr bildirmoqchi bo'ladilar, lekin kerakli so'zni topa olmaydilar yoki esga tushura olmaydilar. Ba'zida bolalar o'zicha so'zni o'ylab topadilar. Ular so'zlarni o'rmini almashtirib aytadilar. Masalan, "*oyi koptok bu*".

3 yoshli bolalar ko'pincha joy nomini qo'llashda adashadilar. Bolalar so'zini to'g'irlashga harakat qilsalar ham ularda shunday gapirish ma'lum vaqt davom etadi. 4-5 yoshda ularning ko'pchiligi so'zlarni joylashtirib gapirishni o'rganadilar. Lekin ko'pincha bu xatoliklar ularning nutqida saqlanib qoladi.

Davron o'z xonasida yolg'iz o'tiribdi. U alohida elementlardan boshqotirma yechmoqda. Diqqat bilan eshitsak, o'ziga o'zi garipyotganligini sezishimiz mumkin. *"Bu to'g'ri kelmaydi. Dumalog'i qani, bu bo'lmaydi, bu juda katta, bu esa kichkina"*.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 4 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalar, agar ularga xalaqit berilmasa 20 % vaqtini o'zi bilan o'zi gaplashib o'tkazar ekan. Psixolog buni "o'zi bilan o'zi gaplashuv" yoki "shaxsiy so'zlashuv" deb ataydi. Hamma insonlar kattalar ham, yoshlar ham o'z-o'zi bilan gaplashadi. Ulardan farqli ravishda bolalar hamma-ning oldida o'z-o'zlari bilan gaplashadilar, ular ko'pincha nima ish bilan shug'ullanayotganliklarini gapiradilar.

Har bir madaniyatda bolalarga til yetkazish omadli tarzda amalga oshiriladi va bolalar o'z ona tillarini osonroq tarzda o'zlashtirishlari uchun ota-onalar turlicha metodlarni qo'llaydilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kattalar bolalar kechayotgan voqeani anglashlari va ular ko'proq gapirishlari uchun turli xil savollarni berar ekanlar. Bola nutqi kattalar bilan tez-tez muloqatga kirishgandagina rivojlanadi. Bolalar nutqini rivojlanishi individual tashqi muhit va irsiyat bilan bog'liqdir. Masalan, egizaklar nutqi boshqalarnikiga nisbatan sekinroq rivojlanar ekan. Lekin bu holat yana shu bilan bog'liqki, ularga verbal signallar kamroq yetib boradi, ya'ni bolalar e'tibori ona tomonidan bo'lingan bo'ladi. Shuningdek, egizaklar ko'pincha o'zaro o'zlari yaratgan tilda so'zlashadilar. Ota-onalar o'z farzandi bilan so'zlashar ekanlar, so'zlardan tashqari ularni sintaksis qoidalar va gap tuzishni o'rgatadilar. Ular bolaga o'z fikrini bildirish va boshqa odam bilan fikr almashish bo'yicha namuna vazifasini o'taydilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatar ekanki bolaga rasm ko'rsatib kitob o'qib berish, uning nutqini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Ayniqsa bolalarga kitob o'qib berilayotganda ularga savollar bilan murojat etish zarur. Bola nutqi rivojlanishida ko'p bosqichlarni bosib o'tadi. Bola boshqalarning e'tiborini tortish uchun dastlab kattalarning etagidan tortsa, keyinchalik u "Bilasizmi?" so'zidan boshlanuvchi gap bilan o'z e'tiborini qaratish mumkin bo'ladi.

Bolaning nutqni o'zlashtirishida mentalitet va xalq madaniyatining o'rni ham katta. Olimlar amerikalik va angliyalik onalarning so'zlarini kuzatganlar. Angliyalik onalar "yaxshi va yomon" kategoriyalarini ko'p ishlatar ekanlar. Masalan, bola "Seni uraman" deganda, amerika-

lik onalar “Bu ishni qila ko‘rma” desa, angliyalik onalar “Odamni urib bo‘lmaydi”, deb javob berganlar.

Bola nutqidagi kamchiliklar ko‘pincha tashqi omillar va irsiyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Bola nutqining buzilishida va undagi kamchiliklarni kelib chiqishiga tashqi omil ham ta‘sir ko‘rsatadi. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan vaqt bola uchun juda muhim hisoblanadi. Bu davrda bola juda qattiq hayajonlanishi yoki qo‘rqishi har tomonlama salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik holatlarda bu yoshdagi bolalar qattiq qo‘rqish va hayajonda yoki epilepsiyaga chalinadilar yoki nutqida buzilish yuzaga keladi. Bu holatga juda ko‘p misollar mavjuddir.

Psixologlardan A.R.Luriya ko‘plab ishlar olib borgan. U nutqidagi kamchilik buzilishlarning bosh miya holati bilan bog‘lab o‘rgangan. Bundan tashqari ko‘pgina psixologlar nutq kamchiliklarini davolashni o‘ziga xos metodlarini ham ishlab chiqqanlar. Ulardan biri shokterapiyani misol qilib olish mumkin. Bunda nutqida kamchiligi bor bo‘lgan bolani kutilmagan holatga solish orqali davolaganlar.

Nutqidagi kamchiliklar bolaning rivojlanishiga albatta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Eng birinchi navbatda bolada atrofdagilardan ajralib qolish va odamoviliklarni kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari ularda o‘z-o‘zlarini baholash ham pasayib ketadi. Ular tengdoshlariga qo‘shilib ketishlariga qiynaladilar. Bu esa o‘z-o‘zidan ularning ruhiyatiga ta‘sir qiladi.

Tayanch iboralar:

bola nutqi, telegraf nutq, vaziyatli nutq, egosentrik nutq, so‘z boylig, nutqini rivojlanishi.

Mustaqil topshiriqlar:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish va nutqiga xos bo‘lgan xususiyatlarini o‘rganish.

Mavzu yuzasidan savollar:








1. Bolalar nutqining xususiyatlari qanday?
2. Bolalar lug‘atini boyib borishini aytib bering.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini xususiyatlarini ta‘riflang.
4. Bolalar nutqida olib borilgan qanday ta‘limotlarni bilasiz?
5. Nutqdagi kamchiliklarni bola psixikasiga ta‘siri nimadan iborat?

NUTQNI TEKSHIRISH

Bola nutqining holati psixolog hamda logoped bilan birgalikda tekshiriladi. Logoped nutqning barcha tomonlarini o'rganadi, psixolog esa nutqning asosiy funksiyalari bo'lgan (ayniqsa nutq buzilishlarida) kommunikativ, boshqarish, bilish funksiyalarini bajarishiga diqqatini qaratadi. Bolaning rivojlanishiga nutq kamchiliklarining darajasi va xarakterini qanday ta'sir etganligini aniqlash muhim.

Nutq kamchiliklari aniqlanganda bolaning boshqalar bilan muloqotiga, bilish faoliyatiga qanchalik ta'sir etganligiga diqqatni qaratish lozim.

Bu qanday o'yinchoq? Qanday shakllardan foydalanilgan?

HISSIYOTLARNING BOLALARDA RIVOJLANISHI

Hissiyot bolalarda ularning ilk yoshlik davrlaridan boshlab rivojlanishga boshlaydi. Chaqaloq bolalarda shartsiz reflekslar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha hissiyotlar tug'ma ravishda berilgan bo'ladi. Masalan, xush yoki noxush hissi, jaholat va g'azab hissi, qo'rqinch hissi kabilar.

Agar chaqaloq bolaning qorni to‘q, tagi quruq va atrof-muhit osoyishta bo‘lsa, jimgina uxlab yotadi. Aksincha, bolaning qorni och yoki tagi ho‘l bo‘lsa, unday paytda u o‘zidagi noxush hissiyotni yig‘lash, injiqlik qilish orqali ifodalaydi. Bola hech vaqt bekorga yig‘lamaydi. Bola yig‘lash orqali o‘zining ayni chog‘dagi hissiy holatini izhor qiladi. Agar bola yana tez-tez yig‘laydigan bo‘lsa, demak, unda hamma narsa joyida emas. Uning ko‘ngli ozayotgani, qorni og‘riyotgani yoki harorati ko‘tarilib boshi og‘riyotgan bo‘lishi mumkin. Ana shunday betoblik holatida bola o‘zini har tomonga tashlab yig‘laydi.

Qattiq tovush va keskin harakatlar bolada qo‘rqinch hissini uyg‘otadi. Bolaning oldiga kelib sekin-astalik bilan erkalab gapirish, qo‘l va oyoqlarini sekingina silash, qo‘lga olib tebratish bolalarda mamnunlik hissiyotini tug‘diradi, u talpinib kula boshlaydi.

Keyinchalik ana shu tug‘ma hissiyotlar asosida birmuncha murakkab hissiyotlar yuzaga keladi. Uch-to‘rt oylik bolalar o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlarni ko‘rishi bilan xursand bo‘ladilar va harakat qilib jonlanib, kulib o‘zidagi hissiy holatni bildiradi. Bola bilan ana shunday yaxshi munosabatga kirishilganda unda jonlanish kompleksi yuzaga keladi. Bola nihoyatda xursand bo‘lib, kattalarga qo‘l-oyqlari va butun vujudi bilan talpina boshlaydi.

Yasli yoshidagi bolalar o‘zlaridagi unday yoki bunday hissiy holatni mutlaqo yashira olmaydilar. Ulardagi har qanday hissiy holatning tashqi ifodasi ro‘y-rost ko‘rinadi. Yasli yoshidagi bolalarning turmush tajribalari ortib borishi jarayonida ularning hissiyotlari ham rivojlanib boradi. Masalan, bir yoshga to‘lib qolgan bola rangli narsalarni, yoqimli musiqa ovozlari yoqtiradigan bo‘ladi.

Yasli yoshidagi bolalarning hissiyotlari juda ham bevosita, ya‘ni tabiiy bo‘ladi. Masalan, agar bir yoshli bolaning onasi qo‘llari bilan yuzini berkitib, yolg‘ondan yig‘lay boshlasa, bola avval onasining yuzlarini ochishga harakat qilib ko‘radi. Buning uddasidan chiqa olmagach, o‘zi ham onasiga qo‘shilib yig‘lay boshlaydi. Onasi yuzini ochib kulib yuborsa, yig‘lab turgan bola xursand bo‘lib ketganidan kula boshlaydi.

Ikki yoshga to‘lib, uch yoshga qadam qo‘ygan bolalarda oddiy axloqiy hissiyotlarning dastlabki alomatlari yuzaga kela boshlaydi. Masalan, ikki yoshli bolaga bironta topshiriq berib, topshiriqni bajorjargandan so‘ng uni “barakalla, juda yaxshi, juda aqlli bolada”

deb maqtab qo'yilsa, bolada mamnunlik hissi yuzaga keladi. Bola bundan keyin ham ana shunday maqtovga sazovor bo'lishga intiladigan bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiyotlari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog'liqdir. Biror ehtiyojning qondirilmasligi bolada noxush (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi.

Bola yosh jihatidan qanchalik kichik bo'lsa, hissiyotlari unda shunchalik hukmronlik qiladi. Lekin hissiyotning hukmronligi o'zgarmas, mutlaqo xarakterga ega emas, u tez o'zgarib turadi. Buning asosiy sababi kichik yoshdagi bog'cha bolalarining hissiyotlari hali bir-biridan keskin ajralmaganligidadir (ya'ni bu sohada differensirovka yuzaga kelmaganligidadir). Shu sababli bolalarning hissiyotlari ba'zan almashinib, ba'zan esa bir-biri bilan qo'shilishib ham ketadi. Masalan, 3 yoshli bolaning kulib turib, to'satdan arzimagan narsaning ta'siri bilan yig'lab yuborishi va, aksincha, yig'lab turgan bolaning birdan kulib yuborishi hech gap emas. Ana shunday paytda bir hissiy holat ikkinchi hissiy holat bilan qo'shilib ketadi.

Katta yoshdagi bog'cha bolalarida hissiyot o'zining yorqin namoyon bo'lishini va kuchliligini yo'qotmasa ham, ancha anglashilgan va barqaror xarakterga ega bo'la boshlaydi. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida murakkab hissiyotlar ham yuzaga kela boshlaydi. Masalan, o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida bunday murakkab hissiyotlardan uyalish hissining yorqin namoyon bo'lishini ko'rish mumkin

Katta yoshdagi bog'cha bolalarida yuzaga kela boshlagan ma'naviy hissiyotlardan biri burch hissidir. Burch hissining yuzaga kelishi ularning xulq-atvorlarini o'zlari mustaqil idora qila boshlaganliklaridan dalolat beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning burch hissi nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan, ya'ni axloqiy tasavvurlarining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Katta odamlar tomonidan berilgan bironta topshiriqni bajarayotganlarida bolalarda mamnunlik, shodlik hislari paydo bo'lsa, biron tartib-qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, qandaydir hadiksirash hissi tug'iladi.

Har narsaga qiziqish kuchli bo'lgani tufayli maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan va ma'lum darajada aqliy zo'r berishni talab etadigan turli didaktik o'yinlarda hamda

ona tili, son-sanoq bo'yicha o'tkaziladigan ta'limiy mashg'ulotlarda ularning intellektual hissiyotlari o'sib boradi. Intellektual hissiyotlarning rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish - qobiliyatlarini o'sishida g'oyat katta ahamiyatga ega. Shu sababli bu yoshdagi bolalarda intellektual hissiyotlarning rivojlanishiga alohida e'tibor bilan qarash kerak. Demak, bolalarga turli savollar berish, fan va texnikaning ajoyib yangiliklari, hayvonlar va ularning xulq-atvorlari, yashash sharoitlari, instinktlari haqida qiziqarli misollar asosida ular bilan suhbat o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoatchilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Shubhasizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rinadigan o'rtoqlik, do'stlik va jamoatchilik hislari bilan katta odamlarda uchraydigan bunday hislar o'rtasida g'oyat katta farq bo'ladi. Bolalar bog'chada har kuni birga o'ynash, birga o'tirish, birga ovqatlanish orqali bir-birlariga o'rganib, inoqlashib, o'rtoqlashib qoladilar. Ular bir-birlarini ko'rganlarida sababsiz bo'lsa ham jilmayishib, xursand bo'ladilar. Bog'chaga o'rgangan bolada bolalar jamoasiga intilish yuzaga keladi. Qiz bolalar ham, o'g'il bolalar ham jamoa bo'lib o'ynashni yoqtiradilar. Ayrim bog'cha bolalari (xususan kichik guruh bolalari) boshqa o'zlariga tengdosh bo'lgan bolalar oldiga kelib: "kel, o'rtoq bo'lamiz", deb taklif qiladilar. Bir-birlari bilan o'rtoq bo'lib olgan bolalar hamisha birga o'ynaydilar, o'yinchoqlarni talashmaydilar, kerak bo'lib qolgan paytda bir-birlariga yordam beradilar, o'rtoqlarini boshqa bolalar ranjitgan paytda himoya qiladilar, o'rtoq bo'lgan bolalardan birontasi yiqilib tushsa, darhol turg'azib qo'yadilar va hokazo.

Biroq shuni aytish kerakki, bolalarning o'rtoqlashishlari qanchalik osonlik bilan maydonga kelgan bo'lsa, shunchalik osonlik bilan buzilib ham ketadi. Masalan, o'rtoqlashgan bolalarda birontasi qo'lidagi o'yinchog'ini berib turmasa, ikkinchi bola "men sen bilan o'rtoq bo'lmayman", deb ketib qoladi.

Bog'cha yoshida estetik hissiyotlar ham anchagina tez rivojlana boshlaydi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida estetik hislar ular biron chiroyli yangi kiyim kiyganlarida juda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday hollarda bolalar g'oyat ko'tarinki ruhda bo'lib, o'zlarining yangi kiyimlarini ko'z-ko'z qilgilari kelib turadi. Ba'zi bir xil gapdon bolalar katta odamlar yangi kiyimini payqay bermasalar, "bugun

dadamlar yangi do‘ppi olib keldilar” yoki “dadamlar yangi botinka olib keldilar” deb ko‘rsatadilar. Kattalar bolaning kiygan kiyimini maqtasa u juda xursand bo‘lib ketadi.

Umuman chiroyli kiyim, chiroyli o‘yinchoq, ozoda xona maktabgacha yoshdagi bolalarda ko‘tarinki ruh, yaxshi kayfiyat yuzaga keltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik hissiyotlarini tarbiyalash va o‘stirishda bog‘chada o‘tkaziladigan musiqa mashg‘ulotlar, badiiy kitoblar o‘qib berish, tabiat manzaralari bilan bevosita tanishtirish va rasm chizish mashg‘ulotlarining roli kattadir. Estetik tarbiya berish yuzasidan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda estetik zavq uyg‘otish bilan cheklanib qolmay, bolalarni estetik baho berishga ham o‘rgatish lozim. Ana shunda bolalar go‘zallik yaratishga intiladigan bo‘ladilar, ya‘ni ularda estetik odatlar tarkib topa boshlaydi. Bolalarda yoshlikdan boshlab nafis didni tarbiyalash kerak. Buning uchun bolalarga har jihatdan (kiyinish, yurish, turish, muomala kabi) kattalarning o‘mak bo‘lishlari juda katta rol o‘ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda yuksak axloqiy hislarning paydo bo‘lib, rivojlanishi asosan ularning katta kishilar bilan qiladigan o‘zaro munosabat va muomalalariga bog‘liqdir. Katta kishilar (birinchi navbatda ota-onalar va tarbiyachilar) odob doirasidan chetga chiqmaydigan xush muomala, yolg‘on gaplarni mutlaqo ishlatmaydigan, sof vijdonli bo‘lsalar, bolalar ham ularga taqlid qilib xuddi shunday olijanob his-tuyg‘ularga ega bo‘lib boradilar.

Bolalarda his-tuyg‘ularning taraqqiyoti haqida gapirar ekanmiz, shuni ham aytib o‘tish lozimki, muhabbat, rahmdillik, nafratlanish va qo‘rqinch hislarining paydo bo‘lishi ham bolalar hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Bunday his-tuyg‘ularning paydo bo‘lib rivojlanishi ham asosan bolalarning kattalar bilan qiladigan o‘zaro munosabatlari-ga bog‘liq. Katta odamlar uy va yovvoyi hayvonlarga mehr-muhabbat hamda rahmdillik bilan munosabatda bo‘lishga doir hikoyalarni turli yoshdagi bolalarga o‘qib berar ekanlar, buning bilan ular bolalarda turli jonivorlarga nisbatan mehr-muhabbat va rahmdillik hissini tarbiyalaydilar. Chumolilar, qushlar, tipratikanlar, toshbaqalar, qurbaqalar haqida suhbatlar o‘tkazganlarida ham bunday hayvonlarning foydali tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatish orqali ularda mehribonlik hislarini uyg‘otish mumkin. Hamma bolalar qorong‘idan, bir joyda yolg‘iz qol-

ishdan qo'rqadilar. Shuning uchun bolalarni qo'rqish hissidan saqlash kerak. Lekin ba'zi bir ota-onalar, albatta tushunmasliklari orqasida qo'rqinch hissini bolalarda sun'iy ravishda hosil qiladilar. Hamma bolalar odatda uxlashni yomon ko'radilar. Shuning uchun ko'pchilik bolalar juda tajanglik, urush-janjal bilan o'ringa yotadilar.

Qat'iy kun tartibi asosida o'sayotgan bolalar osonlik bilan uxlaydilar. Ba'zan ota-onalar yosh bolalarni uxlatishda qo'rqitish metodidan foydalanadilar. Ular ana "ola bo'ji" kelayapti yoki "bobov" kelayapti, seni yeb ketadi, deb vahima uyg'otib bolaning ko'zlarini yumishga majbur qiladilar. Hatto eshik yoki derazaning orqasidan dahshatli ovoz chiqarib, bolalarni qo'rqitadilar. Ana shunday qo'rqitish orqali uxlatadigan bola tinch uxlamaydi, uyqusida qo'l-oyoqlari titrab, alahlab chiqadi. Bola bir narsadan haddan tashqari qattiq qo'rqsa, duduq (ya'ni tutilib gapiradigan) bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun bolalarda qo'rqish hissini sun'iy ravishda yuzaga keltirish juda zararlidir.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari asosan erkin o'yin jarayonida va turli mashg'ulotlarda rivojlanib boradi. Bolalarning yoshlari ulg'aygan sari ular o'z his-tuyg'ularini o'zlari boshqara oladigan bo'ladilar. Bolaning intellektual taraqqiyotida barcha axloqiy va estetik hislarining sifatli rivojlanishi katta ahamiyatga egadir.

Tayanch iboralar:

bola hissiyoti, hissiyotlarini o'sib borishi, manaviy-axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalarda hislarni o'sib borishi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ularini namoyon bo'lishi.
3. Bolalarda axloqiy-ma'naviy hissiyotlarni namoyon bo'lishi.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual hislarni ortib borishi.
5. Bolalarda estetik hislarni rivojlanib borishi.
6. Bolalardagi salbiy his-tuyg'ular va ularni bartaraf etish.

IRODAVIY HARAKATLARNING BOLALARDA RIVOJLANISHI

Irodaviy harakatlar ma'lum maqsad asosida amalga oshiriladigan, to'la anglangan harakat bo'lgani uchun bunday murakkab harakatlar hali chaqaloq bolalarda bo'lmaydi. Chaqaloq bolalardagi aktivlik asosan ixtiyorsiz, reflektor harakatlardan iborat bo'ladi. Chaqaloq bolalar o'zlarining bironta ham harakatlarini idora qila olmaydilar. Masalan, kichkina bola o'ziga yoqqan yoki uni qiziqtirgan biron narsani ko'rgan paytida juda ko'p betartib (qo'l-oyoqlari, boshi bilan) harakatlar qila boshlaydi. Lekin harakatlarning birontasi ham ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lmaydi.

Bola uch-to'rt oylik bo'lgandagina o'zining boshini tik holatda ushlay oladigan bo'ladi. Ana shu davrdan boshlab bolaning ixtiyoriy harakatlari rivojlana boshlaydi. Bola 5—6 oylik bo'lgach tanasining muvozanatini saqlab bemalol o'tira oladilar, qo'llari bilan o'z atrofidagi narsalarni ushlab ko'radigan bo'ladi. Ana shu tariqa bolaning ixtiyoriy harakatlari rivojlana borib, bola bir yoshga to'lgach, o'z harakatlarini ixtiyoriy ravishda idora qilib, yura boshlaydi.

Yasli yoshidagi bolalarning irodaviy harakatlarini rivojlantirishda nutqni egallash nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola nutqni egallab olgach, u kattalar bilan nutq orqali munosabatga kirishadi, ularning topshiriqlarini quvonib bajaradi. Masalan, kichkina bolalar katta odamlarning "bu yoqqa kel", "mana bu yerga o'tir", "qo'lingni ber" kabi topshiriqlariga bemalol tushunib, sidq dildan bajaradilar.

Yasli yoshida bolaning ixtiyoriy harakatlari tez sur'at bilan rivojlana boshlaydi. U o'zini qiziqtirgan narsalarini olib ushlab, uni aylantirib har tomonlama timirskilab ko'radi. Bola shu davrdan boshlab kattalarga taqlid qilgan holda ixtiyoriy irodaviy harakatlarni bajara boshlaydi. Shuning uchun ham ularning irodaviy harakatlarini to'g'ri yo'lga solish, rivojlantirib borish kattalar zimmasiga yuklatiladi.

Irodaviy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan asosiy ixtiyoriy harakatlar bog'cha yoshidan boshlab yuzaga kela boshlaydi. Lekin kichik yoshdagi bog'cha bolalarida hali ixtiyorsiz harakatlar ustunlik qiladi. 3 yoshli bolaning ko'pgina harakatlari uning tafakkuriga emas, balki hissiyotiga tobe bo'ladi. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalar hali biron-bir ishga o'zlarini majbur etishni uddasidan chiqa olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar irodaviy harakatlarini rivojlanishida ular nutqining tobora o'sib borishi juda katta ahamiyatga ega. Tarbiyachilar va ota-onalar turli yoshdagi bolalarga og'zaki sur'atda turli xil vazifalarni topshiradilar.

Bolalar ayni chog'dagi o'yinlari yoki boshqa qilayotgan ishlarini qo'yib, kattalarning topshirgan vazifalarini bajarishlari kerak. Ana shunday topshiriqlar berish orqali bolalarda ixtiyoriy harakatlarni o'stirib borish mumkin. Lekin og'zaki topshiriqlarni maktabgacha yoshdagi hamma bolalar ham bir xilda bajaravermaydilar. Masalan, kichik yoshdagi bog'cha bolalari, ya'ni uch yoshli bolalar og'zaki berilgan topshiriqlarni xotiralarida uzoq vaqt saqlab turolmaydilar. Ular topshiriqni tezda unutib qo'yib, uning o'rniga o'zlari xohlagan ish bilan shug'ullanadilar. Bunday holat ularni tashvishlantirmaydi ham. Nutq asosan o'rta va katta guruh yoshidagi bolalar irodasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yoshda bolalar topshiriqlarni ixtiyoriy ravishda bajarishda so'z orqali tushuntirib berilgan usullarga rioya qilishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy harakatlar rivojlanishi bilan birga irodaviy jarayonlar ham ko'rina boshlaydi (maqsad qo'yish, yo'l-yo'riq hamda vositalarni belgilash, qarorga kelish va qarorni ijro etish). Lekin kichik yoshdagi bog'cha bolalarida bunday irodaviy jarayonlar hali aniq emas.

O'tkazilgan tekshirishlarning ko'rsatishicha, 3 yoshli bolalarning harakatlari qo'yilgan qat'iy bir maqsaddan kelib chiqmaydi. Aksincha, biror maqsad harakat davomida belgilanadi. Ularning maqsadlari ham juda tez o'zgarib turadi. Shuning uchun ular ko'pincha boshlagan ishlarini oxiriga yetkazmay, bir ishdan ikkinchi bir tamomila boshqa ishga o'tib ketaveradilar. Buning asosiy sababi shundaki, kichik yoshdagi bog'cha bolalarining ixtiyorsiz harakatlarida hissiyot juda katta o'ringallaydi. Bu yoshdagi bolalar o'zlarida tug'ilgan bir talay hissiyotlar ta'siri bilan bir maqsadni belgilaydilar. Agar bolalarning oldilariga qo'yilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uyg'otsa, bunday paytda bolalar o'zlariga xos ravishda iroda kuchi va qat'iylik ko'rsatishlari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar irodaviy harakatlarining rivojlanishida o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin bolalar irodasini o'stiruvchi va mustahkamlovchi omillardan biridir. Bolalar o'zlarining turli-tuman

o'yinlarida o'z oldilariga ma'lum maqsadlarni qo'yadilar, ba'zan uchrab qolgan to'sqinliklarni yengib, ko'zlagan maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda rollarga bo'linib o'ynaydigan hamda qoidali o'yinlarning ahamiyati g'oyat kattadir. O'yin qoidalariga rioya qilishda o'z iroda kuchini ishga solishga to'g'ri keladi, chunki bola o'yin paytida o'zining harakatlarini o'ynovchilarning maqsadlari bilan moslashtirishi kerak. Kichik guruh bolalari esa buning uddasidan chiqa olmaydilar, ya'ni o'yin qoidalariga to'la rioya qila olmaydilar. Shuning uchun ular qoidali o'yinlarga qatnashganlarida juda sodda rollarni bajaradilar. Masalan, "poyezd" o'yinida faqat yo'lovchi rolini o'ynaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda ularni mehnat mashg'ulotlariga jalb qilishning ham ahamiyati kattadir. Bolalarga biron mehnat topshirig'i berilsa, ular ayni chog'dagi o'zlarining mayl-xohishlarini yengib, mehnat topshiriqlarini o'z vaqtida bajarishga intiladilar. Ular ko'pincha hatto o'ynab turgan o'yinlarini ham to'xtatib, topshiriqni bajarishga kirishadilar. Bu esa ularda irodaviy harakatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalardagi irodaviy harakatlarni rivojlantirish maqsadida ularni o'z-o'ziga xizmat qilish, supurish-sidirish, guruhda navbatchilik qilish, poliz ekinlarini, gullarni parvarish qilish va tabiat burchaklarida navbatchilik qilish kabi mehnat turlariga jalb qilish zarur. Bunda faqat mehnat topshiriqlari berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning bu topshiriqlarni qanday bajarayotganliklarini ham sistemali ravishda tekshirib, nazorat qilib turish lozim. Ana shunday qilgandagina bolalarda javobgarlik hissi yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning biron maqsadni aniqlash va biron qarorga kelishlarida motivlar kurashi ham ko'rinadi. Masalan, kichik yoshdagi bog'cha bolasiga ikkita o'yinchoqni ko'rsatib, shulardan birini tanlab olish taklif etilsa, u darrov tanlab ololmaydi. U qo'lini goh u o'yinchoqqa, goh bu o'yinchoqqa cho'zadi. Bunday holda juda sodda bo'lsa ham motivlar kurashi yuzaga keladi, bola qaysi bir o'yinchoqni olish haqida qarorga kelolmaydi. O'rta va katta guruh bolalar esa biron o'yin o'ynashni tanlashda (ya'ni o'yin maqsadini aniqlashda) anchagina tortishadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy motivlarning ta'siri bilan bir qator iroda sifatleri, ya'ni qat'iylik, mustaqillik, tashabbuskorlik, da-

dillik kabi sifatlar tarkib topa boshlaydi. Lekin maktabgacha yoshdagi bolalar irodasining bunday sifatlari katta odamlarnikidek mustahkam, ya'ni xarakter xislatlariga aylanib ketgan darajada bo'lmaydi. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ko'rinadigan ba'zi iroda sifatlari, ya'ni qat'iylik, mustaqillik kabilar xarakter kasb etadi. Bu yoshdagi bolalar bajarayotgan ishlarida biron to'sqinlik uchrab qolsa, o'zlari mustaqil ravishda bartaraf qilishga urinadilar. Lekin bu ishning ular uchun og'irlik qilayotganligi sezilib turadi. Shu sababli bunday to'sqinliklar chiqib qolgan paytda ular kattalarni yordamga chaqiradilar. Uzoqroq davom etadigan to'sqinliklarni yengishga maktabgacha yoshdagi bolalarning chidamlari yetmaydi. Bajarayotgan ishlari ularni juda qiziqтира, ular uzoq davom etadigan to'sqinliklarni ham chidam bilan yengishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, bog'cha yoshida bolaning irodaviy harakatlari har tomonlama rivojlanib, mustahkamlanib boradi. Bolalar irodasini rivojlantirib borish ularni maktabga tayyorlash shartlaridan biridir. Maktabdagi o'qish jarayoni dastavval bolalardan irodaviy (ixtiyoriy) harakatlarni va iroda sifatlarning anchagina rivojlangan bo'lishini talab qiladi. Agar bolalar o'z xatti-harakatlarini o'zlari idora eta olmasalar, maktabning qat'iy tartib-qoidalariga rioya qila olmaydilar. Natijada ularga sistemali bilim berish mumkin bo'lmay qoladi. Shuning uchun tarbiyachilar va ota-onalar bolalarga har xil topshiriqlar berish orqali ularning irodalarini tarbiyalab borishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarning malaka va odatlari ham rivojlanib boradi. Dastavval ilk yoshdagi bolalarda (chaqaloqlarda) malaka ham, odat ham bo'lmaydi. Malaka va odatlar odamning individual hayoti davomida, turmush tajribasining ortishi bilan tarkib topib boradi. Bolada 5–6 oylik bo'lganda o'tirish, yoshiga to'lgach yurish malakasi, uch yoshga yaqinlashgach esa mustaqil kiyinish, yechinish, ovqatlanish malakalari hosil bo'lib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda juda sodda bo'lsa ham ayrim mehnat malakalari, ya'ni guruhni ozoda va tartib bilan yig'ishtirish, gullarni parvarish qilish, idish-tovoqlarni yuvish va artish malakalari tarkib topa boshlaydi. Bog'cha yoshida bolalarda madaniy gigiyena odatlari, ya'ni yuz-qo'llarini yuvish, ozoda kiyinish hamda ijobiy, axloqiy odatlar tarkib topa boshlaydi. Bunda kattalarning ularga o'rnak ko'rsatishlari juda katta ahamiyatga egadir.

Katta yoshdagi bog'cha bolalarida bog'chada o'tkaziladigan sistemali mashg'ulotlar davomida ayrim ta'lim ishlari, ya'ni o'qish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan malakalar tarkib topadi. Bola rasm chizish mashg'ulotlarida qalamni to'g'ri ushlab malakasini orttiradi. Son-sanoq va ona tili mashg'ulotlarida birdan o'ngacha sanash va boshqa malakalariga ega bo'la boradilar. Ana shunday malakalarni tarkib topishda mashqning roli kattadir. Ta'limiy mashg'ulotlarda tarbiyachi har bir harakatning qanday bajarilishini oldin o'zi ko'rsatishi va undan so'ng bolalardan talab qilishi kerak. Mashq qilish orqali bolalarda juda elementar hisoblash, yozish va o'qish malakalari hosil qilinadi.

Umuman, malaka va odatlarning inson hayotidagi roli bag'oyat katta. Buni biz maktabga bog'chaga to'g'ri uydan kelgan bolalarning taraqqiyot darajalari o'rtasidagi farqdan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Tayanch iboralar:

bola irodasi, iroda harakatlari, iroda tarbiyasi, ijtimoiy motivlar, mehnat malakalari.

Mustaqil topshiriqlar:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish va iroda jarayonlarini o'rganish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalarda ixtiyoriy harakatlarni ustunligini sabablari nimadan iborat.
2. Bolalarda iroda harakatlarini rivojlanib borishi qanday harakatlarda kuzatiladi.
3. Ta'lim jarayonida irodani rivojlanib borishi.
4. Mehnat faoliyati orqali qanday bolalarda iroda sifatleri rivojlanib boradi.

DIQQATNING BOLALARDA RIVOJLANISHI

Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko'rinmasa ham, oradan sal o'tmay, ya'ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyorsiz diqqat alomatlari yaqqol ko'rinish boshlaydi. Demak, bolaning bir oy-

lik davrida uning diqqati turli kuchli qo'zg'atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug'lik kabi) beixtiyor ravishda o'ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga quloq soladigan (shaqildoqning tovushiga ovunadigan) bo'la boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalb qila boshlaydi. Bolaning ko'z o'ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo'lsa, bola unga shunchalik ko'p e'tibor qaratadi.

Ilk yoshdagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o'yinchoq bersangiz u o'yinchoqni juda qiziqib ko'ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o'yinchoqni ko'rsatsangiz, birinchi o'yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Yasli yoshidagi bolalar diqqatining beqarorligi fiziologiya nuqtayi nazaridan ularda hali tormozlanish jarayonlarining kuchsizligi bilan bog'liqdir. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayonidan kuchsiz bo'lgani tufayli qo'zg'alish jarayonining keng yoyilib ketishini to'xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga osongina chalg'ib ketaveradi.

Yasli yoshidagi bolalar diqqatining g'oyat beqaror bo'lishi turmush tajribalarining juda ozligi bilan ham bog'liqdir. Bolalarga hamma narsa yangilik bo'lib tuyulaverganidan ularning diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg'ib ketavaeradi. Ana shu nuqtayi nazardan bola ko'z o'ngidagi narsaning o'zi bolaga juda qiziq tuyulgani uchun ham diqqati chalg'ib ketadi. Masalan, N. M. Menchinskayaning hikoya qilishicha bola (1 yashar-u 8 oylik) echki va uning bolalari haqidagi ertakni zo'r qiziqish bilan tinglaydi. Bo'ri kelib eshikni taqillatgani hikoya qilinganda bola bo'rining qanday taqillatganini ko'rsatmoqchi bo'lib, devorga tap-tap etib turadi, lekin ba'zan taqillatishga shu qadar mahliyo bo'lib ketganidan ertakni tamomila unutib qo'yadi.

Yasli yoshidagi bolalarda diqqatning bo'linuvchanligi juda zaif, ko'lami esa tor bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko'zlariga yaqqol ko'rinib turgan bir narsaga qarata oladilar. Yasli yoshidagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi katta kishilar bilan muomalada bo'lishdan tashqari ularning ko'rsatmalarini bajarish imkoniyatini ham beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kichik yoshli bolalar kattalarga qarashishni, imkoniyatlari boricha ularning mehnatlariga aralashishni juda yoqtiradilar. Kattalarning iltimos va topshiriqlarini bajonu dil ado

etadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid oddiy yumushlarni qiziqib bajaradilar, ota-onalarining uy-xo'jalik ishlarida qarashishga harakat qiladilar. Mana shularning hammasi, diqqatni ma'lum darajada to'plash va muayyan bir maqsadga qaratishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi.

Bog'cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'lab borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi.

Bog'chada jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo'ysunish, qoidali o'yin shartlarini bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam va qunt bilan ado etish kabi hollar maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yinning roli juda kattadir. Chunki turli o'yinlar bolalarning diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni qo'yishlariga yordam beradi. O'yinlarning qanday qoidalar asosida o'ynashlarini o'zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O'yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o'z harakatlarini o'yin qoidalariga moslashtirishga va o'yinda qatnashuvchi o'rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga tirishadilar. Ana shunday o'yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham aktiv ishtirok etadi. Binobarin, bolalarning o'yin faoliyatlari ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlana boshlashi uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog'liq, shuning uchun ham ko'pincha bolalar diqqatning bu turini o'zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan rivojlantirib borish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib, yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o'rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o'tira olishlaridan, ba'zi o'yinlarni zerikmay soatlab o'ynay olishlaridan, ta'limiy mashg'ulotlarda chidam bilan o'tira olishlaridan ko'rishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog'chadagi sharoitgagina emas, balki ko'p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va

bir xil darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolada oilada tegishli nazorat ostida bo'lmashligi yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi tufayli o'zlarining xatti-harakatlarini, xulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o'tirolmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo'ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo'lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg'ul bo'la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya'ni ma'lum muddat davomida bir narsaga yo'naltira olmaslik mashg'ulotlarda intizom buzish va boshqalarga xalaqit berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo'lishlari (har xil mas'uliyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini hamda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur.

Bog'cha yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqatning ko'lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko'lami katta odamlarnikiga nisbatan hali ham juda tor bo'ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko'lami ayni vaqtda 5–6 narsani (bir-biri bilan ma'naviy bog'lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig'dira olsa, maktabgacha yoshidagi bolalar diqqatining ko'lami ayni bir vaqtda 1–2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o'rta va katta guruh bolalari 2 ta) sig'dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo'lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqa olmaydilar. Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to'kib-sochib olib keladi. Bu uning uquvsizligi, bo'shanligi yoki anqovligidan emas, balki o'z diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo'la olmasligidandir. Bola o'zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to'kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo'la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi.

Diqqat ko'laming kengligi aniq idrok qilish bilan bog'liq bo'lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayniqsa bolalarning o'qish faoliyatlari uchun zarur. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshdagi davrida barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda, asosan, ekskursiyalar, insenirovkalar, har sohaga doir rasmlar bilan o'tkaziladigan suhbatlar katta rol o'ynaydi. Maktabdagi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan ixtiyoriy diqqat bog'chada didaktik mashg'ulotlar, hikoyalar o'qib berish davomida rivojlantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati ko‘pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli to‘plangan, ya‘ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bolalarda diqqatning bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘lamining torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshita beradilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko‘lami hikoyaning mazmunini va qahramonlarini birdaniga sig‘dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va ertaklarni qayta-qayta aytirib eshita beradilar.

Shunday qilib, bolaning maktabgacha yoshdagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ortiqroq rivojlanadi. Lekin bolaning bog‘cha yoshida faoliyatlarining va xususan didaktik hamda mehnat mashg‘ulotlarining sistemali tarzda ortib borishi ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma‘lumki, maktabdagi ta‘lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun bog‘chada turli majburiy mashg‘ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta‘lim jarayonida amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar:

bola diqqati, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqati, diqqat ko‘lami, diqqatni rivojlanishi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalar diqqatini o‘ziga xosligi qanday?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini xususiyatlari.
3. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat xususiyatlarini aytib bering.
4. Bolalardagi ixtiyoriy diqqatni rivojlanib borishi.

Diqqatni rivojlantiruvchi mashqlar

Bo‘g‘irsoqqa uyga qaytishga shunday yordam berginki, uni hech bir hayvon tuta olmasin. Buning uchun qalamni qog‘ozdan uzmasdan, hamda hech bir hayvonga tegib ketmaydigan qilib bo‘g‘irsoqdan to uni

uyigacha chiziq chizgin. Agar chizig'ing biror hayvonga tegib ketsa, uni tutib olishadi.



BOLALARNI MAKTABGA PSIXIK TAYYORLASH VA MAKTAB MUHITIGA MOSLASHTIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy o'sishda anchagina o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bola hayotining ikkinchi va uchinchi yilida sezilarli darajada o'sadi. Birinchi yili uning bo'yi 50 sm dan 75 sm ga yetadi, ikkinchi yili bo'yi 10-12 sm, uchinchi yili 7 sm o'sadi. Bu yoshda bolaning butun skeleti to'la qotib suyak holiga kelmaydi. Shuning uchun bola karavotda yotganda, umurtqa suyaklari to'g'ri holda bo'ladi. Bolaning skleti bog'cha yoshining oxirlariga kelganda qota boshlaydi va umrtqaning barcha tog'aylari bir-biriga mustahkamlana boshlaydi. Bola ikki yoshga borganda, liqildoqning ustki qoplanishi

tugallanib bosh suyak choklari vujudga keladi. Yurak faoliyati yaxshilanib, u ancha uyg'un va bir tekis ishlay boshlaydi, lekin ikki yoshdagi bolaning tomiri hali ancha ko'p – minutiga 120 marta uradi (yetti yoshli bolaning tomiri 90 marta, katta yoshdagi kishining tomiri esa 72 marta uradi). Bog'chagacha yosh davridagi bolaning o'pkasini hajmi kichik bo'lganligi sababli ularda nafas olish va chiqarish ancha tez bo'ladi. Shuning uchun ular mumkin qadar ko'proq ochiq havoda bo'lishlari, xona har doim toza havo bilan ta'minlanib turilishi kerak. Ana shu davrida nerv sistemasining takomillashuvi davom etadi. Uch yoshlarga borganda, bola miyasining og'irligi chaqaloq miyasining og'irligiga qaraganda (chaqaloq -360gr) uch barobar ortadi, eng muhimi, miyaning ichki tuzilishi murakkablashadi. Bola 3 yoshda bo'lganida, sut tishlari chiqib boladi, bu yosh davrida bolada 20ta tish bo'ladi va u turli ovqatni iste'mol qila oladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda o'ziga xos ehtiyojlar paydo bola boradi. Ehtiyoj odamning hayot kechirishi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan narsalardir. Bolaning jismoniy va aqliy o'sishi bilan uning ehtiyojlari doirasi ham o'sib boradi. Bog'chagacha yoshdagi bolalar serharakatlilik bilan ajralib turadi. Ular to'xtovsiz yuradilar, yuguradilar, sakraydilar, xilma-xil harakatlar qiladilar. Kuzatishlar bu yoshdagi bolalarda xilma-xil harakatlarga bo'lgan ehtiyojlar sezirarli darajada ortib borishini isbotlaydi. Ular rasm asosida bajariladigan ay'ni bir xil harakatlarni takrorlashni yaxshi ko'radilar (g'altak aravachani u yoq bu yoqqa itarib yuradilar, eshikni ochib yopaveradilar, kattalarni ham ayrim "mashqlarini" o'zlari kabi takrorlashga undaydilar). Bola bu xil bir turdagi harakatlarni takrorlash bilan ularni takomillashtiradi, aniqlay boradi. Bola bu davrda predmetlarni quruq kuzatmaydilar shu predmetning sifat va xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladilar. Buning uchun u narsalarning u yoq – bu yog'ini qaraydilar, tovushlarga quloq soladilar, narsalarni tegib, hidlab, yalab ko'radi. Bu faoliyat orqali predmetlarni sezadi va shu asosida tevarak-atrofdagi olamni bilib boradi. Predmetlarga va o'yinchoqlarga tegish orqali vujudga keladigan turli sezgilar, muskul harakatlari asosida bola bu predmetlarni va o'yinchoqlarni miyasida aks ettiradi va bu I.M. Sechenovning ta'biri bilan aytganda, "dunyoni paypaslab sinab ko'rish" quroli bo'lgan sezgilar o'sayotgan bolaning borliqni bilib olishida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolaning maktabgacha yoshda bo'lgan davrining xarakterli xususiyati ona tilini aloqa vositasi sifatida o'zlashtirish va nisbatan erkin va

aktiv harakatchanlikdan iboratdir. Bola harakatlarini kuzatish 3-4 yoshli bolaning kuniga u yoq bu yoqqa yurib, o'rta hisobda 1,5 km, 5-6 yoshli bolaning 2,5 km, 7 yoshli bolaning esa 4 km masofani bosib o'tishi mumkinligini ko'rsatadi. Bolaning jismoniy o'sishi bir yoshdan ikkinchi yoshga o'tganda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bo'yining o'sishi 50 sm dan 70-75 sm gacha, ya'ni yiliga 20-25 sm ga uzayib borsa, 7 yoshga ya'ni maktabgacha yoshning oxiriga borganda esa, bo'yining o'sishi 115-121 sm ga yetadi. Bunda tana vaznining o'sishi nisbatan sekin oshadi. Bu davrga kelganda, bola bo'yining o'sishi bir tekis bo'lmaydi. Masalan, bolaning 2-3 va 5-6 yoshligida bo'yining o'sishiga har yili 8-10 sm qo'shilib tursa, 4-5 yoshida bu qo'shinish atigi 4-5 smga to'g'ri keladi. Shunday qilib, bola organizmi o'sishining kichik, o'rta va katta, maktabgacha yoshidan iborat uch davrga bo'linishi aniq ko'zga tashlana boshlaydi. Bola 5-7 yoshga to'lganda, qalqonsimon bezlarning aktivligi ayniqsa oshadi. Bu bezlarning ta'sirida organizmda oksidlanish jarayoni kuchayib, modda almashinishi yaxshilanadi. Chunki shu yoshdagi bola jismoniy o'sishda davom etadi. Maktabgacha yoshda skelet suyakka aylanib, jadallik bilan qota boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning umurtqa pog'onasi egiluvchan - elastik boladi, shuning uchun ham bolalar kattalar qila olmagan harakatlarni qila oladilar. Bolaning bosh suyagi ayniqsa 6-7 yoshlarda intensiv ravishda kattalashadi. Bola 6-7 yoshga to'lganda, o'pkaning hajmi kattalashadi. 7-8 yoshga borganda, yurak faoliyatini idora etuvchi nerv apparatlarining rivojlanishi tugallanadi va yurak ancha ritmik va to'g'ri ishlay boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy tomonidan o'sishi uchun uning organizmining turli ta'sirlarga bardoshli bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Bola organizmining sovuq va nam havoga, suv va quyosh nuriga chiniqishi muhimdir. Bola organizmining chiniqishi nafas olishiga, qon tarkibiga va qon aylanishiga, nerv sistemasiga va boshqa organlariga ijobiy ta'sir etib, bolaning jismoniy o'sishini yaxshilaydi. Bundan tashqari, organizmning chiniqishi orqali bolaning iroda va xarakteri o'sadi, bola qiyinchiliklarni oson yenga oladi – bu juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi va erkinligi rolli o'yinlarda namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi va idrokning o'sishi tezlashadi, ranglarni bir-biridan ajrata olish, nomlarini ayta olish qobiliyati o'sa boshlaydi. 3-4 yoshli bolalar oq va qora, qizil va ko'k ranglarni aniq ajrata oladilar. 5-6 yoshli bola-

lar sariq, yashil, ko'k zarg'aldoq va binafsha ranglarni, 7 yoshli bolalar esa rang tuslarini ajrata oladilar. 3-4 yoshli bolalarda fazoni idrok qilish qobiliyati ham yaxshi yetilmagan bo'ladi, kattalar rahbarligida idrokning bu turi ancha to'g'ri va aniq bo'la boradi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar fazoda uzoqlashgan predmetlarga qaraganda, bu predmetlarning shakllarini yaxshiroq idrok qiladilar. Maktabgacha yoshda vaqtni idrok qilish ham o'sadi. 4 yoshli bolalar "bugun" degan so'zni to'g'ri tushunib ishlatsa, 6-7 yoshli bolalar haftadagi kunlarni to'g'ri ko'rsatib, oyni va yil fasllarni to'g'ri aytib beradilar. Bu yoshdagi bolalarda kuzatuvchanlik xislati o'sa boshlaydi, bolalar ko'p savollarni beradilar va ularning kuzatishi tobora mazmunli bo'lib boraveradi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalar xayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan: bog'cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar. Ana shunday mashg'ulotlar bolaning xayolini o'sishiga faol ta'sir qiladi. Bu yoshdagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir omillardan yana biri ertakdir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertakdagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari ko'p jihatdan ularning qondirilishi va qondirilmaslari bilan bog'lanadi. Bu ehtiyojlarning qondirilmaslari sababli bolalarda noxushlik, norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'atadi. Katta bog'cha yoshdagi bolalarda burch hissi – "nima yahshi-yu" "nima yomonligini" anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron bir topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi. Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoatchilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hisslarning namoyon bo'lishini, ayniqsa ularning chiroyli, yangi kiyim bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

Bola 7 yoshdan 11 yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi, o'pkasining hajmi ancha tekis rivojlanadi. Bu yoshdagi bolaning suyak sistemasi tarkib topish bosqishida bo'ladi. Suyak sistemasida hali tog'aysimon to'qimalar ko'p bo'ladi. Buni e'tiborga olib o'quvchilarning gavidani to'g'ri tutishlari, to'g'ri o'tirishlari haqida doimo g'amho'rlik qilish kerak. Yurak muskullari avval boshda hali ancha kuchsiz bo'ladi, tez o'sadi. Miyaning og'irligi kichik maktab yoshidagi davrda deyarli katta yoshli odam miyasining og'irligiga qariyb baravar keladi va o'rtacha hisobda 1280 g dan (7 yoshda) 1400g gacha (11 yoshda) boradi.

Maktabga kirish oldidan bola, qoidaga ko'ra, o'z hayotining eng muhim davriga, ya'ni maktab tomonidan qo'yiladigan turli-tuman talablarni bajarishga, boshqacha qilib aytganda, ta'lim olishga ham jismoniy, ham psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ta'limga psixologik jihatdan tayyorlik ham obyektiv, ham subyektiv tomondan qaraladi. Bola maktab ta'limiga dastavval psixologik jihatdan *obyektiv* ravishda tayyor, ya'ni bola o'qishni boshlash uchun kerakli psixologik rivojlanish darajasiga ega. Bu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi va sofligi, uning qiziquvchanligini va xayolining yorqinligi hammaga ma'lum. Maktab yoshiga yetgan bolaning diqqati nisbatan uzoq muddatli va barqarordir. Bolaning xotirasi ham yetarli darajada rivojlangan. U o'zini xususan hayratda qoldiradigan va o'zining qiziqishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan narsalarni osonlik bilan mustahkam esda olib qoladi. Etti yoshli bolada yaqqol obrazli xotira nisbatan yaxshi taraqqiy etgan, ammo shuning bilan birga, so'z-mantiq xotirasining rivojlanishi, ma'nosiga tushunib esda olib qolishning samaradorligi ortadi. Bolaning nutqi maktabga kirish paytiga kelganda yetarli rivojlangan bo'ladi. Bola eshitganlarini yetarli darajada keng tushunadi, o'z fikrlarini izchillik bilan izhor qila oladi. Bolalar maktabga kirish davriga kelib, ma'lum qat'iylikka ega bo'ladilar, o'z oldilariga ancha uzoq qo'ya oladilar va bu maqsadlariga erishadigan bo'ladilar. Yetti yoshli bola o'z hissiyotlarini boshqarish tajribasiga ega, u o'z-o'ziga, o'z harakatlari va qilmishlariga ham baho berish tajribasiga ega. Bularning hammasi maktab ta'limiga tayyorlikning muhim shartlaridandir.

Bolaning maktabga psixologik tayyorlikning boshqa tomoni, ya'ni *subyektiv* tomonini ham ta'kidlab o'tish kerak. Odatda, yetti yoshlik bola uchun maktabda o'qish xohishi va intilishi, katta odamlar bilan

yangi shaklda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlanish xosdir. Bola ma'lum toifadagi katta yoshli kishilarga masalan: o'qituvchilarga, maxsus ta'lim-tarbiyaviy vazifalar topshirib qo'yilganini tushunadi va bajonu- dildan ularning barcha ko'rsatmalarini yaxshilab bajarishga tayyor bo'ladi. Bu borada ham individual farqlar juda katta. Bunday bolalar maktabga uchib borishga tayyorlar, o'qish boshlangunga qadar bo'lgan kunlarni sanab yuradilar, sentabrdan ancha oldin hadeb o'quv qo'llanmalari va maktab formasini tayyorlab qo'yish haqida iltimos qila berib, ota-onalarini tang qiladilar. Boshqa bir bolalar maktabga jon- dilidan boradilar, lekin vazminlik va ehtiyotkorlik bilan boradilar. Ba'zan qat'iy ravishda "yo'q, oyi, menga gapirib ovora bo'lmang. Men maktabga bormayman to pensiya yoshimgacha bog'chada qolaverman"- deydigan bolalar ham bo'ladi. Bolalar bunday gaplarni o'zlari o'rganib qolgan bolalar jamoasini yaxshi ko'rganliklari natijasida emas, balki kattalarning bolalarni o'ylamay (sen hali shoshmay tur, maktabga borasan-u, ana shunda sening ta'ziringni berishadi) qo'rqitishlari va ogohlantirishlari natijasida ham aytishlari mumkin. Bu jihatdan kattaroq bolalarning o'zlaridan kichikroq bolalarga o'z tajribalarini o'tkazishlari ham anchagina ahamiyatga ega (Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ukalari va singillariga maktabdagi mushkul ahvollari haqida gapirib berishni juda yaxshi ko'radilar) Shu bilan birga kattalarning qo'pol xatti-harakatlari tufayli paydo bo'lgan yaqqol taassurotlari ham bolaga salbiy ta'sir etadi masalan bolaning akasi televizor ko'rib turgan joyidan otasi sudrab olib chiqib ketadi-da, yig'latib dars tayyorlashga majbur qiladi. Ba'zan esa, chidamsiz, betoqat ona o'zini tutib tura olmay, oddiy narsalarni tushunmaysan, yoki daftarga siyoh tomizding deb g'azab bilan qichqiradi, uni mushtlaydi. Bu hodisa juda muhim bo'lganligi tufayli biz ular haqida batafsil to'xtamoqdamiz. Bo'lajak maktab ta'limiga nisbatan bo'lgan bunday salbiy munosabat o'quvchining ta'lim- tarbiya ishiga kirishishini g'oyat qiyinlashtiradi, o'quvchida ta'limning ijobiy motivlari tarkib tapishiga to'sqinlik qiladi.

Bola maktabga kirishi bilan uning butun hayot tartibi ijtimoiy holati, jamoadagi, oiladagi ahvoli keskin o'zgarib ketadi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish bo'lib qoladi. O'qish bo'lsa, boladan ma'lum uyushqoqlikni, intizomlilikni, anchagina irodaviy zo'r berishlikni talab qiladigan jiddiy mehnatdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi boshlang'ich maktabda bilimlarni o'zlashtirish uc-

hun kuzatuvchanlik, ixtiyoriy esda olib qolish, analiz qilish, umumlashtirish va mulohaza yurita bilishning nisbatan yuksak taraqqiyot darajasiga ega bo'lishi kerak. Bu talablar kun sayin ortib va murakkablashib boraveradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'qituvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchining aqlu-idrok sohibi, tiyrak, sezgir, hatto donishmand inson deb biladi. O'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mo'tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Bola psixik jihatdan o'sishi natijasida uning o'qituvchi mavqeiga munosabati o'zgaradi, chunki unda ongli xati-harakat ehtiyoji tug'uladi. O'quvchida bir tala-lay muommolar, savollar vujudga keladi. U hayotda hamma narsa o'zi o'ylagandek oson emasligini tushuna boshlaydi. Bu savollarga shaxsan o'zi javob topishga intiladi, shu savollarni boshqa odamlarga ham beradi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnat-sevarlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilarlarni shakllantirish lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llashi kerak.

Bola bilan aloqa o'rnatish va ixtiyoriy xulq - atvorning rivojlanish darajasini aniqlash metodikasi

Ushbu metodika L.Krasilnikova tomonidan ishlab chiqilgan, u "Ha" va "Yo'q demagin" deb nomlanadi. Ko'rsatma: Biz sen bilan hozir bir o'yin o'ynaymiz. Men senga savollar beraman, sen ularga javob berasan. Lekin savollarimga "ha" va "yo'q" degan so'zlar bilan javob bermasliging kerak. Masalan, sendan "o'yinchog'ing bormi?" deb so'rasam, sen "ha" demasdan "Menda - o'yinchoq bor" yoki "O'yinchog'im bor" deya javob berishing kerak. Yoki men sendan "Odamlarning qanoti bormi?" deb so'rasam, sen "yo'q" demay, "Odamlarda qanot yo'q deb" javob berishing kerak, tushundingmi?

Metodika materiali 10 ta "ha" javobiga, 10 ta "yo'q" javobiga ega va 5 ta betaraf savoldan iborat.

Savollar

1. Isming nima?
2. Sen o'g'il bolamisan yoki qiz bolamisan?
3. Sen bog'chaga borasanmi?
4. Bog'chaga borish senga yoqadimi? (Bog'chaga bormasa)
Bog'chaga borgin keladimi?
5. Bog'chadan uzoqda turasizlarmi? (Bog'chaga bormasa)
O'rtoqlaring bog'chaga boradimi?
6. Muzqaymoqni yaxshi ko'rasanmi?
7. Muzqaymoq qanday rangda bo'ladi.
8. Qora rangli muzqaymoq yeganmisan?
9. Sen qo'lda yura olasanmi?
10. Sen uchishni bilasanmi?
11. Adajoning qo'g'irchoq o'ynaydilarmi?
12. Kechasi quyosh chiqadimi?
13. Bo'ri quyondan qo'rqadimi?
14. Shifokorga borishdan qo'rqasanmi?
15. Shifokor kiyimi qanday rangda?
16. Shifokorlar bolalarning sochini oladimi?
17. Sening isming... mi? (Boshqa ism aytiladi)
18. Sigir uchishni biladimi?
19. Sen hozir uxlayapsanmi?
20. Sen maktabga borasanmi?
21. Hozir boshingda qalpog'ing bormi?
22. Qishda o't bo'ladimi?
23. O't oq rangda bo'ladimi?
24. Qor qanday rangda bo'ladi?
25. Qor issiqmi?

Natijalarni baholash

To'g'ri javoblar – qoida buzilmay berilgan javoblar.

Noto'g'ri javoblar – qoidani buzib berilgan javoblar.

Eslatma: bolaning sukut saqlashi, bosh silkitishi, xatosini to'g'rilashi to'g'ri javob bo'lib hisoblanadi. To'g'ri javoblar miqdori 11 tadan kam bo'lmasligi kerak.

Eslatma: metodikani o'tkazish vaqtida bolaga javobining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida ma'lumot bermaslik kerak.

Tayanch iboralar:

obyektiv, subyektiv, jismoniy, psixik tayyorlash, jarayonlarini tayyorligi, psixik o'sish.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Bog'cha va maktab yoshidagi bolalarni kuzatish, ular o'rtasidagi farqni aniqlash.
2. Maktabga tayyorlash psixodiagnostikasini bajarish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bog'cha yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanish bosqichlari.
2. Bog'cha yoshidagi bola faoliyatining psixologik xususiyatlari.
3. Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanish davrida nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanishi.
5. Bolalarning maktabga psixik tayyorlash bosqichlarini ayting.
6. Bolani maktab muhitiga moslashtirishda o'qituvchining tutgan o'rni.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik jihatdan tekshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirish tamoyillari va metodlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirishning maqsadi – bolaning ruhiy rivojlanishi, hamda psixik funksiyalarining holatiga baho berishdir.

Psixolog bolada tekshiruv o'tkazayotganda, u bilan yaxshi munosabatda bo'lishi, eksperimentlar vaqtida bolani kayfiyatini ko'tarib, uni maqtab yaxshi so'zlarni aytishi kerak.

Psixologik va pedagogik tekshirishning asosiy metodi: hujjatlarni o'rganish, bola bilan suhbatlashish, uning ota-onasi bilan ham suhbat o'tkazish, bolani kuzatish va test o'tkazishdan iborat.

Psixologik eksperimentlarni o'tkazishdan avval psixolog bolaning anamnezi va boshqa hujjatlari: bolaning daftarlari, chizgan rasmlari, psixologik xarakteristika va hokazolar; tibbiy tekshirishlar: eshitishi, ko'ruv apparati, tayanch harakat apparati, bolaning

nutqiy holatini yaxshi bilgan psixolog to'g'ri tekshirish ishlarini olib boradi.

Ota-ona bilan suhbat davomida psixolog bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ota-ona bolasi bilan har kuni muloqatda bo'lganligi uchun, farzandini yaxshi bilishadi, shu bois birga suhbat davomida psixolog ularning bolaga bo'lgan munosabatini bilib oladi.

Psixolog bola bilan alohida suhbatlashayotganda savollarni uning yoshiga moslab, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda berishi kerak.

Kuzatish bolani tekshirish davomida olib boriladi.

Bolani psixologik rivojlanishini chuqurroq o'rganish uchun eksperiment tekshiruv metodini olib borish zarur. Eksperiment vaqtida bola haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Eksperimental tekshirishlarni o'tkazishda ushbu tamoyillarga tayanish lozim:

– psixologik ta'limni modellashtirish, bola buni hayoti davomida amalga oshiradi (o'qish, o'yin);

– bolaga beriladigan vazifa uning yoshiga va bilimiga tayanган holda bo'lishi kerak;

– tahlil samarali bo'lishi uchun bolaning barcha ruhiy holatini ko'rish zarur, o'zining faoliyatiga va natijalariga munosabati, uni bajarish va davomiylik sur'ati va hokazo.

Eksperimentlarni o'tkazishda bitta yo'nalishdan emas, balki bir necha bir-biriga yaqin bo'lgan usullarni tanlash kerak.

Kuzatishning maqsadini va bola haqida olindan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Vaziyatga ko'ra faqatgina bolaning qobiliyatini baholash uchun tekshirish o'tkazilayotganday taassurot qoldirish kerak.

Topshiriqlarni bajarishda to'g'ri yoki noto'g'riligini qayd etib qolmasdan, unga muammolarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatish kerak.

Bola uchun qiziqarli bo'lishi uchun soddaroq vazifalardan boshlab, murakkabroq topshiriqlarga o'tish mumkin. Bolada charchash, sustlik kuzatilsa, darhol osonroq topshiriq berish kerak yoki biroz dam oldirish kerak. Psixolog bilan bola stolda o'tirib suhbatlashganidan ko'ra, yonma-yon o'tirib suhbatlashishi bolaga ancha qulay. Bolaning ruhiy rivojlanishi va nuqsoniga qarab (eshitishida,

ko‘rishida, tayanch harakat a‘zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalarga maxsus apparatlar yordamida) sharoit yaratish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirish metodikalari

№	Metodikalar	Yoshlari			
		3-4	4-5	5-6	6-7
	1	2	3	4	5
1.	Qatoriga qo‘yish				
2	Namunaga qarab qurish a) 4 elementdan iborat b) 5 elementdan iborat v) 6 va undan ko‘p elementdan iborat	+	+	+	+
3	Klassifikatsiya			+	+

Qatorga qo‘y

Maqsad: kattalikni idrok etish darajasini, ko‘rgazmali-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.

Jihoz: olti qismli matryoshka.

O‘tkazish usuli: eksperiment o‘tkazuvchi bolaning ko‘zi oldida matryoshkalarni ajratib, ularni bir-biriga mosi bilan qo‘yib chiqadi. Keyin matryoshkalarni katta-kichikligiga qarab, orasida bir xil interval saqlagan holda qo‘yib chiqadi. Bundan so‘ng tekshiruvchi matryoshkalar qatorini ekran bilan bekitib, bittasini olib qo‘yadi, so‘ngra ekran olinadi va matryoshkaning joyini topib qo‘yish taklif etiladi.

Agar bola topshiriqni bajara olmasa, unga yordam ko‘rsatiladi. Avval so‘z ko‘rsatmasi orqali: “Yaxshilab qara, ushbu matryoshka qayerda turishi kerak?” yoki imo-ishora orqali matryoshkaning joyini topish so‘raladi. Agar bu yordam samara bermasa, unda o‘rgatuvchi yordam beradi: har bir keyin turgan matryoshka o‘zidan oldinda turganidan kichikroq ekanligi tushuntiriladi. O‘rgatilgandan so‘ng, bolaga matryoshkaning joyini topib qo‘yish topshirig‘i yana 2-3 marotaba beriladi.

Bajarish me‘yori:

4-5 yoshda maqsadga qaratilgan urinishlar va amaliy chamalashga tayanib;

5-6 yoshda amaliy chamalash, ko‘z bilan solishtirish;
6-7 yoshda ko‘z bilan chamalab bajarish.

Namunaga qarab qurish

Metodikaning yo‘nalishi: shakl haqidagi tasavvurlarning, ko‘ruv-fazoviy analiz va sintezning (shakllarni alohida elementlarga ajratish va ulardan bir butun shaklni sintezlash) shakllanganligini tekshirish.

Jihoz: 20 ta sanoq cho‘plari.

Bajarish usuli: 3-4 yoshli bolalarga verbal (nutqiy) ko‘rsatmaga tayangan holda geometrik shakllar (uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat) qurish va ularni har birini nomini aytish so‘raladi.

5-6 yoshli bolalar uchun xotirasiga tayanib cho‘plardan murakkab-roq shakllar (uycha, bir-birini ustiga qo‘yilgan romblar, narvoncha va hokazo) yasash taklif etiladi. Pedagog shirma orqasida biror shakl yasaydi va bolaga ko‘rsatadi, so‘ngra buzib tashlaydi yoki berkitib qo‘yadi, bola esa xotirasi bo‘yicha shaklni qurishi kerak. Qurgan shaklini so‘z bilan aytib berishi zarur.

Bolada qiyinchilik kuzatilsa, unga shaklni qurish yo‘li yoki shaklni yana bir bor ko‘rsatish orqali yordam beriladi. Agar bu yordam ham samara bermasa, yana bir bor qurib ko‘rsatiladi va namunaga qarab topshiriqni bajarish so‘raladi.

Bajarish natijalarining tahlili:

3-4 yoshda ko‘z bilan chamalab;

4-5 yoshda amaliy chamalash, namunaga qarab bajarish;

5-6 yoshda amaliy chamalash va ko‘rib solishtirish.

Predmetlarning klassifikatsiyasi

Maqsad: mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasini (umumlashtirish va mavhumlashtirish qobiliyati, umumlashtiruvchi tushunchalarning shakllanganligini) tekshirish.

Jihoz: o‘yinchoqlar, kiyimlar, hayvonlar, o‘simliklar, idish-tovoqlar, mebellar, transportlar va hokazolar tasvirlangan predmetli rasmlar.

O‘tkazshi usuli: bolaga rasmlar to‘plami beriladi va taklif etiladi: “Ushbu kartochkalardan bir-biriga mosini topib, stol ustiga qo‘yib chiq”. 10-15 kartochka qo‘yib chiqilgandan so‘ng so‘raladi: “Nima uchun ushbu kartochkalar bu qatorda? Bular esa nimaga boshqa qatorda?” (bolaning

umumlashtirish ko'nikmasi va harakatlarini so'zda ifodalay olishi aniqlanadi). Yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rilanadi va kartochkalarni joylash qoidasi tushuntiriladi ("idishlarni birinchi qatorga, Hayvonlarni ikkinchi qatorga qo'y"), So'ngra bolaga topshiriqni davom ettirish taklif etiladi.

Agar bola topshiriqni qabul qilmasa, uni klassifikatsiyalash usuliga o'rgatiladi. Boladan tekshiruvchi nima uchun ushbu kartochkalarni bu qatorga qo'yish kerakligini, boshqalarini bu qatorga qo'yish lozimligini tushuntiradi. So'ngra o'zi mustaqil bajarishini taklif etadi.

Bajarish me'yori: 5 yoshli bolalar topshiriqni harakat asosida, umumlashtirish usulini funksional darajada aniqlab bajaradilar. 6 yoshdan boshlab mavhum kategoriyalarni qo'llaydilar.

Psixologiya fanidan test topshiriqlari

A-VARIANT

1. Psixologiya fani qachon va qayerda vujudga keldi:

- A) Bundan 2-2,5 ming yillar avval qadimgi Gretsiyada.
- B) Bundan 2 ming yillar avval qadimgi Olmoniyada.
- C) Bundan 1,5 ming yillar avval qadimgi Gretsiyada.
- D) Bundan 2,5 ming yillar avval O'rta Osiyoda.

2. Psixika bu ...

A) Obyektiv olamning subyektiv tarzi, voqelikning miyadagi aksi hisoblanadi.

B) Subyektning ichki psixik holatiga tashqi ta'sirotlar natijasida ro'y bergan o'zgarishlar hisoblanadi.

C) Kishining xulq-atvori, xatti-harakatlari hisoblanadi.

D) Ijtimoiy hayot qonuniyatlari hisoblanadi.

3. Quyidagi berilgan hodisalarning qaysi qatori psixik jarayonlarga tegishli?

A) Miya, his-tuyg'ular, o'ng, diqqat.

B) Xohish, idrok, instinkt, harakat.

C) Sezgi, idrok, xotira, tafakkur, hayol, nutq.

D) Qobiliyat, xarakter, qiziqishlar, ehtiyojlar.

4. Hozirgi kunda psixologiyaning tarmoqlari qancha?

A) 300dan ortiq; B) 100 dan ortiq; C) 200 dan ortiq; D) 50 dan ortiq;

5. Psixik normal rivojlanmagan, tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar ta'sirida bo'idan insonlarni psixologiyaning qaysi tarmog'i tadbiq qiladi?

- A) Qiyosiy psixologiya; B) Maxsus psixologiya;
C) Yosh davrlari psixologiyasi; D) Pedagogik psixologiya.

6. Psixik holatlarni aniqlang ?

- A) diqqat, e'tiborlilik, parishonlik, quvnoqlik, g'azablanish, temperament;
B) sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq;
C) affekt, qat'iylik, stress, bardamlik, tetiklik, hayratlanish, o'zini tuta bilish;
D) sezgirlik, sabr-toqat, iltifot, g'am-g'ussa, shodlik.

7. Psixologiya qaysi fanlar bilan bog'langan?

- A) Pedagogika, ijtimoiy fanlar, bolalar psixologiyasi;
B) Falsafa, sotsiologiya, pedagogika, tabiiy fanlar, iqtisodiyot, texnika fanlari;
C) Umumiy, sotsial, yuridik, savdo, harbiy, yosh davrlari psixologiyasi;

- D) Defektologiya, biologiya, fiziologiya, kimyo, anatomiya.

8. Evolutsion taraqqiyot bosqichlari nechta?

- A) 2 ta; B) 3 ta; C) 4 ta; D) 6 ta.

9. Ko'nikmalar harakatning qaysi shakliga kiradi?

- A) Harakatning individual shakliga;
B) Harakatning instinktiv shakliga;
C) Harakatning intellektual shakliga;
D) Harakatning birlamchi shakliga.

10. Ong ta'riflari to'g'ri berilgan qatorni ko'rsafing?

- A) Mustaqillik, ongsizlik, obyekt va subyekt;
B) Ixtiyoriy - ixtiyorsiz;
C) Obyekt va subyekt, ong- anglash, maqsadini ko'zlovchi faoliyat, hissiyotlar olamidagi murakkab munosabatlar;
D) Ataylab qilingan va ataylab qilinmagan.

11. Evolutsion taraqqiyot nima?

- A) Tirik organizmlarning dastlab paydo bo'lgan davridan boshlab odamgacha bo'lgan rivojlanish yo'li;
B) Taraqqiyotning chirish va yemirilish yo'li;
C) Tabiat vajamiyatdagi qonunlarning o'zgarishi;
D) Organik materiyaning yuzaga kelishi.

12. Reflekslar necha xil bo'ladi?

- A) 2 xil: shartli va shartsiz;

B) 3 xil: orttirilgan, shartli va shartsiz;

C) 1 xil: markaziy;

D) 2 xil: markaziy va periferik.

13. Shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.

A) O'qituvchi va tarbiyachilar jamoasi;

B) Irsiyat, ijtimoiy, muhit, ta'lim-tarbiya. shaxsiy faollik;

C) Oila, mahalla jamoasi, mullat, maktab jamoasi;

D) Katta va kichik guruhlar.

14. E'tiqod deb nimaga aytiladi?

A) Shaxsning ongli yo'nalishini belgilab beruvchi, o'z qarashlari, prinsiplari, dunyoqarashiga mos tarzda yashashiga imkon beruvchi xususiyatlar yig'indisiga;

B) Milliy g'oya, milliy xarakter, milliy ong;

C) Kishining nimagadir e'tibor berishga, predmet yoki hodisani bilishga intilishiga;

D) Insonning xulq-atvorini uning bog'lanishi, yo'nalishi, faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar yig'indisiga.

15. Faoliyatning asosiy turlari to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

A) O'yin, ta'lim, mehnat;

B) Ijtimoiy dam, mehnat;

C) Harakat, jismoniy faollik;

D) Ichki va tashqi faollik.

16. Malaka nima?

A) Avval ongli bajarilib, keyinchalik avtomatlashgan ish-harakatlar;

B) Odamning qalbiga juda chuqur o'rinish olib, uning ehtiyojiga aylangan harakatlar;

C) I va II signallar sistemasidagi muvaqqat bog'lanishlar;

D) Murakkab bilimlar asosida hosil qilingan mayllar.

17. Mehnat faoliyati turlari to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.

A) Aqliy, jismoniy; B) Malakaviy, amaliy;

C) Maqsadli, mazmunli; D) Axloqiy, nazariy.

18. I.P.Pavlov sezgilarning paydo bo'lishini ta'minlovchi barcha fiziologik apparatlarni qanday atagan?

A) Assotsiastiyalar;

B) Retseptorlar;

C) Analizatorlar;

D) Afferent nerv yo'llari.

19. Qorin ochlik, tashnalik, og'riq sezgilari qaysi sezgi turiga kiradi?

A) Organik;

B) Vibratsiya;

C) Kinestetik;

D) Harakat.

20. Analizatorlar necha qismdan iborat?

A) 3 qism: retseptorlar, nerv yo'llari, maxsus hujayralar;

B) 2 qism: o'tkazuvchi nerv yo'llari, maxsus hujayralar;

C) 1 qism: eksteroretseptorlar;

D) D) 3 qism: Analitik, sintetik, umumiy.

21. Narsa va hodisalarni rejali, izchil, ma'lum maqsadni ko'zlab idrok qilish deyiladi.

A) Idrok;

B) B) Diqqat;

C) C) Kuzatish;

D) D) Tafakkur.

22. Illuziya so'zining ma'nosi?

A) xato, yanglish;

B) tanish, esga olish;

C) moslashish;

D) alahlash, valdirash.

23. Xulosa chiqarish nech turga bo'linadi:

A) 3 turga: Tushuncha, hukm, xulosa;

B) 3 turga; Analogiya, induksiya, deduktsiya;

C) 2 turga; Konkret, Abstrakt;

D) 2 turga; Umumiy, yakka.

24. Nutqning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) I signallar sistemasi faoliyati;

B) Anatomo-fiziologik mexanizmlar;

C) Dinamik stereotiplar ;

D) II signallar sistemasining murakkab faoliyati.

25. Xotira jarayonlarini korsating.

A) Esga olish, tanish, unutish;

B) Moslab tanib olish, aks ettirish;

C) Ixtiyoriy, ixtiyorsiz, shartli;

D) Esda olib qolish, esda saqlab turish, qayta esga tushirish, unutish.

26. Xotira deb...

A) Oldindan egallangan taassurotlarni esda saqlashga aytiladi;

B) Kishining sezgi va idroklari asosida o'z tajribasini boyitish qobiliyatiga aytiladi;

C) Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalari, esda olib qolish, esda saqlab turish hamda keyinchalik esga tushirish va unutishdan iborat psixik jarayonga aytiladi;

D) Oldin egallangan tajribalarni amaliy faoliyatda qo'llash, esda saqlash va esga tushirishga aytiladi.

27. Ilgari idrok qilgan va qilmagan narsa va xodisalarni yaratishdan iborat bo'lgan psixik jarayon.. deb ataladi.

A) Tasavur;

B) Xotira;

C) Fantaziya;

D) Xayol.

28. Xayol jarayonlari to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.

A) Tiklovchi, ijodiy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz;

B) Agglyutinatsiya, giperbolizatsiya, tipizatsiya, sxematizatsiya;

C) Fantaziya, orzu;

D) Integratsiya, mehanizatsiya, induksiya.

29. Hissiyotlarning shakllarini ko'rsating

A) Shaxsiy mayllar, qiziqishlar, stenik-astenik emotsiyalar;

B) Emotsional ton, affekt, stress, ehtiros, kayfiyat;

C) Hissiy, irodaviy, faol, davomiy; D) Intensiv - davomiy, aktiv-passiv.

30. Yuksak hislar berilgan qatorni ko'rsating

A) Ma'naviy, intellektual, nafosat;

B) Axloqiy, aqliy, ma'naviy;

C) Muhabbat, burch, do'stlik;

D) Burch, vijdon, e'tiqod.

31. Kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik holat...

A) Idrok;

B) Tafakkur;

C) Iroda;

D)Xarakter.

32. Ixtiyorsiz diqqat qanday hosil bo'ladi?

A) To'satdan ta'sir etib, bizning xohishimizdan tashqarida hosil bo'ladi;

B) Qat'iy maqsad asosida hosil bo'ladi;

C) Irodaviy zo'riqish asosida hosil bo'ladi;

D) Diqqatning to'planishi asosida hosil bo'ladi.

33. Diqqat deb ... aytiladi?

A) Ongning narsa, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to'planishiga;

B) Shaxsning konkret shart-sharoitlarga qaramligiga;

C) Shaxsning xulq-atvorini, bog'lanishi, yo'nalishini tushuntirib beruvchi sabablar yig'indisiga;

D) Ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan ichki turtki kuchlarga.

34. Jonli mavjudot hayot kechirishining konkret shart-sharoitlarga qaramligini ifoda etuvchi va unga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat nima deyiladi?

A) Qiziqish;

B) Ehtiyoj;

C) Motivatsiya;

D) Faoliyat.

35. Tug'malik alomatlari bor individual sifatlar qanday ataladi?

A) Intellekt;

B) Layoqat;

C) Daholik;

D) Qobiliyat.

36. Qobiliyat bu...

A) Kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayon

B) Tug'malik alomatlari bor individual sifatlar

C) Shaxsiy bilim, ko'nikmalar va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab olishdan iborat bo'lgan psixik sifatlar

D) Aql-idrokning o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib boradigan xususiyatga

37. His-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlar yig'indisi ... deyiladi:

- A)Xarakter;
- B)Temperament;
- C)Iroda;
- D)Hissiyot.

38. Xolerik temperamentli bolaga ta'rif bering:

- A)ziyrak, beqaror, shoshqaloq, qat'iyatsiz;
- B)Arazchi, shoshqaloq, shiddatli, tez, urushqoq
- C)qat'iyatsiz, beparvo, indamas, bo'sh;
- D) beparvo, sekin, turg'un, barqaror

39. Xarakter bu

A)Kishining aqliy, emotsional va irodaviy xislatlariga bog'liq bo'lmagan xususiyatlari;

B)Kishining voqelikka bo'lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulqi harakatida ta'sir qoldiradigan psixik xususiyatlar yig'indisi;

C) His-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlar yig'indisi;

D)Shaxsiy bilim, ko'nikmalar va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab olishdan iborat bo'lgan psixik sifatleri.

40.Yosh davrlar psixologiyasi nimani o'rganadi?

A) Bola tug'ilgandan maktab yoshiga yetgunga qadar psixik taraqqiyotini va psixik xususiyatlarini o'rganadi;

B) Ilk yoshlik davridagi psixik xususiyatlarini o'rganadi;

C) Bog'cha yoshi davridagi psixik xususiyatlarini o'rganadi;

D)Tug'ilgandan to umrining oxirigacha bo'lgan rivojlanishni o'rganadi.

B-VARIANT

1. Psixologiya qaysi so'zdan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

A) Lotincha "psyche" - hodisa, "logos"- fan;

B) Grekcha "psyche" -jon, "logos"- o'rgataman;

C) Yunoncha “psyche”-ruh, jon. “logos”- fan, ta’limot;

D) Nemischa “psyche” - ruh, “logos”-hodisa.

2. Psixik xususiyatlar to’g’ri berilgan qatorni ko’rsating.

A) Xarakter, hissiyot, tafakkur, qiziqishlar;

B) Temperament, xarakter, tafakkur, xotira;

C) Qiziqishlar, xarakter, temperament, qobiliyat;

D) Sezgi, idrok, xotira, tafakkur, hayol, nutq, diqqat.

3. Psixologiya fani nimani o’rganadi?

A) Odam psixikasini, odam psixik faoliyatining qonuniyatlarini, fakt va mexanizmlarini o’rganadi;

B) Amaliyotchi psixologlar ishini o’rganadi;

C) Odamning psixik taraqqiyotini o’rganadi;

D) Obyektiv hodisalarning mohiyati va imkoniyatlarini o’rganadi.

4. “Ta’lim to’g’risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”ni amalga oshirishda psixologiya fanining qaysi fan bilan aloqasi har qachongidan ham dolzarb qilib qo’yilgan?

A) Falsafa;

B) Iqtisodiyot;

C) Pedagogika;

D) Sotsiologiya.

5. Hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushunish qiyin bo’lgan psixik hodisalarni o’rganuvchi soha qanday ataladi?

A) Parapsixologiya;

C) Harbiy psixologiya;

B) Boshqaruv psixologiyasi;

D) Siyosiy psixologiya.

6. Psixik normal rivojlanmagan, tug’ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar ta’sirida bo’idan insonlarni psixologiya-ning qaysi tarmog’i tadbiiq qiladi?

A) Qiyosiy psixologiya;

B) Maxsus psixologiya;

C) Yosh davrlari psixologiyasi;

D) Tibbiyot psixologiyasi.

7. Ong bu...

A) Psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli, ijtimoiy taraqqiyot mahsuli;

B) Anglash, bilish, o’rganish demakdir;

C) Tabiatning tarkibiy qismi;

D) Evolutsion qonunlar ta’sirida ro’y beradigan o’zgarishlar.

8. Harakatning intellektual shakli bu...

- A) Shartsiz reflekslar bilan bog'liq harakatlar;
- B) Muhit o'zgarishlariga moslashish;
- C) Shartli relekslar bilan bog'liq harakatlar;
- D) Fahm-farosat bilan bog'liq bo'lgan aqliy harakatlar.

9. Refleks nima?

- A) Oliy nerv faoliyatining tuzilishi;
- B) B)Sezgi a'zolarining sezuvchanlik darajasi;
- C) Odam organizmining tashqi muhitga moslashuvi;
- D) Organizmning tashqi muhit ta'siriga nerv sistemasi orqali beradigan javob reaksiyasi.

10. Shaxs deb nimaga aytiladi?

- A) Ajralmas, alohida zot;
- B) Katta yoshdagi ruhiy sog'lom odam;
- C) Insoniyatga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan inson;
- D) Kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy bo'lgan, o'z e'tiqodiga, qarashlariga, munosabatlariga, baholariga ega bo'lgan subyekt.

11. Sharq mutaffakkirlari talqinida Komil Inson tarbiyasi dunyoqarash va e'tiqod ustuvorligiga ko'ra izohlanadi. Dunyoqarash nima?

A) Tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan, shaxsni ma'lum qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlovchi tasavvurlar va g'oyalar majmuyi;

B) Shaxsning shaxsligini- ma'naviyatini ko'rsatuvchi motivlar yig'indisi;

C) Ijtimoiylashuvi darajasi;

D) Shaxsning ongli yo'nalishini belgilab beruvchi, o'z qarashlari, prinsiplari, dunyoqarashiga mos tarzda yashashiga imkon beruvchi xususiyatlar yig'indisiga.

12. Faoliyat deb... aytiladi

- A) Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoniga;
- B) Ruhiy jarayonlar, holatlar, xususiyatlarga;
- C) Biologik omillarga;
- D) Tug'malik alomatlar bor bo'lgan belgilarga.

13. Sezgi guruhlari to'g'ri ajratilgan qatorni belgilang.

- A) Muskul-harakat, kinestetik;
- B) Tashqi va ichki;
- C) Eksteroretseptiv, proprioretseptiv, interoretseptiv;
- D) Organik, statik.

13. Shaxs ishongan, o‘zaro sirdosh va normalarini ma’qullaydiga va xatti-harakatlaridan andozalar oladigan guruh turi:

- A) aralash;
- B) rasmiy;
- C) negativ
- D) referent.

15. Odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta’sir etganda ulardagi ayrim hossalarning aks ettirilishi deyiladi.

- A) Idrok;
- B) Sezgi;
- C) Diqqat;
- D) Tafakkur.

16. Sezgi organlariga ta’sir etib turgan narsa va xodisalar-ning yaxlitligicha aks ettirilishi ...deyiladi.

- A) Sezgi;
- B) Idrok;
- C) Diqqat;
- D) Xotira.

17. Sezgi a’zolariga ta’sir etib turgan narsalarni noto’g’ri, buzib idrok qilish nima deb ataladi?

- A) Persepsiya;
- B) Appersepsiya;
- C) Illuziya;
- D) Gallutsinatsiya.

18. “Perceptio” so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi?

- A) Lotin tilida “qabul qilish, idrok”;
- B) Grek tilida “nisbatan”, “idrok”;
- C) Lotin tilida, “oziga tortish”;
- D) Lotin tilida, “yaqqol ko‘rish”.

19. Tafakkur nima?

A) Tafakkur bu – ruhiy xayotimizning eng murakkab formalaridan biridir;

B) Tafakkur bu – narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishidir;

C) Tafakkur o‘ylash, mulohaza yuritish, muhokama degan ma’nolarni bildiradi;

D) Tafakkur bo‘lishi uchun sezgi, idrok, tasavvur jarayonlari bo‘lishi kerak.

20. Tafakkur operatsiyalarini ko‘rsating

A) Tushuncha, hukm, xulosa.

B) Analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish, sistemalashtirish, tasniflash.

C) Ko‘rgazmali-obrazli, ko‘rgazmali-harakat, mantiqiy.

D) Konvertgent, divergent, produktiv, reproduktiv.

21. Xulosa chiqarish deb nimaga aytiladi?

A) Ikkita hukmdan uchinchi bir yangi hukmni keltirib chiqarishga;

B) Biron narsani tasdiqlashga yoki inkor qilishga;

C) Ikkita narsani taqqoslab, ular o‘rtasidagi o‘xshashlikni topish;

D) Narsalarni fikran ayrim elementlarga, qismlarga ajratish;

22. Nutq deb....

A) Kishilarning til vositasida o‘zaro to‘plagan boyliklariga;

B) Kishilarning til vositasida o‘zaro munosabatda bo‘lish jarayoniga;

C) Shaxsning taraqqiyot davrlariga;

D) D)Faoliyat jarayonidagi suhbatga.

23. Xotira turlarini ko‘rsating.

A) Harakat, emotsional, obraz, so‘z-mantiq;

B) Ixtiyoriy va ixtiyorsiz;

C) Ko‘rgazmali, mantiqiy, izchil;

D) Fenomenal xotira

24. Xotira tasavvurlari deb nimaga aytiladi?

A) Ilgari idrok qilingan, hozir ko‘z oldimizda bo‘lmagan obrazlarni ongimizda gavdalandirish;

B) Ilgari idrok qilinmagan obrazlarni o‘ngimizda yaralish;

C) Ilgari idrok qilingan narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlik;

D) Ilgari idrok qilingan va qilinmagan obrazlar yaratish.

25. Kishi tomonidan ataylab kashf qilinadigan, hayotda gavdalantirishga yo'naltirilgan xayolning obrazlari

A) Shirin xayol deyiladi;

B) Orzu deyiladi;

C) Fantaziya deyiladi;

D) Tiklovchi xayol deyiladi.

26. Kishining o'zi bilgan va bajarayotgan narsaga o'z munosabatini boshdan kechirishi nima deb ataladi?

A) Iroda;

B) Xayol;

C) Xissiyot;

D) Xotira.

27. Emotsiya so'zining manosi nima?

A) Lotincha "qo'rquvni his qilish";

B) Lotincha "ruhiy qo'zg'alish, hayajonga solish";

C) Yunoncha "sezish";

D) Yunoncha "his qilish".

28. Iroda bu...

A) Kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayon;

B) Kishining voqelikka bo'lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulqi harakatida ta'sir qoldiradigan psixik xususiyatlar yig'indisi;

C) Ataylab qilingan va ataylab qilinmagan harakatlar;

D) Insonning xulq-atvorini uning bog'lanishi, yo'nalishi, faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar yig'indisi.

29. Qaysi qatorda hissiyotga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) Kishining tevarak-atrofdagi olamga munosabatiga hissiyot deyiladi;

B) Olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatimizning va bu munosabatlarga nisbatan bo'ladigan ichki kechinmalari-mizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi;

C) Kishining tevarak-atrofga bo'lgan munosabatlariga aytiladi;

D) Ichki a'zodardagi aniq harakat va o'zgarishlarni kechishi va uni anglashga aytiladi.

30. Diqqat xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan ?

- A) Jamlanishi, tor yoki kengligi, kuchi;
- B) Ko'lami, kuchi va barqarorligi, bo'linuvchanligi, ko'chuvchanligi, taqsimlanishi;
- C) Bevosita va bilvositaligi;
- D) Qo'zg'aluvchan va tormozlanuvchanligi.

31. Qiziqish nima?

- A) Ehtiyojlarning moddiy va ma'naviy qondirilishi;
- B) Shaxsning faolligi;
- C) Shaxsning obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni bilish, anglash istagi bilan bog'liq bo'lgan munosabati;
- D) Ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan ichki turtki kuchlari.

32. Qiziqish turlarini aniqlang:

- A) Shaxsiy, ijtimoiy, bevosita, bilvosita, ma'naviy, estetik;
- B) Shaxsiy, ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, sport;
- C) Moddiy, ma'naviy, shaxsiy, ijtimoiy, estetik, keng va tor;
- D) Shaxsiy, ijtimoiy, intellektual, estetik, sport, bevosita, bilvosita, keng va tor, barqaror va beqaror.

33. Qobiliyat turlarini ko'rsating.

- A) Tabiiy, ijtimoiy;
- B) Umumiy, maxsus;
- C) Shaxsiy, ma'naviy;
- D) Pedagogik, didaktik.

34. Geniallik (daho) darajasiga ega bo'lgan shaxsni aniqlang:

- A) Abdulla Oripov;
- B) Alisher Navoiy;
- C) O'rol Tansiqboev;
- D) Shukur Burxonov.

35. Temperament deb nimaga aytiladi

- A) his-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlarning majmuiga aytiladi;
- B) xulq atvori va xatti-harakatida namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlariga aytiladi;
- C) xissiyotlarining shiddat bilan namoyon bo'lishida va

harakatlarining keskinligi bilan ajralib turadigan inividual-psixologik xususiyatlarning majmuiga aytiladi;

D) insonlarning tana suyuqligining nisbatiga aytiladi.

36. Temperamentni organizmdagi suyuqlik miqdoriga ko'ra 4 tipga ajratgan birinchi faylasuf kim?

A) Gippokrat;

B) C) Abu Nasr Farobiy;

C) B)Arastu;

D) D) Abu Ali ibn Sino.

37. Sustkashlik, beparvolik, beg'amlik, shoshilmaslik, fikrlarning kengligi, ishni puxta bajarish kabi xususiyatlar qaysi temperament tipiga tegishli?

A) Flegmatik;

B) Melanxolik;

C) Xolerik;

D) Sangvinik.

38. Kishining voqelikka bo'lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulqi harakatida ta'sir qoldiradigan psixik xususiyatlar yigindisi...deyiladi.

A) Xarakter;

B) B)Temperament;

C) C)Qobiliyat;

D) D) Xotira.

39. Bola psixikasining taraqqiyot davrlari to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

A) Ilk yosh, go'daklik, chaqaloqlik, o'smirlik, o'rta maktab yosh;

B) Bog'cha yoshi, kichik maktab yoshi;

C) Go'daklik, ilk yosh, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik;

D) Chaqaloqlik, ilk yosh, kichik maktab yoshi, o'smirlik.

40. Yosh davrlar psixologiyasi nimani o'rganadi?

A) Bola tug'ilgandan maktab yoshiga yetgunga qadar psixik taraqqiyotini va psixik xususiyatlarini o'rganadi;

B) Ilk yoshlik davridagi psixik xususiyatlarini o'rganadi;

C) Bog'cha yoshi davridagi psixik xususiyatlarini o'rganadi;

D) Tug'ilgandan to umrining oxirigacha bo'lgan rivojlanishni o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YHATI:

1. F. N. Gonobolin “O‘qituvchi haqida qissa” – Toshkent, “O‘qituvchi”.
2. P. I. Ivanov “Umumiy psixologiya” – Toshkent, “O‘qituvchi”
3. P. I. Ivanov “Ta’limning psixologik asoslari” – Toshkent
4. E. G‘oziyev “Psixologiya” (Yosh davrlar psixologiyasi). Toshkent. 1994-yil.
5. E. G‘oziyev “Psixologiya”. Toshkent 2003-yil.
6. M. Davletshin “Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya”. Toshkent. “O‘qituvchi”.
7. P. Leventuyev “O‘quvchilar mehnat tarbiyasining psixologik asoslari”. Toshkent. “O‘qituvchi”.
8. “O‘qituvchi odobi”
9. V. A. Kruteskiy “Pedagogik psixologik asoslari”
10. M. G. Davletshin “Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya”
11. A. B. Petrovskiy “Umumiy psixologiya”-Toshkent, 1991-yil.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.
13. A. Karimova, Akramova “Psixologiya” (ma’ruzalar matni), 2000-y.
14. B. Vohidov “Bolalar psixologiyasi”-Toshkent, 1989-yil.

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH	5
Psixologiya fani haqida umumiy tushuncha	5
Hozirgi zamon psixologiya fanining vazifalari, tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi.....	10
Psixologiya fanining metodlari	15
Miya va psixika.....	22
Psixikaning paydo bo‘lisi va rivojlanishi.....	29
Shaxs	36
Guruh va jamoalar.....	43
Faoliyatning psixik tahlili	47
Faoliyat turlari va ularni bolalarda rivojlanishi.....	51
Sezgi.....	59
Idrok	63
Siz kuzatuvchanmisiz?	72
Xotira.....	74
Tafakkur	90
Nutq.....	106
Xayol.....	115
Iroda	124
Test-so‘rovnoma.....	130
His-tuyg‘u	133
Ehtiyoj, mayl va qiziqishlar	144
Qobiliyat.....	153
Temperament.....	158
Xarakter.....	164
Sizning xarakteringiz?.....	170
Diqqat.....	171
II bob. YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI	182
Bola shaxsining rivojlanishida ta‘lim-tarbiya, muhit va shaxsiy faollikning tutgan o‘rni.....	182
Chaqaloqlik davrining jismoniy rivojlanishi.....	188
Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlari.....	195

Ilk yosh davrining jismoniy jihatdan rivojlanishi	201
Ilk yoshdagi bola psixikasining taraqqiyoti.....	207
Ilk yosh davrida nutqning xususiyatlari	216
Maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotining psixologik xususiyatlari	225
Maktabgacha yoshdagi bola taraqqiyotiga umumiy xarakteristika va uning jismoniy jihatdan rivojlanishi.....	225
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishi	230
Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining xususiyatlari.....	236
Bolalarning o'yin faoliyatlari.....	236
Maktabgacha yoshdagi bolalarda psixik jarayonlarining taraqqiyoti.....	256
Bolalarning sezgi va idroklari hamda sensor taraqqiyotlari	256
Idrokni tekshirish	273
Kern-Yersek testi	273
Natijani baholash.....	275
Xotiraning bolalarda rivojlanishi	278
Xotirani rivojlantiruvchi mashqlar	283
Tafakkurning bolalarda rivojlanishi	285
Tafakkurni tekshirish.....	291
Xayolning bolalarda rivojlanishi.....	292
Bolalar nutqini rivojlanib borishi	298
Nutqni tekshirish	304
Hissiyotlarning bolalarda rivojlanishi	304
Irodaviy harakatlarning bolalarda rivojlanishi.....	310
Diqqatning bolalarda rivojlanishi.....	314
Bolalarni maktabga psixik tayyorlash va maktab muhitiga moslashtirish.....	319
Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik jihatdan tekshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirish tamoyillari va metodlari.....	327
Foydalanilgan adbiyotlar ro'yhati:	345

BOLALAR PSIXOLOGIYASI

«NOSHIR» — Toshkent — 2013

Muharrir O.Qanayev
Texnik muharrir D.Mamadaliyeva
Rassom Sh.Odilov
Musahhih S.Safayeva
Sahifalovchi D.Jalilov

Nashriyot litsenziyasi AI № 200, 28.08.2011 y.
Bosishga ruxsat etildi 25.03.2013 y. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.
«Times» garniturası. Ofset qog'ozı. Ofset usulida chop etildi.
Hajmi 21,75 b.t. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 17.

«NOSHIR» nashriyoti, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi
bosmaxonasida chop etildi, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

18000



ISBN 978-9943-4112-2-7



9 789943 411227